TOSHKENT
ARXITEKTURA - QURILISH
UNIVERSITETI

XALQARO ILMIY - AMALIY
ANJUMAN TO'PLAMI

INTERNATIONAL SCIENTIFIC -
PRACTICAL CONFERENCE COLLECTION

"SHAHAR "DIZAYN- KOD"QOIDALARINING SHAKLLANISHI TENDENSIYALARI VA ARXITEKTURA MUHITLARINING USTUVOR MUAMMOLARI"

"CITY "DESIGN-CODE" RULES FORMATION TRENDS AND ARCHITECTURE PRIORITY PROBLEMS OF THE ENVIRONMENT»

designCODE

Toshkent–2023

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE AND INNOVATIONS OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

TOSHKENT ARXITEKTURA-QURILISH UNIVERSITETI

TASHKENT UNIVERSITY OF ARCHITECTURE AND CIVIL ENGINEERING

“SHAHAR "DIZAYN-KOD QOIDALARINING SHAKLANISH TENDENSIYALARI VA ARXITEKTURA MUHITLARINING USTUVOR MUAMMOLARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

2023 yil 20 may

ON THE SUBJECT “TRENDS IN THE FORMATION OF THE RULES OF THE URBAN "DESIGN CODE" AND PRIORITY PROBLEMS OF THE ARCHITECTURAL ENVIRONMENT” INTERNATIONAL SCIENTIFIC-PRACTICAL CONFERENCE

May-20, 2023

Тошкент – 2023

INTERNATIONAL SCIENTIFIC-PRACTICAL CONFERENCE

2022-2023 yillarga mo‘ljallangan Innovatsiya vazirligining AL-5321091567-sonli “O‘zbekiston tarixiy shaharlarining an’anaviy arxitektura va madaniyatini hamda tabiiy-iqlim sharoitlarini hisobga olgan holda hududiy «dizayn-kod»larni ishlab chiqish” amaliy loyihasi doirasida

“SHAHAR "DIZAYN-KOD QOIDALARINING SHAKLANISH TENDENSIYALARI VA ARXITEKTURA MUHITLARINING USTUVOR MUAMMOLARI”

mavzusida
me’morchilik fanlari doktori, professor M.Q. Axmedov xotirasiga bag‘ishlangan



2023-yil 20 may kuni o‘tkazilgan
Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

INTERNATIONAL SCIENTIFIC-PRACTICAL CONFERENCE

Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasida muhokama etilgan ko‘p qirrali masalalar Respublikamizda raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga, arxitetkura va qurilish ta’lim tizimini tubdan yangilashga, ta’lim sifatini oshirishga, loyiha ilmiy tadqiqot institutlari bilan hamkorlikda yirik loyihlarni amalaga oshirishga, jumladan, Respublikamiz shaharlarida hududiy “Dizayn kod” qoidalarini ishlab chiqishga, arxitektura muhitining barqaror rivojlantirish istiqbollari, madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish, O‘zbekistonda turizm infratuzilmasini tashkil etish va rivojlantirish uchun yangi innovatsion takliflar hamda xalqaro tajribalar, shu bilan bir qatorda aholi va ko’plab soha vakillari uchun qulay muhit yaratishga, ilg’or BIM texnologiyalari talablari asosida qurilish sohalarinini rivojlantirishga, ilg‘or xorijiy tajribalar asosida yanada arxitekturani takomillashtirish kabi muhim vazifalarni yuksaltrishga hissa qo‘shadi.

Ilmiy to‘plam arxitektura, qurilish sohasining shaharsozlik, me’moriy yodgorliklarni saqlash va ulardan foydalanish, arxitektura muhiti dizayni, aglomeratsiya jarayonlarini o‘rganish, ekologiya, turizm, energiya tejamkor qurilish materiallari ishlab chiqish, tadqiq qilish va qo‘llash masalalari bilan shug‘ullanuvchi olimlar va tadqiqotchilar, katta ilmiy xodim-tadqiqotchilar, magistrantlar, bakalavrlar, korxonalar, ilmiy-tadqiqot institutlari, muassasa tashkilotlarning muhandis-texnolog xodimlari uchun mo‘ljallangan.

The multifaceted issues discussed at the international scientific-practical conference are preparation of competitive personnel in our country, radical renovation of architecture and construction education system, improving the quality of education, the implementation of large-scale projects in collaboration with design institutes, including territorial "Design Code", the prospects for sustainable development of the architectural environment, protection and use of cultural heritage, new innovative proposals for the organization and development of tourist infrastructure.

Scientific collection of scientists engaged in architecture, urban planning in the field of construction, conservation and use of architectural monuments, architectural environment design, the study of agglomeration processes, ecology, tourism, development, research and application of energy-efficient building materials and is designed for researchers, senior researchers, graduate students, bachelors, enterprises, research institutes, engineering and technological employees of departmental organizations.

TAHRIR HAY’ATI: РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ: EDITORIAL TEAM:

E.Kahya, Z.E. Matniyazov, SH.S. Reyimbaev, SH. X. Yunusov, S.S. Elmurodov, M.A. Yusupova, Z.X. Adilov, Z.M. Sattarov, A.A. Saidov, A.V. Vetlugina, N.S. Buronov, J.X. TAjibayev, D.A. Arziyev. S.S. Saydaliev, A.A.Yaxyaev, I.K. Shoisoev, A.O. Xasanov.

Ushbu to‘plam mualliflarning qo‘lyozmalari asosida o‘zgartirishsiz chop etildi.
Данный сборник публикуется в авторской редакции
This collection is published in the author's edition

© Toshkent arxitektura-qurilish universiteti, 2023.
© Ташкентский архитектурно-строительный университет, 2023.
© Tashkent University of Architecture and Civil Engineering , 2023.

ХОТИРА-АБАДИЙ, ҚАДР-МУҚАДДАС

(Отажоним Ахмедов Мухаммад Қосимович хотирасига бағишлаб)

Сайёра Муҳаммадовна Ахмедова
Тиббиёт фанлари доктори, профессор

Ҳаётда отанинг ҳам, онанинг ҳам, шу билан бирга, фарзаднинг ҳам ўз бурчи ва масъулияти бўлади. Ота-она ўз дилбандини оқ ювиб оқ тараши, ҳар томонлама юксак маънавиятли, илмли ҳамда тарбияли, одоб-ахлоқли қилиб вояга етказиши муҳим бўлганидек, фарзанд ота-онасини ҳаётлигида қадрлаши, қариганда уларга ғамхўрлик қилиши миллий қадриятларимиз сирасига киради.

Фарзанд олдида яна бир муҳим жиҳати борки, бу — падарибузруквори ва волидаси ёруғ дунёни тарк этганидан сўнг уларнинг чироғини ёқиш, уларнинг ҳақларига дуолар қилишдир. Айни шу савобли амалларни амалга оширишда ота дўстлари, ҳамкасблари, шогирдлари ҳам муносиб ҳисса қўшишса нур устига аъло нурдир.

Отам хотирасига бағишлаб ташкил этилган тадбир ҳам у кишининг руҳларини шод этган бўлса ажабмас. Бу бизни ҳам ғоятда қувонтирди. Айни мана шу жиҳат, отамга бўлган меҳрим улар ҳақида дил сўзларни ёзишга ундади.

Очиғи, отам ҳақида хотиранома ёзиш мен учун жуда қийин. Сабаб отам қандай инсон бўлганини тўла-тўкис кўрсата ололмасам керак. Отам сиймосининг кенг кўламлиги, уларнинг ички дунёси теранглиги ҳақидаги тўлиқ тасаввурларимни ушбу хотира ҳажмига сиғдиролмасам керак. Шунинг учун ҳам битикларим ажойиб манзарани бутунлай кўрсатмасдан, унинг фақат кичик маълум қисмини ёритадиган бир деразага ўхшаши мумкин.

Лекин шунда ҳам отам ҳақида сўзлайман. Боиси қиз фарзанди сифатида мен уларни ушбу деразача орқали кўрганман. Отам бошқа инсонларга солиштирганда мен билан қандайдир бошқача тарзда мулоқотда бўлган, деб айтолмайман. Сабаби тасаввуримда улар ҳаммага бирдек, ҳеч кимни ажратмасдан нур сочаётган қуёш сифатида гавдаланади.Шундай одамлар бўлганки, улар келгуси авлод ҳаётига ўзининг босиб ўтган умр йўли, фаолияти, илмий ва адабий асарлари билан қўшимча ҳаёт қўшолган. Менинг отажоним шундай инсонлардан бири, деб ғурур билан айтсам муболаға бўлмайди.

Отам ҳақида гапириш мен учун жуда ҳам оғир. У киши табиатининг ўзига хос ўрнак бўларли жиҳатлари, улар билан боғлиқ баъзи ўгитли воқеалар, уларнинг ҳаётга, одамларга, шогирдлари, фарзандлари, набиралари, келин-куёвларига бўлган муносабатлари, шунингдек, ҳаётий қарашлари ҳақидаги қалбимда муҳрланиб қолган мушоҳадаларим, отажонимга бўлган фахр билан бўлишгим келди.

Оиламизда отам меҳр ва тарбияни бирдек олиб борган. Хаётлари давомида илм билан шуғулланган. Лекин шунга қарамай, бизнинг ҳам таълим ва тарбиямиз билан жиддий шуғулланган. Ўқишимиз қандайлиги, дўстларимиз кимлиги билан қизиқарди. Кинотеатрларга, сайилгоҳларга, тоғларга олиб боришга вақт топарди. Балки бошқа оталар каби, улар бизлар билан кўп вақт ўтказмаган бўлиши мумкин, аммо отам ҳар доим атрофдагиларнинг барчасига шодлик улашарди. Ушбу хурсандчилик, шодлик ҳиссиёти, улар мулоқотда бўлган кўпгина бошқа инсонлардагидек, менинг қалбимда қолган.

Отам табиатида нафақат оиламиз, балки бошқа фаолият доирасида ҳам ўз фикрини баланд ва қўпол тарзда баён қилиш, бирданига ҳукм чиқариш ёки айблов сўзни айтиш хислати бўлмаган. Аксинча, улар одамлар моҳиятини инсон, деб кўрадиган ақлли ва тушунадиган, фарзандларини тинглаб тўғри йўлга бошлайдиган, самимий ҳамда камтар, талабчан инсон

эдилар. Шунинг учун ҳам оиламизда қатъий интизом бўлган. Албатта, менинг хотираларимда отам бенуқсон, юксак одам сифатида гавдаланади, сабаби мен уларни шундай кўрар ва танирдим.

Отажоним ўз касбларига шунчалик меҳр қўйган эди-ки, биз, фарзандлари, турли соҳаларда фаолият юритаётган бўлсак ҳам уларнинг барча шогирдини танирдик, илмий иши нима ҳақида экани, тадқиқот иши қайси босқичда эканигача хабардор эдик. Чунки бу нарсалар отажоним учун шунчаки “иш” эмас, балки ҳаётларининг мазмуни эди. Ўз касбига меҳр, талабаларга бўлган эътибор, шогирдларига бўлган талабчанлик отамдан қолган мерос, деб баралла айта оламан.

Инсонларга муҳаббат, эътибор, ажойиб хушмуомалилик отам умридаги энг асосий мезонлар бўлиб қолган. Отамда ҳеч қачон манманликни сезмаганман, улар учун инсонлар билан бўлиш қизиқарли эди, турли касб-қизиқишларга эга одамлар билан мулоқотга киришар, ҳар бир инсонга яхши сўз топа оларди. Шуни ҳам таъкидлаш керакки, отам ҳам унга яхшилик қилган инсонларни катта бир миннатдорлик билан эсларди, бошқа одамларнинг муваффақиятларига қувонарди. Дадамнинг яна бир, бошқалардан ажратиб турадиган фазилати — уларнинг камтарлиги, ўз қадрини билиши, ортиқча мақтовларни истамаслиги билан намоён бўлди.

Отам ҳақида кўп гапириш мумкин ва ҳар доим хаёлга фақат яхши хотиралар келади. Болалик даврларимдан эслайман, падари бузрукворим ўз хоналарида, иш столи атрофида китобларга шўнғиган ҳолда гавдаланади. Йиллар ўтиб улғайгач, ота уйимга келган пайтларимда ҳам падарибузрукворим кўп вақтларини ўз хоналарида иш столи атрофида банд ҳолда бўлардилар. Нима ёзяпсиз, деган саволимга, китоб ёки мақола ёзяпман, ёки диссертация шарҳлаяпман, деган жавоб олардим. Отамни ёнларида ҳамиша бир қатор китоблар, қўл ёзмалар бўларди.

2019 йил сентябрь ойида навбатдаги муолажага бориш учун касалхонага кетаётган эдик. Отажоним анча вақтгача хоналаридан чиқмади. Чамаси 10-15 дақиқалардан сўнг қўлларида китоб билан кўринди. Ҳаттоки ўзлари бетоб бўлса-да қўлларидан китоб тушмаган эди. Касалхонада даволанаётган пайтларида навбатма-навбат ёнларида ўтирардик, шу пайтда ҳам уларнинг доимий йўлдошлари китоб ва шогирдларининг ишига керак бўлган жумлалар белгиланган дафтар бўлди.

Отажоним, мен ҳаётимда эришган ютуқларнинг барчасига онанг сабабчи, дердилар. Мазмунли ва чиройли умри, ўз севган касблари билан шуғулланганини ёнларида ҳамиша маслаҳатгўй, доно ва суюкли умр йўлдошлари — онажоним бўлганликларини қайта-қайта айтиб чарчамасдилар. Ота ва онам ўртасидаги ҳурмат, бир бирларига бўлган меҳрга ҳамма ҳавас қиларди. Ҳаётнинг оғир синовларида ҳам бир бирларига суяниб яшашди.

Менинг хотирамда отам шахси, улар қалбининг нури, уларнинг самимий табуссуми, кулиши қолди. Улар бизлар билан бўлмаганига уч йил бўлган бўлса ҳам, умр йўли, меҳнатлари, бажарган ишлари абадий сақланишига имоним комил. Ахир қанча-қанча инсонлар уларнинг фақат яхши, ёрқин томонларини эсга олишади ҳамда мен ҳам отамни худди шундай ёрқин ва хурсанд бўлиб эслайман.

Отам кимга қадрли бўлган бўлса, кимки хотирасида уларнинг ажойиб ёрқин шахс жозибасини сақлаб қолган бўлса, демак, менинг отам уларнинг юракларида яшашни давом эттирмоқда, демак, улар бизнинг ҳам ёнимизда.

Ўйлайманки, отам энг асосий нарсани — ҳақиқатан ҳам энг яхши хотираларни қолдирдилар. Бугунги кунда падари бузрукворим борлиқларини жуда-жуда ҳис қиламан.

Нимаики гапирмай ёки бажармай, “бунга отам қандай муносабатда бўларди?”, деган савол ҳамиша ҳаёлимнинг бир четида туради. Айнан мана шу фикр менга доим отажоним орзу қилганларидек инсон бўлишга қувват бағишлайди. Шундан инсонни қизлари бўлганимдан фахрланаман ва Оллохга шукр қиламан.

Отамнинг ҳамкасблари, дўстлари, шогирдлари саъй-ҳаракатлари билан ўтказилаётган анжуман учун оиламиз ва айнан онажоним номидан миннатдорчилигимизни билдираман.

АҲМЕДОВ МУҲАММАД ҚОСИМОВИЧНИ ХОТИРЛАБ

Архитектура фанлари доктори, профессор, А.С. Уралов

Самарқанд давлат архитектура-қурилиш университети



Аҳмедов Муҳаммад Қосимович -Архитектура фанлари доктори, профессор, Шарқ мамлакатлари Халқаро архитектура академиясининг академиги. Огахон номидаги халқаро архитектура фондининг юксак мукофотига, эл-юрт ҳурмати ва эҳтиромига сазовор бўлган инсон.

Муҳаммад Қосимович меҳнат фаолиятини Самарқанд давлат меъморчилик-қурилиш институтида бошлаб, дастлаб ассистент, катта ўқитувчи, кейинчалик кафедра мудири, декан муовини, сўнгра СамДМҚИ Меъморчилик факультетининг декани, 1997-2011 йилларда институтининг илмий ишлари бўйича проректори лавозимларида ишлаган. 2011 йилдан бошлаб Тошкент архитектура-қурилиш институтининг Архитектура факультетида декан вазифасида, кейинроқ эса “Шаҳарсозлик ва ландшафт архитектураси” кафедрасининг мудири ва профессори лавозимларида ишлаган. Ўша йиллари М.Қ.Ахмедов ТАҚИ ҳузуридаги архитектура фанлари бўйича илмий даражалар берувчи Илмий кенгаш раиси сифатида иш олиб борди ва бир қатор ёшларга илмий раҳбарлик қилди.

М.Қ.Ахмедов 1982 йилда Москва архитектура институтида “Ўрта Осиё меъморий ансамбларининг шаклланиши ва ривожланиш йўллари” мавзусидаги номзодлик диссертациясини, 1996 йилда эса Тошкентдаги Санъатшунослик илмий-тадқиқот институтида ушбу илмий йўналишнинг Ўзбекистон учун методологик аҳамиятга эга бўлган илмий жиҳатларини очиб, “Ўзбекистон ўрта асрлар меъморий ансамбллари тараққиётининг тарихий–назарий асослари” номли докторлик диссертациясини “Архитектура тарихи ва назарияси, архитектура ёдгорликларини таъмирлаш ва қайта тиклаш” ихтисослиги бўйича муваффақиятли ҳимоя қилган.

Муҳаммад Қосимович нафақат республикада, балки қатор хорижий давлатларда ҳам архитектура тарихи ва назарияси соҳасида таниқли олим эди. Буни, олимнинг ТАҚИ, Озарбайжон ва Қозоғистон Бош меъморчилик қурилиш академияларида ташкил этилган докторлик диссертацияларини ҳимоя қилиш бўйича Ихтисослашган халқаро Илмий Кенгаш аъзоси эканлигида ва Япониянинг Кейо университети ташкил этган “Буюк Ипак йўли тарихий шаҳарларининг тараққиёт йўлларини тадқиқ этиш муаммолари” Халқаро илмий дастурида иштирок этиб, унинг Кунмин (Хитой халқ республикаси), Самарқанд, Боку, Уфа шаҳарларида

ўтказилган халқаро илмий анжуманларда қатнашиб, илмий маърузалар қилганлигида кўриш мумкин. Шунингдек, Муҳаммад Аҳмедов қатор бошқа халқаро тадбирларда ҳам иштирок этган. Ўрта Осиё тарихий шаҳарлари ва меъморий ёдгорликлари ҳақида АҚШнинг Массачусетс Технология институтида, Италиянинг Рим университети ва Меъморлар малака ошириш марказида, Туркиянинг Стамбул Юлдуз техника университетида, Озарбайжоннинг Бокудаги давлат архитектура ва қурилиш университети каби хорижий таълим марказларида маърузалар ўқиган, хорижий докторантларга маслаҳатчилик қилган.

Муҳаммад Қосимович меҳнат фаолияти давомида Ўзбекистон меъморчилиги тарихи ва назарияси фанига, меъморий ёдгорликларни таъмирлаш ва сақлаш ишларининг Республикадаги ривожига салмоқли ҳисса қўшган олимлардан бири эди. У 6 та академик нашрларда чоп этилган китоб, рисола ва дарсликлар, 150 дан зиёд илмий мақолалар ва тезислар, 30 дан ортиқ илмий-ижодий ва меъморий лойиҳалар муаллифи эди. Шулардан асосийларини санаб ўтаман: “Ўрта Осиё меъморчилиги тарихи” (Т.,1995), “Традиции и преемственность в ансамблевой застройке исторических городов Узбекистана. // Архитектура Узбекистана(алманах)” (Т.,1986), “Архитектурные ансамбли и вопросы организации городского пронстранства в средневековой зодчестве Средней Азии.” // Градостроительство и архитектура(Т.,1989), “Меъморий мерос. Самарканднома” (Т.,2011), “Пути развития средневековых архитектурных ансамблей Узбекистана” (Т.,2014)китобларидир. Шунингдек, у Ўзбекистон шаҳарсозлиги ва меъморчилиги тажрибасини умумлаштирувчи, унинг назарий йўналишларини акс эттирувчи монография, илмий-оммабоп асарлар муаллифи ҳамдир. Муҳаммад Қосимович умрининг охиригача Россия, Германия, АҚШ, Озарбайжон, Туркия, Италия, Болтиқбўйи, Ўрта Осиё ва бошқа кўплаб республикаларнинг таниқли архитекторлари, хорижий олимлар билан бевосита мулоқотда бўлиб келган.

Муҳаммад Қосимовичнинг мустақил ва ҳамкорликда яратган бир неча лойиҳалари ўзининг ижобий баҳосини олган. Жумладан, Муҳаммад Қосимовичнинг - Самарқанд вилояти Қўшрабод тумани марказий шаҳарчасининг бош режаси, Имом ал-Бухорий ва ал-Мотурудий мемориал мажмуаларининг М.Қ.Аҳмедов ўз шогирдлари билан ишлаб чиққан лойиҳалари Ўзбекистон Ҳукумати томонидан бўлажак ишлар учун таклиф сифатида расман қабул қилинган ва амалга оширилган. 2006 йилда Қозоғистондаги Оқтов шаҳридаги Университет ўқув комплексининг таклифий лойиҳасини яратиш бўйича қўшни Республикадаги махсус давлат буюртмасини олиб, самарқандлик шогирдлари билан унинг муваффақиятли тақдимот маросимини Олмаота шаҳрида ўтказган. Юқоридаги хизматлари учун, профессор Муҳаммад Қосимович Аҳмедов 1992 ва 2006 йилларда Ўзбекистон Республикасининг “Мустақиллик” кўкрак нишонлари ҳамда Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фахрий Ёрлиғи билан тақдирланган.

Мен М.Қ.Аҳмедов билан СамДАҚИда кўп йиллар елкадош ва ёнма-ён ишлаб келга, уни яқиндан билган, унга дўст тутинган инсон сифатида шуни айтишим керакки, Муҳаммад Қосимович бирон бир иш, тадбир ёки лойиҳани бошладими, уни охиригача етказмай қўймайдиган принципиал инсон эди. У нафақат ўз шани ва оиласини балки институт шани, архитектура фани ва амалиётининг обрусини ривожлантириш учун курашадиган инсон эди. Мен унинг хотирасига бир нечабор қойил қолганман. У ҳар бир меъморий обиданинг қачон, қачон, қаерда, ким томонидан, нима мақсадда қурилганини аниқ йилигача айтиб берар эди. Ҳар бир шогирдининг фамилияси исми шарифигача билар эди. У мумтоз ширларимизнинг шерлари, қўшиқларидан парчалар айтиб берар, даврани қизитадиган, унга рухият берадиган шўх инсон эди.

Унинг яна бир хусусияти, ўта зукко рахбар, зўр ташкилотчи, ўзига ва бошқаларга талабчан бўлганлигидадир. Бир нарсани эслайман. Архитектура йўналишига қабул пайтида ижодий имтихон бўларди. Унга тайёргарликнинг молиявий ва ташкилий ишлари ечилмай тургани учун Муҳаммад Қосимовичга мурожаат қилинганда у илмий ишлар проректори бўла туриб, институт молия ва хўжалик ишлари проректорининг бу ишдаги сусткаштлигига қаттиқ тамбеҳ бериб, бу масаладаги муаммони ечиб бергани ҳали-ҳали эсимда.

Муҳаммад Қосимович ана шундай қатиятли ва ташкилотчи инсон эди уни СамДАҚИда архитектура факультетининг куратори эди десам хато қилмайман.

Хуллас, Муҳаммад Қосимович ҳақида гап кетганда фақат яхши гаплар ва ишларни эслашимиз жоиздир. Унинг хотираси юрагимизда мангу қолади. Оллоҳим унинг руҳини шод айлаб, қабрини нурларга тўлдиришини тилаб қоламан. Мен, сиз азизларнинг рухсатингиз билан, дўстим М.Қ.Аҳмедовнинг порлоқ хотираси учун яқинда нашр эттирган янги китобимни унинг оиласига туҳфа этмоқчиман. Эътиборларингиз учун раҳмат.

УДК 712(725)

БУЮК ОЛИМ ВА МЕЪМОР - АХМЕДОВ МУҲАММАД ҚОСИМОВИЧ (УСТОЗНИНГ ИЖОДИЙ ФАОЛИЯТИ)

доценти в.б. Бахрон Маноев

Самарқанд давлат архитектура-қурилиш университети, Ўзбекистон

Аннотация:*Мақолада Ўзбекистонда буюк олим ва меъмор, архитектура доктори, профессор Муҳаммаджон Ахмедовнинг меъморчилик бўйича ижодий фаолияти, лойиҳалари бўйича қурилган бинолари ва уларнинг меъморчиликдаги, жамиятдаги ўрни, аҳамияти илмий асосланган батафсил ёритиб тахлил етилган.*

Калит сўзлар: *ижодий фаолият, таҳлил, меъморчилик, илмий асос, боғ-парк, режалаштириш, ташкилотчи, жамғарма, зиёратгоҳ, меъморий ансамбл, мемориал мажмуа, уйғунлик, мутаносиблик, гулдаста.*

Аннотация: *В статье анализировано и раскрыта творческая деятельность по архитектуре, построенные проекты и их место, значение, научные основы в архитектуре и в обществе великого ученого, архитектора, доктора архитектуры профессора Мухаммаджона Ахмедова.*

Ключевые слова: *творческая деятельность, анализ, архитектура, научная основа, парк, планировка, организатор, основание, святыня, архитектурный ансамбль, мемориальный комплекс, гармония, пропорция, букет.*

Annotation: *In the article, the creative activity of the great scientist and architect, doctor of architecture, professor Muhammadjon Akhmedov in Uzbekistan, the buildings built according to his projects and their role in architecture, society, and their significance are analyzed in detail.*

Key words: *creative activity, analysis, architecture, scientific basis, park, planning, organizer, foundation, shrine, architectural ensemble, memorial complex, harmony, proportion, bouquet.*



Устоз билан 1977 йилларда талабалик пайтларимда учрашганман, ўша пайтданоқ менга устознинг қарашлари меъморий мулоҳазалари катта таассуротлар қолдирган бўлиб, у кишидан меъморчилик сир-асрорларини ўрганганман.

1978 йил Самарқанд вилояти ижроия қўмитасининг фармони ва қарори, СамДАҚИ ректори буйруғига асосан Самарқанд вилоят Қўшработ туман марказини лойиҳалаш бўйича туман марказини бош тарҳини устоз раҳбарлигида бажардик ва 1979 йилда ушбу лойиҳа тасдиқланди.

Туман марказини лойиҳалашда ўзига хослик иқлимий ва миллий урф-одат, халқ меъморчилиги услублари қўлланилган. У ерда жойлашган сой ва кўл атрофи юқори даражада ободонлаштирилган бўлиб, боғ-парк тизими яратилган. Лойиҳадаги марказий қисм батафсил режалаштирилган бўлиб, ҳозирги замонда бинолар халқ хизматига фаолият кўрсатмоқда.




1-расм. Қўшработ туман маркази бош тарҳи.



2-расм. Қўшработ туман марказий қисми бош тарҳи.

1995 йилда Самарқанд шаҳрининг Регистон майдонида “Мирзо Улуғбек маркази” халқаро лойиҳа танловига устоз бошчилигидаги лойиҳамиз билан қатнишиб, жюри эътиборига сазовор бўлиб, ушбу лойиҳа матбуотда эълон қилинган эди. Танлов ташкилотчиси


пайғамбаримиз Муҳаммад (с.а.в.)нинг 37 – авлоди бўлмиш Оға-хон жамғармаси эди. Лойиҳанинг ўзига хослиги ва диққатга сазовор жиҳатлари шундаки, бино ва иншоотлар Ўрта Осиё миллий меъморчилигига хос бўлган ансамбл ва комплекс йўналишида ишлаб чиқилган.



3-расм. “Мирзо Улуғбек маркази” лойиҳасининг макети


Мазкур лойиҳада Амир Темур бобомизнинг арки “Тепа қўрғон” қисман қайта қурилиши ҳамда Амир Темур тахти юксак намуна сифатида жимжимадор олтин зарҳал билан ишланиши кўзга тутилган эди. Регистон кўчаси ер остига олиниб, Амир Темур мақбарасидан бошлаб, Регистон, Биби Хоним ва Республикамиз биринчи Президенти қўним топган жойлар Шоҳи Зинда мажмуасигача пиёда сайр қиладиган хиёбонлар от-арава, “извош”, кичик электромобиль ва карвейерлар билан жиҳозланиб, лойиҳаланган.[2] Бу ердаги чашмалар қайта қурилиб, сув ҳавзаси ташкил қилиниб, ҳудудга микроиқлим яратиш чоралари кўрилган. Лойихадаги яна бир диккатга сазовор жойи шундаки устознинг устозлари М. С. Булатов яратган Улугбек обсерваториясининг график курилган лойихаси музей сифатида жойлаштирилган булиб бу устознинг уз устозига булган хурмат ва ехтиромини билдиради. [1]

Кейинчалик юқоридаги лойиҳадан сўнг, Самарқанд вилоят ҳокимининг топшириғига биноан Пайариқ туман Хартанг қишлоғида Имом ал-Бухорий зиёратгоҳида лойиҳаланган масжид, 400 ўқувчига мўлжалланган мадраса бинолари қуриб битказилди ва бугунги кунда ҳам мазкур бинолар фаолият кўрсатмоқда. (4-расм. мадраса)



4-расм. Имом ал-Бухорий мажмуасидаги мадраса тарзи

1993 илда “Oxford center for Islamic studies” - Исломни ўрганиш маркази (Буюк Британия, Лондон) Имом ал-Бухорий меъморий мажмуа марказини лойиҳалаш бўйича бешта давлат етакчи меъморларига буюртма-танлов эълон қилди ва улардан бири М.Қ. Ахмедов эдилар. Имом ал-Бухорий маркази лойиҳаси устознинг докторлик диссертацияларини ишлаб чиқаришга бевосита тадбиқ этиш лойиҳаси эди.[1] Ушбу лойиҳада меъморий ансамблсозлик йўналиши тўлиқ тадбиқ этилган бўлиб, Мадина шаҳридаги Масжиди Набавиянинг баъзи элементлари қўлланилган (масалан, ер-ости транспорт урбанизацияси). Кейинчалик бу лойиҳа Ўзбекистон Республикаси биринчи Президенти Ислом Каримов назарига тушиб, шу лойиҳалар асосида қурилишни амалга ошириш кераклиги кўзда тутилган эди. Афсуски баъзи бир амалдорларнинг ишлари туфайли вариант ўзгартирилиб, қурилди. Агар ўша лойиҳа қурилганда, бугунги кунда ҳамма биноларни йиқитиб, қайта қурилмаган бўлармиди. (5,6-расмлар)




5-расм. Имом ал-Бухорий мажмуаси лойиҳаси



6-расм. Имом ал-Бухорий мажмуаси лойиҳасининг макети

Самарқанд шаҳрида жойлашган “Чокар Диза” қабристони Имом ал-Мотурудий қўним топган жой ҳисобланади. Ушбу масканни топиб, мемориал мажмуа қуриш топшириғи

берилган эди. Бу масалада кўп тадқиқотлар олиб борилди ва Имом ал-Мотурудийнинг қабрларининг жойи аниқланиб, “Аждодлар мемориали” барпо этилди. Бу лойиҳада миллий меъморчилигимизнинг ансамблсозлик анъаналари қўлланилди ва кейинчалик Имом ал-Мотурудийга бағишлаб фақатгина мақбара қурилди.[3] Устоз бу лойиҳага “Аждодлар мемориали” деб ном қўйдилар, чунки бу кўҳна Самарқандда Имом ал-Мотурудийдан бошқа қанчадан-қанча пирлар, устодлар фаолият кўрсатиб шу қабристонда қўним топган. (7-8-расмлар)




7-расм. Имом ал-Мотурудийга бағишланган “Аждодлар мемориали” лойиҳаси макети



8-расм. Имом ал-Мотурудийга бағишланган “Аждодлар мемориали” лойиҳаси

2007 йилда Европа андозаларига мос Университет 3.0 талабларига асосан Қозоғистонлик тадбиркор буюртмаси билан Қозоғистон Республикаси Актау шаҳрида

тадбиркорлик университети мажмуаси 25 Га жойда устоз раҳбарлигида ишлаб чиқилди. Лойиҳалаш жараёнида ижодкорлар олдига қўйилган ажратилган ҳудуд муҳитини шаҳарсозликдаги социал, иқлимий экологик ва ҳажмий-фазовий ечимлар тўлалигича илмий асосланган ҳолда ечилган бўлиб, бино ва иншоотлар уйғунлик ва мутаносиблик жиҳатдан ансамбл туркумида, ҳудуд максимал ободонлаштирилган бўлиб, микроиқлим яратиш учун ўртада сув ҳавзаси ва кўкаламзор майдонлари умумий майдоннинг 50% ни ташкил этиб, экологик муаммо ечилган[5] (9-расм).



9-расм. Актау шаҳридаги университет мажмуаси лойиҳаси.

Ўзбекистон Республикаси биринчи Президенти И.А. Каримовга бағишлаб, 2017 йил Тошкент, Самарқанд ва Қарши шаҳарларида ҳайкал мажмуаси яратиш бўйича конкурс эълон қилинди. Бу конкурсда устознинг қимматли маслаҳатларини олиб, Самарқанд шаҳри Регистон майдонида ансамблга мос комплекс яратилди. Лойиҳанинг аосий ғояси Ислом Каримовнинг Ўзбекистонни ривожлантиришнинг беш тамойиллари яъни “Ўзбек модели” акс эттирилган монумент яратиш бўлиб (10-расм.), композицияда Ислом Каримов жадал олдинга ҳаракатда ва орқаларида Ўзбекистоннинг мустабид давридан ҳозирги замонгача бўлган даврлар, ҳажмий-фазовий кўринишда ҳажм ва аркалар орқали акс эттирилган.[4] Лойиҳа ўрин олмаган бўлса ҳам, мутахассислар эътирофига сазовор бўлиб, оммавий ахборот воситаларига талқин қилинди.



10-расм. Ўзбекистон Республикаси биринчи Президенти И.А. Каримовга бағишланган ҳайкал мажмуаси танловига бажарилган макет.

Яқинда 9 март 2023 йил Ўзбекистон 24 телеканалининг махсус репортажида Амир Темур ва темурийлар маънавияти ва маърифати кўрсатувида СамДАҚУ профессори А.С. Уралов раҳбарликларида бажарилаётган илмий ишлар талқин қилиниб, у даврдаги меъморчиликда туркум бинолар, гулдаста яъни ансамблсозлик ривожлангани эътироф этилди.[6] Бу эса М.Қ. Ахмедовнинг илмий йўналишларининг давом этаётганлигидан далолат бериб, биз шогирдлар у кишининг етолмаган чўққиларига эришамиз. Бундан ташкари устоз талим берган канчадан-канча шогирдлари бутун дунё буйлаб ижод килиб замонавий инноватсион бино ва иншоотларни барпо етиб халклар олкишига ссазовор булиб келмокдалар.

Устознинг ижодий фаолиятларини сарҳисоб қиларканмиз, у кишининг нафақат Ўзбекистонда балким жаҳон архитектурасига, илмига юксак из қолдирганларини англаймиз ва бу ишларни талқин-тарғибот қилиб давом эттирамиз. Устозимнинг руҳлари шод, арвоҳлари мададкор бўлсин.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. М.К. Ахмедов. Ўрта Осиё меъморчилик таърихи. Тошкент. 2000.
2. Б. Маноев. Бино ва иншоотлар типологияси . Самарканд, 2023.
3. С.Б. Маноев. Ўзбекистон замонавий шаҳарсозлигида меъморий ансамбл ва комплекслар. Самарканд 2014, Зарафшон.
4. Bahron, M. (2023). The Main Factors Affecting the Formation of the Residential Environment. *Web of Synergy: International Interdisciplinary Research Journal*, *2*(4), 714-719.
5. Manoev, S., & Azzamov, G. (2023). Analysis of Existing Approaches to Mapping Environmental Pollution. *International Journal on Integrated Education (IJIE)*, *6*(4), 32-35.
6. https://designbuildexpo.com.au/landscape-urban/best-of-the-blogs-landscape-edit/

UDK: 719: 711.1: 72.04.01

SHAHAR DIZAYN KODINI SHAKLLANTIRISHDA TARIXIY HUDUDLARNING O‘RNI

Arx.b.f.d., dots. Z.E. Matniyazov

Toshkent arxitektura-qurilish universiteti, O’zbekiston.

Annotatsiya. *Shahar Dizayn kodini shakllantishda hudud tarixiy qism, uning tashkil topishi va rivojlanishidagi muhim omillar, muhit an’analarini saqlab qolishning ildizi sifatida qaraladi, dizyn kod qoidalariga ta’siri o’rganiladi. Ma’daniy va moddiy me’ros obyektlari tahlil etiladi, Respublikamiz tarixiy markazlarida dizayn kod qoidalarini tashkil etishda hududlashtirish muammolari va usullari, bu boradagi jahon tajribalari va ilmiy qarashlar haqida so’z boradi. Shuningdek maqolada Yuneskoning meros obyektlarini saqlab qolishdagi o’rni va tarixiy markazlarimizning himoya hududlari tadqiq etiladi.*

Annotation. *In the development of urban design codes, the historical context of the territory is considered. This includes important factors that have contributed to its formation and development, such as the preservation of environmental traditions. The influence of these factors on the rules and regulations of the design code are studied. Cultural and material heritage objects are analyzed, and the problems and methods of zoning for the organization of design code rules in the historical centers of our Republic are discussed. The article also examines world experiences and scientific views on this subject. Additionally, the role of UNESCO in preserving heritage sites and protected areas within our historical centers is explored.*

Kalit so’zlar. *Dizayn kod, tarihiy hudud, ma’daniy meros, himoya hududi, madaniy-tarixiy orollar, funksional hududlash, aholi punktlari, chegara, buffer zonalari.*

Key words. *Design code, historical area, cultural heritage, protection area, cultural-historical islands, functional zoning, settlements, border, buffer zones.*

Kirish. Hudud tarixini o’rganish dizayn kod qoidalarini belgilashda muhim rol o’ynaydi va shahar atrof-muhitini rejalashtirish va rivojlantirish jarayonida zaruriy qadamdir. Hudud tarixi bilan tanishish aholi punktlarining chegaralari qanday o’zgarganligini va o’tmishda hududlardan foydalanilganligini tushunishga, shuningdek, qanday omillar (masalan, tabiiy sharoitlar, madaniy va tarixiy qadriyatlar) shahar muhitini shakllantirganligini aniqlashga imkon beradi va uning rivojlanishiga ta’sir ko’rsatdi.

Hudud tarixini o’rganish shaharlarni rejalashtirish va boshqarish bilan bog’liq aqlli qarorlar qabul qilish imkonini beradi. Bu tarixiy binolar va yodgorliklarni saqlash, aholi va korxonalar hayotini yaxshilash, shahar atrof-muhitining ekologik barqarorligini saqlash, tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar xavfini boshqarish bo’yicha chora-tadbirlar ko’rishga yordam beradi.

Shahar dizayn kodini ishlab chiqishda joyning tarixi hisobga olinmasligi natijasida tarixiy shahar tumani atrofdagi rivojlanish va mavjud sxemaga mos kelmaydigan ajoyib osmono’par bino qurish qurilishi fuqarolar o’rtasida tartibsizlik va norozilikni keltirib chiqarishi, hududning madaniy-tarixiy qadriyatiga putur etkazishi mumkin. Shunday qilib, hudud tarixini o’rganish va uni shahar atrof-muhitini rejalashtirish va boshqarishda hisobga olish shaharni rivojlantirishda ekologik, madaniy va iqtisodiy maqsadlarga erishishda muhim omil hisoblanadi.

O’zbekiston shaharlari o’zining boy tarixi hamda yuksak madaniyatiga ega. Tadqiqot obyekti sifatida qaralayotgan Samarqand shahrining yoshi 2750 yildan, Buxoro shahrining yoshi esa 2500 yildan oshadi. Xo’sh qaysi davrgacha bo’lgan hududlar tarixiy deb e’tirof etiladi? Buni olimlar quyidagicha izohlaydilar:

XX asrdan oldin paydo bo’lgan va faoliyat ko’rsatgan barcha shahar maydonlari tarixiy deb atalgan. Aslida, XXI asrda shahar sharoitida hududlar tarixiy va zamonaviy jamoat joylariga ajratila boshladi [1].

O’zbekistonda tarixiy obyektlarni asrab qolish va ularni himoyalash bo’yicha hududlarga ajratib chiqish xalqaro Yunesko tashkiloti hamda O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat ishlari vazirligi huzuridagi Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish Bosh boshqarmasi nazorati ostida amalga oshiriladi.

Yuneskoning “Butunjahon merosi konventsiyasini amalga oshirish bo’yicha ko’rsatmalari”ga muvofiq, tarixiy shaharlar uch turga ajratiladi:

- aholi punkti sifatida mavjudligini to’xtatgan, ammo arxeologik meros obyektlari saqlanib qolgan tarixiy shaharlar;

- aholi punkti sifatida hozirgacha mavjud bo’lgan va qimmatbaho meros obyektlari yoki muhim tarixiy voqealarning dalillari saqlanib qolgan tarixiy shaharlar; bu shaharlar zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy o’zgarishlarga mos ravishda o’z taraqqiyotini davom ettirmoqda;

- Yigirmanchi asrning yangi shaharlari, birinchi navbatda, ular ajoyib me’moriy loyiha asosida yaratilganligi yoki muhim tarixiy voqealar bilan bog’liqligi bilan alohida ahamiyatga ega.

“Jahon merosi konventsiyasi”ni amalga oshirish bo‘yicha yo‘riqnomaga muvofiq, Jahon merosi ro‘yxatiga kiritilgan va hozirda aholi punktlari maqomiga ega bo‘lgan tarixiy shaharlarning ikki toifasi mavjud [2]:

1. “Muayyan madaniy davrga xos bo‘lgan, deyarli to‘liq saqlanib qolgan va keyingi taraqqiyotiga ko‘p jihatdan ta’sir qilmagan shaharlar. Ushbu toifadagi mulk butun bir shahar bo‘lib, uning atrofi ham muhofaza qilinishi kerak.

2. Xarakterli yo’nalishlar bo’yicha rivojlangan va o’z tarixining ketma-ket bosqichlariga xos bo’lgan fazoviy-tashkiliy tuzilmasini saqlab qolgan shaharlar. Ushbu toifadagi obyektlar uchun aniq belgilangan tarixiy qism zamonaviy muhitdan ustunroq sanaladi [2].

Tarixiy aholi punktini muhofaza qilish obyektiga quyidagilar kiradi:

1) tarixiy ahamiyatga ega shahar tashkil etuvchi obyektlar - tarixiy binolarni tashkil etuvchi va boshqa narsalar qatori, masshtab, hajm, tuzilish, uslub, konstruktiv materiallar, rang sxemasi va bezaklari bo’yicha birlashtirilgan binolar va inshootlar. elementlar;

2) rejalashtirish tuzilmasi, shu jumladan uning elementlari;

3) hajmiy-fazoviy tuzilish;

4) rivojlanishning tarkibi va silueti - vertikal va gorizontal dominantlar hamda urg’ularning nisbati;

5) turli shahar maydonlari orasidagi nisbat (erkin, qurilgan, obodonlashtirilgan);

6) kompozitsion va tur munosabatlari (panoramalar), tabiiy va texnogen muhitning nisbati [3].

Shaharning tarixiy markazi unda joylashgan me’ros obyektlari turiga qarab funksional hududlarga bo’linishi mumkin. Shahar tarixiy hududi tarkibiga kiruvchi meros obyektlarining turlari:

- Qimmatli ahamiyatga ega bo’lgan tarixiy landshaftlar;
- Tarxiy ahamiyatga ega bo’lgan me’moriy obyektlar, ansambllar, arxeologik yodgorliklar;
- Tarixiy shaharning ahamiyatli panorama hududlari;
- Me’ros tipidagi buzilgan muhit obyektlari;
- Tarixiy ahamiyatga ega aholi yashash joylari;

Tarixiy hududlarning yana bir turi mavjudki, u ma’daniy tarixiy orollar deb yuritiladi.

Madaniy-tarixiy orollar - shahar kompozitsiyasining ajralmas tarkibiy elementi hisoblanuvchi, turli davrlardagi me’moriy va landshaft obyektlari to’plami [4].

Orollar tarkibidagi elementlar bir-biri bilan funksional, me’moriy-uslubiy, tuzilmaviy, iyerarxik, evolutsion jihatdan uzviy bo’langan bo’ladi. Ular shahar karkasining barqaror

rivojlanishini ta’minlashda muhim o’rinni egallaydi. Madaniy-tarixiy orollarni belgilab beruvchi muhim jihat bu shaharning transport infratuzilmasi asosida shakllangan funktsional va tabiiy kontekst hamda ijtimoiy-madaniy omillardir. Bu omillar madaniy-tarixiy orollarning tipologiyasini belgilashda muhim instrument bo’lib xizmat qilishi mumkin.

A.V. Leyzerova o’z tadqiqotlarida shaharning tarixiy karkasini saqlab qolishga xizmat qiluvchi tarixiy hududlarning 5 turini aniqlagan [4].

Anette Gangler, Heinz Gaube, Attilio Petruccioli esa o’z tadqiqotlarida Buxoro shahrini 3 ta tarkibiy qismga ajratishadi [5]:

- bino-inshootlar tuzilmasi – asosiy tuzilma (turar-joylar) va maxsus tuzilma (jamoat va tijorat);
- harakat tuzilmasi – marshrut va ularning bino tuzilmalari bilan iyerarxik bog’lanishi;
- tugunlar, fokus nuqtalari, qutblar - tarixiy yodgorliklar hamda ularning uzilish elementlari (maydonlar, o’tish joylari, berk va yopiq hududlar);

Gangler, Gaube va Petrucciollilar o’z tadqiqotlarida Buxoroning Shahriston hududini oriyentatsiya va zichligi jihatidan ikki xil shahar strukturasiga ajratadi: birinchisi 12-15 metrli modulga asoslangan bir xil va zich to’plangan fasadli hovli uylar, ikkinchsi qal’a devorining balandligi va qalinligi o’lchamlariga mos keladigan siyrak holatda joylashgan yodgorliklar [5].

Buxoro shahridan o’tuvchi va uning karkas obyektlarini bog’lovchi eng qadimiy yo’l esa sharqdan g’arbga qarab shaharning “Qavola” (Qarshi) darvozasi orqali Sharistonning “Dari g’uriyon” darvozasi orqali qo’rg’onga kirgan, “Banu Asad” darvozasi orqali chiqib, Xorazm yo’nalishidagi “Talipoch” darvozasigacha borgan yo’l hisoblanadi [5].

Jahon tajribalariga e’tibor qaratsak 2020-yilgi ommaviy axborot tizimi ma’lumotlariga ko’ra Samara shahrining tarixiy aholi hududlari chegaralari belgilangan va u 3 ta qismga bo’lindi. Bunga ko’ra 1-hudud davlat ahamiyatga ega bo’lgan himoya hududi bo’lib, bu hududda yangi binolar qurish taqiqlanadi, faqat binolarning asl nusxasi kabi rekonstruksiya qilishga va o’zgartirishga ruxsat etiladi. 2-hudud qatiy tartibga solingan bo’lib, unda bino va inshootlarni mahalliy uslubga mos ravishda ma’lum qoidalar asosida loyihalashga ruhsat etiladi. 3-hudud tarixiy markazning chetida joylashgan chegara hududlari. Ular tarixiy aholi punktidan tashqarida bo’lgan, tarixiy markaz va Shahar pereferiyasi arxitekturasi o’rtasidagi muvozanatni saqlovchi hududlar. [6].

Chet el olimlaridan R.A. Krillov tarixiy ahloli punktlarini funksional vazifasi asosida rayonlashtirish haqida tadqiqot olib borgan va funksional hudud tushunchasiga tarif berib o’tgan.

Funksional hudud - bu ma’lum chegaralardagi, bir xil funktsional maqsadli va mos keladigan foydalanish usullariga ega bo’lgan hudud. Funksional maqsad deganda ushbu hududga xos bo’lgan asosiy faoliyat turi tushunilishi kerak. Tarixiy aholi punkti hududini funksional rayonlashtirish vazifalariga quyidagilar kiradi:

- tarixiy aholi punkti hududida ajratiladigan funksional hududlarning tipologiyasi va sonini aniqlash;
- funktsional hududlarning ayrim turlarini tarixiy aholi punkti hududining o’ziga xos elementlari va uning hududida joylashgan tarixiy-me’moriy yodgorliklar bilan bog’lash va uni istiqbolli funktsional rayonlashtirishni shakllantirish;
- tarixiy aholi punkti hududidan ham, uni muhofaza qilish obyektini tashkil etuvchi madaniy meros obyektlaridan ham foydalanishning turli xil maxsus rejimlarini optimallashtirish bo’yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

Tarixiy manzilgohlarni asrab-avaylash tizimining negizida uchta tamoyilni hisobga olish kerak: hududiy yaxlitlik – belgilangan chegaralarni saqlash; funksionallik - hududning ijtimoiy-

madaniy ahamiyatini saqlab qolish; ekologik tozalik - atrof-muhit bilan munosabatlarni hisobga olish [7].

Tarixiy manzilgohni muhofaza qilish predmetiga quyidagilar kiradi:

1) tarixiy jihatdan qimmatli shahar tashkil etuvchi obyektlar - tarixiy binolarni tashkil etuvchi va boshqa narsalar qatori, masshtab, hajm, tuzilish, uslub, konstruktiv materiallar, rang sxemasi va bezak elementlari bo'yicha birlashtirilgan binolar va inshootlar;

2) rejalashtirish tuzilmasi, shu jumladan uning elementlari;

3) hajm-fazoviy tuzilish;

4) rivojlanishning tarkibi va silueti - vertikal va gorizontal dominantlar va urg'ularning nisbati;

5) turli shahar maydonlari orasidagi nisbat (erkin, qurilgan, obodonlashtirilgan);

6) kompozitsion va tur munosabatlari (panoramalar), tabiiy va texnogen muhitning nisbati [7].

Tarixiy-madaniy meros obyektlarini saqlashda hamda dizayn kod qoidalarining ta'sir doirasini belgilashda muhofaza hududlari muhim rol o'ynaydi. Muhofaza hududini quyidagi qismlarga ajratish mumkin:

- bufer hududi;
- rivojlanish va xo'jalik faoliyatini tartibga soluvchi hudud;
- muhofaza qilinadigan tabiiy landshaft hududi.

Tarixiy-madaniy shahar landshaftining yaxlitligini saqlab qolish ma'lum qoidalar va cheklovlarni ishlab chiqishni talab etadi. Bunday qoidalarga erdan foydalanish tartiblari va shaharsozlik qoidalari, qurilishdagi me'moriy inshootlarga qo'yiladigan talablar (balandligi, hajmi, jabhalar plastikasi va rang echimlari, belgilangan muayyan qurilish materiallari va boshqalar) kiradi, ular yordamida qurilish va iqtisodiy faoliyat tartibga solinadi, shaharning tarixiy tuzilishiga yangi tuzilmalarni kiritish muvofiqlashtiriladi.

Tarixiy aholi punkti hududi chegaralariga tarixiy deb tan olingan tegishli aholi punkti chegaralaridagi hudud kiritiladi. Tarixiy aholi punkti hududining chegaralari tarixiy-arxitektura, tarixiy-shaharsozlik, arxiv va arxeologik tadqiqotlar asosida belgilanadi. Tarixiy aholi punkti hududining chegaralari dizayn kod doirasiga kiruvchi hududlarni belgilashga asos bo'lishi mumkin.

Shuningdek, dizayn kod ta'sir chegaralari belgilanatotganda tarixiy aholi punkti hududidan tashqarida joylashgan va ularning chegaralarida himoya obyekti bo'lgan kompozitsion o'ziga xos munosabatlarning (panoramalarning) asosiy turlarini ochish nuqtalari (sektorlari) joylashgan hududlarni ham hisobga olish kerak.

Shahar maydonlari tarixiy jamoat joylari sifatida atrof-muhitning fazoviy mazmunining tabiati va badiiy qiyofasini belgilab beruvchi turli funktsiyalarni bajarishi mumkin. Bular diniy, ko'ngilochar, ma'muriy, tijorat funktsiyalari, ammo ularning barchasi madaniy meros obyektlari sifatida aholi va sayyohlarning bo'sh vaqtini o'tkazish uchun *rekreatsion hududni* o'z ichiga olishi kerak [8].

Tarixiy hududlarning o'tmish bilan bog'liq madaniy ahamiyatga ega birqancha turlari mavjud:

- Arxeologik joylar: Masalan, Perudagi Machu-Pikchu dunyodagi eng mashhur arxeologik yodgorliklardan biridir. U 15-asrda Inka sivilizatsiyasi tomonidan qurilgan va ispanlar kelganidan ko'p o'tmay tashlab ketilgan. Bu joy 1911 yilda amerikalik tadqiqotchi Xiram Bingxem tomonidan topilguniga qadar ko'p yillar davomida unutilgan. Bugungi kunda Machu-Pikchu mashhur sayyohlik maskani bo'lib, YuNESKOning Jahon merosi ro'yxatiga kiritilgan. Afrosiyob - hozirgi Samarqand shahrida, hozirgi O'zbekiston hududida joylashgan qadimiy shahar. Shahar miloddan avvalgi 7-asrda tashkil etilgan bo'lib, O'rta Osiyodagi dehqonchilik, hunarmandchilik va savdoning muhim

markazlaridan biri bo‘lgan. Afrosiyob qadimda qal’a devori bilan o’ralgan yirik shahar bo’lib, ko’plab bino va inshootlar, jumladan, saroylar, ibodatxonalar, masjidlar, ustaxonalar, do’konlar va boshqalar bo’lgan. Shahar o’zining to’quv ustaxonalari bilan mashhur bo’lib, u erda yuqori sifatli gilam va matolar ishlab chiqariladi (1-rasm).





A) Peru, Machu-Pikchu *B) Samarqand, Afrosiyob*

1-rasm.

- Tarixiy binolar: Masalan, Hindistondagi Toj Mahal dunyodagi eng mashhur tarixiy binolardan biridir. Bu imperator Shoh Jahon tomonidan tug’ruq vaqtida vafot etgan rafiqasi Mumtoz Mahal xotirasiga qurilgan maqbara. Bino 1632-1653 yillarda qurilgan va musulmon me’morchiligi maqbarasi namunasidir. Bugungi kunda Toj Mahal Hindistonning eng mashhur sayyohlik maskanlaridan biri hisoblanadi. Registon maydoni Samarqandning markaziy maydoni bo‘lib, shaharning tarixiy markazida joylashgan. Maydonda uchta mashhur madrasa - Ulug’bek, Sherdor va Tillaqori joylashgan. Bu madrasalar 17-asrda qurilgan bo‘lib, arxitektura va islom madaniyatining muhim yodgorliklari hisoblanadi. Ulug‘bek madrasasi 1417-yilda qurilgan bo‘lib, matematika, astronomiya va falsafa sohasidagi ilmiy tadqiqotlar markazi bo‘lgan. Ayni paytda Ulug’bek madrasasi ko’plab sayyohlarni o’ziga jalb etuvchi me’morchilik va madaniyat yodgorligi hisoblanadi. U islom arxitekturasi elementlari va ilmiy laboratoriyani o’zida mujassam etgan go’zal va o’ziga xos dizaynga ega. Madrasada Ulug’bek va uning shogirdlari tarixi va ilmiy yutuqlari bilan tanishish mumkin bo’lgan muzey ham mavjud. Tilla qori 17-asrda qurilgan bo‘lib, O‘rta Osiyodagi eng mashhur va go‘zal madrasalardan biridir. Madrasada masjid, kutubxona va muzey joylashgan. Sherdor madrasasi 17-asrda qurilgan bo‘lib, O‘rta Osiyodagi eng mashhur va go‘zal madrasalardan biridir. Madrasa peshtoqida ikkita yo’lbars tasvirlangan (2-rasm).





A) Hindiston, Toj Mahal *B) Samarqand, Registon maydoni, Ulug’bek, Tilla Kori, Sherdor*

2-rasm.

- Muzeylar: Masalan, Londondagi Britaniya muzeyi dunyodagi eng mashhur muzeylardan biridir. U 1753 yilda tashkil etilgan va insoniyat tarixiga oid 8 milliondan ortiq eksponatlarni o'z ichiga oladi. Muzey eksponatlari orasida qadimgi sivilizatsiyalar madaniyati yodgorliklari, Misr mumiyolari, yunon haykallari va boshqa ashyolar bor. O'zbekistondagi Qoraqalpog'iston Respublikasining poytaxti Nukus shahridagi Savitskiy nomidagi muzey Markaziy Osiyodagi eng yirik san'at muzeyi hisoblanadi. U 1966-yilda tashkil etilgan va butun Markaziy Osiyodan ulkan san'at asarlari to'plamini to'plagan o'zbek rassomi Igor Savitskiy nomi bilan atalgan. Muzeyda Rossiyadan tashqarida rus avangardining eng yirik kolleksiyalaridan biri, shuningdek, o'zbek va qoraqalpoq san'ati asarlari saqlanadi. Bu erda Pavel Kuznetsov, Aleksandr Volkov, Ural Tsvetaev va boshqalar kabi rassomlarning asarlari mavjud. Markaziy Osiyo xalqlari xalq amaliy san'atining boy kolleksiyasi alohida qiziqish uyg'otadi (3-rasm).





A) London, Britaniya muzeyi *B) Qoraqalpog'iston Respublikasi, I.V. Savitskiy nomidagi davlat muzeyi*

3-rasm.

- Tarixiy shaharlar va mahallalar: Masalan, Xorvatiyaning Dubrovnik shahridagi Eski shahar dunyodagi eng go'zal tarixiy shaharlardan biridir. U 7-asrda tashkil etilgan va o'rta asrlarda Adriatik sohilidagi yirik savdo va madaniy markaz bo'lgan. Bugungi kunda Dubrovnikning Eski shaharchasi YuNESKOning Butunjahon merosi ro'yxatiga kiritilgan va sayyohlar uchun mashhur joy. Ichan-qal'a nomi bilan ham mashhur Xiva qal'asi O'zbekistonning Xiva shahridagi muhim madaniyat va me'morchilik yodgorligidir. Itchan-qal'a Xivaning ichki mudofaa inshooti bo'lib, 17-asrda tashkil etilgan. 1990 yilda Ichan-qal'a YuNESKOning Butunjahon merosi ro'yxatiga kiritilgan (4-rasm).





A) Xorvatiya, Dubrovnik shahridagi Eski shahar *B) Xiva, Ichan Qala*

4-rasm.

- Tabiiy yodgorliklar: Masalan, AQShdagi Yosemit milliy bog'i dunyodagi eng go'zal va mashhur milliy bog'lardan biridir. U 1890 yilda tashkil etilgan va 3000 kvadrat kilometrdan ortiq maydonni egallaydi. Bog' o'zining baland qoyalari, sharsharalari, noyob o'simlik va faunasi bilan mashhur. Bugungi kunda Yosemite milliy bog'i har yili millionlab sayyohlarni o'ziga jalb qiladi.

O'zbekistonning Surxon qo'riqxonasi muhofaza qilinadigan tabiiy hudud hisoblanadi. Uning maydoni 24 ming gektardan oshadi. Qo'riqxona hududida o'ta muhim arxeologik obidalarni ko'rish

mumkin bo'lib, ularning kashf etilishi katta tarixiy voqeaga aylangan edi. Ular orasida mezo-neolit davriga mansub bo'lgan Zaraut Kamar g'orida qadimgi odamlarning buqa va yovvoyi echkini ovlaganliklari aks ettirilgan noyob tosh-qoya rasmlari mavjud. Eng muhim kashfiyot Teshik-Tosh g'orida topilgan neandertal o'spirinning qoldiqlari bo'lib, kashfiyot 1938-yilda arxeolog A.P. Okladnikov tomonidan amalga oshirilib, u bolaning tog' echkilarining shoxlari bilan o'ralib erga ko'milgan qabrini topgan [Surxon qo'riqxonasi.https://uzbekistan.travel/uz/o/surxon-qoriqxonasi/], (5-rasm).



A) AQSh, Yosemit milliy bog'i



B) O'zbekiston, Surxon qo'riqxonasi

5-rasm.

Xulosa. Tarixiy markazlarning Dizayn kod qoidalarini shakllantirishda tarixiy hudud va muhit an'analarini hisobga olish, unga tayangan holda tavsiyonomalar konseptsiyasini ishlab chiqish zarur. O'zbekistonning tarixiy markazlarida tarixiy hududlarning barcha turlarini uchratish mumkin. Bu shahar jozibasini va kelajak zamonaviy shaharsozligiga o'tishda milliy ruhni yo'qotmaslikni, uning xilma-xilligini belgilab beradi. Dizayn kod qoidalarini tarixiy hududlar asosida shakllantirishning quyidagi ustuvor vazifalari belgilab olindi:

1) Tarixiy hududlarni o'rganish va chegaralarini belgilash.
2) Dizayn kod ta'sir doirasidagi hududlarni fuksional zonalash.
3) Ma'daniy meros obyektlari va tarixiy me'moriy yodgaliklar asosida dizayn kod uslubini belgilash.
4) An'anaviy arxitektura va tarixiy hududlarni saqlab qolish, mahalliy aholi va tashrif buyuruvchilar uchun qulay hamda havfsiz muhiy yaratish.

Adabiyotlar.

1. М. А. Вотинов. Реновация и гуманизация общественных пространств в городской среде. Монография. Харьков ХНУГХ им. А. Н. Бекетова 2015.
2. Operational Guidelines for the Implementation of the World Heritage Convention, UNESCO, 2005 - URL: http://www.nhpfund.org/files/operationalguidelines-en.pdf. (accessed: 04.12.2021).
3. Ю.А. Веденин. Принципы и методы изучения, сохранения и развития исторического города в контексте культурно-ландшафтного подхода. Теория и история культуры, искусства. ISSN 2619-0214. 29 апреля 2022.
4. А.В. Лейзерова. Архитектурно-градостроительная типология культурно-исторических островов. Вестник тгасу т. 22, № 5, 2020.
5. A. Gangler, H. Gaube, A. Petrucciolli. Bukhar-The Eastern Dome of Islam. Stuttgart/London 2004.
6. В Самаре определили границы исторического поселения. 7 августа 2020. https://63.ru/text/gorod/2020/08/07/69410227/
7. Р.А. Кириллов. Теоретические аспекты функционального зонирования территории исторического. Московский экономический журнал №3 2021.
8. М. А. Вотинов. Реновация и гуманизация общественных пространств в городской среде. Монография. Харьков ХНУГХ им. А. Н. Бекетова 2015.

9. *Tog' ustidagi hashamat. 24-iyul – Perudagi Machu-Pikchu shahri ochilgan kun (fotogalereya). https://daryo.uz/2020/07/24/tog-ustidagi-hashamat-24-iyul-perudagi-machu-pikchu-shahri-ochilgan-kun-fotogalereya/*

UDK: 719: 711.1: 72.04.01

TARIXIY HUDUDLARNI ANIQLASH, DIZAYN-KOD CHEGARALARI VA KATEGORIYALARINI BELGILASH TAMOYILLARI

J.X.Tajibaev

Toshkent arxitektura-qurilish universiteti, O'zbekiston.

Ilmiy-texnika va yangi texnologiyalar gullab-yashnayotgan zamonaviy hozirgi davrda turizm va mehmonxona biznesi jadallik bilan rivojlanib bormoqda. Har yili biznes yoki sayyohlik maqsadida sayohat qilayotganlar soni ortib bormoqda. Dunyonong chiroyli go'shalarini ko'rish, yangi shaxar va mamlakatlarning tarixiy binolarini ziyorat qilish, diqqatga sazovor joylarini aylanish va tabiat go'zalligidan bahramand bo'lish har bir insonning orzusidir. Har yili dunyo bo'ylab ko'plab sayyohlar shu orzularini amalga oshirish uchun sayohatga chiqadilar. Ayrim hollarda sayyohlar faqatgina yashab turgan sharoitlarini vaqtinchalik o'zgartirish, ma'lum bir vaqt boshqa muhitda yashab ko'rish uchun ham safarga chiqadilar.

Buungi kun sayyohlarining talab va istaklari oldingilaridan ancha o'zgargan, hozirgi zamonaviy sayyohlarni turistik obyektlarga jalb qilish ularni hayron qoldirish bir muncha qiyin muammolardan biri bo'lib kelmoqda. Shuning uchun bugungi zamonaviy infratuzilmada mehmonxonalarni o'rni beqiyos. Mehmonxonalar shunday barpo etilishi kerakki unga kelgan sayyohlar yana qaytib kelishni hohlashi, u mehmonhonada yashagan payti o'ziga hos noyob hizmat turlaridan yoki shinamlik darajasidan bahramand bo'la olishi kerak. Mijozning barcha injiq talablarini qondira oladigan mehmonxona barpo etish tadbirkor investorlarning eng asosiy maqsadlaridan biridir. Bu esa o'z o'rnida qurilishi rejalashtirilayotgan mehmonxonaning imidjini mukammal tarzda o'ylab chiqish kerakligini anglatadi.

Mehmonxona imidji - murakkab va ko'p qirrali tushuncha bo'lib, u mehmonxona kontseptsiyasini, uni yaratish asosini tashkil etuvchi g'oyani amalga oshirish natijasi hisoblanadi. Mehmonxona imidji shakl va mazmun uyg'unligidan hosil bo'ladi masalan: shakl bu mehmonhonaning me'moriy echimi bo'lsa, mazmun unda ko'rsatiladigan hizmatlar bo'ladi.

Mehmonxonaning arxitekturaviy echimi – uning tashqi ko'rinishi, ichki tuzilishi, landshaft hududlarini o'z ichiga oladi. Mana shu uchta hudud alohida hamiyatga ega hisoblanadi. Mukammal mehmonxona barpo etishda shu uchta hudud bir biri bilan uslub, mazmun, jihatidan bir biriga uyg'un bo'lsagina mehmonxonaning to'liq baddiy tasviriga aylana oladi. Mehmonxonalar qiyofasini shakllantirishda arxitekturaning roli nihoyatda muhim. Ekspressiv me'moriy ko'rinish mijozda birinchi va eng kuchli taassurot qoldiradigan vizual omildir.

Bugungi kunda dunyodagi barcha mehmonhonalarni ko'rib, ularni tahlil qilib, bu mehmonxonalar qurilishida barcha arxitekturaviy yo'nalishlardan, me'morchilik uslublaridan deyarli foydalanib bo'lingan degan hulasaga kelishimiz mumkin. Mexmonxona bir vaqtning o'zida ham yashash, ham ko'ngil ochish funksiyasini bajaruvchi inshoat bo'lganligi uchun qurilishida me'mor arxitektordan eng so'nggi innovatsion g'oya va echimlardan foydalangan holda loyiha yaratishni

talab etadi. Mehmonxonaning umumiy imidji mukammal tarzda bo'lishi nafaqat arxitektor me'morning ba'lki uni qurilishini buyurtma qilayotgan investorning ham asosiy maqsadidir. Rejalashtirilayotgan loyiha atrofidagi binolarning umumiy uslubiga uyg'un holda bo'lishi, mahalliy me'morchilikning milliy xususiyatlarini saqlagan holda bo'lishi, an'naviy qurilish materiallaridan foydalanish va shu bilan birga esda qolarli yorqin obrazga ega bo'lishi bularning barchasi mehmonxonaning umumiy o'ziga hos imidjidir.

Mehmonxonalarning arxitekturaviy echimi ko'pincha tabiiy-iqlim omillari, ma'lum bir mintaqaning madaniy va tarixiy xususiyatlari, uning me'moriy an'analari bilan belgilanadi. Mehmonxonaga tashrif buyuruvchilarni mana shunday jozibali, milliy lazzat bag'ishlovchi, an'anaviy rejalashtirish texnikasi va qurilish materiallarining yangi innovatsion g'oyalar bilan uyg'unlashgani hayratga soladi. Mehmonxona interyer dizaynida o'ziga xos detallardan foydalanish - mualliflik dizayn maxsulolari, antiqa mebel yoki qo'l mehnati orqali yaratilgan san'at asarlari mehmonxonaning imidjini yanada esda qolarli bo'lishiga hizmat qiladi.

Bundan tashqari mehmonxonaing funksional hududlarga to'g'ri ajratilganligi, undagi mehmonlar uchun barcha qulay sharoitlar mavjudligi, zamonaviy jixozlar bilan ta'minlanganligi kabi omillar mexmonhona imidjini muvofaqiyatli ekanligini belgilovchi omillar sanaladi.

Bugungikunda dunyoda juda ko'p mehmonhonalar mavjud. Ular bir birlaridan, mavzusiga, sig'imiga, qavatlar soniga, konstruksiya tipiga, komfort darajasiga va joylashgan joyiga qarab farq qiladi. Bu belgilarning barchasi mehmonxonaning arxitekturaviy echimiga va shu bilan birga uning umumiy imidjiga o'z ta'sirini o'tkazadi. Darhaqiqat bugungi kunda mehmonxonalardan vaqtinchalik tunash uchun joy sifatida foydalanilmayapti, yuqori sifatli komfort sharoit ham mehmonlarni hayratlantirmay qo'ygan.

Endi raqobatbardosh imidjga ega mehmonhona yaratish uchun, jaxon bozorini mukammal o'rganib chiqib, mehmonlarga qulay va yuqori darajali hizmat ko'rsatish bilan birga noodatiy, o'ziga hos jihatlar bilan ularni hayratlantira oladigan, ularni esida butun umr qoladigan, dunyoning hech qaysi joyida hech qaysi mehmonhonada uchramaydigan jihatlarni o'ylab topish kerak bo'lmoqda. Xo'sh, dunyoning etakchi mehmonxonalari qanday me'moriy vositalar yordamida muvaffaqiyatga erishishmoqda? Mexmonhona arxitekturasining asosiy zamonaviy tendensiyalari qanday, ular qaysi yo'nalishlarda rivojlanmoqda?

Zamonaviy mehmonxonalarning rang-barang xilma-xilligini ularning joylashuvi va qurilish usuli tamoyillariga ko'ra shartli ravishda guruhlarga bo'lish mantiqiy ko'rinadi. Har bir guruh umumiy me'moriy xususiyatlarga ega.

Zamonaviy ko'p qavatli mehmonxonalar - juda yuqori darajadagi qulayliklarga ega komplekslar, keng ko'lamli xizmatlarni taklif qiladi, rivojlangan infratuzilmaga ega. Ko'pincha bunday mehmonxonalar jahonga mashhur xalqaro tarmoqlar - Sheraton, Hilton va boshqalar qatoriga kiradi. Turli xil restoran va barlar, konferentsiya zallari, do'konlar, er osti avtoturargohlari, ochiq va yopiq hovuzlar va fitnes markazlari, shuningdek, barcha zamonaviy vositalar bilan jihozlangan bo'ladi. Bu turdagi mehmonxonalar sayohat maqsadidagi turistlar uchun ham, biznes maqsadlarida sayohat qilayotgan odamlar uchun ham mos keladi. Bu turdagi mehmonxonalar asosan o'zining mahobatli hajmi bilan, noyob konsruktiv echimi bilan mehmonlarni hayratga soladi. Bunday mehmonxonalar arxitekturasi nihoyatda funktsional va zamonaviy bo'lib, qurilish texnologiyalarining eng so'nggi yutuqlari, zamonaviy konstruksiyalar va qurilish materiallaridan foydalaniladi. *Masalan, ko'p qavatli qurilishga xos bo'lgan karkas tizimlari (po'lat yoki monolit betondan yasalgan ustunlar va to'sinlar), yorug'lik tejaydigan issiqlik tejovchi konstruktsiyalar, zarbaga chidamli oynalar. Eng yangi progressiv muhandislik uskunalari - energiya va suv ta'minoti,*

ventilyatsiya va isitish tizimlari mehmonxona majmuasi ichida o'ziga xos mikroiqlim, inson uchun qulay muhit yaratish imkonini beradi. Zamonaviy tuzilmalardan foydalanish, katta oraliqlarni qoplash uchun, galereyalar, atrium hovlilari va qishki bog'lar bilan murakkab ko'p darajali makonni shakllantirish va shaffof tomni yaratish imkonini beradi. Bunday majmualar avtonom "shahar ichidagi shahar" bo'lib, mijozga o'yin-kulgi va dam olishga bo'lgan ehtiyojlarini undan tashqariga chiqmasdan qondirish imkonini beradi. Bundan tashqari, u erda turli ishbilarmonlik tadbirlari – kongresslar, konferensiyalar va hokazolarni muvaffaqiyatli o‘tkazish uchun barcha sharoitlar yaratilgan.

Bu mehmonxonalar guruhiga dunyodagi eng boy mehmonxona **Borj al-Arab** mehmonxonasi kiradi. Bu mehmonxona etti yulduzli bo’lib, yaqin sharqdagi eng baland bino hisoblanadi. Mehmonxona kema elkani shaklida qurilgan. U dengiz sathidan etti yarim metr balandlikdagi uchburchak shaklidagi sun’iy orolda joylashgan bo‘lib, materik bilan ingichka qavisli ko‘prik orqali tutashgan. Bino devorlarning tashqi tomonlarida po'lat diagonal mahkamlagichlarga ega va dengiz tubiga uch metr chuqurlikdagi beton qoziqlarga o'rnatiladi. Borj al-Arab to'rt yil davomida qurilayotgan edi. Uning binolarining umumiy maydoni 111 480 kvadrat metrni tashkil qiladi. m, binoning balandligi esa 321 m.Mehmonxona dunyodagi eng tez liftlar bilan jihozlangan. Ularning o'rtacha tezligi sekundiga etti metrni tashkil qiladi. Yuqori qavatda dengiz va qirg'oqning ajoyib manzarasiga ega restoran mavjud. Hashamatli mehmonxona ikki yuzta ikki darajali xonani o'z ichiga oladi. Eng kichik bir kishilik xonaning maydoni 169 kv. m "Borj al-Arab" dagi eng yaxshi kvartiralar uchta marmar hammom va ulkan karavot bilan jihozlangan. Yashash xonalarining bezagi Janni Versache ishidan ilhomlangan holda yaratilgan, mebellar oltin bilan bezatilgan. Mehmonxona sharqona hashmat, texnologiyalarning so’nggi yutuqlari bilan uyg’unlashgan dunyo mo’jizasidir.

Yevropa davlatlarida madaniy va tarixiy an’anlarga bo’lgan hurmat yuqri bo’lib, shaxarlardagi tarixiy me’moriy yaxshi yodgorliklar saqlanib qolgan. Tarixiy hududlardagi mehmonhonalar qurilishida tarixiylikni saqlagan holda zamonaviy echim berilganligini ko’rishimiz mumkin. Boy madaniy an'analarga ega poytaxtlar va tarixiy shaharlarda bu mehmonxonalar odatda ko'plab diqqatga sazovor obidalar yaqinida barpo etilgan. Ayrim zamonaviy mehmonhonalar tarixiy obidalarning o’zida tashkil etilgan bo’lib, unda tarixiylik va zamonaviylik moxirona uyg’unlashtirilgan. Bu mehmonxonalarda hizmat ko’rsatish va comfort darajasi yuqori darajada chunki rekonstruksiya va qayta ta’mirlash jarayonida ular barcha zamonaviy muhandislik uskunalari bilan jihozlangan. Bundan tashqari binoning ichki va tashqi bezaklari qayta ta’mirlanishida uning asl tarixiy ko’rinishi saqlab qolingan. Bunday mehmonxonalarning interyeri va barcha bezaklari ma'lum bir tarixiy davr uslubi va an'analarida yaratilgan. Interyer dekorlarida qimmatbaho bezaklardan foydalaniladi bularga misol qilib: eman daraxti panellari, gobilenlar, pol qoplamalarida qimmatbaho mar mar toshlari, zargarlik buyumlari va bronzalarni keltirish mumkin. Honalardagi qadimiy antiqa mebellar ma’lum bir davr uslubini saqlagan holda yaratilganligi bu mehmonxonalarning yanada o’ziga hosligini ta’minlaydi. Bu tarixiy uslublarga barokko, ampir, art nuvo, rokoko kabi uslublarni misol qilib keltirish mumkin. Mehmonxonalarda usha davr muhitini yaratish uchun tarixiy kaminlardan, toshoynalardan, devoriy suratlar, shamdonlar va qandllardan foydalaniladi. Bunday tarixiy binoning ichki qismini rekonstruksiya qilishda me’morlar, dizaynerlar va dekorativlarning vazifasi eski devorlarga yangi nafas kiritish, bu ishni qadimiylik jozibasi va muassasaning yuksak nufuzini saqlab qolgan holda ehtiyotkorlik va noziklik bilan bajarishdan iborat.

Bunday mehmonxonalar butun dunyoda mavjud bo’lib masalan, Fransiyadagi eng nufuzli mehmonxona hisoblangan va dunyodagi eng hashamatli mehmonxonalarni o'z ichiga olgan mashhur Dorchester Group tarkibiga kiruvchi **“Meurice mehmonxonasi”**dir. O'zining 183 yillik faoliyati

davomida mehmonxona uch marta 1907, 1947 va 2000 yillarda rekonstruksiya qilingan. Ta'mirlash loyihasini amalga oshirgan me'mor va dizayner Meurice bu mehmonxona nafaqat Parijdagi eng qadimgi mehmonxona ekanligini balki bu mu mehmonxona Parij tarixini bir qismi ekanligini yaxshi anglagan. Ajoyib obidalar bilan to'la Parijda insonlarni hayratda qoldirish qiyin bir davrda ushbu mehmonxona ochildi va unga tashrif buyurgan mehmonlarni hayratlatira oldi.



Рисунок 2.1-rasm. Faransiyadagi "Meurice" mehmonxonasi.

Parijni butun dunyo uchun mehmonhona deb atashadi chunki bu erda ko'plab mehmonhonalar mavjud ularning aksariyati yangidan ta'mirlangan eski obidalarda joylashgan. Shulardan biri **"Saints-Peres" mehmonxonasi** ilgari eski saroy bo'lgan keyinchalik uni restavratsiya qilib mehmonhonaga aylantirilgan. Yana bir shu kabi mehmonxona **"Lotti" mehmonxonasi** 1910 yilda ochilgan bo'lib, bu mehmonxona nomerlari Lyudovik XV va Lyudovik XVI uslubida yaratilgan ilk mehmonxona edi. 1889 yilda qurilgan **"Lankaster" mehmonxonasi** 1996 yilda ikkinchi imperiya davri uslubida to'liq qayta ta'mirdan chiqarildi. Parijning qoq markazida buyuk va yagona **"Ritz" mehmonxonasi** joylashgan bo'lib bu erga kelagan mehmonlar o'zlarini qirollar saroyida yurgandek his qiladilar. Bu mehmonxonada mehmonlar orzu qilishi mumkin bo'lgan hamma narsa mavjud: marmar usunlar, anfiladalar, nafis salonlar, bog'lar, hashamatli nomerlar. [3]

Evropa shaharlari bo'ylab sayohat qilar ekansiz, havosi tarix, an'analar va hurmat ruhi bilan to'yingan bunday mehmonxonalarda qolib, ma'lum bir mamlakatning haqiqiy o'ziga xosligini to'liq his qilishingiz mumkin.

So'nggi paytlarda tarixiy binolarda joylashgan mehmonxonalarning me'moriy echimiga biroz boshqacha yondashilmoqda. Binoning tashqi fasadi va umumiy eski ko'rinishini saqlagan holda yangi uslub va ruhdagi interyer dizayn yaratmoqda.

Londonning Trafalgar maydonida 5 yulduzli **"One Aldwych" mehmonxonasi** joylashgan bo'lib, mehmonxona keskin kontrast bilan ajralib turadi. Mehmonhonaning egasi me'mor arxitektordan soddalik, mustahkamlik va obro' - e'tiborni uyg'unlashtirib, ayni paytda zamonaviy va esda qolarli loyiha yaratishni talab qilgan. Natijada dunyodagi eng ajoyib va hashamatli mehmonxonalardan biri paydo bo'ldi. 90- yillarda urfga kirgan bu mehmonxonaning uslubini zamonaviy klassika deb atashdi va bu mehmonxona "Butik - Otel" nomini oldi.

Ushbu moda tendensiyasi keyinchalik keng tarqala boshladi. Bularga misol tariqasida Fransiyadagi **"Pergolese" va "Montalembert" mehmonxonalarini** keltirish mumkin. Bu mehmonxonalarda ham eski binolarni zamonaviy uslubda qayta ta'mirlanganini ko'rishimiz mumkin. Hattoki Germaniyaning kichik Pegnitz shaxrida ham **"Plaums Posthotel" mehmonxonasi** ham tashqaridan tarixiy fexverk uslubida ichki dizayni esa zamonaviy hay tek uslubida yaratilgan.

Bugungi kunga kelib har bir halqning urf odatlari, milliyligini yanada anglash ko'pchilikka qiziq bo'lmoqda. Bu esa o'z o'rnida mehmonhonalar umumiy imidjini milliy uslubda yaratishni talab etmoqda. Dunyo bo'ylab har bir halq va elatlarning milliyligini ochib beruvchi mehmonxonalar ko'paymoqda. **"Ryokan" mehmonxonasi** yaponiyaning milliy uslubida yaratilgan bo'lib, mehmonxona nomerlari jixozlari yaponiya milliy mebellari bilan jixozlangan. Bu mehmonxonaga

kelgan mehmonlar qadimda yaponlar qanday sharoitda yashaganlarini his qilish imkoniga ega bo'ladi.

O'zbekistonda ham bugungi kunda turizm sohasiga bo'lgan e'tibor yanada kuchaymoqda. Yurtimiz jahon sayyohlik bozorida o'z o'rniga ega bo'lishiga qaramasdan, turistlarga qulay sharoit yaratish, servis xizmatini yaxshilash, sayyohlik obidalarining jozibadorligini oshirish va reklamani kuchaytirish darajasi juda past. Shuning uchun bu borada sezilarli o'sish haqida fikr yuritish ana shu omillarga bog'liq. Mamlakatimizda turizmni rivojlantirish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilyapti. Sayyohlar oqimini yanada oshirish, ularni ohanrabodek jalb qilish uchun nima qilishimiz kerak?

O'zbekiston katta tarixiy-madaniy merosga – 7300 dan ortiq qadimiy-me'moriy va arxeologik obidalarga ega. Ularning ko'pchiligi Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz, Termiz, Qo'qon va Toshkent shaharlarida joylashgan. Yurtimizdagi 200 dan ziyod tarixiy yodgorlik va obidalar YuNeSKOning madaniy merosi ro'yxatiga kiritilgan. Nahotki shuncha tarixiy va boy madaniy meroslarimiz bo'la turib, ularni dunyoga tanita olmasak? Buning uchun bizda arzigulik va maqtagulik boy tarixiy merosimiz etarli. Birgina Fransiyaning Parij shahriga yiliga 15 million sayyoh tashrif buyurar ekan. Biz esa har yili sayyohlar sonini sanashdan, o'tgan yildagidan biroz ko'paygan bo'lsa, uni baralla ovoza qilishdan nariga o'tmayapmiz. Raqamlarda mamlakatimizga 1 million 800 ming nafar sayyoh tashrif buyurgani qayd etilgan. Agar mamlakatimizda asosiy sayyohlik mavsumi mart oyining o'rtalarida boshlansa va dastlabki mavsum yakuni iyun oyi so'ngiga qadar bo'lsa, shu davr mobaynida shuncha sayyoh kelib ketishini tasavvur qilish qiyin. [2]. Qolaversa, bizda mehmonxonalar etarli emas, bori ham Yevropa mamlakatlarining mehmonxonalari narxi bilan deyarli teng va har yili narx sezilarli darajada o'sib bormoqda. Bu borada yana Parijga «murojaat» qiladigan bo'lsak, u erda shahar va uning atrofidagi hududlardagi mehmonxonalar soni 4.260 tani tashkil etar ekan. Bizda esa bu ko'rsatkich respublika miqyosida 4 yarim barobarga past, ya'ni, yurtimiz bo'yicha atigi 750 ta mehmonxona mavjud.

Joriy yilning 22 dekabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev parlamentga Murojaatida barcha sohalar qatorida turizm sanoati borasida quyidagi fikrlarni bildirdi:

«Hozirgi kunda milliy iqtisodiyotga yuqori daromad keltiradigan istiqbolli tarmoqlardan biri – bu turizmdir. O'zbekiston turizm sohasida dunyo bo'yicha ulkan salohiyatga ega bo'lgan davlat hisoblanadi. Yurtimizda 7300 dan ortiq madaniy meros obektlari mavjud va ularning qariyb 200 tasi YuNeSKO ro'yxatiga kiritilgan.

Shu bilan birga, mamlakatimizning betakror tabiati, go'zal dam olish maskanlari imkoniyatlaridan foydalanib, yangi turistik yo'nalishlar ochish mumkin. Bu sohaga jahon brendlarini faol jalb etgan holda, biz ziyorat turizmi, ekologik, ma'rifiy, etnografik, gastronomik turizm va bu sohaning boshqa tarmoqlarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratishimiz zarur. Bu borada davlat-xususiy sheriklik munosabatlarini qo'llash sohani taraqqiy ettirishda keng imkoniyatlar ochishini hisobga olishimiz lozim. [1]

Samarqand, Buxoro, Toshkent shaharlaridagi muqaddas qadamjolar va yodgorliklarni ziyorat qilish dasturini rivojlantirish va jadallashtirish zarur. Ichki turizm sohasidagi katta imkoniyatlarni ham to'liq ishga solish lozim».

Shuningdek, davlatimiz rahbarining 2016 yil 2 dekabrdagi «O'zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni sohada uchrayotgan xato va kamchiliklarni bartaraf etib, uni izchil rivojlantirishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.

Prezidentimiz mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisida turizm haqida so‘z yuritar ekan, bunday serdaromad soha rivoji e'tibordan chetda qolib kelayotgani, uning O‘zbekiston iqtisodiyoti taraqqiyotiga qo‘shadigan hissasini oshirish, tarixiy va madaniy qadriyatlarimizni targ‘ib qilish, shuningdek, valyuta zaxiralarini to‘ldirish bo‘yicha aniq chora-tadbirlar ko‘rilishi zarurligini alohida ta'kidladi.

Sayyohlarni yurtimizga jalb qilishda yangi qurilayotgan mehmonxonalarning arxitekturaviy imidji katta hamiyatga ega. Hozirgi kunda yurtimiz tarixiy markazlaridagi tarixiy obidalar yaqinida ko’plab mehmonxonalar barpo etilmoqda ammo bu mehmonxonalarning me’moriy echimi tarixiy shaxar uslubiga mos kelishi tarixiy binolarimiz uslubi bilan uyg’un bo’lishi kerakligi haqida o’ylab ko’rish kerak. Chunki yurtimizga tashrif buyuruvchi aksariyat sayyohlar bizning boy tarixiy merosimiz, qadriyatlarimiz, urf odatlarimiz bilan yaqindan tanishish uchun tashrif buyuradilar. Bunday mehmonlarni hay tek, klassika uslubidagi mehmonhonalar bilan hayratga solib bo’lmaydi. Shuning uchun tarixiy shaxar markazlaridagi mehmonxonalarni me’moriy imidji haqida to’liq o’ylab chiqish lozim. Tarixiy shaxarlarimizda qulishi kerak bo’lgan mehmonxonalar zamonaviy bo’lishi bilan birga tarixiy naqshlar, bezaklar, ustunlar, me’moriy, elementlarni tarixiyligicha saqlab qolgan bo’lishi kerak. Yurtimizdagi tarixiy obidalar me’moriy echimida gumbaz, arka, ustun kabi me’moriy elementlar ishlatilgan, ularni bezashda qadimiy naqshlarimizdan foydalanilgan. Yangi mehmonxonalar qurilishida ham ana shu elementlarni stilizatsiyasidan foydalanilsa mehmonhona imidji tarixiy shaxar umumiy imidi bilan hamohang holda bo’lishiga, mehmonxonaga tashrif buyuruvchi mehmonlar soni ortishiga hizmat qiladi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. SU Ziyodullayevna, A.D Amriddinovich, S.D Abduhabirovna. Architectural solutions of national style hotels in historic cities. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 10 (6), 1149-1151
2. Architectural Solutions of National Style Hotels in Historical Cities. SU Ziyodullayevna, MZ Erkinovich. European journal of innovation in nonformal education 2 (12), 118-121
3. Elmurodov, S., Matniyazov, Z., Saidxonova, U., & Abdujabborova, D. (2022). Principles of Location of NonStationary Trade Objects in the Zoning Method. *Journal of Architectural Design*, *13*, 8-13.
4. Matniyazov, Z. E., Saidkhanova, U. Z., Shaumarova, D. A., Elmurodov, S. S., Daminova, U. O., & Abdujabborova, D. D. (2022). Distinctive aspects of hotel interior design and equipment. *Journal of northeastern university*, *25*(4).

Internet manbaalar:

1. www.Lex.uz
2. www.Uzbekistan.travel.uz
3. www.Tourlib.net

UO‘K 72.0 12 + 711.4.012

THE CONCEPT OF "DESIGN-CODE" AND ITS MAIN FEATURES

M.S. Akromova.

Tashkent University of Architecture and Civil Engineering, Uzbekistan

Annotation. *The design code defines the main design elements, which are the most important for each specific area. The design code encourages architects and planners to find creative solutions according to the basic design elements defined for a particular environment to meet the requirements defined as essential.*

Аннотатsiя. *Дизайн код определяет основные элементы дизайна, которые являются наиболее важными для каждой конкретной области. Дизайна код побуждает архитекторов и планировщиков находить творческие*

решения, в соответствии с основными элементами дизайна, определенными для конкретной среды, чтобы соответствовать требованиям, определенным как существенные.

Ключевые слова: *нормы проектирования, стандарты, графические правила, графические элементы, рекомендatsii, ген.план, компоненты, градостроительные нормы.*

Key words: *design code, standards, graphic rules, graphic elements, guidelines, master plan, components, urban design code.*

A design code is a set of rules, norms and requirements that define how a particular city should look to planners and other interested parties - a model set of outdoor advertising, building facades, signs and colors.

The design code regulates the placement of signs, their size and design so that they do not overwhelm the building, but become part of the city and emphasize its architecture. a set of illustrated design requirements that provide precise detailed parameters. The graphic and written components of a code for the physical development of a site or area should be based on a design vision, like the master plan or other design and development framework for the area. It is informed by the spatial master plan or other urban design proposals and describes the rules through words and graphics.

Design is important in presenting an exclusive design. As a result of recent reforms, the government has ensured that good design and planning work are not mutually exclusive, and has set the rules for creating quality good areas on the ground. Design codes can play an important role in driving these reforms by applying them to continuous quality improvement.

Design codes are a reliable form of design guidance. Developed with the right skills and experience, and effectively used, design codes are key to achieving one of the key objectives for the new housing planning policy, which is to ensure that all housing is well designed and built to a high standard[1].

Design Codes provides practical and practical advice, local authorities, developers and other key stakeholders on how to prepare and use design codes effectively.

The urban design code is a set of rules and recommendations for the design of signs and outdoor advertising, building facades and adjacent areas. It encourages owners and tenants of establishments to adhere to the same design of establishment names, information boards and storefronts on the facades of buildings to which the design code applies.

Design codes are one of the open options for local authorities and designers to achieve high quality and good place design [2]. Although this is not the only option, if used effectively it reflects local needs and provides greater opportunities for local authorities and designers to achieve transparent, streamlined and collaborative quality design.

Over time, more design teams will adopt this new approach and help develop knowledge of how to use this flexible tool to achieve a quality urban environment. The following are basic definitions of design codes:

• Design codes are a new approach to improving design quality. They help to design the best design in advance by investing resources to simplify further processes.

• Design codes are a special form of detailed design guidance that contains a set of written and graphic rules that clearly define the two and three-dimensional design elements of a particular development or area.

• Provisions in design codes are technical and precise. They guide (and sometimes advise) the user about the physical components of a place.

• Design codes are a means of delivery. To be effective, they must be based on a clear vision of the project for the site or area.

• Extensive evidence demonstrates their potential to improve design quality and provide a more defined, streamlined and coordinated manufacturing process.

• Design codes confirm cultural changes in design and the shift to a spatial approach to design.

No one sets out to design and create poorly designed, characterless spaces. However, many of the areas being developed today continue to exhibit these characteristics. Recent large-scale trials in England have shown that design codes have significant potential to help address these challenges by serving to ensure the creation of high-quality districts in a more efficient and effective way. Some of the potential benefits of design codes include:

• Developing a broader environmental project for small producers at the local level.

• The positive sense of place and high economic value that quality design can bring.

• A more accurate planning process, taking into account a clear climate for investment.

• Simplifying development controls, which saves time and money for developers and local authorities.

• A more coordinated development process based on consensus instead of confrontation.

Design codes are a special form of detailed design guidance. A design code is a set of written and graphic rules that precisely establish how the two and three-dimensional design elements of a given project or area relate to each other without defining the overall result.

The purpose of a design code is to specify the items that constitute an acceptable design solution for a particular area or site, thereby providing a level of certainty for developers and the local community [3].

Design codes define design principles aimed at providing better quality places, such as requirements for streets, blocks, boulevards, etc., or they may focus on landscape, architectural or building performance issues (such as improving energy efficiency). However, unlike many general urban design guidelines or local development standards, design codes do not simply reproduce rules or guidelines found in other national or local policy or guidance documents. Instead, codes make a positive statement about the specific characteristics of a place. Codes focus on design features that are important to achieve and establish and reliably record design elements that "must be". In this way, codes help ensure continuity in quality and consistency over time[4].

To achieve this purpose, design codes often need to be based on the design concept of the master plan or the appearance of another place or area. Sometimes they can go beyond the scope of design and drafting. In both cases, the set of design guidelines that make up design codes reflect the specific requirements of a location.

References

1. Lavrentiev Alexander N, Nazarov Yuri V. Russian Design. Traditioin and Experiment. 1920-1990. - Berlin: Academy Editions, 1995.

2. Баринова, Е. Я. Применение дизайн-кода в пешеходных пространствах / Е. Я. Баринова // Наука,образование и экспериментальное проектирование. – Москва, 2015. – С. 677-683.

3. Романова, Д. Н. «Дизайн код» существующего государственного благоустройства / Д. Н. Романова /

4. Традиции и инноватsii в строительстве и архитектуре. Градостроительство. – Самара, 2018. – С. 264-266.

5. Янчевская, М. А. Дизайн-код транспортной системы навигатsii / М. А. Янчевская // Научная палитра. Краснодар, 2018. – С. 23-36.

6. Архсовет Городской дизайн [Электронный ресурс] / Зарубежный дизайн-код: как работают правила на европейских улицах // – Режим доступа: https://archsovet.msk.ru/article/city-design/zarubezhnyy-dizayn-kod, свободный.

7. Вестник Строительство. Архитектура. Инфраструктура [Электронный ресурс] / Первая пятилетка благоустройства // – Режимдоступа: http://www.vestnikstroy.ru/articles/infrastructure/2017/14888.html, свободный.

2-SHO‘BA:
SHAHARSOZLIK VA LANDSHAFT ARXITEKTURASINING DOLZARB MUAMMOLARI HAMDA AMALIY YECHIMLARI
СЕКЦИЯ №2:
АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ И ПРАКТИЧЕСКИЕ РЕШЕНИЯ ГРАДОСТРОИТЕЛЬСТВА И ЛАНДШАФТНОЙ АРХИТЕКТУРЫ
2-MEETINGS:
ACTUAL PROBLEMS AND PRACTICAL SOLUTIONS OF URBAN PLANNING AND LANDSCAPE ARCHITECTURE

УДК 725.94

ШАҲАРСИЗЛИК НАЗАРИЯСИ ВА АМАЛИЯТИДА, ИННОВАТSION, ХУДУДИЙ ФАЗОВИЙ РЕЖАЛАШТИРИШНИНГ ТАМОЙИЛЛАРИ

И.С. Байджанов

Урганч давлат университетининг архитектура кафедраси профессори, Фахрий фан доктори, Фан ва техникада хизмат кўрсатган арбоб. Ўзбекистон.

Аннотация; *Мақолада, шаҳарсизлик амалиятида, режалаштиринг назарий харакатларни амалда қўлланиш муоммалари ўз ифодасини топган. Бунда назарияни қўллашда, тўсиқларни излаш ва айрим шаҳарлар мисолида ҳаётда бўлаётган камчиликларни бартараф қилиш ечимлари кўрсатилган. Бошқарувни такомиллаштириш ва шунга мос равишда бутун шаҳарсозлик тизимининг ишлашини оптималлаштириш вазифалари борасида сўз юритилади. Аҳоли пунктларининг бош режалари ва жамоат жойларини ишлаб чиқишда инноватsion ёндашувни амалга ошириш уқтирилади,ёндашувда қонунчилик ва меъёрий талабларни ҳисобга олган ҳолда аҳоли пунктининг архитектура-режавий ривожланишининг фазовий ва бадиий-мажозий дизайнини ишлаб чиқиш муҳимлиги такидланади.*

Abstract. *In the article, the problems of practical application of the theoretical movements of planning in the practice of urbanism are expressed. It shows the application of the theory, the search for obstacles and the solutions to overcome the shortcomings in life in the example of some cities. The tasks of improving management and, accordingly, optimizing the operation of the entire urban development system are discussed. It is recommended to implement an innovative approach in the development of the master plans and public spaces of the settlements, taking into account the legislative and regulatory requirements in the approach, the architectural-planning of the settlement the importance of developing the spatial and artistic-figurative design of its development is emphasized.*

Калит сўзлар: *шаҳарсозлик, фазовий ривожланиш, режалаштириш, бадий мажозий , дизайин, инфратузилма , худудий бирлик, инноватsiя, стратегик режалаштириш, тамойиллар.*

Key words: *urban planning, spatial development, planning, artistic representation, design, infrastructure, territorial unit,innovation strategic planning, principles.*

Шаҳарсизликни фазовий ривожланиш шароитида, кучайиб бораётган кескинлик, режалаштириш билан боғлиқ бир қатор саволларни туғдиради. Биринчидан, режалаштиришнинг ўзи фойдалилиги ҳақида, иккинчидан, шаҳарсозлик амалиёти муаммоларини ҳал қилиш учун режалаштириш назариясининг амалий аҳамияти ҳақида.

Режалаштириш назариясининг амалий қўлланилишининг аҳамияти ҳақидаги шубҳаларни ҳисобга олган ҳолда, Кристер Бенгс ташвиш режалаштириш назариясининг умумий амалий аҳамияти ҳақида бўлмаслиги кераклигини таъкидлайди, бу ерда назарияни қўллашда тўсиқларни излаш керак ва катта эҳтимоллик билан муаммо шундаки, бугунги кунда режалаштириш назарияси амалиётчилар учун етарли кўрсатмалар бермайди. Шу сабабли, юзага келаётган дилеммалар ва юзага келадиган келишувларга жавоб излаш нуқтаи назаридан режалаштиришнинг самарадорлиги ҳақида алоҳида ташвиш пайдо бўлиши мумкин.[4]

Шаҳарсозлик, тадқиқотчиларнинг фикрига кўра, мустақил интеллектуал интизом сифатида амалга оширилмаган, чунки у ўз тамойиллари асосида қурилган барқарор пойдеворга эга эмас. Майкл Гюндер шундай хулосага келадики, у ўзининг асоси бўлмаганда режалаштириш назарияси тобора кўпроқ ҳуқуқ, архитектура дизайни, география, социология ва иқтисод каби фанларга асосланади. Асосий фанлар ўртасидаги мувозанат доимий равишда ўзгариб турганлиги сабабли, шаҳарсозлик назариясининг интеллектуал асослари нафақат мослашувчан, балки барқарор эмас эди.[4]

Шаҳарсозлик салоҳиятини юксалтириш мақсадида узлуксиз шаҳарсозлик таълими шакллари ишлаб чиқилмоқда. Дизайнерлар амалий муаммоларни ҳал қилиш учун назарий жиҳатдан жавоб топа олмайди, деган далилларга жавобан, уларни назария ва амалиётдаги янги ютуқлар билан таништириш механизмлари яратилмоқда.

Бизнинг шаҳарсозлик амалиётимиз тартибга солиш нуқтаи назаридан ҳам, ташкилий такомиллаштириш нуқтаи назаридан ҳам деярли қуролсизланган. Иккинчиси бошқарувни такомиллаштириш ва шунга мос равишда бутун шаҳарсозлик тизимининг ишлашини оптималлаштириш вазифалари билан боғлиқ. бу шаҳар бошқарувини марказсизлаштириш ва қарорлар қабул қилиш жараёнини демократлаштириш вазифалари билан ҳам боғлиқ.[1]

Шуни таъкидлаш керакки, шаҳарсозлик назариясида фазовий тизимларнинг ривожланиш тенденцияларини сиёсий таҳлил қилишга эътибор кучаймоқда. Шундай қилиб, шаҳарсозликнинг муваффақиятлари ва камчиликларини таҳлил қилиб, тадқиқотчилар замонавий жамиятнинг ўзгарган тузилмасини амалга оширадиган замонавий позиция шаклланаётганини таъкидлайдилар.[6]

Ўзбекистон шаҳарларининг бош режаларида жамоат жойларини лойиҳалаш тамойиллари. Шаҳарсозлик назарияси ва амалиётида жамоат жойларини лойиҳалашга доимо катта аҳамият берилган. Олимлар ва дизайнерларнинг шаҳарсозликнинг ушбу жиҳатига эътиборининг ортиши шаҳарнинг режалаштириш тузилмаси ва меъморий-бадиий қиёфасини шакллантиришда жамоат жойларининг асосий роли билан изоҳланади.

Бошқарув, қонунчилик, инвестиция ва қурилиш фаолиятида шаҳарсозлик органлари жамоат жойлари ва ижтимоий инфратузилмани бизнесга фойда келтирмайдиган объектлар сифатида ривожлантиришдан манфаатдор бўлмаган бозор иқтисодиётининг салбий томонларини ўзларига ҳис қилдилар.[1]

Вазият давлат шаҳарсозлик сиёсатидаги қарама-қаршиликлар билан мураккаблашди. Ўзбекистоннинг Шаҳарсозлик кодексида яшаш муҳитини фазовий ташкил этиш сифатидаги шаҳарсозлик фаолияти тушунчаси ўрнига ҳудудий режалаштириш, районлаштириш, ҳудудларни режалаштириш ва архитектура-қурилиш лойиҳалаш каби шаҳарсозлик фаолияти тушунчаси киритилди.

Аҳоли пунктларида жамоат жойларини шакллантириш, бутун Ўзбекистонда аҳоли пунктлари ва шаҳарларни фазовий ташкил этиш муаммоларини ҳал қилиш йўллари бугунги кунда ҳам шаҳарсозлик фани, ҳам шаҳарсозлик соҳасида фаол ривожланмоқда. Ташкент Сити

қандай кўринишини видео визуализатсияси ва фотосуратда кўриш мумкин. https://youtu.be/2_uRfr13l7g

Ташкент Сити лойиҳаси Олимлар томонидан Ўзбекистоннинг фазовий ривожланишининг янги Бош схемаси, Ўзбекистоннинг янги Шаҳарсозлик кодексининг илмий асосларини яратиш, шаҳарсозлик миллий доктринасини янгилаш, шаҳарсозликнинг фазовий ривожланишини ҳисобга олган ҳолда йўналишларда илмий изланишлар олиб борилмоқда, мамлакатнинг инноватsion салоҳияти, аҳоли пунктлари ва шаҳарларни фазовий ташкил этиш, инсон капиталини амалга ошириш учун фазовий шароитлар яратиш.[7]

Мазкур йўналишларга мувофиқ мамлакатимиз олий ўқув юртларида шаҳарсозлик кадрларини тайёрлаш бўйича магистратура дастурларини амалга оширувчи илмий-тадқиқот ишлари олиб борилмоқда.

Асосий тартибга солиш ёндашуви - бу ҳеч қандай махсус ижодий ишланмалар ва қўшимча материалларсиз шаҳарсозлик ҳужжатларининг таркиби ва мазмуни бўйича фақат қонунчилик ва меъёрий талабларни амалга оширишдир.

Норматив-ижодий ёндашувда қонунчилик ва меъёрий талабларни ҳисобга олган ҳолда аҳоли пунктининг архитектура-режавий ривожланишининг фазовий ва бадиий-мажозий дизайнини ишлаб чиқиш муҳим рол ўйнайди. Ижодий концепцияни очиш учун муаллифлар ташаббуси билан қўшимча материаллар ишлаб чиқарилиши мумкин, масалан, функционал режалаштириш ва композицион тузилмани ташкил қилиш, жамоат марказларини жойлаштириш ва жамоат жойларини ривожлантириш схемалари.[2]

Бундай ёндашувни амалга оширишга мисол тариқасида Тошкент шаҳрининг бош режаларини келтириш мумкин. 2030-йилгача Тошкентнинг видеовизуализатсияси. https://youtu.be/1qaibW_bBio

Стратегик ёндашув нафақат қонунчилик ва тартибга солувчи талабларни амалга ошириш, балки стратегик режалаштириш тамойиллари ва усулларидан фойдаланиш, шаҳарсозлик стратегияси концепциясини ишлаб чиқиш билан боғлиқ. Ушбу ёндашув доирасида бош режани ишлаб чиқишда аҳоли пунктининг шаҳарсозлик вазифаси, шунингдек, мақсад, вазифалар, устувор йўналишлар, стратегик дастур ва лойиҳалар, стратегик фазовий ривожланишнинг ўлчанадиган мезонлари аниқланади.[3]

Бундай бош режада кўрсаткичлар ва объектларнинг иккита шкаласи ажралиб туради - норматив ва стратегик; шаҳарсозлик стратегиясини ва тегишли режалаштиришни очиб берувчи схемалар тузилади.

Мисол, келажакда Урганч шаҳрининг Бош режасини ишлаб чиқишда стратегик ва шаҳарсозликнинг ўзаро алоқадорлиги тамойиллари ва усуллари сезиларли ривожланди. Ўзбекистонни 2021-йилгача бўлган даврда узоқ муддатли ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси (“2017-2021-йилларда Ўзбекистонни ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегияси”) ҳам мавжуд соҳаларни ривожлантиришга кучли туртки бўлди.

Шаҳарсозликнинг инноватsion ёндашуви, шунингдек, инноватsion ва стратегик деб аташ мумкин бўлган янги ёндашувни шакллантириш. Инноватsion ёндашув бош режаларда янги шаҳарсозлик ечимларини ишлаб чиқиш ва уларни амалга ошириш механизмларини такомиллаштириш ва самарани баҳолашга қаратилган.

Ушбу ёндашув доирасида шаҳарсозлик санъати, шаҳар фан ва техникаси ютуқлари, Тошкент вилоятидаги “Тўйтепа” лойиҳаси муаллифларининг ижодий салоҳиятидан бугунги кунда фаол фойдаланилмоқда. Инвесторларни танлаш, инвестицияларни районлаштириш

схемаларини шаҳар ҳокимлиги ва аҳолиси билан келишишга алоҳида эътибор қаратилмоқда.[2]

Инвестицион сайтларни режалаштириш ва ривожлантириш тақдимот лойиҳалари (бош режалар, ривожланиш лойиҳалари) шаклида ишлаб чиқилади, улар архитектура ва режалаштириш ечимлари, ҳажмли моделлар, сканерлар, компютер визуализатsiяси вариантларини ўз ичига олиши мумкин. Аҳоли пунктларининг бош режалари ва жамоат жойларини ишлаб чиқишда инноватsion ёндашувни амалга оширишга ана шундай лойиҳалар мисол бўла олади. Ўзбекистондаги биринчи ақлли шаҳар видео визуализатsiяси. ва сурат. https://youtu.be/biFNJ2lOzGg Тўйтепа лойиҳаси Тошкент вилояти

Инноватсион-стратегик ёндашув стратегик режалаштириш тамойиллари ва усулларидан фойдаланиш, инноватsion архитектура-режалаштириш, муҳандислик ва бошқа ечимларни ишлаб чиқиш асосида мавжуд бош режаларни янгилаш ёки янгиларини ишлаб чиқиш билан боғлиқ. Бундай ёндашув бугунги кунда 2017-2021 йилларда Ўзбекистонни ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясига мос келади.[3]

Урганч шаҳрининг чегараларини тизимли ва босқичма-босқич кенгайтириш ва асосан шимолий-ғарбий йўналишда (Шовот, Гурлен) ривожлантириш, ерлардан функционал имкониятлардан келиб чиқиб оқилона фойдаланишни таъминлаш орқали шаҳарсозлик фаолиятини ташкил этиш самарадорлигини ошириш. шаҳарни районлаштириш;

Шовот каналининг шаҳар қисмини каналини бетонлаш йўли билан реконструкция қилиш, унинг қирғоғи бўйлаб замонавий ландшафт архитектураси ва ҳудуднинг тупроқ-иқлим шароитига мос келадиган яшил манзарали кўчатлардан фойдаланган ҳолда рекреатsiя зонасини шакллантириш, янги боғлар ва боғлар барпо этиш шаҳарлар аҳолиси, айниқса, ёшлар ва сайёҳларнинг дам олиши ва ҳордиқ чиқариши учун замонавий маданий-кўнгилочар иншоотлар;





Расм-1 Шавот канали *Расм-2 Урганч маркази*

Урганч шаҳрининг ташқи меъморий қиёфасини тубдан сифат жиҳатидан ўзгартириш, кўчалар, маҳаллалар ва турар-жой массивларини ободонлаштириш ва кўкаламзорлаштириш бўйича кенг кўламли ишларни амалга ошириш, атроф-муҳитга зарар етказувчи ишлаб чиқаришларни шаҳардан босқичма-босқич олиб чиқиш, сўнгра шаҳар ҳудудидаги қурилиш ишлари олиб борилмоқда.

Ўзбекистон шаҳарларининг бош режаларида жамоат жойларини лойиҳалашнинг заиф томонлари шундан иборатки, фақат аҳоли пунктлари, туманлар ва шаҳар туманлари маъмурий чегаралари доирасида ишлаб чиқилган, бош режалар кўпинча ички ва ташқи объектлар ўртасидаги боғлиқликни ўрнатмайди, меъморий ва табиий ландшафт маконлари тизимлари, жамоат жойларини ривожлантиришда туманлараро ҳамкорликни таъминламайди.[7]

Ушбу тамойилни лойиҳалаш ва қўллашнинг кучли томонлари жамоат жойларини ривожлантиришда туман субъектларининг биргаликдаги манфаатлари зоналари (шериклик ҳудудлари) белгиланиши ва лойиҳалаштирилиши билан боғлиқ.

"Катта" шаҳарларнинг маҳаллий аҳоли пунктларини шакллантириш бўйича мавжуд бўлган ёки янги концепцияларни (стратегияларни) ишлаб чиқишни ҳисобга олиш;

-Фазовий кластерлар.

Структуризация - ижтимоий, ишлаб чиқариш, рекреатсион ландшафт, транспорт ва тарихий-маданий инфратузилманинг жамоат жойларини шакллантиришни назарда тутувчи тамойил; жамоат жойларининг рамкасини ажратиш (аҳолининг функционал фаоллиги ошган жойлар).

Структуралашнинг заиф томонлари Ўзбекистон шаҳарсозлик кодексига кўра макон лойиҳалаш объекти ҳисобланмаслиги билан боғлиқ. Демак, баъзи бош режаларда жамоат жойлари ёмон тузилган, уларнинг рамкалари алоҳида ажратилмаган.

Кучли томонлар тузилмавий инфратузилмаларнинг умумий режасида, жамоат жойлари рамкаларида ишлаб чиқишни ўз ичига олганлиги билан белгиланади. Уларни амалга ошириш учун дизайн объектига бўш жойни қонуний равишда киритиш керак.

Иерархия - шаҳар марказининг жамоат жойларини, асосий ва иккинчи даражали кўчалар ва майдонларни, шаҳар учун муҳим жамоат тугунларини ажратиш. Иерархик дизайннинг заиф томонлари шундаки, баъзи бош режаларда жамоат жойлари иерархияси ўрнатилмаган, шаҳар маркази, асосий кўчалар ва майдонларнинг жойлашишини аниқлаш қийин. Бу шаҳарсозлик ҳужжатларининг ахборот мазмунини пасайтиради, фазода(космосда) йўналтиришни мураккаблаштиради.

Кучли томонлар асосий ва иккинчи даражали жамоат жойларини ажратиш шаҳарнинг маълум бир миссиясига эришиш, дастур ва лойиҳаларнинг стратегик йўналишларини амалга оширишни ҳисобга олган ҳолда амалга оширилиши билан боғлиқ. Бу шаҳарсозлик ҳужжатларининг ахборот мазмунини оширади, фазодаги (космосдаги) йўналишни яхшилайди.

Оптималлаштириш - бу шаҳарнинг индивидуал хусусиятларини, стратегик режалари ва дастурларини ҳисобга олган ҳолда, уларни шакллантириш ва ривожлантириш кўрсаткичлари асосида жамоат жойларини ташкил этиш. Оптималлаштириш тамойилидан фойдаланган ҳолда жамоат жойларини лойиҳалашнинг заиф томонлари шундан иборатки, шаҳарсозлик стратегиялари, стратегик режаларнинг шаҳарсозлик бўлимлари ва аҳоли пунктларини ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш дастурлари мавжуд бўлмаганда, жамоат жойларини лойиҳалаш фақат тегишли стандартлар асосида амалга оширилади. нормалар ва қоидаларнинг асоси. Фақат меъёрий, аммо оптимал эмас, ишлаш таъминланади.

Ушбу тамойил бўйича ишлашнинг кучли томонлари норматив талабларни бажариш билан бир қаторда аҳоли пунктларини ривожлантириш бўйича стратегик режалар ёки дастурларни амалга ошириш учун, шу жумладан жамоат жойларини шакллантириш нуқтаи назаридан шаҳарсозлик кўрсаткичлари тизимини яратишни таъминлайди.

Давомийлик – қимматли шаҳарсозлик анъаналарини ривожлантириш, жамоат жойларини функционал ва композицион ташкил этишда тарихий ва маданий меросни сақлаш ва улардан фойдаланиш тамойили. Давомийлик тамойилининг заиф томони жамоат жойларини ташкил этишда тарихий-маданий салоҳият ва анъаналардан етарлича фойдаланилмаётганидир.

Давомийлик тамойилидан фойдаланган ҳолда лойиҳалашнинг кучли томонлари Ўзбекистон Шаҳарсозлик кодексига “тарихий манзилгоҳ” тушунчасини киритиш мумкинлиги билан боғлиқ. "ҳажм-фазовий тузилма". Режалаштириш ва қуриш таркиби ва бошқалар.

Уйғунлаштириш - шаҳарнинг архитектура-архитектура ландшафт ансамбллари тизимини яратиш, унинг индивидуал меъморий-бадиий қиёфасини шакллантиришни ҳисобга олган ҳолда жамоат жойларини композицион ташкил этиш принципи.

Ушбу тамойил билан ишлашнинг заиф томонлари шундаки, бош режаларда кўпинча жамоат жойлари таркибини шакллантириш, умуман шаҳарнинг ансамбл қурилиши учун ижодий ғоя йўқ. Саноат корхоналари майдонларини тартибга солиш ва очиқ яшил майдонларнинг узлуксиз тизимларини яратиш вазифаси етарлича ҳал этилмаяпти.

Ушбу тамойилнинг кучли томонлари қуйидагилардан иборат: унинг эстетик фазилатларини яхшилаш ва инвестиция жозибадорлигини ошириш шарти сифатида жамоат жойларини ва умуман шаҳарни композицион ташкил этиш учун концептуал ва бадиий дизайн ва стилистик ечимларни ишлаб чиқиш мавжуд.

Уйғунлаштириш принципидан фойдаланиш умумий режаларни ҳажмли ва меъморий ва бадиий моделлар, компютер визуализatsiяси, шунингдек дизайндаги композицион тилни тиклаш билан қўллаб-қувватлаш имконини беради.

Шаҳар атроф-муҳитининг ҳолати. Маълумки, шаҳарлар турли тарихий даврларда янги давр талаб ва имкониятларига мослашган ҳолда яратилган ва шаклланган. Ижтимоий, иқтисодий, илмий ва маданий ҳаёт марказлари биринчи навбатда шаҳарларда жамланган. Шаҳар азалдан тараққиёт тимсоли, ижтимоий тараққиёт бешиги бўлиб келган.

Шаҳар муҳитининг қониқарсиз ҳолати, бир томондан, алоҳида манфаатлар бутун жамият манфаатларидан устун бўлган бундай ривожланиш жараёнининг натижасидир; иккинчи томондан, бу бошқа давр томонидан яратилган аҳоли пунктлари тизимининг сақланиб қолиши ёки бу тизимнинг яқинлашиб келаётган ижтимоий-иқтисодий ривожланишга зид бўлган шундай усул ва воситалар билан ривожланиши оқибатидир.

Замонавийлик тушунчаси, албатта, вақт ўтиши билан ўзгаради ва агар биз шаҳарни ривожланаётган, қурувчи ва қайта қурувчи шаклланиш деб ҳисобласак, унда замонавийлик тушунчаси ҳар бир ҳолатда давр талабларига жавоб берадиган тарзда белгиланиши керак. . Биз келажакда шаҳарсозликнинг асосий тамойилларини шакллантиришда ушбу таърифга амал қиламиз.

Адабиётлар:

1. Байджанов И.С. «Взгляд : городское управление . г. Екатеринбург изд. «RIDERO» 2019 г. 389. стр. https://ridero.ru/books/vzglyad_gorodskoe_upravlenie/
2. Байджанов И.С. « Принципы преобразования городских общественных пространств» г.Екатеринбург изд. “RIDERO” 2018 г. 164. стр.
3. https://ridero.ru/books/principy_preobrazovaniya_gorodskikh_obshestvennykh_prostranstv/
4. Байджанов И.С. “ Основные принципы устойчивого развития городов” . г. Екатеринбург изд. “RIDERO” 2018 г. 792. стр.
5. https://ridero.ru/books/osnovnye_principy_ustoichivogo_razvitiya_gorodov/
6. Моисеев Ю.М. Градостроительная интерпретatsiя социального заказа: Хартия общественного пространства. Архитектура и строительство России 2015 г. № 10 https://sim-arch.ru/article/126
7. Город и ландшафт; (проблемы, конструктивные задачи и решения) /Владимиров В.В., Микулина Е.М., Яргина З.Н., М,; Мысль,1986.
8. https://elima.ru/books/?id=5215
9. Байджанов И.С. Мулоҳаза: шаҳар назарияси. г.Екатеринбург изд.”RIDERO” 2021г. 234 стр.

10. https://ridero.ru/books/mulo_aza_sha_ar_nazariyasi/
11. Байджанов И.С. “Принципы территориально-пространственного планирования”. г. Екатеринбург изд.”RIDERO” 2018г.100стр.
12. https://ridero.ru/books/principy_territorialno-prostranstvennogo_planirovaniya/

UDK: 711.01/.09

XORAZM TURIZM HUDUDLARI RIVOJLANTIRISH TAMOYILLARI

Arx.b.f.d., dotsent, Z.E. Matniyazov., A.Sh. Ibadullayev
Toshkent arxitektura-qurilish universiteti. O’zbekiston.

Annotatsiya: *Xorazm butun dunyodan ko'plab sayyohlarni o'ziga jalb etuvchi Markaziy Osiyodagi eng qiziqarli mintaqalardan biri. Ushbu maqolada biz Xorazmning asosiy turistik hududlarini ko'rib chiqamiz, shuningdek, ushbu mintaqada turizm va me'morchilikni rivojlantirish masalalarini muhokama qilamiz.*

Kalit so’zlar: *turizm arxitekturasi, tarixiy yodgorliklar, sayyohlik hududlari, dizayn kod, me’moriy konseptsiya, turistik xizmat ko’rsatish obyektlari, yashil hududlar, ma’daniy meros.*

Abstract: *Khorezm is one of the most interesting regions in Central Asia, attracting many tourists from all over the world. In this article, we will consider the main tourist areas of Khorezm, as well as discuss the issues of tourism and architecture development in this region.*

Key words: *tourism architecture, historical monuments, tourist areas, design code, architectural concept, tourist service facilities, green areas, cultural heritage.*

Kirish. Xorazm-Markaziy Osiyodagi tarixiy-madaniy mintaqa bo‘lib, mintaqa o'zining diqqatga sazovor joylari va go'zalliklari bilan sayyohlarni o'ziga tortadigan bir qancha turistik hududlar mavjud. Xorazmning eng mashhur sayyohlik hududlaridan biri Xiva – O‘zbekiston g‘arbida joylashgan qadimiy shahardir. Bu shahar o‘zining qadimiy me’morchiligi, jumladan, qal’alari, masjidlari, maqbaralari va boshqa tarixiy binolari bilan mashhur. Xiva Ipak yo‘lidagi muhim savdo markazi bo‘lib, Markaziy Osiyodagi o‘rta asr musulmon me’morchiligining eng yaxshi namunalaridan biri hisoblanadi.

Xorazmning yana bir sayyohlik hududi – ko’hna Urganch shahri bo’lib ikki ming yil avval tashkil topgan. Ko’hna Urganch - Xorazm viloyatining poytaxti, boy tarix va ajoyib me'morchilikka ega shahar. Ko’hna Urganchda Qutlug' Temur minori, To’rabekxonim maqbarasi, Sulton Tekesh maqbarasi, Najmiddin Kubro maqbarasi, Qirqmulla tepaligi kabi ko'plab tarixiy binolar va me'moriy yodgorliklarni ko'rishingiz mumkin. [1].

Tuproqqal’a — hozirgi Qoraqalpog‘iston hududida joylashgan qadimiy qal’a. Bu Xorazmdagi asosiy arxeologik yodgorliklardan biri bo‘lib, u erda qadimiy binolar xarobalarini ko‘rish va tarix muhitini his qilish mumkin [2].

Ўрта Осиёнинг илк ислом даври шаҳарлари исломдан олдинги V-VIII аср шаҳарларидан андаза олган эди ва 3-қисмдан: арк, шаҳристон ва рабод қисмларидан иборат эди. В.В.Бартольд томонидан тавсифланган ва А.Ю.Якубовский томонидан ривожлантирилган бу фикрда арк-ҳукмдорнинг мустаҳкамланган қалъаси, шаҳристон-аристократ деҳқонларнинг уй-жойлари жойлашган шаҳар ва рабод-ҳунарманд ва савдогарлар яшайдиган ташқи шаҳар деб таърифланган. С.Хмельницкийнинг фикрича, исломдан олдинги даврда рабодлар энди шаклланаётган эди. Демак, Ўрта асрларда шаклланган шаҳарлар асосан уч таркибий қисмни ўз ичига олган: Арк, Шаҳристон ва Рабод. Аркда ҳукмрон қалъаси ва давлат идоралари; Шаҳристонда Жомеъ масжиди, бозорлар, ва турар-жойлар; Рабодда эса ҳунармандлар устахоналари ва улгуржи савдо бозорлари жойлашган. Арк ва Шаҳристон мудофаа деворлари билан ўраб олинган. Баъзи шаҳарларда рабод атрофи ҳам девор билан ўраб олинган [4].

Ҳозирги даврда архитектуравий-лойихавий структураси бўйича шаҳарларнинг тўғри чизиқли ривожланиши қулай ҳисобланади. Тўғри чизиқли ривожланиш бир қанча афзалликларга эга:

-Унда турар-жойлари ҳудудларини иш жойлари ва дам олиш жойлари ҳудудлари билан максимал равишда яқинлаштириш имконини беради;

-Шаҳар жамоат марказини шаҳар ривожланиши билан чизиқли кенгайтириш имконини яратади;

-Транспорт ва пиёда йўллари тизими ихчамлашади ва уларни ташкиллаштириш осонлашади;

Шаҳарнинг чизиқли ривожланишининг асосий камчилиги-худудий ривожланиш кўплаб километрга чўзилиб кетганда, шаҳар структураси ўзининг режавий ва таркибий яхлитлигини йўқотиши мумкин. Шунинг учун баъзи совет даврида фаолият олиб борган архитекторлар радиал-ҳалқали схемадан фойдаланишни афзал деб тан олишган эди. Бу схеманинг асосий камчилиги шундан иборатки, турар-жойлар билан ўралган шаҳар маркази ривожлиниш имконига эга бўлмайди. Саноат корхоналари эса шаҳар худудий ривожланиши натижасида турар-жой массивлари ичида қолиб кетиши мумкин.

Совет даврида фаолият олиб борган архитектор Н. Ладовский ўтган асрнинг 20-чи йилларида радиал-ҳалқали ва чизиқли шаҳарлар ижобий хусусиятларини ўзида жамлаган янги “параболик” структурани таклиф қилди. Унга кўра шаҳарнинг мавжуд марказини сақлаб ва ривожланирган холда, қолган барча қисмларини хам текис ривожлантириш имконини яратади.

Машхур француз архитектори Ле Корбюзье ўтган асрнинг 50-чи йилларида Ҳиндистоннинг Панжоб штати пойтахти Чандигарх шаҳри бош тарҳида ўзининг шаҳарсозлик ғоясини амалга оширди. Чангидарх шаҳрининг архитектуравий-режавий структураси иссиқ иқлим шароитида қурилишга мўлжалланган шаҳар намунасидир. Ле Корбюзье фикрича ушбу шаҳарнинг лойихалаш асосий тамойиллари қуйидагича:

-шаҳарнинг асосий композицион ўқи жанубий-ғарбдан шимолий-шарққа қараб йўналтирилган. Бундай ориентatsiя асосий кўчалар бўйича жойлашган биноларни қуёш нурларидан сақлайди;

-шаҳар режасининг тўғри чизиқлилиги ва унинг тўғри бурчакли бир хил блоклардан ташкил топиши аҳолининг турли ижтимоий қатламлари учун бир хил имкониятларни яратади;

-умум шаҳар ижтимоий маркази узининг жойлашуви бўйича шаҳарнинг барча қисмлари учун бир хилда етарлидир;

-шаҳарнинг кўкаламзорлаштирилган тизими турар-жой массивларидан ўтувчи кенг ободонлаштирилган хиёбон шаклида ташкиллаштирилган;

-саноат корхоналари шаҳардан ташқарига чиқарилган;

-шаҳарда транспорт алоқалари patsionал тарзда ташкил қилиниб, магистрал ва кўчалар мантиқан тўғри ташкиллаштирилган.

Ўтган асрнинг 50-чи йиллари ўртасида грек шаҳарсози К.Доксиадис келажак шаҳарсозлиги бўйича ўзининг ғояларини эълон қилди. Доксиадис фикри бўйича келажакда бир неча шаҳар ўзаро бирлашиб, йирик мегаполисни ташкил қилади. Ҳозирда дунёнинг турли мамлакатларида ўнлаб йирик мегаполислар шаклланган. Доксиадис назарияси бўйича жамият ва илмий техник ривожланиш натижасида келажакда “экуменополис”-шаҳарларнинг йирик агломератsияларига ўсиб ўтиши амалга ошади [5]. Доксиадис ўзиниг келажакдаги урбанизатsія тушунчасига вақт омилини (тўртинчи ўлчов) асосийларидан бири деб таъкидлаган. У моноцентрик режавий тузилишга эга динамик шаҳар ғоясини илгари суради. Шаҳарнинг худудий ўсиши бир томонлама чизиқли тизимга айланади. Ўтмишдаги статик шаҳарлар қайта қурилиб, замонавий шаҳарга айланади ва унинг маркази кенгаяди. Шаҳар ўсиши шундай ташкил қилинадики, эски шаҳарлар йўқ бўлиб кетмайди ва кейинги элементларни ўз ичига олган ҳолда тўсиқсиз худудий ва марказ элементларини ривожланишига эришилади. Динамик шаҳар маркази танланган йўналишда эркин ҳолда ривожланади ва шаҳар ўсишига мутаносиб равишда мослиги таъминланади. Доксиадисга кўра динамик шаҳарлар ривожланишида 4 босқич мавжуд: Янги шаҳарларнинг режавий тузилиши асосан 3 хил схемага эга: -режавий

тузилишни компакт радиал ҳалқали схемаси. Ушбу схема асосида шаклланган шаҳарларнинг келажакдаги ривожланиши чекланган бўлади;-режавий тузилиши чизиқли шаклда бўлган шаҳарларда турар-жой, жамоат марказлари, дам олиш жойлари, саноат зонаси ва бошқа қисмлари параллел тарзда жойлашиб, келажакда шаҳар ривожланиши учун имконият яратилади;-режавий тузилиши сийраклаштирилган шаклдаги шаҳарлар таркибида кенг парклар ёки қишлоқ хўжалиги ерлари мавжуд бўлиб, келажакда ушбу ерлар ҳисобидан шаҳар ривожланиши амалга оширилади [6].



Марказий Осиё ҳудудидаги қадимги давлатлар харитаси

Хулоса / тавсиялар. Архитектуравий-лойихавий структураси бўйича шаҳарларнинг тўғри чизиқли ривожланиши қулай ҳисобланади. Тўғри чизиқли ривожланиш бир қанча афзалликларга эга:

-Унда турар-жойлари худудларини иш жойлари ва дам олиш жойлари худудлари билан максимал равишда яқинлаштириш имконини беради;

-Шаҳар жамоат марказини шаҳар ривожланиши билан чизиқли кенгайтириш имконини яратади;

-Транспорт ва пиёда йўллари тизими ихчамлашади ва уларни ташкиллаштириш осонлашади;

Шаҳарнинг чизиқли ривожланишининг асосий камчилиги-худудий ривожланиш кўплаб километрга чўзилиб кетганда, шаҳар структураси ўзининг режавий ва таркибий яхлитлигини юқотиши мумкин. Шунинг учун баъзи совет архитекторлари радиал-ҳалқали схемадан фойдаланишни афзал деб тан олишган эди. Бу схеманинг асосий камчилиги шундан иборатки, турар-жойлар билан ўралган шаҳар маркази ривожлиниш имконига эга бўлмайди. Саноат корхоналари эса шаҳар худудий ривожланиши натижасида турар-жой массивлари ичида қолиб кетиши мумкин.

Фойдаланилган (манбаа) адабиётлар рўйхати

1. Ноткин И.И. Эволюционно–структурные процессы в среднеазиатском градостроительстве XVIII-XIX вв.// Градостроительство и архитектура-Ташкент, 1989.-С. 81.

2. Ш.Дж. Ачилов. Архитектурно-планировочная организatsiя сельских поселков Узбекистана. Учебное пособие. Ташкент. Изд. “Ўқитувчи”. 1992.

3. Авазов.Р.Ш. Самарқанд теряет свою архитектурную самобытность.- http://sv.zarmevws/uz/post/raxim-avazov-samarqand-teryayet-svoyu-arxitekturnuyu-samabitnost-1545043824;

4. Турсунов Х.К.,Бакирханов Ф.Ф., Умаров М.У. Градостроительство Узбекистана: некоторые итоги и ориентиры развития. // Архитектура и строительство Узбекистана, 2001, № 3-4-С.23-29.

5. Турсунов Х.К. Урбанистический потенциал Узбекистана.// Архитектура и строительство Узбекистана, 2000, №2-3-С4-7

6. Ноткин И.И. Эволюционно-структурные процессы в среднеазиатском градостроительстве XVIII-XIX вв.// Градостроительство и архитектура-Ташкент, 1989-С.81.Ата-Мирзаев О.Б.Региональное прогнозирование расселения и управление процессом урбанизatsiи-Ташкент:Фан, 1979-92с

UO'K 725.94

АҲОЛИ ЖОЙЛАШУВИДА КИЧИК ШАҲАРЛАР

Доц, М.М. Хидиров. СамДАҚУ., Ф.Б. Эсиргапов.
Тошкент архитектура-қурилиш университети. Ўзбекистон

Аннотатсия: *Шаҳарсозликда аҳоли жойлашуви орқали мамлакат ҳудудида шаҳарлар ва бошқа аҳоли яшаш пунктларининг биргаликда, ўзаро боғлик ҳолда фазовий-ҳудудий жойлашиш тизими тушунилади. Аҳоли жойлашуви асосида кичик шаҳарларнинг режалаштириш принциплари, унинг функционал-лойиҳавий тузилиши, транспорт алоқалари, ҳудудларнинг ўзлаштириш тартиби ва даврийлиги, реконструкция ишларининг тартиби ва даврийлиги, жамоат марказларининг архитектуравий шакллантирилиши, жамоат жойларининг ландшафт ва эстетик ечимлари аниқланади.*

Abstrac *In urban planning, through settlement, a system of joint, interdependent spatial-territorial settlement of cities and other settlements on the territory of the country is understood. On the basis of the location of the population, the principles of planning of small cities, its functional and design structure, transport links, the order and periodicity of the development of territories, the order and periodicity of reconstruction work, the architectural formation of public centers, landscape and aesthetic solutions of public places are determined*

Аннотатсия. *В городском планировании под расселением понимается система совместного, взаимозависимого пространственно территориального расселения городов и других населенных пунктов на территории страны. Исходя из расположения населения, определяются принципы планировки малых городов, их функциональная и дизайнерская структура, транспортные связи, порядок и периодичность застройки территорий, порядок и периодичность реконструкционных работ, архитектурное формирование общественных центров, ландшафтные и эстетические решения общественных мест. решительный.*

Калит сўзлар*: Шаҳарсозлик, аҳоли жойлашуви, мамлакат ҳудуди, функционал алоқалар, агломератsiя, шаҳар ва қишлоқ*

Keywords*: urban planning, settlement, country area, functional communications, agglomeration, urban and rural.*

Кириш қисми Шаҳарсозликда аҳоли жойлашуви орқали мамлакат ҳудудида шаҳарлар ва бошқа аҳоли яшаш пунктларининг биргаликда, ўзаро боғлиқ ҳолда фазовий-ҳудудий жойлашиш тизими тушунилади. Бошқача сўз билан айтганда аҳоли жойлашиши деганда мавжуд аҳоли яшаш жойларини ривожлантириш ва янгиларини барпо қилиш орқали ҳудудларда аҳолининг тақсимланиш жараёни тушунилади.

Асосий қисм Шаҳарсоз олим Г.Лаппо таърифи бўйича аҳоли жойлашуви "ҳудудий яхлит ва узаро функционал алоқаларга эга аҳоли жойларининг ушбу яхлитликда алоқалари ривожланиши натижасида шаклланади". Яна олим таъкидлашича "замонавий шаҳарсозлик илми агломератsiяни аҳоли жойлашувининг асосий шакли деб қарайди". Агломератsiя бу "шаҳар ва қишлоқ аҳоли жойларининг компакт шаклда ҳудудий гуруҳланиши бўлиб, турли алоқалар орқали динамик тизимни ташкил қилади" [1, 46-49 б].

Агломератsiялар моноцентрик ва полицентрик шаклда ташкил топади. Моноцентрик агломератsiя атрофида йўлдош шаҳарлар мавжуд бўлган йирик ва катта шаҳар асосида шаклланади. Ушбу турдаги агломератsiяда ишлаб чиқариш ва маиший алоқалар ва алоҳида ҳудудларнинг марказ шаҳар билан алоқалари меҳнат ва маданий-маиший тебранма мигратsiя орқали амалга ошади. Моноцентрик агломератsiя марказий, ўрта ва ташқи зоналарга бўлинади. Моноцентрик агломератsiяда аҳоли жойларининг иерархик структураси ва марказга

интилувчи алоқалар кучли ривожланади. Агломератсіянинг полицентрик шакли “алоҳида марказ шаҳарлар асосида шаклланиб, улар нисбатан мустақил ривожланиб, ҳудудий яхлитликни ташкил қилишади” [2,4б.]. Замонавий шароитларда моноцентрик агломератсіялар асосида полицентрик агломератсіялар шаклланиш тамойили ривожланмоқда.

Йирик агломератсіялар таъсир доирасида кичик шаҳарларда аҳоли жойлашувининг маҳаллий тизимлари шаклланиши мумкин. Жойлашувининг маҳаллий тизимлари ҳудудий ихчам шаклда бўлиб, ишлаб чиқариш, ижтимойи хизмат ва транспорт тизимлари орқали боғланишга эга бўлади. Агломератсіялар ривожланиши бўйича комплекс ёндошув Г.М.Лаппо томонидан баён этилган:“ҳозирда агломератсіяларнинг шаклланиши табиий жараён бўлиб, замонавий иқтисодий ва ижтимоий ривожаниш омиллари агломератсіон тамойилларни тезлаштиради”[2, 8б.].

Агломератсіялар структурасининг тадқиқоти шуни кўрсатадики жойлашувнинг маҳаллий тизимлари йирик агломератсія ва аҳоли жойлари тармоғи ўртасидаги фазони эгаллайди. Йирик агломератсія структураси асосида марказий ядро (ёки бир неча ядро) билан бир қаторда маҳаллий тизимларни ташкил қилувчи элементлар ҳам муҳим ахамиятга эга. Шундай тизимларнинг архитектуравий-фазовий ташкил этилиши агломератсіялар шаклига таъсир кўрсатади. Айнан маҳаллий тизимларнинг шаклланиш шартлари ва мавжуд муаммоларини ўрганиш агломератсіялар ривожланиш йўналишларини аниқлайди ва назоратсиз урбанизатсія жарёнларини олдини олиш имкониятларини яратади. Маҳаллий аҳоли жойлашув тизимларининг асосий хусусиятларини, худди агломератсіядаги каби, таянч марказлар иерархияси, аҳоли жойлари ўзаро боғликлиги ва интенсив фазовий алоқалар аниқлайди. Аҳоли жойлашувининг архитектура-лойихавий шаклланишини турли омиллар (тарихий шаклланиши, эгаллаган жойи, иқтисодий ва ижтимоий шароити, экологик вазияти) асосида ташкил топади ва бутун агломератсія структурасида асосий аҳамият касб этади.

Кичик шаҳарларни гуруҳли аҳоли жойлашувининг республика ҳудудларида (вилоятларида) географик жойлашуви асосида уларнинг агломератсіон алоқалари аниқланди. Унга кўра кичик шаҳарларнинг агломератсіон алоқаларининг уч тури аниқланди:-агломератсія марказидан

-10-40 километр узоқликдаги зонада жойлашган йўлдош кичик шаҳарлар;

агломератсія марказидан 41-80 километр узоқликда жойлашган буфер зонадаги кичик шаҳарлар;

-агломератсія марказидан 81-120 километр ва ундан узоқроқда жойлашган периферик зонадаги кичик шаҳарлар;

Аниқланган агломератсіон алоқаларга боғланган ҳолда

-юқорида келтирилган уч зона бўйича аҳоли жойлашуви ва ишлаб чиқариш кучларининг тақсимланиш схемалари ишлаб чиқилади;

-ҳудудларнинг ривожланиш дастурларида кичик шаҳарларнинг перспектив ривожланиш йўналишлари ва лойиҳалари аниқланади;

-кичик шаҳарларнинг режавий-структураси, ижтимоий, мухандислик ва транспорт инфраструктурасининг ривожланиши аниқланади;

-шаҳарнинг режавий ва морфологик параметрлари (конфигуратсіяси, фазовий структураси) аниқланиб, таъбиий-антропоген комплексига таъсири аниқланади;

-кичик шаҳарлар архитектуравий лойиҳалаш принциплари, архитектура лойихавий тизимларининг фарқланувчи кўрсатгичлари аниқланади;

Тадқиқотлар натижаларида ишлаб чиқилган тавсиялар ҳудудлар (вилоятлар) доирасида кичик шаҳарлар ихтисослашуви, уларга жалб қилинадиган инвестициялар ва уларга бериладиган преференциялар (имтиёзлар), маҳаллий ҳокимиятларнинг ер ажратиш (кичик шаҳарлар чегарасига киритиладиган ерларни танлаш) ва молиявий масалалар бўйича ваколат ва мажбуриятлари, кичик ва ўртача бизнесни ривожлантириш йўллари аниқланади[3, 11 б.]

Кичик шаҳарларнинг режалаштириш принциплари, унинг функционал-лойиҳавий тузилиши, транспорт алоқалари, ҳудудларнинг ўзлаштириш тартиби ва даврийлиги, реконструкция ишларининг тартиби ва даврийлиги, жамоат марказларининг архитектуравий шакллантирилиши, жамоат жойларининг ландшафт ва эстетик ечимлари аниқланади. Бу ечимлар ҳудудлар (вилоятлар) ривожланиш дастурларининг таркибий қисми сифатида ишлаб чиқилади.

Фойдаланилган адабиётлар руйхати

1. Лаппо, Г.М. Проблемы изучения городских агломератsій / Под ред. Г.М.Лаппо, Ф.М. Листетенрутта -М:Институт географии АН СССР, 1988-76с
2. Лаппо, Г.М. Агломератsии России: инноватsионный потенциал страны / Г.М. Лаппо // Журнал о градостроительстве и архитектуре «GRADO» -2011-№001-С46-49
3. Analytical report «Improving urban management and cities infrastructurein Uzbekistan: troubleshooting and registration of new mechanisms and tools» Center of economical research of Uzbekistan. 2011/06.

UO'K 712.03

RESPUBLIKAMIZ BOG'-PARK ME'MORCHILIGINING BUGUNGI QIYOFASI

N.J. Kariyeva,
Urganch davlat universiteti, O'zbekiston.
M.B.Aminboyeva
Toshkent arxitektura-qurilish universiteti. O'zbekiston.

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O'zbekiston shaharlarida joylashgan qator bog' majmualarining zamonaviy landshaft arxitekturasi yoritilgan.*

Аннотатсия: *В данной статье рассказывается о современной ландшафтной архитектуре ряда парковых комплексов, расположенных в городах Узбекистана.*

Annotatsiya: *This article describes the modern landscape architecture of a number of park complexes located in the cities of Uzbekistan.*

Kalit so'zlar: *landshaft, bog'-park, ko'kalamzorlashtirish, "Bog'i Bobur", xiyobon, ta'mirlash, qayta qurish.*

Ключевые слова: *ландшафт, парк, озеленение, «Парк Бабура», аллея, ремонт, реконструкция.*

Key words: *landscape, park, greening, "Babur Park", avenue, repair, reconstruction.*

Bog'-rog'larni barpo etish borasida istiqlol me'morchiligiga bir nazar tashlab, o'tgan yillar davrida amalga oshirilgan ishlarning ko'lamini ahamiyati va mohiyatini, me'morchilik sohasida erishilgan asrlarga teng bunyodkorlik ishlari bajarilganligini, respublikamiz shahar va tumanlarning bugungi qiyofasi tubdan o'zgarib, go'zallashib borganligi borasidagi qilingan ishlarni tahlil qilib chiqish zarur.

O'zbekistonning tabiiy iqlim xususiyatlari rang-barang: gullab turgan bog'lar va qum barhanlari, issiq va quruq yoz, qaynar mineral suv buloqlari, dalalari va qorli tog'lari salqin yon bag'irlari - bular hammasi quyoshli O'zbekiston landshaftini tashkil qiladi.[1]

Bino va inshootlar arxitekturasining yashil tabiati, suv, landshaft unsurlari bilan uzluksiz uyg'unligini bir ansambl, maydon, ko'cha va nihoyat shahar va butun mamlakat miqyosida izlab

topish hozirgi kun shaharsozlari, arxitektorlari va dizaynerlarining zimmasidagi vazifa hisoblanadi. O'rta Osiyo feodal davlatlarining ahvoli tanglashuvi natijasida qadimdan rivojlanishi davom etib kelayotgan bog' qurish san'ati XVII-XIX asrlarga kelib o'zining jahonga mashhur an'analari va ustachiligini bir qadar yo'qotganiga qaramay yaqin-yaqinlargacha bog' yaratish san'atining dekorativ usullari saqlanib qolgan. O'rta Osiyo arxitekturasida ko'p asrlardan buyon davom etib kelayotgan landshaft tashkil etishning bunday progressiv usullalari ayniqsa O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin yangi mazmun bilan boyidi. Oldinlari bog'-parklarni sug'orish ishlari mahalla markazlari va maydon yonlarida joylashgan hovuzlar orqali amalga oshirilgan bo'lsa, hozirgi vaqtda O'zbekiston bog'-parklar majmuasi katta-katta sun'iy suv havzalari, kuchli va chiroyli dekarativ favvoralar, sun'iy suv purkash uskunalariga egadir. Hozirgi kunda Respublikamiz bog'-park majmualarida zamonaviy landshaft arxitekturasi asosan sug'orish va ko'kalamzorlashtirishda mavjud bo'lgan muommolarni shaharsozlik va iqlim shart-sharoitlari bilan uzluksiz uyg'unlikda echilishini taqoza etadi. Bu jihatlar hayotda sinalgan ko'kalamzorlashtirish va sug'orish xalq usullaridan va an'analaridan keng foydalangan holda landshaft arxitekturasini zamonaviy talablar darajasiga ko'tarishni talab qiladi.

Andijon shahri markazida joylashgan Alisher Navoiy nomli dam olish va istrohat bog'i to'liq qayta ta'mirlanib, kirish qismi zamonaviy va milliy uslubda qurildi va kirish qismida alloma uchun haykal o'rnatildi. (1-2-rasmlar).

Bog' Andijon shahrining Yangi turmush MFY o'ramidagi A.Navoiy shoh ko'chasida joylashgan bo'lib, umumiy er maydoni 105 000 kv.m ni tashkil etadi. Bog'ning bosh rejasi birinchi jahon urushi davrida asirga tushgan nemis millati injenerlari tomonidan yaratilgan. 1930 yilda esa mazkur istirohat bog'i qurib bitqazilgan. Bugungi kunda o'zining ko'rkam va salqinligi bilan ajralib turadi.



1-rasm. Andijon shahridagi Alisher Navoiy nomli bog'ning kirish qismi



2-rasm.Alloma sharafiga o'rnatilgan haykal

SHaharning "Bog'ishamol" dahasida bobokalonimiz Zahiriddin Muhammad Bobur xotirasini abadiylashtirish uchun "Bog'i Bobur" oromgohi-ziyoratgoxi bunyod etildi. Bog' Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 510 yilligi munosabati bilan 1993 yilda foydalanishga topshirilgan. 357 gektar maydonni egallagan bog' Kobul shahridagi «Bog'i Bobur»ga qiyosan qurilgan. Bog'ga kirish uchun sharqona uslubda qurilgan marmar darvoza yo'lakdan ko'p pog'onali zinalar orqali yuqoriga ko'tariladi. Birinchi supachada Boburning haykali o'rnatilgan. Yuqoriroqda «Bobur va jahon madaniyati» muzeyi qad ko'targan. Uning moviy gumbazi ichidagi va devoridagi bezak rasmlari «Boburnoma» asari mazmunida chizilgan.




3-rasm.«Bog'i Bobur» bog'i (rasmlar olingan manba Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi matbuot xizmati)

Muzeyning ikki yonidan o'tgan marmar zinali yo'l yana ham yuqoriga, so'nggi supaga ko'tariladi. Bu erda Boburning ramziy qabr-sag'anasi (Kobuldagi Bobur qabri tuprog'idan olib kelib qo'yilgan) joylashgan. Ramziy qabrdan yuqoriga ketgan yo'l bolalar o'yin maydonchalariga olib chiqadi. Istirohat bog'ining yuqorisiga uzunligi 2 kilometr bo'lgan osma yo'l ham o'rnatilgan. Bog'da hunarmandchilik buyumlari do'koni, shuningdek, choyxona, oshxona va boshqa dam olish maskanlari bor. Alohida dam olish joyida kontsert sahnasi, kurash va boshqa musobaqalar o'tkaziladigan maydon qurilgan. Bog'da daraxtlar ekilib ko'kalamzorlashtirilib 20 xildan ortiq mevali, 10 dan ortiq manzarali daraxtlar ekilgan, dam olish va ovqatlanish uchun oshxona va choyxonalar qurilgan. (3-rasm).

Namangan shahri markazida salobatli viloyat va shahar hokimliklari yonida pastkam ko'rimsiz binolar o'rnida bunyod etilgan Bobur xiyoboni go'zal maskanlardan biriga aylandi. Bugungi kunda Bobur Mirzo haykali va uning atrofidagi yilning barcha faslida ham birdek yashnab turgan maysalar kishining bahru dilini ochadi, kayfiyatini ko'taradi. (4-rasm).

Hiyobon hududi kunduzi o'zgacha qiyofada, tunda esa favvoralar yog'dusi bilan uyg'unlashib, ajoyib bir manzara kashf etadi. Bolalar dam olish hududida kichik me'moriy shakllar milliy arxitektura elementlaridan foydalanilgan. O'ynash maydonchasida katta choynak bog'qiyofasini yanada boyitgan. (5-rasm).





4-rasm. Zahiriddin Muhammad Bobur haykali (rasmlar olingan manba orex.com)

5-rasm. Bobur parkidagi katta choynak (rasmlar olingan manba orex.com)

Namanganda Mashrab nomli va Andijonda Bobur nomli bog'lari, Buxoro viloyatida Naqshbandiya tariqatining asoschisi Xo'ja Bahouddin Naqshband me'moriy majmualari ta'mirlanib, katta obodonchilik ishlari bajarilganligi ulkan voqea bo'ldi.

Farg'ona va Quvada ulug' munajjim, qomusiy olim al-Farg'oniy 1200 yillik yubileyi munosabati bilan qilingan keng miqyosdagi obodonchilik na'munalari – al-Farg'oniy oromgoxi, Quva SHahristonining tiklanishi vatanimiz ko'rkiga ko'rk bo'lib qo'shildi. (6-rasm).




6-rasm.Farg'ona shahridagi al-Farg'oniy nomli park (rasmlar olingan manba www. Fergana. Info)

SHuningdek, islom dunyosida alloma Imom al-Motrudiy qabri ustida Samarqandda qurilgan yodgorlik majmui, butun dunyo tan olgan buyuk ajdodlarimiz, Burhoniddin al-Marg'uloniy tavalludining 912 yilligi munosabati bilan Marg'ilon shahrida qad ko'targan yodgorlik majmualari ham qadimiy an'analarimizga asoslangan istiqlol me'morligimizning betakror obidalariga aylanib qoldi.

O'zbekistonda qayta qurilayotgan qadimiy shaharlar taraqqiyotini Toshkent shahri misolida yaqqol ko'rishimiz mumkin. Toshkent shahrini qayta qurish bosh rejasi "Eski shahar" bilan "Yangi shahar" o'rtasidagi farqini yo'qotib, Toshkentni bir butun shaharga aylanishiga qaratilganligi bilan diqqatga sazovordir. Birinchi darajadagi amaliy ishlar qatoriga "Eski shahar" bilan "Yangi shahar"ni o'zaro bog'lovchi qadimda tor, arava yuruvchi Navoiy ko'chasini 66 metrgacha kengaytirilishi va bu ko'cha bo'ylab 3 - 4 qavatli turar joylar, kinoteatr, mamuriy binolar qurilishi, hiyobon bunyod etilib, Alisher Navoiy haykali o'rnatilishini aytib o'tish joiz. Toshkentdagi Alisher Navoiy nomli milliy bog' qatorida respublikamiz bo'ylab juda katta bunyodkorlik ishlari amalga oshirildi.[2]

Vatanimizning bosh maydoni Toshkentning – Mustaqillik maydonida xalqimizning tarixiy xotirasi va qadrlash salohiyati yanada mujassamlashtiruvchi aziz maskan bunyod etilgan .Bunday xotira-qadrlash maydonlarining viloyat markazlarida ham qurilishi xalqimiz ruhini yanada ham ko'tarmoqda. Jumladan Yunusobodda barpo etilgan "SHahidlar xotirasi" majmui ham xalqimiz ruxini ko'taruvchi, istiqlol me'morchiligida o'z o'rnini egallagan obidadir. Uning kompozitsion asosini me'morchilikni landshaft bilan uyg'unlashtirish g'oyasi tashkil qiladi.[1]

Diyorimiz O'zbekistonning tarixiy shaharlaridan biri bo'lmish Xorazm zamini ko'plab buyuk voqealari, qutlug' bayramlari va shodiyonalari, yangi-yangi inshootlar qurib bitkazilishi guvohi bo'lgan zamindir.

Hozirgi kunda Xorazm viloyati markazi Urganchda katta qurilish, obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish ishlari olib borilmoqda. Bular zamonaviy uslublarda qad ko'taryapdi. Bularga misol qilib SHovot kanali bo'yining ikki chekkasi obodonlashtirilib, kanal qirg'og'i temir panjarlar bilan o'ralib, yo'laklar asfalьt qilinib skameykalar qo'yildi, kanalga yangi kemalar olib kelindi, bu er kechasi ham huddi kunduzgidek yop-yorug' bo'ladi.

Bu erdagi obodonlashtirish park san'atini alohida bir qismini tashkil qiladi. Ular uzoq vaqtdan beri tashkil qilinib kelinyabdi. Parkni rejalashtirish maqsadga, joylashgan joyiga, iqlimga, relьefga, tuproqga, bog'liqdir. Bu erda shahar shovqinidan, jimjitlikda, chiroyli tabiat quchog'ida dam olish uchun, bo'sh vaqtini, turli qiziqarli narsalar bilan shug'ullanib o'zini qobilyatini namoyon etib, o'z ish faoliyatini tiklab ketadigan maskandir. Xulosa qilib shuni ta'kidlash kerakki, zamonaviy o'zbek shaharsozligi landshaft dizayni bilan uyg'unlikda rivojlanmoqda.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Qodirova. "O'zbekistonning istiqlol yillari me'morchiligi",T.2004.
2."Me'morchilik va qurilish muammolari". 4/2004 y. 47 b.

UDK: 711

AGROTURIZMNING SHAHARSOZLIK TIZIMIDAGI O'RNI

Sh.S. Yusubova

Toshkent arxitektura-qurilish universiteti. O'zbekiston.

Annotatsiya: *Ushbu maqolada agroturizm sohasining iqtisodiy tarmog'i hamda uning xususiyatlari, shaharsozlikdagi o'ziga xos o'rni va agrar soha obyektlariga qiladigan sayohatlarning iqtisodiy masalalari haqida so'z boradi.*

Annotation: *This article will talk about the economic network of the field of agrotourism and its features, its specific place in urban planning and the economic issues of the trips it makes to the objects of the agrarian sphere.*

Kalit so'zlar: *Agroturizm, obyekt, subyekt, qishloq turizmi, sayyohlik, mustaqil turizm.*

Har bir fan va yo'nalishning ilmiy asoslari amaliyot va ilmiy taraqqiyot natijalariga bog'liq holda rivojlanib, o'zgarib boradi. Shu jumladan, agroturizm yangi yo'nalish bo'lsada, uning tarixiy shakllangan ilmiy asoslari mavjud bo'lib, uni yanada rivojlanitirish talab etiladi.

Mamlakatimizda ko'p asrlik boy merosga ega bo'lgan betakror qishloq xo'jaligi va qishloq turmush tarzi sayyohlarni o'ziga jalb etadi. Shuni alohida ta'kidlash zarurki, O'zbekiston dehqonchilikning eng qadimiy o'choqlaridan biridir. Uning hozirgi hududida g'o'za miloddan avvalgi VII-VI asrlardan buyon etishtirilgan. Bundan qariyb 3 ming yil avval g'alla ekinlari, sholi, kunjut, qovun, tok va boshqa mevalar, o'simliklar o'stirilgan va ular o'zining yuqori ozuqa sifati bilan alohida ajralib turadi. Uzoq o'tmish merosi, hozirgi zamon agrar madaniyati mamlaktimizda o'ziga xos qishloq, xo'jalik turlari va an'analari, urf-odatlari bilan bayramlarining shakllanishi barchada katta qiziqish uyg'otadi va agroturizmning shakllanishi hamda rivojlanishiga to'liq asos bo'ladi. Masalan, "Navro'z" bayrami agrar sohaga oid ko'plab qadimiy urf-odatlar, marosimlarni qamrab olgan. Mavjud agrar rekreatsion imkoniyatlaridan to'liq foydalanish, ayniqsa uni agroturizm orqali rivojlantirish va qishloq aholisining farovonligini oshirish dolzarb muammolar qatoriga kiradi.

So'nggi yillarda turizmni rivojlantirish orqali iqtisodiyotni taraqqiy toptirish va xalq farovonligini yuksaltirishga alohida e'tibor berilmoqda. Shu maqsadda 2016 yil 2 dekabrda "O'zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni hamda "O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi Qarori e'lon qilindi. Mazkur normativ-huquqiy hujjatlarda: an'anaviy madaniy-tarixiy turizm barobarida, uning qishloq, ziyorat, ekologik, ma'rifiy, etnografik, gastronomik, davolash-sog'lomlashtirish, ishbilarmonlik, sport turlarini keng ommalashtirish; tizim uchun etuk kadrlarni tayyorlashni tubdan takomillashtirish; sohani kompleks rivojlantirishga doir milliy va hududiy dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish; xalqaro hamkorlikni yangi bosqichga ko'tarish; BMTning Jahon sayyohlik tashkiloti, xorijiy mamlakatlarning shu faoliyat bilan shug'ullanadigan tashkilotlari bilan hamkorlikni kengaytirish; respublikamizning barcha hududlarida turizm industriyasi obyektlarini joylashtirish kabi dolzarb vazifalar ko'zda tutilgan bo'lib, ushbu yo'nalishda muayyan chora-tadbirlar hayotga tadbiq etilmoqda[1].

Shuningdek, sohada boshqaruvni takomillashtirish maqsadida "O'zbekturizm" Milliy kompaniyasi negizida Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi tashkil etildi. Qisqa davr ichida jahon

andozalari darajasidagi o'nlab mehmonxona majmualari va oromgohlar qad rostladi, sayyohlikning yangi turlari va yo'nalishlari vujudga keldi, xorijiy sarmoyalarning kirib kelishi izchil olib borilmoqda. 2020 yilda respublikamizga tashrif buyurgan sayyohlar soni 2mln. 520 ming nafardan ortiqni tashkil etib, 2019 yilga nisbatan 24.3 foizga oshgan. Shu bilan bir qatorda hozirda turizm xizmatlari eksporti 2019 yilga nisbatan 24 foizga oshib 1 mlrd. 557 mln AQSh dollarini tashkil etmoqda. Shuningdek, 2020 yil davomida hajmi 128 ta turoperatorlik xizmatlarini ko'rsatuvchi tadbirkorlik subyektlari tashkil etilib, turoperatorlarning bugungi kundagi soni 561 tani, turizm xizmatlarini ko'rsatuvchi tadbirkorlik subyektlari soni 442 tani tashkil qildi.

Mazkur tadqiqot uchun ibratli xorijiy tajribalarni o'rganish va ulardan mamlakatimizda agroturizmni rivojlantirishda foydalanish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Agroturizm dastlab qishloq, dehqon, fermer turizmi kabi nomlar XX asrning 70-yillaridan boshlab rivojlana boshladi. Xususan, Italiyada 1985 yil 5 dekabrda agroturizm to'g'risida maxsus qonun qabul qilindi. Qonunda turizm bilan shug'ullanayotgam fermerlarga soliq imtiyozlari, imtiyozli bank kreditlari berish belgilandi, informatsion ma'lumotlarni bepul olish imkoniyatlari yaratildi. Bular agroturistik servis va marshrutlarni jadal rivojlantirishni rag'batlantirdi. Natijada 1985 yilda Italiya provinsialarida fermerlar 550 ming agroturistlarni qabul qilgan bo'lsa, 2020 yilga kelib sayyohlarning soni 12 mln. kishidan ortib ketdi, sof daromad esa 750 mlrd. lirani tashkil etdi. Bunday ijobiy tajriba Fransiya, Germaniya va Irlandiya kabi davlatlarda ham agroturizmni rivojlanishiga turtki bo'lib xizmat qildi. So'nggi o'n yilliklarda shunday jarayon Polsha, Chexiya, Bolgariya, Ukraina, Rossiya kabi davlatlarda ham sodir bo'lmoqda.

Agroturizm atamasining ilmiy adabiyotlarda hozirga qadar umume'tirof etilgan aniq ta'rifi ishlab chiqilmagan. Bu borada mutaxassislarning turli qarashlari mavjud va ular o'rtasida printsipial farqlar bor. Chunonchi, N.Tuxliyev va G.Abdullayeva agroturizmni ta'riflashda uni ikkiga, ya'ni qishloq va fermer(dehqon) turizmlariga ajratadi. Ularning fikricha qishloq turizmi - sayyohlik guruhlarini an'anaviy ravishda uzoq qishloq, ovul va poselka yoki ularning atrofida joylashtirishni tashkil etishi, fermer turizmi esa turistlarni fermer xo'jaliklarida joylashtirish bilan farq qiladi. Unda qishloq turizmi faqat sayyohlarni qayerga joylashtirishga qarab ajratilgan. Zero, turizm turistlarni faqat joylashtirish bilan cheklanmaydi. Bunda qishloq turizmi (farm tourism) – turizmning bir turi sifatida qishloq hududlariga yo'naltirilgan sayyohlik ekanligi e'tibordan chetda qolgan. Chunki ushbu turizm turi turistlarga qishloqdagi mahalliy urf-odatlar, tarixiy-madaniy obyektlar bilan tanishtirish kabi vazifalarni ham bajaradi[2].

A.N.Bulgakova fikricha, qishloq turizmi – bu turizmning maxsus turi, qishloq tabiati, hayot tarzi va qishloq xo'jalik yuritish an'analari (professional va noprofessional tarzda) bilan tanishtirish maqsadida qishloq hududlarida tashkillashtirilgan va tashkillashtirilmagan shakllarni o'z ichiga oladigan turistlarning dam olish shakli. Qishloqqa turistlar oqimining ortishi ularning bo'sh vaqtlarini agrolandshaftlar bag'rida o'tkazish, qishloq hayotini his etish va qishloq aholisi bilan muloqotda bo'lish, hatto qishloqda yashash va ishlash xohishi ortib borishi bilan izohlash mumkin. A.N.Bulgakova turizm tushunchalari tizimida qat'iy ierarxiyaga amal qilish zarur deb ta'kidlaydi. "Qishloq joylarida turizm" tushunchasi umumiy bo'lib, u "Qishloq turizmi" tushunchasidan farq qiladi, ya'ni uning sinonimi emas. Masalan, qishloq turizmida turistlar uy hayvonlarini parvarish qilish, mahalliy taomlarni ta'tib ko'rish, qishloqda sayr qilish kabi faoliyatlar bilan shug'ullanishlari mumkin. U tarixiy, diniy, arxeologik, ekologik turlari bilan ham qo'shib olib boriladi. Bunda muallif qishloq turizmiga aniq ta'rif bermagan, uni boshqa turizm turlari bilan qo'shib yuborilish sabablariga aniqlik kiritmagan.

Agroturizm atamasi “agrar” va “turizm” kabi ikki so’z birikmasidir. Bunda turizm so’zi fransuz tilida tourisme – sayohat qilish, dam olish bilan bir qatorda sport va umumtarbiyaviy yoki siyosiy-ma’rifiy vazifalarni bajarish degan keng ma’noli tushuncha. Agrar (lot.agrarius) – 1) erga, erdan foydalanishga, unga egalik qilishga oid; 2)sanoatga nisbatan qishloq xo’jalik mahsulotlarini etishtirish, qayta ishlash va uni realizatsiya qilishbilan bog’liq bo’lgan barcha voqea, hodisa va jarayonlarga oid ijtimoiy munosabatlarni ifodalaydi.

Bizning fikrimizga ko’ra, umumlashtirilgan tarzda, tor ma’noda agroturizm – kishilarning agrar soha obyektlariga qiladigan sayohatlari, keng ma’noda esa u kishilarning doimiy yashash joylaridan muayyan muddatga dam olish, sport bilan shug’ullanish, sog’lomlashtirish, ma’rifiy-ma’naviy kabi vazifalarni ko’zlagan shakldagi qishloq tabiati, hayot tarzi, qishloq xo’jaligi ishlab chiqarishi, uning mahsulotlarini tayyorlash, qayta ishlash, saqlash va realizatsiya qilish bilan bog’liq bo’lgan obyektlarga uyushtiriladigan, tashkil etailadigan sayohatlardir.

O’zbekistonda agroturizmni mustaqil turizm turi sifatida rivojlantirish uchun mavjud nazariy-metodologik asoslarini takomillashtirishni talab qiladi. Shu nuqtai nazardan eng muhim vazifalar qatoriga quyidagilar kiradi: 1.Agroturizmning maqsad, vazifalari va tamoyillarini belgilash; 2.Agroturizmning obyekti va subyektini aniqlash; 3. Agroturizmning predmetini belgilash; 4. Agroturizmning hududiy farqlarini tasniflash va rayonlarga ajratish.

Agroturizmning maqsadi – qishloq hududlarini barqaror rivojlantirishda uning turistik salohiyati va imkoniyatlaridan keng foydalanishdan iborat. Ushbu maqsadni amalga oshirishda jahonda, shu jumladan mamlakatimizda qator mavjud muammolar echimini topish talab etiladi.

Turistlarni o’ziga jalb etuvchi xususiyatlar, salohiyat va imkoniyatlarga ega bo’lgan xilma xil agroturistik obyektlardan quyidagilarni alohida ajratib ko’rsatish mumkin:

-shaharning agrolandshaftlari – ular o’ziga xos ko’rinish va hududiy tashkil etish xususiyatlariga, mahsulot etishtirish texnologiyalar zanjiriga, mahsulotlarni saqlash va realizatsiya qilishning hududiy farqlariga, agroturistik salohiyatiga ega bo’ladi;

- agrar sohasining bir- biridan tubdan hududiy farq qiladigan makrozonal turlarining mavjudligi: - qishloq xo’jalik mahsulotlarini etishtirish, saqlash va realizatsiya qilish bilan bog’liq bo’lgan etnografik odatlar, texnologiyalar, voqea, hodisa va jarayonlarning mavjudligi;

- qishloq aholisining tarixan shaklangan, o’ziga xos agroturistik xususiyatga ega bo’lgan turmush tarzi bilan bog’liq milliy o’ziga xoslik (an’analar, urf-odatlar, marosimlar) [3].

Yuqorida ko’rsatilgan agroturizm obyektlarini har biri muayyan talablarga javob berishi kerak. Jumladan:

- qishloq xo’jaligi ishlab chiqarishi, mahsulotlarni qayta ishlash va realizatsiya qilish jarayonlari bilan uzviy bog’liq bo’lishi;
- o’ziga xos hududiy ko’rinishga egaligi;
- sayyohlarning 24 soatdan ortiq bo’lishini ta’minlaydigan yoki ularning tunab qolish imkoniyatining mavjudligi va boshqalar;
- qishloq hududlarida tabiat yodgorliklari va rekreatsion obyektlarning mavjudligi;
- qishloq xo’jalik ekinlarini etishtirish, saqlash va realizatsiya qilish bilan bog’liq bo’lgan an’analarning mavjudligi;
- irregatsiya va melioratsiya ishlarining o’ziga xosligi;
- qishloq bayramlarining tomoshabinga qiziqarli bo’lishi;

barcha yonalsihlarda tabiat muhofazasi va ekologik xavfsizlikning ta’minlanishi[4].

Agroturizm subyektlari qatoriga yoki uning qatnashchilari toifasiga jismoniy shaxslar (fuqarolar, oilaviy pudratchilar,yakka tartibda faoliyat yuritayotgan tadbirkorlar) va yuridik shaxslar

(fermer va dehqon xo'jaligi, qishloq fuqarolar yig'ini alohida tashkil etilayotgan tashkilotlar va jamoalar)ni kiritish mumkin. Yurudik shaxslarning turizm bilan shug'ullanish faoliyati jismoniy shaxslarga nisbatan davlat, nodavlat va o'zini-o'zi boshqarish organlari tomonidan tartibga solish imkoniyati yuqri bo'lishi bilan ajralib turadi. Shuning uchun ham kelajakda maxsus tayyorgarlik va javobgarlikka ega bo'lgan, agrar yo'nalishdagi turistik tashkilot, birlashma va muassasalarni rivojlantirish maqsadga muvofiqdir.

Agroturizmning obyekti va subyekti o'rtasida uzviylik bevosita uning predmetini aniqlash imkoniyatini beradi. Shu ma'noda, agroturizmning predmetini agroturistik obyektlarning turistik xususiyatlari tashkil etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-2019 yillarda turizm sohasini rivojlantirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora- tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3217-son Qarori (2017 yil 16 avgust
2. Yerdavletov S.R. Казахстан туристский. – Almata:Qaynar, 2000
3. Tuxliyev N., Abdullayeva T. Экологический туризм: сущность, тенденции и стратегии развития. Toshkent: O'zbekiston MIlliy ensiklopediyasi, 2006
4. Usmonov M.R. O'zbekistonda turizm rivojlanishining mintaqaviy xususiyatlari: Toshkent,2003
5. Yakubjanova Sh.T. Agroturizmning – ekologik va iqtisodiy imkoniyatlar manbai.-Ekologiya xabarnomasi, 2017
6. Nigmatov A., Yakubjanova Sh.T. Agroturizm: milliy turizmning yangi yo'nalishi// O'zbekiston qishloq xo'jaligi.-Toshkent, 2007
7. Toshmurodov T. Xalqaro turizm. Toshkent: Turon-Iqbol, 2007

UDK 711

SHAHARSOZLIKDA AGRO LOGISTIK MAJMUALARNI NOL ENERGIYA SARFI BILAN LOYIHALASH AFZALLIKLARI

O.F. Voxidov., F.A.Olimjonova.
Toshkent arxitektura-qurilish universiteti. O'zbekiston.

Annotatsiya. *Agro logistik majmualarni nol energiya sarfi evaziga amaliyotga joriy etish, siyosiy ahamiyatga ega maqbul hududlardagi tub aholi ehtiyojlarini qondirish, yurtimizdagi boniteti yuqori bo`lgan unumdor erlardan oqilona foydalanish va ularni asrab qolish asosi bo`la oladi.*

Аннотатсия. *Внедрение Агро логистических комплексов в практику с нулевым потреблением энергии может стать основой для удовлетворения потребностей коренного населения в политически значимых оптимальных территориях, patsионального использования и сохранения плодородных земель с высоким бонитетом в нашей стране.*

Kalit so`zlar: *Agro logistika, transport infratuzilmasi, aholi punkti, boniteti yuqori er, qayta qurish*

Ключевые слова: *Агро логистика, транспортная инфраструктура, населённый пункт, земля с высокой бонитетнестью, реконструкция*

Yangilanayotgan O'zbekiston va Uchinchi Renessansni qurish bo'yicha qilinayotgan ishlar hamda milliy taraqqiyot istiqbollari haqida so`z borar ekan, yurtimizda bo`layotgan qurilish sohasidagi islohatlar va yangiliklar, ko`z o`ngimizda rivojlanayotgan arxitekturamizda namoyon bo`ladi. Shu o`rinda eslab o`tishimiz kerak bo`lgan kelajak rivoji uchun qo`yilgan tamal toshlari Qozog`iston va O`zbekiston o`rtasidagi qo`shnichilik munosabatlari yanada mustahkamlanib borayotgani hech kimga sir emas.

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Qozog'iston Prezidenti Qasim-Jomart Toqayev taklifiga binoan 2021-yil 5-dekabrdagi Qozog‘iston poytaxti Nur-Sulton shahriga tashrifidagi uchrashuvda ikki qardosh davlat rahbarlari o‘rtasida ittifoqchilik munosabatlari to‘g‘risidagi deklaratsiyaga imzo chekildi. Hujjatda qardosh o'zbek va qozoq xalqlarining hayotiy muhim va uzoq muddatli milliy manfaatlari, ko‘p qirrali sheriklik salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarish maqsadi o‘z ifodasini topgan[1].

Marosimda imzolangan yana bir muhim hujjat yaqin 5 yilda O‘zbekiston va Qozog‘iston o‘rtasidagi tovar ayirboshlashni 10 milliardga etkazish bo‘yicha amaliy harakatlar rejasidir. Unda ikki mamlakat tarmoqlari va hududlari uchun qulay sharoitlar yaratish ko‘zda tutilgan. Davlat rahbarlari huzurida hukumatlararo va idoralararo hujjatlar imzolandi. Bojxona, favqulodda vaziyatlarni oldini olish va bartaraf etish, fazoviy makonni tadqiq etish va undan tinch maqsadlarda foydalanish sohasiga doir hamda “Markaziy Osiyo” sanoat kooperatsiyasi xalqaro markazini tashkil etish to‘g‘risidagi bitimlar shular jumlasidan.

Toshkent va Turkiston viloyatlari, Toshkent va Nur-Sulton shaharlari, Navoiy va Qashqadaryo viloyatlari hokimliklari o‘rtasida hamkorlikni kengaytirish bo‘yicha 2022-2023 yillarga mo‘ljallangan “yo‘l xarita”lari qabul qilindi. Umuman, ko‘p qirrali O‘zbekiston-Qozog‘iston hamkorligining deyarli barcha yo‘nalishlarini qamrab olgan 22 ta hujjat imzolandi.

Bizning Yangilanayotgan O`zbekiston strategiyasiga yangi taklifimiz shundan iboratki, ikki davlat o`rtasida tovar ayirboshlashni 10 milliardga etkazish maqsadini amalga oshirishda O`zbekiston va Qozog`iston chegarasida Agro – Logistika majmuasi loyihalash taklifi ayni muddao bo`ladi desak, yanglishmagan bo`lamiz. Qozog`istonning Turkiston va O`zbekistonning Toshkent viloyatlari hokimliklari o`rtasida hamkorlikni kengaytirish bo`yicha qabul qilingan 2022-2023 yillarga mo`ljallangan “Yo`l xarita”si asosida Agro-Logistika majmuasini ikki viloyat chegarasi hududida loyihalash taklifi iqtisodiy va siyosiy jihatdan barqaror loyiha hisoblanadi.

Qozog`istonning Turkiston va O`zbekistonning Toshkent viloyatlari 4ta nazorat o`tkazish punkti orqali yaxshi qo`shnichilik aloqalarini olib boradi(1-rasm):



1-rasm. Nazorat o`tkazish punktlari[2]

1. Toshkent viloyati, Qibray tumani, “Turkiston” aholi punkti yaqinida joylashgan “Najimov” chegara maskani.

2. Toshkent viloyati, Zangiota tumani, “G`ishtko`prik” aholi punkti yaqinida joylashgan “G`ishtko`prik” chegara maskani.

3. Toshkent viloyati, Toshkent tumani, “Qoplonbek” aholi punkti yaqinida joylashgan “Navoiy” chegara maskani.

4. Toshkent viloyati, Chinoz tumani, “Yallama” aholi punkti yaqinida joylashgan “Yallama” chegara maskani.

Toshkent viloyati, Qibray tumani, “Turkiston” aholi punkti yaqinida joylashgan “Najimov” chegara maskani. Turkiston aholi punkti maydoni 64.05 Ga ni tashkil etadi. Bu hududda 751 nafar aholi istiqomad qiladi. Aholi punktida 1ta harbiy bo`linma, 1ta maktab, mahalla idorasi,

sut mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi korxona va kichik qabriston mavjud. Aholi punkti Toshkent shahri markazidan 44km uzoqlikda joylashgan bo`lib, engil avtomobilda o`rtacha 1.5 soatlik yo`lni tashkil qiladi. Mahalla Fuqarolar yig`ini raisi bilan suhbatlashganimizda hududda barcha kommunikatsiyalar jumladan, ichimlik suvi, oqova suvlar tarmog`i, gaz, elektr va internet muammolari yo`qligi, ushbu tarmoqlar aholiga uzluksiz hizmat qilishini mamnuniyat bilan aytdilar. Shunga qaramasdan hududda shahar bilan bog`laydigan transport infratuzilmasi - avtobus marshrutlari, tibbiy oilaviy poliklinika, bolalar bog`chasi, bolalar uchun o`yin maydonchalari, dorixona, do`kon, bank filialallari va bozorning yo`qligi muammolari mavjudligi ta`kidlandi. Aholining ko`p qismi shaxsiy tomorqa va chorva hisobidan daromad qilishi qayd etildi. Bu huhudga Agro logistik majmuani loyihalash aholi sonini agro logistika markazida ishlash uchun ko`chib keluvchilar hisobiga ko`paytirish, shu bilan birga yuqorida aytilgan muammolarni hal qilish mumkin, hatto mavjud aholi doimiy ish bilan ham ta`minlanadi. Mazkur hudud uchun ushbu loyihaning yana bir ustunlik tomoni aholi punkti atrofi issiqxona va ekin hududlaridan iborat, bu esa loyihani amalga oshirishda hech qanday buzish va qayta qurishlarga hojat yo`qligini ko`rsatadi. Hududni shahar bilan bog`laydigan 4H-797 transport yo`li mavjud. Bu yo`l “Najimov” chegara maskanidan shahar markaziga olib boradi[3].

4H-797 transport yo`li aholi punktini kesib o`tmaganligi yuk mashinalari harakatini engillashtiradi, shuning hisobiga yuk mashinalarining ko`pgina qismi qo`shni Qozog`stondan “Najimov” chegara maskani orqali shaharga kirib keladi. 4H-797 transport yo`li “Najimov” chegara maskani orqali xalqaro A-2 transport yo`liga to`g`ridan to`gri ulanadi.

Toshkent viloyati, Zangiota tumani, “G`ishtko`prik” aholi punkti yaqinida joylashgan “G`ishtko`prik” chegara maskani. G`ishtko`prik aholi punkti maydoni 262.8 Ga ni tashkil etib, aholi zich joylashgan. Aholi punkti Toshkent shahri markazidan 22km uzoqlikda joylashgan bo`lib engil avtomobilda o`rtacha 1 soatlik yo`lni tashkil qiladi. G`ishtko`prik aholi punkti hududini kesib o`tgan M-39 transport yo`li A-2 xalqaro transport yo`liga to`gridan to`g`ri ulangan, shunga qaramay hudud atrofiga yaqin “Urtoq” va “Sanoat” aholi punktlari joylashganligi kelgusida Agro-Logistika majmuasi loyihalanadigan bo`lsa, hududda buzish va qayta qurish ishlarini amalga oshirishga to`g`ri keladi, bu o`z navbatida uylari buzilgan aholini ko`chirish muammosini keltirib chiqaradi[3].

Bundan tashqari M-39 transport yoli aholi punktlari oralab o`tgani yuk mashinalariga va hududda harakatlanadigan engil avtomobillarga noqulayliklar tug`diradi, yuk mashinalari aholi punktlaridan o`tganda erkin harakatlanolmaydi, bu esa ko`pgina noqulayliklarga sabab bo`ladi[4].

Toshkent viloyati, Toshkent tumani, “Qoplonbek” aholi punkti yaqinida joylashgan “Navoiy” chegara maskani. Qoplonbek aholi punkti maydoni 88.3Ga.ni tashkil etadi. Hudud atrofida “Yovarlik” va “Alisher Navoiy” aholi punktlari joylashgan Hudud markazidan “Navoiy” chegara maskani orqali Qozog`istonga olib chiqadigan R-4 transport yo`li o`tgan. Yuqorida “G`ishtko`prik” chegara maskanida bo`lgani kabi “Navoiy” chegara maskanida ham yuk avtomobillari muntazam harakatlanishi noqulayliklarni yuzaga keltiradi.

Toshkent viloyati, Chinoz tumani, “Yallama” aholi punkti yaqinida joylashgan “Yallama” chegara maskani. Yallama aholi punkti maydoni 300.7 Ga ni tashkil etadi. Aholisi zich, Toshkent shahri markazidan 72km uzoqlikda joylashgan bo`lib, engil avtomobilda o`rtacha 1.5 soatlik yo`lni tashkil qiladi. 4R-186 transport yo`li Yallama chegara maskanidan yallama aholi punkti hududidan o`tib M-39 transport yo`liga ulanadi.

Shu sababli bu hududda Agro-Logistika Majmuasini loyihalash yuk mashinalari erkin harakatlana olmasligiga sabab bo`ladi, hudud aholisiga ham bir qator qiyinchiliklar tug`diradi[4].

Yuqoridagilardan hulosa qilib, Agro-Logistika Majmua loyihasi uchun eng maqbul hudud bu Toshkent viloyati, Qibray tumani, “Turkiston” aholi punkti yaqinida joylashgan “Najimov” chegara maskani ekanligiga amin bo`ldik(*2*-rasim).



2-rasm “Najimov” chegara maskani [2]

Agro – Logistik majmua loyihalanayotgan hududda qishloq xo`jaligi, chorvachilik, parrandachilik va agrosanoat tarmoqlari rivojlanishiga moyilligi yuqori hisoblanadi.

Hudud O`zbekistonning Qozog`iston Respublikasi bilan chegaradosh qismida joylashgan. Bu ayni muddao, sababi, ikki davlat chegarasidagi qishloq xo`jaligi jadal rivojlangan hududda logistik majmua loyihalash juda qulay va daromadli, iqtisodiy jihatdan barqaror loyiha hisoblanadi.

Agro –Logistik majmuada ishlash maqsadida hududga ko`chib keladigan aholi qismi uchun kam qavatli kotedj ko`rinishidagi yangi turar-joy hududi tashkil etiladi. Majmua oziq-ovqat ishlab chiqarishga ixtisoslashtiriladi. Barcha oziq-ovqat nol energiya iste`moli, chiqindilar yo`qligi konsepsiyasiga muvofiq ishlab chiqariladi.

Nol uglerod chiqindilari bilan hududda qishloq xo`jaligi erlari, qishloq xo`jaligi maxsulotlarini qayta ishlash sanoati, past va yuqori zichlikli uy-joy, mehmonxona, ko`rgazma markazi, bog`, golf maydoni, qayta tiklangan suv inshootlari, savdo binolari, issiqxonalar va istirohat bog`ining diqqatga sazovor joylari bo`ladi. Tadqiqot labaratoriyalari va transport infratuzilmasi shakllantriladi.

Bu Agro-Logistik majmuada kelgusida milliy don, yog`, oziq – ovqat ishlab chiqarish korporatsiyasi, ip yigirish tsexlari, eng yirik qishloq xo`jaligi kompaniyalari, ish olib boradi.

Butun dunyoda yarim tayyor tabiiy bo`lmagan sun`iy etishtirilgan oziq-ovqat mahsulotlari o`zining arzon narhi bilan haridorlarni jalb qilib, odamlar sog`lig`i va kelajak avlodning nosog`lom dunyoga kelishiga, insoniyatni tanazzulga uchrashiga sabab bo`layotgan bir davrda, bu yarim tayyor va tabiiy bo`lmagan arzon narxdagi oziq-ovqat mahsulotlari O`zbekiston bozorlarini ham chetlab o`tgani yo`q. Natijada istemolchilar immun tizimi zaiflashishiga, yuqumli va allergik kasalliklar ko`payishiga olib kelmoqda.

Loyihalanayotgan Agro-Logistik majmua nafaqat O`zbekiston balki, qo`shni Qozog`iston va u orqali butun dunyo bozorlarini arzon va 100% tabiiy oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta`minlaydi.

Loyiha energiya sarflamaydi, qishloq mahsulotlarini etishyirishda sug`orish - er osti suvlari va sug`orish ko`llari orqali tomchilab sug`orish tizimi asosida amalga oshiriladi, chiqindilar hududda qayta ishlanishi hisobiga chiqindi yo`qligini o`zida mujassam etadi.

Zamonaviy ekologik toza loyiha (3-rasim) haqiqatdan ham insoniyatning sog`lom kelajagidir. Barqaror rejalashtirish resurslarni iste`mol qilishni minimallashtirishga va har bir narsani, shu jumladan, chiqindilarni qayta ishlashga imkon beradi. Ushbu Eko-vodiyning innovatsion rejasi oziq – ovqat va qishloq xo`jaligi mahsulotlarini ilmiy-tadqiqot, tijorat korxonalari va uni qo`llab-quvvatlaydigan uy-joy qurilishi bilan integratsiyalashuvi yanada barqaror natijalarga olib kelishi mumkinligini namoyish etish imkoniyatidir. Umid qilamizki bu loyiha kelajakdagi rivojlanish uchun muvaffaqqiyatli model bo`la oladi.



3-rasim.“Najimov” chegara maskani uchun taklif

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. https://www.trt.net.tr/uzbek/turk-dunyosi/2021/12/06/12345678910-2111-1743720
2. https://earth.google.com
3. https://www.toshvilstat.uz/uz/
4. SHNK 2.07.01-03. Shahar va qishloq aholi punktlari hududlarini rivojlantirish va qurilishini rejalashtirish.

УДК 712

БЛАГОУСТРОЙСТВО И ОЗЕЛЕНЕНИЕ ГОРОДСКИХ ТЕРРИТОРИЙ

Проф. М.А.Талипов., Ш.У.Исроилова., С.А.Маликов

Idishlarni yuvish va dezinfeksiya qilish kamida oyiga bir marta amalga oshirilishi kerak. Axlat qutilarini toza saqlash va bo'shatish oson bo'lishi uchun maxsus axlat qoplaridan foydalanish mumkin. Hujjatda chiqindilarni yig'ish punktlarini tashkil etish tartibi tasvirlangan. Ular turar-joy binolari derazalaridan, bolalar muassasalari, dam olish joylari chegaralaridan kamida 20 m, lekin 100 m dan oshmasligi kerak, shuningdek, tranzit transporti va piyodalar kommunikatsiyalaridan uzoqda bo'lishi kerak. binolarning ko'cha jabhalari.

Chiqindilarni alohida yig'ish uchun konteynerlar turli xil rangda bo'lishi va maxsus belgilar va yozuvlar bilan belgilanishi kerak. Hammasi bo'lib to'rt turdagi majburiy konteynerlar mavjud:

Moviy - qayta ishlanadigan chiqindilar uchun (ikkilamchi moddiy resurslar aralashmasi);

Jigarrang - organik chiqindilar uchun (oziq-ovqat va boshqa biologik parchalanadigan maishiy chiqindilar);

Kulrang - qayta ishlanmaydigan chiqindilar uchun;

Olovrang - xavfli chiqindilar uchun (o'z ichiga olgan simobli lampalar, simob termometrining chiqindilari, barcha turdagi saqlash elementlari va boshqalar).

Chiqindilarni yig'ish punktlarida yana uchta qo'shimcha konteyner bo'lishi mumkin:

Sariq - plastik chiqindilar uchun;

Oq - chiqindi shisha va kullet uchun;

Moviy - qog'oz chiqindilari uchun.

Mazkur talablarga rioya etilishini nazorat qilish Ekologiya davlat qo‘mitasining Chiqindilarni shakllantirish, to‘plash, saqlash, tashish, utilizatsiya qilish, qayta ishlash, utilizatsiya qilish va realizatsiyasini nazorat qilish inspeksiyasi va uning

hududiy bo‘linmalariga yuklatildi. (3-rasm)[4] 48-bet

Hozirda bizda ko’zda tutilgan muammolardan biri tarixiy hududlardagi inshooatlarni dizayn kod ishlab chiqishdan iborat. Na’muna uchun Buhoro shahridagi Eski shahar ko’chasida joylash obidalar atrofidagi kichik shakllarni binolarga uyg’un ravishda jixozlash va tartiblash ko’zda tutilgan maqsadlar biri.Buning sababi bu obyektlarning xolati talab darajasida emasligi.(4-rasm). [6] 90-bet. Biz bilamiz Buxoro Samarqand Xorazm shaharlari turistik shaharlar xisoblanadi shuning uchun turstlar oqimini ko’paytirish uchun xar taraflama zamonaviy xamda tarixiy muxitni mujassamlashtirgan xolda dizayni estik muxiti mujassamlashtirish talab etiladi. Biz taxlil qilgan Buhoro shahridagi ski shahar maydonidagi binolar atrofidagi o’rindiqlar urnalarni boshqa tarzda dizayn qilish shaklantirish lozim bo’ldi. Asosan binolarni tuzilishidan kelib chiqqan xolda rangi naqshlarini namuna qilib birga uyg’un xolatda obyektlarni loyixa qilish kerak.(5-rasm)[7] 121-bet.

Xulosa. Xulosa qilib shu aytish kerakki dizayn kodi bejiz ishlab chiqilib uni tadbiq etish kiritilishi ko’zda tutilganni yo’q yurtimizga yanada ko’rk xamda estetik zavq berish uchun uslub tartibni xamoxang qilgan xolda umumiy yaxlit aniqlik kiritish imkonini beradi. O’z o’zidan shu aniqki bu tartiblilikni uslubni dizayn taraflama yondashish kerak bo’lib dizaynerlarning xissasi katta bo’ladi. Ular bilan birga ushbu muammoga echim topiladi. Xar bir ko’chaga binoga o’zgacha

umumiylikni saqlab qolgan xolda dizayn takliflar beriladi. Dizayn kodlarni ishlab chiqilib ularni xar bir inshoatlarga kerakli talablar asosida qo'llaniladi. Kichik bir elementlarni xam nazardan chetda qoldirmasdan xar biri bilan aloxida ishlab chiqiladi.Xam piyodalar uchun xam moshina xaydovchilar uchun o'qilishi tushunarli bo'lgan malumot bannerlarini yo'l ko'rsatgichlarni xam tartibi xisobga olinadi. Me'moriy uyg'unlikni ta'minlagan holda Dizayn-kod qoidalari orqali tartibga solinuvchi kichik me'moriy shakllardan foydalanish imkoniyatlari mavjud. Kichik me'moriy shakllardan to'g'ri va unumli foydalangan holda tarixiy shaharlarimizga yanada ko'proq turistlarni o'ziga jalb etish va qulayliklar yaratish imkoniyatlari ochiladi. Qoida sifatida shuni takidlash kerakki kichik me'moriy shakllarni jamoat hududlarida joylashtirishda O'zbekistonda endi yo'lga qo'yilayotgan Dizayn-kod qoidalariga moslash, uning elementlarini to'smasligi yoki harakatlanuvchilarga halaqit bermasligini ham inobatga olish zarur hisoblanadi. Xar bir tashrif buyurgan mexmonlarga xalqimizning yoshu qari vakillarga yurtimizdan iliq tasurot qoldirish shaxrimizda servis xizmatini yaxshilashga Dizayn - kod qoidalari juda foydali bo'libgina qolmay xam manfaatli xamdir.

Adabiyotlar

1. Дизайн-код правила размещения и оформления нестатsionарных торговых объектов в псков дизайн-код псков 2018
2. Строительство и эксплуататсия объектов ландшафтной архитектуры. Теодоронский В.С. и др. 2008. Глава 7.
3. Saidov A.A. "Ergonomika". Darslik. Toshkent. 2018.
4. Рейимбаев Ш., Адилов З., Матниязов З. Роле оф тҳе десигн соде ин импровинг тҳе қуалитй оф тҳе урбан энвиронмент. Асадемисиа: ан интернатионал мултидиссиплинарй ресеарч жоурнал,
5. Элмуродов С.С. Ностатсионар савдо обйектларнинг турли даврлардаги функсиона. "Архитектура, қурилиш ва дизайн илмий-амалий журнали" Тошкент, 2021 й.
6. Малые формы в застройке и благоустройстве городов / Колли Н.Я., Артамонов В.А., Тарасова Е.А., Толстой И.А. - М.: Стройиздат, 1964 г.
7. 5. Дизайн-код. Правила размещенияии оформления нестатсионарных торговых объектов в пскове/ Псков 2018 й.

UDK 691.036.1.1

SHAHARSOZLIKDA TRANSPORT HARAKATLANISHI TARMOG'LARINI LOYIHALASH VA MUAMMOLARI

M.Turg'unov,. M. Tohbayeva., K. Asqarov.
Namangan muhandislik qurilish instituti.O'zbekiston.

Anotatsiya: *Maqolada hozirgi kunda shaharlar kundan kunga rivojlanib bormoqda bu o'z navbarida transport vositalarining ko'payishi hamda shahar kengayishiga sabab bo'layotgani va ko'cha yo'llarni meyoriy qoidalar asosida kengaytirish haqida, hozirgi kundagi yo'llarda uchraydigan asosiy muammolar haqida yozilgan.*

Kalit so'zlar:*Shaharsozlik, avtomobil, transport tarmog'i, piyodalar yo'lakchasi, magistral yo'llar, aholining o'sishi.*

Shahar transporti qatnaydigan yo'llarni loyihalashda avvalo aholining yashash joyidan ishlash joyigacha va asosiy qatnash erlarigacha (shahar markazi, vokzallar, shahar parklari va h.k.) bo'lgan masofani bosib o'tishida eng kam vaqt sarf etishini ta'minlaydigan transport tarmog'ini loyihalash shaharsozlikda eng muhim masalalardan biridir. Bunda tarmoqning texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari, harakat xavfsizligi shartlari, transport va piyodalar harakatining qulayligi hisobga olinishi lozim.

Ko‘chalar deb, aholi yashash joylarining shahar transportining barcha turi, piyodalar, muhandislik kommunikatsiyalari, tashqi suvlarni yig‘ish va olib chiqish uchun mo‘ljallangan qismiga aytiladi. Ko‘chalar transport oqimlarini o‘tkazadi va ko‘chalarga yaqin imoratlarga xizmat ko‘rsatadi.

Ko‘cha yo‘l tarmoqlarining prinsipial sxemasi.

Ko‘pchilik shaharlarda ko‘cha yo‘l tarmoqlari uzoq vaqt davomida shakllangan va u har bir shaharning rivojlanish bosqichlarini ko‘rsatadi. Magistral ko‘cha yo‘l tarmoqlari konfiguratsiyasi bo‘yicha bir qancha prinsipial sxemaga bo‘linadi. Radial sxema - qadimiy shaharlarning markaziy qismlari tipik tarmog‘i.

Shaharning rivojlanishi va undagi qurilishning o‘sib borishi shahar yo‘llari bo‘ylab amalga oshgan. Qal’a yoki bozorlar shahar markazi, ya’ni yadrosi hisoblangan. Bunday sxema quyidagi qulaylik va kamchiliklarga ega: qulayligi - shahar markazi bilan oson bog‘lanishi; kamchiligi - tumanlararo barcha transport markaz orqali o‘tishi.

Avtomobillar soni ortib bormasdan avval uncha katta bo‘lmagan shaharlarda bu sxemada transport muammosi bo‘lmagan. Hozirgi davrga bu sxema umuman yaramaydi[1].

Radial halqasimon sxema - halqali ko‘chalar radial ko‘chalar bilan to‘ldiriladi. Ko‘pchilik hollarda halqa ko‘chalar qal'a devorlari o‘rnida yuzaga kelgan. Ushbu sxema radial sxemaning birmuncha yaxshilangan varianti hisoblanadi. Bunday sxema shahar tarhlarida bizning davrimizgacha etib kelgan.

To‘g‘ri burchakli sxema. O‘tgan asrda keng qo‘llanilgan bo‘lib, oldindan loyihalanib qurilgan shaharlarda uchraydi. Unda magistrallar tizimi 90° ga yaqin bo‘lgan burchak ostida kesishuvchi to‘rsimon shaklni o‘zida ifodalaydi. Qulayligi qurilishni tashkil etishda va harakatlanish uchun qulayliklar yaratishda; kamchiligi - transporting uzoq masofaga yurishida. Kvartallarning bir xil qaytariluvchi, transport harakatini yaxshilovchi diagonal ko‘chalarsiz to‘g‘ri burchakli loyihaviy «panjara» misoli.

Uchburchakli sxema. Magistral ko‘chalar tizimi 60° ga yaqin burchak ostida kesishib, magistrallar oralig‘i hududlarining uchburchak ko‘rinishiidagi hududini shakllantiradi.

To‘g‘ri burchakli chiziqli sxema cho‘ziq shaklli (chiziqli) shaharlarda qo‘llaniladi. Shaharning u boshidan bu boshigacha eng qisqa vaqtda etib borishni ta’minlash, shaharning funksional qismlarini to‘g‘ri loyihalash muhim. Funksional qismlar shunday taqsimlanishi kerakki, unda yashovchilarning kundalik turmushi jarayonida jamoat markazlari, maishiy xizmatlardan va boshqa xizmatlardan foydalanishi eng qulay holda tashkil etilsin.

To‘g‘ri burchak-diagonal sxema. To‘g‘ri burchakli sxema diagonal magistrallar bilan to‘ldirilib yaxshilanadi. Transportlarning uzoq yurishi kamaytiriladi, vaqt ketishi minimal holatga keltiriladi. Kamchiliklari — magistrallar kesishgan joylarda murakkab tugunlar hosil qilinadi. Magistral ko‘chalar oralig‘ida qurilishlar qiyinlashadi [2].

Kombinatsiyalashgan sxema. Yirik shaharlarda amalda keng tarqalgan.

Misol uchun shaharning bir qismi muntazam to‘g‘ri burchakli . iizimda, boshqa qismi radial-halqasimon yoki uchburchak sxemada hal qilinishi mumkin. Ba'zan shahar ahamiyatidagi magistral ko‘chalar muntazam sistemada, ikkinchi darajali ko‘chalar esa, yarim halqa yoki uchburchak sxemada hal qilinadi.

Erkin sxema murakkab relyeflarda qo‘llaniladi. Shahar liududining transport tizimini yuqorida keltirilgan birorta sxema asosida loyihalash imkoni bo‘lmaganda shu usul qo‘llaniladi. Bunda aholining qatnov yo‘nalishlari eng qisqa masofa bo‘ylab birlashtiriladi. Loyihasiz qurilgan kichik shaharlarda uchraydi. Har xil ko‘cha tizimlarida eng ko‘p tarqalgan qo‘shimcha bu — ilmoqsimon magistrallardir[3].

Shaharsozlikda ko‘cha yo‘l tarmoqlarining sifatini belgilovchi obyektiv ko‘rsatkichlari: ko‘cha yo‘l tarmoqlari uzunligi, ko‘cha yo‘l tarmoqlari zichligi, shahar, tuman ko‘cha yo‘l tarmoqlari uzunligining uning maydoniga nisbati. Tarmoqning zichligi qancha katta bo‘lsa, uning o‘tkazish qobiliyati yuksaladi. Agar zichlik keragidan kichikroq bo‘lsa, transport oqimini o‘tkaza olmaydi, probka paydo bo‘ladi, bekatgacha uzoq masofa bo‘lib qoladi, ko‘proq yurishga olib keladi. Agar zichlik yuqori bo‘lsa, maydon ancha kamayadi. Shaharlarda ko‘cha tarmoqlarining o‘rtacha zichligi - 1,5-2,5 km/km. Markaziy qismdagi zichlik - 2,5- 4,0 km/km2.

Harakatlanish yo‘lagining eni 3,75 m., harakatlanish qismining eni 3,75 ga karrali. Masalan: 2 x 3,75; 3 x 3,75; 4 x 3,75 va h.k. bo‘lishi mumkin.

Hozirgi vaqtga kelib, mamlakatimiz intensiv avtomobillashtirish davriga kirdi. Avtomobillashtirish me'yori 10-15 yil ichida 1000 odamga 96 tadan 200—250 tagacha etishi mumkin. Bu ko‘cha harakati intensivligini 3—4 marta, shaharning ba'zi qismlarida esa 5-10 marta o‘sishiga olib keladi. Bu o‘z navbarida transportlarning harakatlanis qismida tirbandliklarni yuzaga kelishiga olib keladi.[4]

Transport vositalarining tirbandliklarni yuzaga kelishiga olib keluvchi asosiy sabablardan birnechtasini sanab o‘tamiz.

1. Transport haydovchilarining sabirsizligi hamda tartibsiz harakat qilishi.

2. Piyodalarning o‘zlariga belgilangan piyodalay yo‘lagidan o‘tmasligi va svetafo‘rga bo‘ysinmaslik oqibatida.

3. Transport haydovchilari yani TAXI haydovchilar yo‘lovchilar olish uchun uzoq vaqt davomida kutib turishi.

4. Transport haydovchilari yo‘l qoidalariga hamda madaniyatiga rioya qilmaslik oqibatida.

5. yo‘lovchilar transport vositasini piyodalar o‘tish yo‘lida yoki svetafor oldida kutishlari.

6. Avtomobillar uchun Savdo va maishiy xizmat ko‘rsatish shaxobchalari yon atroflarida avtomobil turar-joylari etarli emasligidir.

Yuqoridagi kamchiliklarni deyarli hamma viloyat markazlarida joylashgan savdo komlekslarida uchratish mumkin. Bunday kamchiliklar natijasida haftaning har kuni yo‘llarda soat 8:00 dan 10:00 gacha kechki vaqtlarda 16:00 dan 19:00 gacha yo‘larda tirbandliklar kelib chiqmoqda. Bunind natijasida ishchilar o‘z ish joylariga kechikib kelishiga sabab bo‘lmoqda.

Bu yuqorida keltirilgan kamchiliklarni bartaraf qilish uchun quyidagi ishlarni amalga oshirish kerak deb o‘ylaymiz.

6. Savdo va maishiy xizmat ko‘rsatish shaxobchalari padval qismida yoki yon atrofida avtomobil turar-joylari tashkil qilish.

5. Piyodalar uchun maxsus kutish joylarini yo‘llar bo‘ylarida tashkil qilish.

4. Haydovchilarning bir-biriga bo‘lgan muomila madaniyatini rivojlantirish.

3. TAXI haydovchilari uchun yo‘l belgilari orqali maxsus joylarni tashkil qilish.

2. Piyodala o‘zlari uchun ajratilgan yo‘laklaridan o‘tish madaniyatiga amal qilishlarini qatiy nazorat qilish.

1. Transport haydovchilarining yo‘l qoidalari va madaniyatiga amal qilishlari haqida targ‘ibot-tashviqot ishlarini ko‘paytirish.

Bu kamchiliklarni bartaraf qilish oqibatida turli xil yo‘l transport xodisalari va tirbandliklarni oldini olgan bo‘lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Isamuxamedova D. U. Adilova L.A. Shaharsozlik asoslari va landshaft arxitekturasi: 1 qism, darslik / O‘zR oily va o‘rta-maxsus ta’lim vazirligi,-Toshkent: Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2009 - 160 b.
2. Mirzayev M.K., Latipov D.V. O‘zbekiston Respublikasi shaxarsozlik asoslari. O‘quv qo‘llanma. T.2000 TAQI
3. Mirzayev M.K. Tumanni rejalashtirish asoslari. O‘quv qo‘llanma. T.2001 TAQI.
4. Isamuhamedova D.U. «Shaharsozlik asoslari». O‘quv qo‘llanma. T., 2000-u

УДК 692.036.2

РЕСПУБЛИКАМИЗДА КЕЛАЖАК ШАҲАРЛАРИНИНГ РИВОЖЛАНИШ МУАММОЛАРИ ВА ТАКЛИФЛАР

А. С. Абдурахмонов., Ш. Ш Қуролбоев., Б,О. Қурбонов.
Наманган муҳандислик қурилиш институти. Ўзбекистон.

Аннотатсия: *Мақолада, Ўзбекистоннинг келажакдаги шаҳарлари, аҳолининг демографик ўсиши, ахолининг талабларини инобатга олиш, иқлим ўзгаришлари ва бу жараёнда юзага келиши кутилаётган муаммолар, уларни ечимларида инсонларнинг ўрни тахлил қилиниб, таклифлар берилади.*

Калит сўзлар: *“Яшил шаҳар”, “ақлли шаҳар”, ривожланаётган шаҳарлар, келажак шаҳарлари, ривожланиш, экологик тозалик, таклифлар.*

Кириш. Сўнги йилларда дунёда содир бўлаётган жараёнлар турли мамлакатлардаги кўплаб шаҳарларнинг ҳаёт тарзини ўзгартириб юборди. Ҳукуматлар машиналар камайгандан кейин аввал фойдаланилган кенгликлардан янгича кўринишда фойдалана бошлади. Одамлар орасида кераклича хавфсиз бўлган масофага эҳтиёж туғилди. Айрим кўчаларда машиналар ҳаракати тақиқланди, автомобиллардан бўшаган жойлар пиёдаларга сайр қилиш учун берила бошлади. Одамлар онгли равишда хавфсиз ва қулай шаҳар худудини яратишга ҳаракат бошлади. Соҳада фаолият олиб борувчи замонавий шаҳарсозлик бўйича россиялик таниқли архитектор Артём Китаев келажак шаҳарлар ҳақида фикрларини маълум қилди. Ҳўш, келажак шаҳарлари қандай хусусиятларга ва қулайликларга эга бўлади? Демак Артём Китаевга кўра шаҳарларнинг қулайликлари: Оптимал: кечқурун парковка болалар ўйингоҳига айланади, уй ва офис битта жойда бўлади. Қулай: одамлар учун яхши шароит яратиш борасида шаҳарлар бемалол бир-бири билан рақобатлаша оладиган жамоат жойлари барпо қилинади. Хавфсиз: фуқаролар учун қаттиқ рақамли назорат ва ҳар қандай қоидабузарлик учун жарима белгиланади. (Ҳозирги рақамли назорат, камералар кўпаяди ва patsionал кўринишга келади.) Экологик тоза: ўзини ўзи электр билан таъминлайдиган уй, саранжом кўчалар барпо этилади, автомобиллар кам бўлади, дарёларда бемалол чўмилса бўлади.

Доим яшил: шаҳар ичида боғлар кўп бўлади, ҳар кимнинг кичкинагина томорқаси (ўзи учун сабзавотлар етиштиради, худди корейс киноларидаги каби) бўлади. Янада зичроқ: шаҳар тор бўлса-да, бағри кенг бўлади, яъни гавжумлашади. (Ҳозирги вақтда Ўзбекистонда гавжумлаштириш эмас худудни кенгайтириши йўлидан борилмоқда)

Юқорида кўрсатилган қулайликларга Ўзбекистон шаҳарлари келажакда эга бўлиши мумкин, фақат бунинг учун аҳоли тафаккур тарзини, одатларини ўзгартириш зарур. Бунинг аввалида экологик ахлоқ, жамоат одоби, эстетик дид тарбияланиши муҳим аҳамиятга эга. 2018 йил январь ойида АҚШнинг Лас-Вегас шаҳридада бўлиб ўтган «The Consumer Electronics Show» (CES) халқаро кўргазмасида бренд компаниялар электроника соҳасидаги янгиликларни оммага намойиш этишди. Унга кўра келажак шаҳарларидан тўхташ жойини ўзи излайдиган

автомобиллар, реал вақт режимида дарёлардаги сув сатҳини кузатиш, кўчаларда ифлосланган ҳавога қарши курашга ёрдам берадиган тизим, мавжуд бўлиши прогноз қилинмоқда. «Bosch» компанияси ўз эътиборини шаҳарлар учун smart-ечимларга қаратди. «CES»даги тақдимот вақтида «Bosch» вакили Стефан Ҳартунг (Stefan Hartung) шундай деди: «Бизга шаҳарнинг янги концепцияси керак. Бу ерда асосий омиллардан бири шаҳарларни ақлли қиладиган технологиялардир» [1,2].

Тадқиқот натижалари. Ўзбекистонда келажак шаҳарларида ечиб берадиган муаммолардан бири ҳайдовчиларнинг катта вақтини тирбандликларда ўтказишидир. Ушбу муаммо дунёнинг кўплаб мамлакатларида ҳам мавжуд. Бу борада Ўзбекистон шофёрларининг касб ва муомала маданиятининг пастлиги яққол ажралиб турадилар. Шу туфайли мамлакатимизда кўпла йўл транспорт ҳодисалари юз бериб аҳолининг катта қисми ундан азият чекади. Мазкур муаммони дунё миқёсида ҳал қилиш учун «Bosch» компанияси «Community-based parking» тизимини ишлаб чиқди. Унинг ёрдамида автомобиллар ўзи тўхташ жойидаги машиналар орасидаги бўшлиқлар ўлчамини автоматик тарзда ҳисоблаб, рақамли харитага узатади. Яъни, машинанинг ўзи тўхташ учун бўш жой топади ва у ерга ҳайдовчини йўналтиради. Шундай қилиб, нафақат автомобиль эгалари сарфлайдиган вақт тежалади, балки йўл инфратузилмасига тушадиган юк ҳам камаяди. Очиғи бундай ҳолатда Ўзбекистонда йўл транспорт ҳодисалари камаяди, ҳамда фуқароларимиз хавфсизлиги таъминланади. «CES»да «Ақлли шаҳарлар» номинатsiяси бўйича мукофот ҳаво сифатини 12 та параметр бўйича ўлчаб таҳлил қилувчи «Climo» тизимига насиб этди. Ушбу қурилма анъанавий ҳаво мониторинги тизимидан 100 баробар кичик ва 10 баробар арзонроқдир. «Climo» мегаполисларнинг жиддий муаммосига айланган атроф-муҳит ифлосланишига қарши самарали курашиш имконини беради. Ушбу тизимнинг келажакда Ўзбекистонда бўлиши жорий йил шундайин ҳам дунёнинг энг иссиқ нуқтаси дея эътироф этилган мамлакатимиз учун жуда зарурдир. Бундай тизим барча шаҳарларга айниқса, саноатлашган шаҳарлар (Навоий, Зарафшон, Қувасой, Фарғона, Қўқон ва хаказо) учун кечиктириб бўлмайдиган тизим десак муболаға бўлмайди.

Ўзбекистоннинг келажак шаҳарларида бўлиши зарур бўлган яна бир омил янги авлод электрогенераторлари ҳисобланади. 2035 йилга келиб дунё бугунги кунга нисбатан 30 фоиз кўпроқ энергия истеъмол қилади. Худди шундай истеъмол Ўзбекистонда ҳам ортади. Фуқароларимизга энергия инқирозидан қутулишга доимий қувват манбаи бўлган микроэнергия тизимлари (DC) ёрдам бериши мумкин. Улардан кўп қаватли уйлар, савдо марказлари ва қурилиш комплексларига энергия етказиб беришда фойдаланиш имконияти мавжуд. Хусусан олий таълим муассалари ва тиббиёт муасссалари ҳам бундан мустасно эмас. Микроэнергия тизимлари анъанавий электр станцияларига қараганда 10 фоиз кам қувват сарфлайди. Улар қайта тикланадиган энергияда ишлайди ва умумий энергия тармоғи об-ҳаво ёки бошқа сабабларга кўра ишламаган пайтларда улар жуда қўл келади. Мамлакатимиз келажак шаҳаларининг протатипини яратишда Сингапур тажрибасидан фойдаланиш мумкин. Сингапурда транспорт оқимини бошқаришнинг компьютерлаштирилган тизими ҳайдовчиларга бир йилда 60 соатни тежаш имконини беради. Ушбу шаҳар тиббиёт соҳасида технологияларни қўллашда ҳам етакчи ҳисобланади. Айни вақтга келиб Сингапур кекса кишиларни уларнинг саломатлигини назорат қилиш, уларга тез тиббий ёрдам кўрсатиш зарурлиги ҳақида огоҳлантириш имкониятини берувчи мобиль иловалар билан таъминлаш борасида салмоқли муваффақиятларга эришаяпти. Ушбу омиллар Ўзбекистоннинг келажак шаҳарларида мавжуд бўлиши ва уларни такомиллаштириш фикримизча олдинга ташланган қадам бўлади. Ҳозирги вақтда Ўзбекистонда кондиционерларсиз ҳаётни тасаввур этиб

бўлмайди. Келажак шаҳарлари эса кондиционерларсиз бўлиши даркор. 2014 йилда Иқлим ўзгариши бўйича ҳукуматлараро мутахассислар гуруҳи ўзларининг бешинчи мақоласи чоп этилиши муносабати билан глобал исиш белгилари тез орада сезилиши ва жиддий оқибатларга олиб келишини бир овоздан маълум қилишди. Гап сув тошқинлари, қурғоқчилик, жазирама, шунингдек, бутун дунёда ёз фаслида ўртача ҳароратнинг кўтарилиши ҳақида кетяпти. Бу эса кўп куттирмади. Жорий йил ва айни давом этаётган ҳозирги вақтда мамлакатимиз хаво харорати дунёда рекорд даражага чиққани хеч кимга сир эмас. 2018 йилда иқлимшунос, Франциянинг 21 асрдаги иқлими маърузаси муаллифи Жан Жузель (JeanJouzel) 2050 йилга келиб, ҳарорат мамлакатнинг кўп қисмида 50°C га етиши мумкинлигини айтган. Бу эса тасаввурга сиғдириб бўлмас ҳолат. Аҳолининг иссиққа чидай олмайдиган қатлами - кекса, бемор, ногирон, ёш бола, ҳомиладорларга бу ҳолат салбий таъсир кўрсатиши кишини хавотирга солади. Ҳозирги вақтдаги хаво хароратининг ўзи ҳам кўплаб мавсумий касалликларни келтириб чиқараётганлиги етарли албатта. Бунга яна бир хавфли омил қўшилмоқда. БМТнинг прогнозларига кўра, 2050 йилда сайёранинг аҳолиси 9,8 миллиард кишидан иборат бўлади. Уларнинг кўп қисми йирик шаҳарларда яшайди. Бундай вазият атмосфера бугунги кунга қараганда кўпроқ ифлосланиши табиий. Экстремал ҳароратга иқлим вазиятини янада ёмонлаштирмасдан, совутиш тизимидан оммавий фойдаланмаган ҳолда чидаш учун шаҳар юзага келган, бартараф этиб бўлмайдиган жараёнга мослашиши керак. Ҳозир у айнан шу жараённи бошдан кечирмоқда. Хўш кондиционарлар ўрнини нималар эгаллайди? Қандай қилиб кондиционерларсиз яшаш мумкин? Баъзи архитекторлар бу муаммони олдиндан кўра билишган. Экологик архитектура пионерии Венсан Каллебо (VincentCaillebaut) лойиҳаларни бир вақтнинг ўзида экологик ва иссиқликни юта оладиган, ҳавони тозалайдиган қилиб яратишни таклиф этмоқда. Архитектор 2050 йилга келиб шаҳар экологиясини яхшилаш бўйича лойиҳани устида иш олиб борди. Унинг изоҳлашича, «жой етишмаслиги сабаб Париж боғлари бино атрофида бўлинмайди. Биноларнинг ўзи боғларга айлантирилади. Биноларни кўкаламзорлаштириш, шаҳарни боғга айлантириш шаҳар иссиқлик ороли билан курашишда самарали бўлиб, шаҳар учун био-иқлим яратади» [3]. Мамлакатмиз шаҳарларида ҳам биноларининг кўкаламзорлаштирилиши шаҳарни исиб кетишдан халос этади. Жамоат муҳитида яшил зоналар яратилади. Шу йўл билан шаҳар яшаш учун қулай ҳолатга келади. Унда ҳатто иссиқ ҳавода ҳам эркин нафас олиш мумкин бўлади. Энергиядан фойдаланилмайдиган уйлар иссиқхона эффекти кучайишига йўл қўймайди. Шу билан бирга сув манбаларини кўпайтириш, фавворалар қуришни ҳам режалаштирилиши зарур. Бундан ташқари, янги бинолар шамолдан интеллектуал ва инноватsion усулда фойдаланиш яхши самара беради. Бу эса иссиқликни бошқаришнинг қизиқ натижаларини юзага келтиради. Масалан, иқлимшуносликка мўлжалланган Meteodyn компанияси Urbawind дастурий таъминотини ишлаб чиқди. У шаҳардаги шамол ҳаракатини бошқаради. Шундай қилиб, шамолдан максимал даражада фойдаланиш учун бинонинг жойлашуви, деразаларнинг ҳажмини қўллаш ва турар-жой биносида ҳаво айланишини кафолатлаш ва уни бир неча градусга совутиш мумкин. Яна бир қизиқ ечим бор. АҚШнинг бир неча шаҳарларида альбедо деб номланган акс эттирувчи қопламадан фойдаланилади. Масалан, Лос-Анжелесдаги йўлларда анъанавий қора асфальт ўрнига оқ қоплама бор. Шу усул орқали ер ҳарорати баъзи жойларда 10°Сга пасаяди. Бу эса ўз навбатида биноларга ҳам таъсир қилади. Иль-деФранс институтида иқлим, ҳаво ва энергияни ўрганишга масъул бўлган Эрван Кордо (ErwanCordeau)нинг айтишича, «Қуёш радиатsiяси туфайли кучли альбедо дарҳол осмонга жўнайди, шунинг учун энергия қопламанинг ўзида тўпланмайди» [4,5]. Қопламанинг бундай

услуби бинолар томи учун ҳам мос келади. Бино томини оқ рангга бўяб, уйдаги ҳароратини бир неча градусга пасайтириш мумкин. Барча учун қулай, экологик тоза иссиқлик назорати. Бир сўз билан айтганда юқоридаги каби инноватsiяларни қўллаш келажакдаги Ўзбекистон шаҳарлари учун катта муаммолар ечими бўлади.

ХУЛОСАЛАР. Бугунги кунда мамлакатимизда бетартиб қурилиш ишлари олиб борилиши ёки тўлиқ таҳлилилар ўтказмасдан қурилишини бошлаш ишлари кўпайиб кетган. Келажакда эса бу каби хатоларни такрорламаслик керак. Ҳиндистоннинг «келажак шаҳарлари» атроф-муҳит учун хавф туғдириши мумкин. Бу ҳақда Линкольн университети (Буюк Британия) профессори Хью Бёрд маълум қилди. Олим Ҳиндистондаги «ақлли шаҳарлар» лойиҳасини батафсил таҳсил қилди. Мамлакат ҳукумати томонидан қабул қилинган режага кўра, 3-5 қаватли бинолардан иборат эски даҳалар ўрнида 40-60 қаватли осмонўпарлар қурилади. Янги туманлар ҳозирги харобаларга нисбатан экологик жиҳатдан яхшироқ бўлиши тахмин қилинади, бироқ Бёрднинг изланишлари аҳоли зичлиги ўсиши атроф-муҳитга босимни кучайтиришини кўрсатди: осмонўпарлар кўпроқ ресурслар истеъмол қилади ва кўпроқ чиқиндилар чиқаради. Бундай прогноз Мумбайда қурилган шундай турдаги биринчи ҳудуд — Бхенди Бозорни (Bhendi Bazaar) ўрганиш асосида қилинди. Маълум бўлишича, электр мунтазам равишда ўчириладиган, сув соатларга тақсимланган ҳолда бериладиган, чиқиндилар чиқарилиши ва канализатsiя тармоғи фаолияти талаб этилган даражада бўлмаган ҳудудда аҳоли зичлиги ошиши фақат экологик вазиятни чуқурлаштиради. ХУЛОСА Хулоса ўрнида айтиш жоизки Ўзбекистоннинг келажак шаҳарлари қиёфаси бугундан шаклланади. Унинг шаклланишида биз инсонлар муҳим ўрин эгаллаймиз. Шундай экан биринчи навбатда инсонлар дунёқарашини ўзгартириш, шаҳарлашув маданиятини ўзлаштиришимиз, ўз навбатида миллий маданиятимиз олтин фондини унутмаган холда дунёга юз тутишимиз ва тараққиётдан ортда қолмаслигимиз зарур.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР

1. Щипачева Е.В. Проектирование энергоэффективных гражданских зданий в условиях сухого жаркого климата. Методические указания– ТТЙМИ, 2008 й.
2. SHNQ 2.08.01–2005 Turar joy binolari Toshkent, 2005 y.
3. SanPiN RUz № 0146–04 O’zbekiston iqlim sharoitida turar joylarni sanitar qoidalari va loyihalashni mehyorlari– Toshkent, 2004 y.
4. Buzrukov, Z. S. (2020). OSOBENNOSTI PROEKTIROVANIYa FUNDAMENTOV VQSOTNQX ZDANIY S UCHETOM GRUNTOVQX USLOVIY. *Vestnik nauki i obrazovaniya*, (22-1), 79-85.
5. Abdurahmonov, A., Husainov, S., & Mirzamurodova, S. (2022, December). DEVELO’MENT OF ‘EDESTRIAN ‘ASSAGES IN THE TERRITORIES OF OUR RE’UBLIC. In INTERNATIONAL CONFERENCE: ‘ROBLEMS AND SCIENTIFIC SOLUTIONS. (Vol. 1, No. 7, ‘‘. 82-87).

УДК 672.043.1

ШАҲАР ҚУРИЛИШИДА ЭНЕРГОТЕЖАМКОРЛИКНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

С.М.Хусаинов., Ш. Қуролбоев., Б. Қурбонов.
Наманган муҳандислик-қурилиш институти. Ўзбекистон.

Аннотатсия: *Моқолада бугунги кунда дунё миқёсида долзарб масалалардан бири бинолардан фойдаланиш жараёнида энергия ресурсларидан самарали фойдаланиш муаммоларига бағишланган мавзулар акс этган.Жумладан, иқлимни глобал исишига қарши курашиш ва ёқилғиларни тугашини олдини олиш, органик*

иссиқлик энергетик ресурсларни тақчиллиги, биноларнинг энергетик паспортларини ишлаб чиқиш ва уни амалиётга жориё қилиш, биноларнинг энергия тежамкорлик муамммоларини ўрганиш бўйича илмий ёндошувларни ривожлантиришга оид кўпгина масалалар хақида фикр юритилган.

Калит сўзлар: *Иссиқлик энергияси, қуёш radiatsiяси, глобал исиш, энерготежамкор конструкциялар, солиштирма энергия сарфи, энергетик фаол бинолар, энергетик паспортлар, энергия сарфи.*

Кириш. Ўзбекистоннинг 30% дан ортиқ майдонини эгаллаган тоғ олди ҳудудларида жойлашган биноларда иссиқлик энергиясидан самарали фойдаланиш масалалари долзарб муаммо ҳисобланади.

Йил мавсуми хусусиятлари ва куннинг белгиланган вақтларида қуёш radiatsiяси ва атроф-муҳит таъсиридан ҳосил бўладиган иссиқлик эффектини (масалан, кундузги иситиш ва кечки даврда шамоллатиш, қуёш иссиқлигидан фойдаланиш ва ундан ҳимоя қилиш) бартараф қилишда биноларни меъморий ва фойдаланиш талабларига алоҳида эътибор қаратиш мақсадга мувофиқ.

Иқлимни глобал исишига қарши курашиш ва ёқилғиларни тугашини олдини олишнинг энг муҳим йўлларидан бири биноларни иссиқдан ҳимоя қилиш хусусиятлари ва уларни меъморий ечимларини такомиллаштиришдан иборат.

Бугунги кунда кўпгина мамлакатларда нефт ва табиий газ захираларининг камайиб бораётганлиги ва уларнинг таннархини ошиб бориши ҳисобига мавжуд фуқаро биноларида энерготежамкор конструкциялардан фойдаланишни тақозо қилмоқда.Кўпгина ҳолларда ушбу мамлакатларда белгиланган пол юзасига тўғри келадиган солиштирма энергия сарфи ривожланган Европа ва Америка давлатларига қараганда 2-3 маротаба юқори эканлигини кўрсатмоқда.

Халқаро Энергетика агентлигининг маълумотларига кўра [1], бугунги кунда умумдунё миқёсидаги бирламчи энергия ресурслари (ўсимлик биомассасини қўшганда)ни ишлаб чиқариш 13,1 млрд шартли тоннага ёки планетамизнинг ҳар битта аҳолисига нисбатан 2,36 шартли тоннага етган.

Ишлаб чиқариладиган электроэнергиянинг жами қиймати йилига 12,1 трлн кВт·соат ни ёки ўртача йилига 2187 кВт·соат/одам·йилни ташкил этмоқда.2030 йилда дунё бўйича аҳолининг умумий сони 8 млрд.кишини ташкил этиши кутилаётганлигини инобатга олганда энергияга бўлган эҳтиёж минимум 28 млрд.шартли тоннани, максимал 44 млрд.тоннани ташкил этиши мумкин [2,3].

Ер шари бўйича органик иссиқлик энергетик ресурсларни тақчиллиги ва “иссиқхона газлари”ни йиғилиб бориши ҳисобига планетмизнинг ҳаддан ташқари исиб кетиши оқибатлари дунёнинг барча бурчакларида энергия ташувчилардан тежамкорлик асосида фойдаланиш талабини қўймоқда.

Дунё бўйича мавжуд энергия сарфининг 40%га яқини биноларни иситиш, вентиляция ва ҳавони совутишга сарфланар экан.Амалда аксарият биноларда энергия сарфини келтириб чиқарувчи бир қанча ўзига хос камчиликлар рўйхатини тузиш мумкин.Айниқса, иқтисодий ривожланишга ўтиш босқичига қадам қўйган ривожланаётган давлатларда жойлашган биноларда жуда катта жамланган энергия захираси мавжуд.

Кўпгина мамлакатларда пассив иситиш тизими ва совутиш тизимини жорий қилишга асосланган энергетик фаол бинолар қурилган бўлиб, улар муваффаиятли синовдан ўтказилган.Ушбу мақсад учун улар минимал ёки “энг паст” иссиқлик энергиясига эга [3].

Биноларни энергетик паспортларини ишлаб чиқиш ғояси асосига уларни иситишга кетадиган сарфни камайтиришга қаратилган.Бундай паспорт биринчи маротаба алоҳида

иссиқлик сарфи, иситиш учун йиллик энергия таъминотини ҳисоблаш, ҳамда биноларда энергиядан фойдаланишнинг самараси хақидаги маълумотларни ўз ичига олган ҳолда Европа комиссияси йўналиши асосида 1994 йилда қабул қилинган.

Энергетик паспортда фойдаланилган ва бошқа кўпгина давлатларнинг меъёрий хужжатларида қабул қилинган биноларнинг келтирилган иссиқлик узатиш коэффициенти қийматини проф.А.Н.Сканавининг [4] ишларида таклиф этилган формулалари асосида ҳисоблаш мумкин.Ушбу коэффициентнинг Финляндия, Швеция ва Нидерландияда қабул қилинган қиймати 0,6 Вт/(м2· 0С) га тенг.

Биноларнинг энергия тежамкорлик муаммоларини ўрганишнинг қабул қилинган илмий ёндошувни белгилашда биноларнинг меъморий ечими бирламчи ҳисобланади.Архитектура – бу нафақат биноларни фазовий муҳити, шакли ва рангини ифодаловчи,балки унинг ички муҳитини ва шинамлилигини ҳам белгилайди. Қуёш, шамол, атмосфера параметрлари ва табиий муҳит бир гурух замонавий Ғарб архитекторларининг асосий ижодий йўналиши сифатида қаралган. Улар бинолардаги нозик чизиқлар, қулайлик ва функционал хусусиятлар, табиатнинг энергетик ресурсларидан фойдаланиш каби устувор томонларини илгари сурадилар.

Биноларда қуёш радиатsияси таъсиридаги иссиқликни аккумляция қилиш ва қабул қилиш, қуёшдан ҳимоя қилувчи қурилмалардан фойдаланиш, кечқурунги табиий шамоллатиш, "иссиқлик кўприклари"лари эффектини ва ташқи ҳаво инфильтратsiясини камайтириш учун ташқи тўсувчи конструкцияларни мақбул архитектуравий ечимларини ишлаб чиқиш ва улардан максимал фойдаланиш замирида катта энергия захираси ётибди.

Амалда шу нарса маълумки, бош режалар, иморатлар зичлиги ва турар жой ва жамоат биноларини меъморий-режавий ечимларини ишлаб чиқиш жараёнида нотўғри усулларни қўллаш орқали йўл қўйилган камчиликлар қўшимча равишда таҳминан 20-25% энергия ресурсларини сарф бўлишига олиб келади [5]. Масалан, алоҳида турувчи уйларга нисбатан блокланган уйларни қурилиши ҳисобига энергия сарфини 5-7% га, бино энини 12 м дан 18 м га ошириш орқали эса 9-10%га камайтиришга эришиш мумкин.

Хулоса ўрнида шуни таъкидлаш лозимки, биноларда энергия тежамкорлик масалаларини қуйидаги йўллар орқали камайтиришга эришиш мумкин:

1) Ташқи деворларни иссиқликдан ҳимоялаш хоссаларини яхшилаш;

2) Бинолардаги мавжуд энергия истеъмол қилувчи тизимларни самарадорлигини ошириш.

3) Биноларни мақбул меъморий-режавий ечимларини ишлаб чиқиш.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Дмитриев А.Н. Управление энергосберегающими инноватsiями в строи-тельстве зданий: учебное пособие / А.Н. Дмитриев. – М.: АСВ, 2000. – 320 с.

2. Ливчак И.Ф. Инженерная защита и управление развитием окружающей среды. / И.Ф. Ливчак. – М.: Колос, 2001. – 159 с.

3. Solar Engineering Handbook – Meteonorm: Global meteorological database for solar energy and applied climatology / J. Remund, S. Kuns. – Bern: Swit-zerland: Meteotest. 1997. –84 p.

4. Богословский В.Н. Отопление: Учебник для вузов / В.Н. Богословский, А.Н. Сканави. – М.: Стройиздат, 1991. – 735 с.

5. Дмитриев А.Н. Управление энергосберегающими инноватsiями в строи-тельстве зданий: учебное пособие / А.Н. Дмитриев. – М.: АСВ, 2000. – 320 с.

UO‘K 711.4-112

YANGI ANDIJON LOYIHASINING EKOLOGIK VA SHAHARSOZLIK KO‘RSATKICHLARINING SHAXAR MUHITIGA TA’SIRI

M.M.Madumarova., N.O. Mahmudov.
Farg‘ona politexnika instituti, O‘zbekiston

Annotatsiya. *Ushbu maqolada energiya manbaining qayta tiklanuvchi texnologiyalari (quyosh energiyasi, shamol energiyasi va biomassalar)ni tadqiq etish hamda transport sohasidagi bugungi kun va kelajakdagi dolzarb muammolar yoritib berilgan. Ustivor rivojlanish inson salomatligi va ta’limni rivojlantirishi, biologik xilma-xillikni va uning komponentlaridan foydalanishni, ma’naviy boylikka ehtiyotkorona munosabatni normal hayot kechirish va kelajak avlodning hayoti uchun standart me’yorlarga mos keluvchi havo, suv, o‘rmon, o‘simlik va tuproqning sifatini talab qiladi.*

Annotation. *In this article, research on renewable energy source technologies (solar energy, wind energy, and biomass) and current and future challenges in the field of transportation are highlighted. Priority development is the development of human health and education, the use of biological diversity and its components, careful attitude to spiritual wealth, air, water, forest, vegetation that meet the standards for normal life and the life of future generations. and requires the quality of the soil.*

Kalit so‘zlar: *ekoshahar, shaharsozlik, landshaft, zonalashtirish, Yangi Andijon, quyosh energiyasi, shamol energiyasi va biomassalar.*

Key words: *eco-city, urban planning, landscape, zoning, New Andijan, solar energy, wind energy and biomass.*

Taklif etilgan yangi Andijon ekoshahri loyihasi 4 ming gektar maydonni egallaydi. Rejaviy kompozision echimi markaziy qism, baland qavatli turar-joylar territoriyasi, kam qavatli turar-joylar territoriyasi, bog‘lar va maktabgacha ta’lim muassasalarining joylari va sanoat qismidan iborat. O‘tmishda quruvchilar xalq qurilish an’analari yoki eski me’moriy uslublarni qo‘llab, binolarni o‘rab turgan landshaft orasida joylashtirib, turar-joy va tabiiy muhitning o‘zaro mosligiga erishishgan. Uylar mahalliy materialdan qurilgan, mahalliy energiyaga, suv va iste’mol mahsulotlaridan foydalanishgan, ulardan chiqqan chiqindilarni qayta ishlatilgan. Oxirgi 100-150 yilda qurilish industrlashuvi shaharsozlik konsepsiyalarining etakchilik rolini egallagani sababli, uylar tabiiy landshaft bilan aloqasini yo‘qotdi, ko‘p qavatli uylarning qurilishi tabiiy landshaftning butunlay yo‘qolishiga olib keldi. Ulardan farqli holda, kam qavatli uylar tabiiy landshaft bo‘lmagan holda ular orasida joylashadi. Kam qavatli uylardanda ko‘proq ekologik uylarning landshaft bilan uyg‘unlashuvi imkoniyatlari ko‘proq, chunki zamonaviy resursni tejovchi texnika tabiiy muhit tizimiga bosimni kamaytiradi. Masalan, ovqatni isitish yoki tayyorlash uchun o‘tin yoki boshqa yoqilg‘i talab qilmaydi, tozalanmagan oqova suvlar oqizilmaydi. Eko uy tirik mavjudotga o‘xshaydi, masalan sovuq iqlimida yashovchi hayvonlar yozda energiyani to‘plab, uning hisobidan qish oylarida yashashadi. Uning o‘simliklar kabi quyosh energiyasidan foydalanish kabi imkoniyatlari bor. Qadim zamonlarda odamlar uy qurish uchun qulay va noqulay joylar mavjud, deb hisoblashar edi. Hozirgi vaqtda bu mavzu bo‘yicha tadqiqotlarni davom etirayotganlar mavjud, ular tomonidan qurish uchun qulay joy tanlash va geopatogen dalalarni korreksiyalashning yangi uslublari ishlab chiqilgan. [1]. Ekouylarni qurishda bu tavsiyanomalardan foydalanish mumkin. Ekouy, energiya samarador turar–joy terminlarini arxitektorlar issiqlikni tejash maqsadida o‘tkazgan arxitekturaviy kompozision tadbirlarni hisobga olgan holda ishlatiladi. Bu tadbirlarga binoga aylana shaklini berish bilan bino ichida issiqlik zonasini yaratish, daraxtlar o‘tkazish natijasida binoni etakchi sovuq shamollardan asrash va boshqalar kiradi. Ammo bu usullarning energiyani tejash samarasi katta emas, u o‘rtacha 20–30 % tashkil etadi. Shuning uchun faqat bu usullar bilan energiya samarador uylarni qurish mumkin emas. Shaharda ishlab chiqarish, aholi joylashuvi, rekreasiya va ekologiya talablari orasidagi

ziddiyatni echishning samarali yo‘li–energiya, “shahar–muhit” tizimida tirik va notirik narsalar orasidagi almashuv jarayonlarini faollashtirishdadir. [2]. Tabiatning umumiy qonuniyatlari shuni ko‘rsatadiki, tirik organizimda o‘zaro ta’sir etish jarayonlari faol kechadi. Ko‘rib chiqilayotgan tizimda energiya muammolarni echish jarayonlarini faollashtirish passiv– chergaralovchi tadbirlardan faol–qayta tiklash va yaratuvchanlik harakatlari tomon o‘tish talab qilinadi. Shaharda tabiiy tabiatda hayvonot va o‘simliklarning hayot kechirishi qiyinlashadi. Bu erda inson bilan qo‘shni bo‘lib hayot kechiruvchi maxsus parazitlar–uylarda zararli hasharotlar, kemiruvchilar, axlatxonalarda qarg‘a va boshqa qushlar ko‘payadi. Shaharda erning hosildor qatlami tez ifloslanadi va kuchsizlanadi. Bunga o‘tgan yilgi o‘tlar va tushgan barglarni yig‘ishtirib olish sabab bo‘ladi, natijala tuproqning qayta tiklanish jarayoni buziladi. Atmosfera yog‘ingarchiliklarining tuproq tagiga siljishi shahar territoriyasini ko‘p qismini qurilishlar egallaganini, yo‘llar va maydonlarining suv o‘tkazmaydigan materiallar bilan qoplanganligi natijasida qiyinlashadi. Bularning barchasi shahar biogeosenozida tabiiy jarayonlarning yuz berishini mushkullashtiradi. Biologik jarayonlarni faollashtirishda ham intensiv, ham ekstensiv uslublarni qo‘llash mumkin. Ekstensiv uslubga shahar territoriyasini ko‘kalamzorlashtirish me’yorlarini oshirish kiradi. [3].

Ustivor rivojlanish inson salomatligi va ta’limni rivojlantirishi, biologik xilma-xillikni va uning komponentlaridan foydalanishni, ma’naviy boylikka ehtiyotkorona munosabatni normal hayot kechirish va kelajak avlodning hayoti uchun standart me’yorlarga mos keluvchi havo, suv, o‘rmon, o‘simlik va tuproqning sifatini talab qiladi. [3] Aholi punktlarini ustivor rivojlanishi uchun quyidagilarni ta’minlash lozim:

- energiyani tejash texnologiyalari va alternativ qayta tiklanuvchi energiyani qo‘llash uchun hamkorlik qilish, energiyadan foydalanishda ishlab chiqarishning inson hayoti va atrof-muhitga salbiy ta’sirini kamaytirish;
- erkak va ayollar uchun ish o‘rni funksiyada xizmat qiluvchi uylarni qurish;
- maqsadga muvofiq bo‘lsa, shaxsiy uylar sektori uchun qulay sharoitni tashkil etish va rivojlantirish, shuningdek uning rolini aholi punktlarini ustivor rivojlantirish uchun oshirish;
- qurilishning energetik zararsiz va qimmat bo‘lmagan uslublarini rivojlantirish; mahalliy qurilish materiallarini mahalliy resurslar hisobidan maksimal foydalanib, ishlab chiqarish;
- mahalliy resurslardan foydalanib energosamarador inshotlarni loyihalash va qurilishda ishtirok etuvchi injener, arxitektor, loyihachi, pudratchi va buyurtmachilarni rag‘batlantirish;
- qimmat bo‘lmagan mahalliy qurilish materiallarini ishlatishga ruxsat olish va uni faollashtirish maqsadlarida standart va normativ aktlarini qayta ishlash va qabul qilish;

Insoniyatning rivojlanishi va sayyoraning tabiiy resurslarini qo‘riqlash uchun shahar joylari juda perspektivali ekanligi tan olingan. Ustivor rivojlanish shahar va aglomerasiyaning ishlab chiqarish strukturasi va iste’molni boshqarish qobiliyatidanam, hamda transport tizimi va atrof-muhitini saqlash uchun chiqindilarni chiqarib tashlashga bog‘liqdir. [4] Shaharning ustivor rivojlanishi uchun, ekotizimning shahar tashqarisidagi tumanlarni qo‘shgan holda, atrof-muhitga ta’sirini oldini olish va yumshatish talab etiladi. Atrofdagi qurilmalar odamlarning hatti-harakati, hatto sog‘lig‘iga ham ta’sir etishi tan olingan. Ko‘p qavatli uylar qurilishi mikrorayonning xususitlarini hisobga olgan holda olib borilishi kerak. Ko‘p qavatli uylardan keng foydalanish salbiy ijtimoiy va ekologik holatlarga olib kelishi mumkin, shuning uchun loyiha sifatiga, shu jumladan binoning o‘lchamlari va balandligiga alohida e’tibor qaratish kerak. Yashash joylarini shunday tashkil etish kerakki bolalar har kuni toza havoda o‘ynab, tabiat bilan alohida bo‘lishi kerak. Perspektivali muxandislik kommunikasiyalaridan aholi punktlarida oqova va qattiq maishiy chiqindilarning organik komponentlarini o‘g‘it va biogazga qayta ishlash imkoniyatini beruvchi zararsiz va samarali

sanitar tizimi “quruq” hojatxonalardan foydalanishni rivojlantirish va foydalanishga alohida e’tibor qaratish hisoblanadi. Aholi punktlarini energiya bilan ta’minlash sohasida energiyani tejovchi novatorlik ishlab chiqarish uslublariga yana chuqur e’tibor berilyapti: birlashgan isitish va sovutish tizimi bunga misol bo‘ladi. Energiya manbaining qayta tiklanuvchi texnologiyalari (quyosh energiyasi, shamol energiyasi va biomassalar)ni tadqiqot va ishlab chiqarishlarni rag‘batlantirish kerak.[5] Quyosh energiyasidan isitish, sovutish va energiya bilan ta’minlashga foydalanishga hamkorlik qilish lozim. Transport sohasida birinchi navbatda keraksiz yuk tashishlarni kamaytirish, faqat avtotransport emas, balki boshqa muqobil yoqilg‘i bilan ishlovchi transport vositalarini ishlab chiqish siyosatini transport sohasida qo‘llashga ahamiyat berish kerak. Harakatlanish vositalari: piyoda, velosiped va jamoat transportida yurishni territoriyani loyihalashda me’yoriy tadbirlardan foydalangan holda optimal birlashishini rag‘batlantirish. Transportda harakatlanishlarni kamaytirish tadbirlari qatorida elektron informasiya vositalaridan aholi foydalanishi imkoniyatlarini kengaytirish lozim. Madaniy qadriyatlarni asrash va qayta tiklashning ham ahamiyati kattadir. Bu borada tarixiy shakllangan aholi joylashuvi va landshaft shakllarini qo‘riqlashni ta’minlash, tarixiy ahamiyatga ega bo‘lgan joylarda yangi obyektlarni qurish imkoniyatlarini izlash ham kerak. Adolatli va ustivor jamiyat qurishning asosiy faktorlaridan biri –aholi punktlarining xilma-xilligidir. Buning uchun qishloq joylaridagi an’anaviy aholi joylashuvini saqlash katta ahamiyatga ega. XXI asr boshida aholining katta qismi avvalgidek qishloq aholi punktlarida yashayveradi. Sayyoramizning ustivor kelajagi uchun qishloq aholi punktlarining qadriga etish kerak va ularni har tomonlama qo‘llab-quvatlash kerak. Aholi punktlarini yaratish va ustivor rivojlantirish, katta va kichik shaharlar va turli jahon davlatlarida ekologik holatni yaxshilashning kelgusi harakatlarga asos bo‘lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. L. Van den Berg, M. Van der Bijl-Brouwer, & B. Deelstra. (2019). Exploring the role of eco-feedback in residential eco-city design. Journal of Cleaner Production, 216, 730-745.
2. N. Soebarto, G. Williamson, & M. Williamson. (2013). Designing for sustainable outcomes in private housing developments in emerging residential eco-cities: Lessons from Dongtan Eco-City. Journal of Green Building, 8(1), 142-165.
3. M. S. Serra, R. T. Loh, M. O. B. Osman, & E. C. Middelkoop. (2018). The potential of Myco Buildings for eco-city residential design: A case study in Singapore. Sustainable Cities and Society, 41, 469-475.
4. Ubaydullayev X.M, Inogomova M.M “Turar joy va jamoat binolarini loyihalashning tipologik asoslari”, darslik,Toshkent 2009y.
5. Inogomov B.I “Zamonaviy bino va inshootlarni loyihalash” o‘quv qo‘llanma. TAQI.Toshkent 2010 y.

UO‘K 711.582.5

EKOSHAHARLARNING ARXITEKTURAVIY–SHAHARSOZLIK MUAMMOLARI

M.M. Madumarova., N.O. Mahmudov.
Farg‘ona politexnika instituti, O‘zbekiston.

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ekoshaharlarning funksional va arxitekturaviy–shaharsozlik echimlari yoritib berilgan. Bu muammoning echimi ilmiy fan-sanoat qurilishi, shaharsozlik va ekologiyani birgalikda tadqiq etishga bog‘liq, chunki ular shahardagi sanoat inshootlarini va ularning komplekslarini arxitekturaviy shakllantirish ko‘p tamoyilli muammolarini ekologik talablarni hisobga olgan holda echishga muvaffaq bo‘ladi.*

Annotation. *Functional and architectural-urban planning solutions of eco-cities are highlighted in this article. The solution to this problem depends on the joint research of scientific-industrial construction, urban planning and*

ecology, because they manage to solve the multi-principle problems of architectural formation of industrial facilities and their complexes in the city, taking into account ecological requirements.

Kalit so'zlar: *ekoshahar, shaharsozlik, landshaft, zonalashtirish, Yangi Andijon, quyosh energiyasi, shamol energiyasi va biomassalar.*

Key words: *eco-city, urban planning, landscape, zoning, New Andijan, solar energy, wind energy and biomass.*

Oxirgi yillarda sanoat ishlab chiqarish darajasining ancha pasayishiga qaramasdan ekologiya muammolari keskin va dolzarb bo'lib qolmoqda. Tabiatni asrash jihozlarining eskirishi va boshqa sabablarga ko'ra, ko'pgina shahar va regionallarning sanitar ahvoli hatto yomonlashdi. [1]. Shahar muhitining barcha ekologik muammolarini, hozirgi paytdagi mavjud ilmiy yo'nalishlar-global ekologiya, shaharsozlik ekologiyasi, muxandislik ekologiyasi va boshqalar to'laligicha ko'rsata olmaydi. Bu muammoning echimi ilmiy fan-sanoat qurilishi, shaharsozlik va ekologiyani birgalikda tadqiq etishga bog'liq, chunki ular shahardagi sanoat inshootlarini va ularning komplekslarini arxitekturaviy shakllantirish ko'p tamoyilli muammolarini ekologik talablarni hisobga olgan holda echishga muvaffaq bo'ladi.[2]. Shunday qilib, rivojlanayotgan ekologik krisiz, zamonaviy ijtimoiy iqtisodiy sharoitdagi sanoat inshotlarini rekonstruksiya qilish va yangisini qurish, shaharlarda sanoat korxonalari va komplekslarini arxitekturaviy shakllantirish, ekologik asoslarining mavjud emasligi olib borilgan tadqiqotlarning dolzarbligini belgilaydi. Sanoat korxona va komplekslarini ekologik asoslangan holda rejalashtirish, loyihalash, qurish va ekspluatasiya hamda rekonstruksiya qilish, shahar ishlab chiqarish obyektlarini atrof-muhitga salbiy ta'sirini kamaytiradi yoki umuman tugatadi. Shaharsozlikda ekologik asoslanganlik- bu sanoat obyektini boshlang'ich ruxsat beruvchi hujjatlarini rasmiylashtirishdan oldin, uni joylashtirish, loyihalash, qurish va rekonstruksiya qilishni shaharsozlik, ekologik va arxitekturaviy-qurilish talablarini assolovchi hujjatdir. Shaharsozlik-ekologik asos shaharsozlik va sanitar-gigiyenik me'yor va qoidalarga mos ravishda ishlab chiqiladi. [3] Sanoat obyekti uchastkasini tanlashni shaharsozlik – ekologik (ba'zida faqat ekologik) asoslab berish, muallifning faqatgina shaxsiy loyihaviy va tadqiqot o'tkazish tajribasiga tayanadi. Shaharsozlik–ekologik asoslash uchun quyidagi ma'lumotlar talab etiladi:

- geodezik asosnoma;
- shaharsozlik asosnomasi uchun territoriya chegarasida yangi yoki rekonstruksiya etiladigan mavjud sanoat obyekti joylashadigan joyning shahar kadastrining ma'lumotnomasi;
- atrof-muhitning holati va unga salbiy ta'sir etuvchi manbalar;
- territoriyaning shaharsozlik, ekologik, arxitekturaviy landshaft zonalashtirish;
- mavjud erdan foydalanish, shaharsozlikni boshqarish liniyasi, tasdiqlangan shaharsozlik hujjatlari haqidagi informasiyalar;

Agar obyekt rekonstruksiyasi ko'zda tutilgan bo'lsa, chiqindining ruxsat etilgan chegaralarining mavjud vaqt uchun hisob-kitobi va korxonaning ekologik pasportini taqdim etish talab qilinadi. [4]. Sanoat obyektini joylashtirish va rekonstruksiya qilishning shaharsozlik-ekologik mazmuni:

- territoriyaning joriy etilgan funksional, ekologik, arxitekturaviyrejaviy va landshaft zonalashtirishga asoslangan joylashuvchi yoki rekonstruksiya qilinuvchi obyektga nisbatan shaharsozlik- ekologik talablar;
- transport xizmati, muxandislik ta'minoti, er osti muhitidan foydalanish, tabiy kompleks territoriyasiga nisbatan chegaralanishlar talablari;
- joylashuvchi yoki rekonstruksiya qilinuvchi obyektning teritoriyadan foydalanishni ekologik va sanitar-epidemiologik chegaralanishlar va loyihalangan obyektning avtrof-muhitga ko'rsatadigan ta'sirini inobatga oluvchi ekologik va sanitar–epidemiologik talablar;

- territoriya uchastkasidan foydalanish chegaralarini va shaharsozlikekologik xarakteristikasini aniqlash;

-loyihalanadigan obyektning funksional, ekologik va hajmiy-fazoviy parametrlari, uning muxandislik ta'minoti va avtomobillarni vaqtincha va doimiy to'xtash joylari bilan ta'minlash ehtiyojlari, shunigdek obyekt joylashadigan yoki rekonstruksiya qilinadigan territoriyadagi qator obyektlari rekonstruksiya, ko'chirish yoki buzib tashlash haqidagi takliflar;

- zamonaviy atrof-muhitga, atmosfera havosining suv obyektlarining, tuproq, territoriyasining gidrogeologik shartlari, fizik tamoyillar, yashil ko'chatlarning birgalikda baholanishiga asoslanib, baho berish;

- tanlangan territoriyadan atrof-muhitni asrash tadbirlari;

-transport, muxandislik va sosial infrastrukturalar unsurlarini rivojlantirish, er osti muhitidan foydalanish, qulay sanitar-epidemiologik sharoitlarni ta'minlash, territoriyani obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish, shuningdek territoriya hududidagi qator obyektlarni rekonstruksiya qilish, boshqacha foydalanish, ko'chirish va buzib tashlash kabi ishlarni bajarishni asoslab berish. [5].

2021−2041 yillarda yangi shahar sakkiz bosqichda qurilishi va unda 450 mingdan ziyod kishi istiqomat qilishi kutilmoqda. Shaharning umumiy maydoni 4000 gektarni tashkil etadi, shundan 2 mingtasini uy-joy va ijtimoiy soha obyektlari, sanoat zonalari va xizmat ko'rsatish obyektlari egallaydi. Yana 2000 gektar maydonda yashil maydonlar yaratiladi.

Bo'lajak shaharning chizmasi va maketlarida kam qavatli binolarning ustunligini ko'rish mumkin, loyihaning hovlisida yashil zonalar barpo etilishi ko'zda tutilgan. Turar-joy binolari kvartallar shaklida joylashtirilishi, ko'chalar tor bo'lishi va ular bo'ylab avtomobillar to'xtash joylari qurilishi rejalashtirilgan.

Loyihalash me'yor va qoidalari asosida transport tizimi muammolari echilgan. Magistral yo'llar 15 metrdan, bog'lovchi yo'llar 7 metrdan loyihalangan. Shaharning rejaviy kompozision echimini aniq geometrik shakllar tashkil etgan. Loyihalangan Yangi Andijon ekoshahrining boshqa shaharlardan farqi shundaki, u maksimal darajada ko'kalamzorlashtirilgan. Ko'kalamzor qismi shaharning 50 % territoriyasini tashkil etgan.

Yangi Andijon markazining landshaft echimi. Har bir loyihalangan turar-joy binosi oldida qor-yomg'ir suvlarini yig'ib, sug'orish maqsadida foydalanish uchun hajmlar er osti muhitida joylashtiriladi. Maishiy chiqindilarni saralab qo'yiladigan yopiq maydonlar tashkillashtirilgan.

Adabiyotlar ro'yxati

1. L. Van den Berg, M. Van der Bijl-Brouwer, & B. Deelstra. (2019). Exploring the role of eco-feedback in residential eco-city design. Journal of Cleaner Production, 216, 730-745.
2. N. Soebarto, G. Williamson, & M. Williamson. (2013). Designing for sustainable outcomes in private housing developments in emerging residential eco-cities: Lessons from Dongtan Eco-City. Journal of Green Building, 8(1), 142-165.
3. M. S. Serra, R. T. Loh, M. O. B. Osman, & E. C. Middelkoop. (2018). The potential of Myco Buildings for eco-city residential design: A case study in Singapore. Sustainable Cities and Society, 41, 469-475.
4. Ubaydullayev X.M, Inogomova M.M "Turar joy va jamoat binolarini loyihalashning tipologik asoslari", darslik,Toshkent 2009y.
5. Inogomov B.I "Zamonaviy bino va inshootlarni loyihalash" o'quv qo'llanma. TAQI.Toshkent 2010 y.

UDK 691.322.7

QURILISHDA KO‘PIKBETON ISHLAB CHIQARISH TEXNOLOGIYASI VA UNING TUZILISHI

J.D. Axmedov

Farg‘ona politexnika instituti, O‘zbekiston

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ko‘pikbeton materialining paydo bo‘lishi tarixi. Uning og‘ir betondan farqi va olinish usullari haqida so‘z boradi. Ko‘pikbetonning tayyorlanish uchun kerak bo‘ladigan materiallar hamda texnologiyasi haqida ma’lumotlar keltirilgan.*

Kalit so‘zlar: *ko‘pikbeton, g‘ovak materiallar, geterogen sistema, barotexnologiya, mineralizatsiyalash, pardevor, orayopma plitala, avtoklavsiz, texnologiya, material zichligi, tayyor maxsulotlar.*

Hozirgi vaqtda kun sayin energiya narxlari oshib borayotganligi sababli uni iqtisod qilish hal qilinishi zarur bo‘lgan muammolardan biridir. Bu masalani hal qilishda issiqlikdan himoyalovchi materiallardan foydalanish katta samara beradi. Bunday materiallar qatoriga ko‘pikbetonlarni qo‘shish mumkin. O‘zbekiston Respublikasida qurilish sohasi iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan hisoblanib tabiiy xom-ashyo resurslarini ishlatilishi bo‘yicha birinchilar qatorida turadi. Hozirgi zamon ishlab chiqarish sanoati xom-ashyo va energiya resurslaridan ratsional foydalanish, kam chiqindili yoki chiqindisiz texnologiyalarni ishlab chiqish kabi masalalarni echish zaruriyatini qo‘ymoqda. Ishlab chiqarish sanoati va jamoat binolarini qurilishida issiqlik va shovqindan himoyalovchi materiallardan foydalanish konstruksiyalarning qalinligini, og‘irligini hamda xom-ashyo sarfini (sement, g‘isht, metall) kamayishiga olib keladi. Bundan tashqari qurilish tannarxi ham ma’lum bir miqdorgacha arzonlashadi.

Yacheykali betonlarni ishlab chiqarishda hozirgi vaqtda avtoklav jarayonisiz ishlab chiqariladigan ko‘pikbetonlarga ko‘proq ahamiyat berilmoqda, chunki ishlab chiqarishni tashkiliy afzalliklari mavjud: kam kapital xarajatlar talab qilinishi, energiyasamarador texnologiya va avtoklav jarayoni qo‘llanilmasligi. Bundan tashqari, transport xarajatlarining kamligi gazbetonni ishlab chiqaruvchi katta quvvatli zavodlar ishlab chiqaradigan mahsulotlarni narxini va raqobatbardoshligini pasaytirishga olib keladi. Bu holat kam quvvatli zavodlarda va qurilish maydonchalarida avtoklavda qotmaydigan ko‘pikbetonning ishlab chiqarish iqtisodiy jihatdan yanada samarador ekanligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, termofizik parametrlari eng samarali o‘rtacha zichligi past bo‘lgan ko‘pikbetonni ishlab chiqarish, barqaror yacheykali tuzilishi va yuqori mustahkamliligini ta'minlashning murakkabligi tufayli muammoli hisoblanadi. Ma’lumki, doimiy zichlikdagi mustahkamlikni oshirishga faqat ko‘pikbeton matritsasining mustahkamligini oshirish orqali erishish mumkin, xususan, bog‘lovchilarning faolligini oshirish, suvning qattiqligining nisbatlarini kamaytirish, kimyoviy modifikatorlar yordamida, bog‘lovchi moddalarning mexanik kimyoviy faollashuvi va h.k. Ushbu metodlardan foydalanish texnologik jarayonini sezilarli darajada murakkablashtirishi mumkin, shuning uchun ularni amalga oshirish texnik va iqtisodiy tomondan maqsadga muvofiq bo‘lishi kerak. Sifatli ko‘pikbeton olish usullaridan biri, bu qotish jarayonini tezlashtiruvchi qo‘shimchalarni va tez qotuvchi bog‘lovchi moddalarni qo‘llashdir. Yuqoridagi texnologik usullardan foydalanish katta miqdordagi xarajatlarni talab qilmaydi.

Ilk marta ko‘pikbeton olish texnologiyasi shved arxitektori A.Erikson tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib [1], u ushbu ixtirosini 1924 yilda halqaro patent bilan himoya qilgan. Oradan 5 yil o‘tib Shvetsiyada avtoklav yordamida ushbu materialning sanoat miqyosidagi ishlab chiqarilishi yo‘lga qo‘yilgan. Rossiyada amaliy mineralogiya instituti xodimi M.N. Bryushkov 1928 yili ko‘pikbeton ishlab chiqarish texnologiyasini ishlab chiqqan bo‘lib, tayyorlash jarayonida sement

qorishmasiga sovun ildizi nomli o‘simlik qo‘shilgan. Shunday qilib, 1974 yilga kelib ko‘pikbeton dunyoning 50 ga yaqin mamlakatlarida jadal tarzda ishlatila boshlandi.

G‘ovak materiallarni ishlab chiqarish texnologiyasining qonuniyatlari og‘irbeton ishlab chiqarishdagiga nisbatan ancha farq qiladi. Ko‘pik sement massasining olinish jarayoni mexanik ishlo‘v bilan borib, bunda bir vaqtning o‘zida aralashtirish orqali bir xil g‘ovaklikka ega sistemani xosil qilish kerak bo‘ladi. G‘ovak aralalashmani tayyorlash qaysi usulda bajarilishidan qattiy nazar “gaz-suyuqlik-qattiq” geterogen sistemani hosil qilishga asoslangan.

U bir necha usullar orqali olinishi mumkin:

– an'anaviy (klassik - 2 bosqichli). Bunda alohida holda suvli ko‘pik va sement xamiri (yoki qum - sement aralashmasi) tayyorlanadi. So‘ng ular mexanik aralashtirgichda birgalikda aralashtiriladi;

– ko‘pikni quruq mineralizatsiyalash usuli;

– barotexnologiya usuli.

Ko‘pikbeton olinish texnologiyasi usullarining farqli tomonlari: an'anaviy usulning avzallik taraflari:

1) ko‘p qo‘llaniladi va ishonchli;

2) ko‘pikbeton parametrlari ko‘pik bilan aralashma orasidagi nisbatga ko‘ra nazorat qilish mumkin.

Quruq mineralizatsiyalash usulning afvzallik taraflari:

- ushbu usul uzluksiz ishlab chiqarish texnologiyasi uchun to‘g‘ri keladi;
- kam miqdordagi suv bilan yuqori darajada stabil ko‘pikbeton aralashmasi xosil qilinadi;
- ko‘pik ko‘pirtirilganda xajm ortishini o‘zgartirish orqali ko‘pikbetonning ko‘pligi xarakteristikalarini boshqarish mumkin.

Quruq mineralizatsiyalash usulining kamchiliklari va ularning sabablari:

- quruq komponentlar aniq miqdorda tortilishi va g‘ovaklashtiriluvchi aralashmada bir xilda tarqalishi talab etiladi.

Barotexnologiya usulining afvzallik taraflari:

1) ko‘pikgenerasi jarayoni va ko‘pik generatorning ishlatilmasligi;
2) juda engil ko‘pikbeton olish imkoniyatining mavjudligi (300 kg/m3 dan kichik);
3) ko‘pik va ko‘pik aralashmaning sun'iy ravishda siqilishi ko‘pligi kamayishiga olib keladi;
4) tayyor aralashma quvurdan chiqishda bosimlar farqi tufayli kengayadi;
5) gorizontal va vertikal yo‘nalishlarda tayyor aralashmani uzoq masofalarga jo‘natish mumkin.

Barotexnologiya usulning kamchiliklari va ularning sabablari:

1) jarayon parametrlarining ko‘p omilli bog‘liqliligi;
2) jarayon ketma-ketligiga, aralashtirish vaqtiga va intensivligiga qat'iy rioya etilishi.

Ko‘pgina adabiyotlarda, odatda, portlandsement bog‘lovchili ko‘pik-beton ishlab chiqarish texnologiyasi, sodda ko‘rinishdagi texnologiya deb aytiladi.

Sement-kulli qorishmaga ko‘pik xosil qiluvchi qo‘shiladi. Qorishma aralashtirilgach qoliplash ishi olib boriladi. Undan quyidagi maxsulotlar tayyorlanadi:

- devor bloklari,
- pardevor,
- orayopma plitala va boshqalar.

Ko‘pikbetondan yig‘ma-temir beton tayyorlashda va monolit qurilishlarda muvaffaqqiyatli

foydalanish mumkin. Gazbetondan farqli o‘laroq, ko‘pikbeton ishlab chiqarishda kam energiya sarflanadigan avtoklavsiz texnologiyadan foydalaniladi. Ko‘pikbeton ishlab chiqarish texnologiyasining soddaligidan tashqari boshqa avzalliklari ham mavjud bo‘lib, bu uning ijobiy tarkibga ega ekanligidir. Lekin shularga qaramay, ishlab chiqaruvchilar ba’zi qiyinchiliklarga to‘qnash kelishadi. Bular ko‘pikning bog‘lovchi modda bilan birikmay qolishi, ko‘pikbetonning bir jinsli bo‘la olmay qolishi, katta cho‘kma, ichki zo‘riqish tufayli yoriqlar xosil bo‘lishi va boshqalardir. Ko‘pikbeton qorishmasi tarkibidagi komponentlarni aralashtirish bosqichida, mutaxassislar quruq qorishmalarni dastlabki aralashtirish vaqtini qorishmaning o‘zgarmas massaga erishguniga qadar deb belgilashgan. Bu vaqt ko‘p bora o‘tkazilgan laboratoriya tekshiruvi asosida aniqlangan. Aralashtirish rejimi borasidagi izlanishlar tufayli ko‘pikbeton uchun optimal tarkib tanlandi. Komponentlarni qorishtirishdan oldin quyidagilarga e’tibor berish zarur [3]:

- aralashtirish jarayoni oddiy betondan tayyorlangan maxsulotga nisbatan ko‘pikbetondan tayyorlangan maxsulot sifatiga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatadi;
- aralashtirish material zichligini belgilaydi va g‘ovaklikni taqsimlaydi;
- aralashtirish muddati bevosita qorishmaning mustaxkamligiga va xajmiy og‘irligiga ta’sir qiladi;
- yacheykali va engil betonlar olishda aralashtirish davomiyligini uzaytirilishi, dastlab beton tarkibidagi ko‘pik xajmining oshishiga, keyin esa kamayishiga olib keladi.

O‘tkazilgan tajribalarga binoan, issiqlik ishlo‘visiz ishlab chiqariladigan ko‘pikbeton quyidagi ketma-ketlikda aralashtiriladi: kukunsimon ETF shlak+uchuvchan kul+komponentning suvli qorishmasi (aralashtirish 1,5minut). Ko‘pikbeton tayyorlash uchun qorishmani aralashtirishning umumiy vaqti 3 minut gacha deb belgilangan. Ko‘pikgenerator yordamida tayyorlangan ko‘pik o‘zgarmas massaga keltirilgan beton qorishtirgich ichidagi beton qorishmasiga qo‘shiladi. Qorishtirgich konstruktsiyasi oddiy beton xossalariga ta’sir ko‘rsatadganidek, ko‘pikli qorishmaning xossalariga ham ta’sir ko‘rsatadi: maxsulotning oxirgi sifat ko‘rsatkichlari shunga bog‘liq. Bu cheykali beton xususiyatlariga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatadi, bir tipdagi qorishtirgich orqali amalga oshirilayotgan ishlab chiqarish jarayonida boshqa tipdagi qorishtirgichdan foydalanish imkonsiz. Aralashtirish tezligi va qorishtirgich ichidagi tishlarning shakli muxim axamiyat kasb etadi. Agar g‘ovak xosil qilish jarayoni allaqachon o‘tkazilgan bo‘lsa, unda markazga intilma kuch deformatsiyasini keltirib chiqaradi: govak xajmi oshadi va xosil qilingan pufakchalar shakli o‘zgaradi. O‘tkazilgan tajribalar shuni ko‘rsatadiki, qorishtirgichda quruq komponentlarni - sement, uchuvchan kulni qorishtirish o‘zgarmas massa xosil bo‘lguncha o‘rtacha 1,5-2 minut davom etadi. Keyin esa qorishtirgichga (ishqorli) komponentning suvli aralashmasi solinadi. Bunda umumiy qorishtirish vaqti 5 minutni tashkil etadi. Qorishtirish vaqtini uzaytirish ko‘pikbeton mustaxkamligini oshirmaydi va bu iqtisodiy tarafdan samarasiz. Kamaytirish esa qorishmaning bir jinsli bo‘lishiga putur etkazadi va mustaxkamlik pasayishiga olib keladi. Avtoklavsiz gidravlik bog‘lo‘vchili ko‘pikbeton ishlab chiqarish texnologiyasi ko‘rsatgan natijalarga binoan, bu texnologiyada kam energiya va mexnat sarf qilinadi, shu bilan birga, maxsulot sifatini oshiradi. Ko‘pikbeton buyumlari ishlab chiqarish uchun taklif qilingan bu usul, bizga tashqi va ichki devor bloklari olishimizga imkon beradi, bundan tashqari issiqlikizolyatsion plitalarni olish imkonini beradi. Ko‘pikbetondan foydalanib devor bloklari ishlab chiqarish keyingi sxemada o‘z aksini topgan, bu texnologiya boshqa armatura elementi bor bu m texnologiyasidan keskin farq qiladi. Texnologik sxema xom ashyo komponentlarini tayyorlash va saqlash bo‘limini, ko‘pikbeton qorishmasini tayyorlash bo‘limini, qoliplash postini, buyumning qolipda chidamliligi posti, buyumni qolipdan bo‘shatish posti va tayyor

maxsulotlar omborini aks ettirgan. Odatda bu xollarda pardevor formasi echiladi va qorishma unga to‘liq xajm bo‘yicha solinadi, so‘ngra katta o‘lchamdagi blok xosil qilinadi (1000x1000x600 mm). Keyingi yillarda bu blokdan issiqlikizolyatsion ko‘pikbetonli 1000x500 mm o‘lchamdagi plitalar tayyorlanmoqda, uning qalinligi mijozlar taklifiga binoan tanlanadi. Bundan tashqari, shuni aytish kerakki, ko‘pikbetonli issiqlikizolyatsion plitalar o‘ta engil ko‘pikbetondan tayyorlanadi. Qurilishda juda samaralidir va ishlab chiqarishni o‘zlashtirish juda murakkab. Qumsiz engil ko‘pikbeton ishlab chiqarishning murakkabligi, uning birinchi sutkadagi mustaxkamligining pastligi va yoriq xosil qilishga cho‘kishga moyilligiga bog‘liq.

Bugungi kunda ko‘pikbloklarni ishlab chiqarish - engil betonlarn ishlab chiqarish yo‘nalishida etakchi o‘rinni egallaydi. Ko‘pikbeton bloklarning tayyorlash texnologik jarayoni juda oddiy, lekin ko‘pchilik ishlab chiqaruvchilar sifatli ko‘pikbloklarni ishlab chiqarishni boshlashdan oldin bir necha tonna sementni bexudaga sarf qiladilar. Hamma gap ishlab chiqarish uskuna va xom- ashyolaridadir.

Ko‘pikbeton butun massa bo‘ylab havo pufakchalarini bir hilda taqsimlanishi bilan tayyorlanadi. Gazbetondan farqliroq ko‘pikbeton kimyoviy birikishlar orqali emas, balki mexanik ishlo‘v berish jarayonlari orqali tayyorlanadi. Ko‘pik, sirti faol moddalar bilan suvni qorishtirish orqali olinadi [2]. Avtoklavda qotmaydigan ko‘pikbeton ishlab chiqarish, uskunalar va ishlab chiqarish texnologiyasining oddiyligi bilan farq qiladi va ishlab chiqarishni poligon va zavod sharoitlarida yo‘lga qo‘yishga imkon beradi. Oddiyligidan tashqari ko‘pikbeton ko‘plab boshqa ijobiy xususiyatlarga ega. Misol uchun uni ishlab chiqarish jarayonida, ushbu materialga kerakli zichlik ko‘rsatkichini berish qiyinchilik tug‘dirmaydi [4].

Ishlab chiqarishda asosiy xom-ashyolar bu sement va ko‘pik xosil qiluvchi moddalardir. Avtoklavda qotmaydigan ko‘pikbeton tayyorlash uchun markasi M400 dan kam bo‘lmagan portlandsetment hamda putsolan sement ishlatiladi. Markasi M400 dan kam bo‘lgan portlandsementlarni ishlatish, ko‘pikbeton mustahkamligini kamayishiga olib keladi. Sement sarfini ko‘paytirish orqali ko‘pikbeton mustahkamligini oshirish esa uning hajmiy og‘irligi ortishi va issiqlik izolyatsion xususiyatlarini kamayishiga olib keladi. Ko‘pikbeton ishlab chiqarishda suv-sement nisbatini tog‘ri tanlash muhim ro‘l o‘ynaydi. Optimal suv-sement nisbati miqdorini qayd etilgan ko‘pikbeton massasining ma’lum oquvchanlik ko‘rsatkichlarga erishish orqali aniqlanadi.

Xulosa. Xozirgi kunda zamonaviy konstruksiya va buyumlarni tayorlashda, asosan, engil qurilish ashyolari keng ishlatilmoqda. Masalan, binoni qurishda og‘ir beton o‘rniga engil issiqlik izolyatsiyalovchi betonlarni ishlatish binoning umumiy og‘irligini 5 marta kamaytirishi mumkin, natijada bino uchun sarflanadigan umumiy mablag‘ ham tejaladi. Issiqlik izolyatsion materiallarga bo‘lgan extiyoj yil sayin oshib borayotgan bir paytda mahalliy va sanoat chiqindilari asosida yuqori samaradorlikga ega kompozitsion materiallarni ishlab chiqarish ushbu muammoni echimlaridan biri bo‘la oladi. Ushbu materiallarning bir turi ko‘pikbeton hisoblanadi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Ружинский С. Р., Портик А. А., Савиных А. В. Все о пенобетоне. – Aleksey Savinih, 2006.
2. Кудяков А. И., Стешенко А. Б. Пенобетон дисперсно-армированный теплоизоляционный естественного твердения //Вестник Томского государственного архитектурно-строительного университета. – 2014. – №. 2 (43). – С. 127-133.
3. Пинкер В. А. Пенобетон в современном строительстве //Строительная альтернатива. – 2002. – №. 3. – С. 118.
4. Адамсон А. Физическая химия поверхностей. – 1979.

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ И ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ СОВРЕМЕННОЙ ЛАНДШАФТНОЙ АРХИТЕКТУРЫ

Н.И.Гончарова., А.Р. Мухамедзянов.
Ферганский политехнический институт, Узбекистан

Аннотатсия: *В статье рассматриваются проблемы ландшафтной архитектуры в organizatsiu открытых пространств городской среды. Рассмотрены основные тенденции развития современной ландшафтной архитектуры. Приведены примеры создания тематических парков – новых типов парков в городах Узбекистана.*

Ключевые слова: *природный ландшафт, открытые пространства городской среды, ландшафтная архитектура, современные тенденции развития, примеры тематических парков*

Современный человек сегодняшнего времени, как и окружающая его среда испытывают на себе воздействие чрезмерных техногенных и рекреatsионных нагрузок (загрязнение воздуха, почвы и водоёмов, шумовое воздействие, энергетическое обеспечение и др.), приводящих к ухудшению самочувствия человека и уничтожению ценных ландшафтов.

На протяжении всей истории развития ландшафтной архитектуры, выражающей одно из самых видимых проявлений взаимосвязи человека с природой, прослеживаются две тенденции, способствующие разрешению проблемы использования природной среды для нужд человека.

Одна тенденция решает проблему использования природной среды с минимальным вмешательством в нее. Другая тенденция предполагает создание «искусственной природы», т.е. формирование полностью новой среды открытых пространств, возникающей в процессе архитектурного творчества. При этом обе тенденции способствуют балансировке и гармонизatsii окружающей (городской) среды средствами ландшафтной архитектуры, ландшафтного дизайна, ландшафтного урбанизма.

Следует отметить, что любой город начинается и развивается в конкретных ландшафтных условиях рельефа, почвы, климата и др., предопределяющих возникновение города и пути его дальнейшего развития. Одновременно существует и обратное взаимодействие - любой город преобразует и постоянно изменяет ландшафт, понимаемый в современной концепции как озеленённое пространство, т.е. парк, сад, реализуемые на данном этапе без жестких канонов конкретного стилевого направления - китайский сад, английский парк и др.

Суть современной ландшафтной архитектуры составляют интегратсия науки и искусства, новые методы organizatsii городского пространства и философия восприятия. Сегодня архитектура, градостроительство и ландшафтная архитектура составляют единое целое.

Формирование социально-ориентированной и комфортной городской среды начинается с создания взаимосвязанной системы озелененных пространств, городских общественных парков, скверов, площадей пешеходных улиц, набережных, и заканчивается формированием внутренних пространств многофункциональных жилых комплексов и архитектурных объектов, проектируемых на основе принципов «зеленой архитектуры», которые с позиций ландшафтного урбанизма должны сливаться в единую ландшафтно-градостроительную систему города.

Современные тенденции развития ландшафтной архитектуры рассматриваются в следующих позициях:

- Экологизатсия садово-парковых объектов. Идея сохранения естественности ландшафта и подчеркивание «природности» территории (уголки «естественной природы», парки нового типа, главная задача которых заключена в изучении экологических закономерностей, охраны природного ландшафта, распространении экологических знаний;

- Разработка озелененных территорий специального назначения (выставочные, спортивные комплексы, аквапарки, тематические парки);

- Создание парков, связанных с сохранением «эпох» - этнографических, археологических, геологических, военно-мемориальных ландшафтов, исторических дворцово-парковых ансамблей и усадебных комплексов и т. д.; Инноватсионные решения в ландшафтной архитектуре с позиций научно-технического прогресса (в городах в связи с дефицитом земель под озеленение устраиваются сады на крышах, а из-за климатических условий - под крышами, формирование искусственных водоёмов и рельефа, средства и методы строительства садово-парковых объектов, ухода за растениями, ландшафтная рекультиватsiя территорий выработок, создание новых типов объектов садово-паркового искусства, как бизнес-парки, сады производственных предприятий);

- Экономия ландшафта или «эстетизм» ландшафта - стремление максимально освободить ландшафт от застройки, размещая сооружения под землей. Большая часть помещения закрыта сверху газоном, цветами, открыта лишь та часть здания, где необходим солнечный свет;

- Создание мини-парков. Такие парки, а точнее сады, размещаются в крупных архитектурных комплексах, рассматриваются как неразрывность человеческой культуры и природы;

- Использование возможностей традиционных и новых материалов: бетона, цветного стекла, текстиля, керамики и т. п. В сад или парк вводятся новые композиционные и художественные решения из современных материалов.

Из числа специализированных парков одними из самых популярных современных видов являются тематические парки какой-либо одной темы на базе которой строится организаця функционально-планировочной и объемно-пространственной композиции садово-паркового ландшафта.

Интегратсия Узбекистана в общемировой процесс, способствовала расширению его внешних экономических и социально-культурных связей, развитию внешнего туризма. Перед ландшафтными архитекторами республики встала задача создания ландшафтного образа городов, как зеркало отражающих степень их комфортности и благоустроенности, натсиональную политику в области охраны окружающей среды, охране исторического наследия и здоровья нации.

За последние годы в столице и других городах республике созданы мега парки, торгово-развлекательные и выставочные комплексы, тематические парки.

“Отцом” развития тематического паркостроения является, как известно, Уолт Дисней. В своем “Диснейленде” Уолт не только “оживил” героев мультипликатsiи, но и создал фантастически прекрасный мир сказочной страны с “ожившими” героями мультсериалов, комплексами разнообразных тематических аттракционов и красочных шоу представлений. И все это в границах тщательно организованной парковой среды. Коммерческие успехи

“Диснейленда” были замечены и подхвачены активными предпринимателями, создавшими целые “индустрии развлечений”.

Современные тематические парки, это – огромные комплексы, разбитые на разнообразные тематические зоны и подзоны, где экспонируются определенные образы, ситуатsii или действия на заданную тему в парковой среде. Темой для создания парка может служить либо тематический аттракцион, либо памятники архитектуры, исторический или литературный сюжет, фильм, спортивное действие, достопримечательная местность и т.д. Сегодня тематические парки являются мощным сегментом туристского бизнеса.

Семейный развлекательный парк Magic City открылся на месте Hatsionального парка в столице республики Ташкенте. Волшебный город был создан уроженцем Майами Митчем Глейзером, который написал сериал о своем опыте взросления.

Magic City *парк* развлечений и аттракционов, не имеющий аналогов в центре *Ташкента*.

Архитектурные решения зданий созданы австралийской компанией Sanderson Group. Общая площадь парка 21 га.

Территория парка разбита на тематические зоны:

- улицы, имитирующие проспекты известных столиц мира;
- музыкальный фонтан площадью 8500 кв. м.;
- копия баварского замка Нойшванштайн высотой 57 м;
- площадь Регистан и амфитеатр в виде римского Колизея на 650 мест;
- океанариум;
- лазерный конотеатр;
- кроме того организованы: аттракционы, шопинг, фуд индустрия, рестораны и др.

Фрагменты парка представлены на рис.1.




Рис.1. Фрагменты тематического парка Magic City в Ташкенте [5]

Список литературы:

1. Вергунов А.П., Денисов М.Ф., Ожегов С.С. Ландшафтное проектирование/ Под общ. редакц. А.П. Вергунова / -Архитектура –С.,- М.,1991.-237с.
2. Забелина Е. В.. Поиск новых форм в ландшафтной архитектуре: учеб. Пособие/ -Архитектура –С.,- М.,2005.-160с.
3. Terner T. 2007. Theory of Landscape architecture.L:Oxford Press.
4. Кругляк, В. В. Современные тенденции развития ландшафтной архитектуры [Электронный ресурс]: учебное пособие
5. В. В. Кругляк, Е. Н. Перелыгина, А. С. Дарковская. - Воронеж: Воронежская государственная лесотехническая академия, 2009. - 276 с.
6. Евгений Сорочин / «Газета.uz» https://www.gazeta.uz/ru/2021/06/01/magic-city/фото

UO'K 691.54

QISHLOQ XO'JALIK MAHSULOTLARI CHIQINDILARINI QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQARISHDA QO'LLASH TENDENSIYASI

M.G'. Akmalov.

Buxoro muhandislik-texnologiya instituti. O'zbekiston.

Annotatsiya *Xozirgi kunda qurilish materiallarida qishloq xo'jalik mahsulotlarini chiqindilaridan foydalanish dolzarbligicha qolmoqda. Maqolada qurilish materiali sifatida qo'llanilgan gipsli kompozitsion materialni sifat ko'rsatkichlarini oshirish maqsadida qishloq xo'jaligi mahsulotlarining chiqindilari bug'doy somonini qo'llashga oid tavsiyalar keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *gipsli kompozitsion material, qishloq xo'jaligi mahsulotlarining chiqindilari, bug'doy somoni,*

Respublikamizda sifatli qurilish materiallari va modifikatsiyalangan gipsli kompozitsiyalarni ishlab chiqishni jadallashtirish yo'llarini topish, qurilish sanoatini rivojlantirish va modifikatsiyalangan gipsli kompozitsiyalarni turli bog'lovchilar sifatida qishloq xo'jaligi mahsulotlarining chiqindilaridan, ishlab chiqarish chiqindilari bilan birga tayyorlanadigan quruq qorishmalarning raqobatbardoshligini oshirish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda.

O'zbekistonni yanada rivojlantirish bo'yicha taraqqiyot strategiyasida «...sanoatni sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish, mahalliy xomashyo manbalarini chuqur qayta ishlash, tayyor maxsulotlar ishlab chiqarishni jadallashtirish, yangi turdagi mahsulotlar va texnologiyalarni o'zlashtirish...» bo'yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Bu borada, jumladan, mahalliy qishloq xo'jaligi mahsulotlari asosida kompozitsion gipsli materiallarni fizik-mexanik, texnologik va ekspluatatsion ko'rsatgichlarini yaxshilash, ularni optimal tarkibini va olish texnologiyasini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega [1].

Ishlab chiqarishda chiqindilardan foydalanish materiallarni tejash, qurilish konstruksiyalarini takomillashtirish alohida dolzarb hisoblanadi. Ikkilamchi xomashyolardan .turli qurilish materiallarini ishlab chiqarishda foydalanish umumiy sarf xarajatlarni kamaytishiga olib keladi. Jumladan qishloq xo'jaligida turli xomashyo resurslari hosil bo'ladi (jumladan bug'doy va sholi somoni, g'o'zapoya novdalari, chigit chiqindilari) [2,3].

Hozirgi vaqtda zamonaviy qurilish materiallari bozorida ularning ekologik tozaligi va ko'lamini kengaytirish dolzarb masala hisoblanadi. Gips materiallari qurilish materiallarining samarali va istiqbolli turlaridan bo'lib, hozirgi vaqtda ishlab chiqarish ilm-fanning eng yangi yutuqlarini hisobga olgan holda ko'paytirish va yangilashni talab qiladi. Gipsli qurilish materiallari va ular asosidagi mahsulotlardan foydalanishni kengaytirish mumkin, chunki gips materiallari eng ekologik toza materiallardan biridir. Ularning ekspluatatsion xususiyatlarining oshishi formaldegid komponentlarini ishlab chiqarishda zararli aralashmalardan foydalanishdan voz kechishga imkon beradi, ular ish paytida inson tanasi uchun zararli kanserogen moddalarni chiqarib yuborishi mumkin. Gips materiallari va mahsulotlarining xossalarini yaxshilash usullaridan biri ularni ishlab chiqarishning texnologik rejimini tartibga solish hamda uning fizik mexanik xossalarini oshirishdan iborat.

Tarixdan nazar solsak, o'rta asrlarda O'rta Osiyo va Kavkazda gips va toshli ohaklarni ishlab chiqarish uchun loy-gips (ganch, gipsokarton) asosidagi bog'lovchi - gips va 40-70% loyning tabiiy aralashmasi turli o'simliklarning kuli, quylarning junlari keng qo'llanilgan. Xususan, O'rta Osiyo hududida bugungi kungacha loy-gipsli ohak yordamida qurilgan bir qancha bino va inshootlar

bugungi kungacha saqlanib qolgan. 14-asrning kamar ko‘prigi qadimiy ganch ohakning sezilarli darajada suvga chidamliligi va doimiy suv ta’sirida uning ustiga qurilgan g‘isht va tosh inshootlarning mustahkamligidan dalolat beradi. Murg‘ob daryosi (Turkmaniston) orqali o‘tgan bo‘lib, u 19-asr oxirlarida buzib tashlanganiga qadar xizmat qilgan va xususan Buxoroda 16-asrda hammom faoliyat ko‘rsatgan [4].

Buxoro muhandislik texnologiya instituti “Qurilish materiallari” kafedrasi tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda modifikatsiyalangan gipsni fizik mexanik xossalarini oshirish bo‘icha ilmiy izlanishlar olib borilgan.


Gips materiallarini tarixan ko‘pdan o‘rganish barobarida ularning suvga chidamlilik mavzusi dolzarb hisoblanadi. Bu gipsli bog‘lovchilar va undan tayyorlangan materiallardan foydalanish ko‘lamini oshirish zaruriyati bilan bog‘liq.

Tadqiqotlar davomida suv:gips nisbatini kamaytirish va g‘ovaklikni kamaytirish hamda suvga chidamliligini oshirish maqsadida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini chiqindilaridan maydalangan somondan foydalanildi. [5]

Modifikatsiyalangan gips kompozitsion suvoq aralashmalarini sanoat sharoitida olingan namunalarni fizik-mexanik va qurilish-texnik xossalari GOST 31377-2018 “Gips bog‘lovchi asosidagi quruq qurilish gips aralashmalari” talablariga va qurilish va texnik xususiyatlari bo‘yicha suvoq va pardozlash maqsadlarida mavjud me’yoriy-texnik hujjatlar talablariga javob berishi aniqlandi.

Olib borilgan tadqiqotlarda gipsning mustahkamligiga bug‘doy somonini qo‘shilishi natijasida gipsning qotish vaqtiga ta’sir ko‘rsatganligini ko‘rish mumkin. Bu esa qurilish ishlari hajmini tez va qisqa muddatlarda bajarilishiga olib keladi. (1-rasm)

SHu bilan bir qatorda qurilish materiallarini qurilish ishlarida tejash imkoniyatini xam beradi.



1-rasm. Gips mustahkamligini vaqtga bog‘liqlik grafigi.

Adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022 — 2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi 2022 yil 28 yanvardagi №PF-60-sonli Farmoni.

2. Munavvarxonov Z.T. Mahalliy va ikkilamchi xom ashyo asosida modifikatsiyalangan kompozitsion gipsli materiallarni tarkibini va olish texnologiyasini ishlab chiqish. Avtoreferat dis....texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD). – Toshkent, 2022. – 44 b.

3. N. Davыdenko Otxodы selskoxozyaystvennoy pererabotki v proizvodstve teploizolyasionnыx materialov Vestnik polotskogo gosudarstvennogo universiteta. seriya f. *Polotsk.* -2009. №12. –S. 55-60.

4. Xaliullin M.I., Nuriev M.I., Raximov R.Z., Gayfullin A.R. Vliyanie dobavki termoaktivirovannoy glinы na svoystva kompozitsionnogo gipsovogo vyajuщego // Izvestiya KazGASU. 2016. №1 (35).

5. M.S.Egamberdiyev, I.U.Oripov, Sh.Hakimov, M.G.Akmalov, A.U.Gadoyev, H.B.Asadov Hydrolysis during hydration of anhydrous calcium sulfosilicate Eurasian Journal of Engineering and Technology. –L.Volume 4| March, 2022 pp-76-81.

6. Rakhimov F.F., Ibodova S.I., Kholikova G.K. Synthesis of organosilicon polymer based on hydrolyzed polyacrylonitrile //International Scientific and Current Research Conferences. – 2021. P. 1-4.

UDK 699.86

PLACE AND ROLE OF INNOVATIVE ENERGY-SAVING PRODUCTS IN CITY PLANNING

E.V.Koraboev., Z.E. Nazirov.

Annotatsiya: *Ushbu maqolada issiqlikni saqlovchi materiallarni zamonaviy shaharsozlikdagi o'rni, shahar dizayniga qo'shgan xissasi xaqida so'z boradi.*

Abstract: *This article deals with the role of heat-retaining materials in modern urban planning and their contribution to urban design.*

Kalit so'zlar: *Zamonaviy shaharsozlik, issiqlikni saqlovchi materiallar va ularni zamonaviy arxitekturada qo'llanilishi.*

Key words: *Modern urban planning, heat-retaining materials and their use in modern architecture.*

The word "innovation" has become one of the most commonly used phrases in our nation in recent ears. Innovation is defined as introducing innovation or ingenuity. As a result, innovation plays a crucial part in the development and use of heat-saving materials with energy-saving capabilities.[1]

In our nation, the demand for materials that keep heat is rising early. This was especially clear during this ear's very frigid winter. These materials are produced in accordance with rigorous specifications. They are first and foremost environmentally friendly, flexible, energy-efficient, small in size, light, and resistant to decay (corrosion) when applied to iron products and buildings. They also reduce heat loss and offer mold protection when applied to structures. Saving heat and cutting energy use in manufacturing and large industrial facilities are currently regarded as critical and significant challenges.

At present, for the efficient use of heat and saving it, fiberglass is used. If we look at the example of the city construction, autoplenia is used in the houses to heat the buildings, if the walls of the building are not resistant to keeping the thin heat, the temperature of the room will quickly cool down. We use different methods to solve this problem. The innovative heat-retaining material offered by us is remarkable for the fact that it can be applied not only to buildings and structures, heat pipes, but also to all branches of industry.

DISCUSSION AND RESULTS. This substance is created using microspheres and acrylic paints (a few other chemicals). It can be applied to any surface and has good adhesion (to materials such as brick, glass-to-glass, mattel, plastic, gypsum, cement-sand regions, concrete, and wood). It also inhibits corrosion on cold surfaces. is unique in that it lays.

It is required to begin the experiment with the calculation of heat transfer coefficients through exterior barriers in order to determine the heat load of the heating system.

The following formula represents the coefficient of heat transmission over exterior barriers:

$K = 1 / R_0$;

where R_0 is the heat transfer resistance coefficient of the barrier structure, ($m^{2\,0}S$)/V;

The coefficient of resistance to heat transfer of the barrier structure is determined as follows:

$$R_0 = \frac{1}{\alpha_v} + \sum\left(\frac{\delta_i}{\lambda_i}\right) + \frac{1}{\alpha_m}$$

Here α_v – heat transfer coefficient of the inner surface of the barrier structure Vt/(m^2 ^{0}S);

λ – thermal conductivity of the barrier structure Vt/(m^2 ^{0}S);

δ – thickness of one layer of the barrier structure;

α_τ – heat transfer coefficient of the outer surface of the barrier structure (for winter conditions), Vt/(m^2 ^{0}S);

Heat transfer coefficients

Barrier construction the surface	α_v, Vt/(m^2 ^{0}S)	α_τ, Vt/(m^2 ^{0}S)
Outer wall, window	8,7	23
Roofs without attics	8,7	23
Attic roofs	8,7	12
Unheated basement without proem	8,7	6
Unheated basement with a basement	8,7	12

Using the following formula, we can determine the outer wall's resistance to heat transfer:

R_0= 1/8,7 +0,02/0,76 + 0,51/0,58 + 0,02/0,76 +1/23= 1,09 (m^2 ^{0}S)/Vt;

In conclusion, we can see that the use of heat-retaining materials in the improvement of the modern design of the city contributes to the preservation of heat and the beauty of the city.

References:

1. Information from the Internet
2. A.E. ODILXO‘JAYEV QURILISH MATERIALLARI «O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi» nashriyot-matbaa birlashmasi Toshkent - 2020

UDK 712.1

TURAR-JOY BINOLARINING INTERYERINI KO‘KALAMZORLASHTIRISHNING ZAMONAVIY TEXNIKALARI

M.K. Kurbanova.

Samarqand Davlat Arxitektura-Qurilish Universiteti, O‘zbekiston.

Annotatsiya: *Ushbu maqolada turar-joy binolarini obodonlashtirishning turli usullari muhokama qilinadi. Fitodizaynning mashhur tendentsiyalari, shuningdek, o'simliklarni interyerga joylashtirishning ko'plab texnologiyalari batafsil tahlil qilindi. Yashil o'simliklarning inson va uning turar joyi uchun foydali xususiyatlari va fitodizaynda e'tiborga olinishi kerak bo'lgan bir qator omillar aniqlangan. Maqolada, shuningdek, turli xil bog'dorchilik texnikasini qayta tiklashga yordam beradigan bir qator badiiy va kompozitsion usullar taqdim etilgan.*

Abstract*: This article discusses various methods of landscaping in residential premises. Detailed analysis of phytode-sign popular trends and variety of technologies for placing plants in the interior are produced. Good properties of greenery for human and his home and numbers of factors that must be considered in phytodesign are revealed. The article also presents a number of artistic and compositional methods that help to recreate various gardening techniques.*

Kalit so'zlar*: ko'kalamzorlashtirish, interyer, fitodizayn, o'simliklar, etnik, aksent , kashpo, vertical kompozitsiya.*

***Keywords**: indoor landscaping, interior, phytodesign, plants, ethnic, accent, planting, vertical composition.*

Insonning o'z uyini o'simliklar bilan to'ldirishga bo'lgan qiziqishi interyerda **fitodizaynning** paydo bo'lishiga, ya'ni xona ichidagi gulli kompozitsiyalarni yaratishga sabab bo‘ldi.

Zamonaviy interyerni gullar va o'simliklarsiz tasavvur qilishning iloji yo'q - bu to'liq dizayn echimining ajralmas qismidir. Biroq, endi derazada turgan guldondagi gullar hech kimni hayratda qoldirmaydi, hozirgi tendentsiyalar fitodizaynni butunlay yangi yo'nalishlarga aylantirmoqda. Joylashuv tekisliklari, o'simliklar o'sadigan devorlar, yashil mebellar - bularning barchasi hozirgi "fitodizayn" kontseptsiyasiga kiritilgan narsalarning faqat kichik bir qismidir.

Yashash maydonining ichki qismiga obodonlashtirishni joriy etishning zamonaviy usullari qanday? Bu savolga batafsil javob berishdan oldin, ichki qismdagi o'simliklarning asosiy funktsiyalarini va ularga ta'sirini aniqlash kerak [2]. Bunday beshta funktsiya mavjud:

- **Estetik** – yashil rang har bir interyerga o‘ziga xoslik bag‘ishlaydi va inson faoliyati uchun fon bo‘lib xizmat qiladi;
- **Ajratish** - makonni tartibga soladi va interyerni zonalarga ajratadi, bo'sh joylarni to'ldiradi;
- **Psixologik** - xonadagi odamning kayfiyatini yaxshilaydi, shuningdek, interyerga qulaylik tuyg'usini keltirib chiqaradi, engillik hissini yaratadi;
- **Aksentlik** - muhitdagi kompozitsion urg'u va dominantlarni belgilaydi, xonani uyg'unlashtiradi va muvozanatlashtiradi;
- **Ekologik** - xonadagi havoni tozalaydi, dezinfeksiya qiladi va boyitadi.

Ichki makonni yashil o'simliklar bilan to'ldirishni xohlaganimizda, bu funktsiyalarning barchasini hisobga olish kerak.

O'simliklarning funktsional ahamiyatini hisobga olishdan tashqari, xonada o‘simliklarni to‘g‘ri o‘stirish uchun bir qator omillarni o‘rganish kerak:

- xonaning ichki xususiyatlari bilan ko‘kalamzorlashtirishning uyg‘unligi;
- o‘simliklarning bir-biri bilan birikmasi;
- o‘simliklarning biologik xossalari;
- xonaning mikroiqlimi;
- o‘sayotgan o‘simliklarni parvarish qilish usuli;

Shuning uchun fitodizayn - bu qiyin va ko'p vaqt talab qiladigan vazifa bo'lib, uni hal qilish orqali siz ajoyib, o'ziga xos natijaga erishishingiz mumkin.

Ichki dizaynning ko'plab innovatsion usullari mavjud va ular tarkibi, harakatchanlik darajasi va o'stirish tekisliklariga ko'ra bo'linadi [3]:

1) Kompozitsion echimiga ko‘ra fazoviy, hajmli, hajmli-fazoviy, nuqtali, chiziqli, vertikal va yassi manzarali o‘simlik kompozitsiyalari farqlanadi;
2) Harakatchanlik darajasiga ko‘ra ko‘kalamzorlashtirishning 3 turi mavjud: ko‘chma, statsionar va o‘rnatilgan;
3) Ekish tekisligiga ko‘ra gorizontal va vertikal ekish turlari mavjud.

Keling, e'tiborimizni oxirgi tasnifga qaratamiz, chunki bu bizga o'simliklarni tekislik va harakatchanlik nuqtai nazaridan ham, turli xil kompozitsiyalar turlari bo'yicha joylashtirish variantlarini kengroq ko'rib chiqishga imkon beradi.

Gorizontal ko‘kalamzorlashtirish bu - odatiy yopiq kashpolar va guldonlardir. Biroq, o‘simliklarni gorizontal tekislikda joylashtirish uchun bir qator zamonaviy texnikalar mavjud.

Yashil kompozitsiyalar turli darajalarda amalga oshirilishi mumkin. Yerga qo'yilganda, fitokompozitsiyalar odatda dam olish joylariga (kreslolar, divanlar yaqinida) tomon tortiladi yoki alohida zonani tashkil qiladi. Zamindan yuqoriga ko'tarilgan yashil kompozitsiyalar o'rindiqlar yoki

stollar darajasida yoki undan ham yuqoriroq joyga joylashtiriladi. Ular uchun maxsus mebel tuzilmalari yig'ilishi mumkin.



Rasm 1. Gorizontal ko‘kalamzorlashtirishga misollar

Vertikal bog'dorchilik - bu o'simliklarni odatiy gorizontal tarzda emas, balki derazalar yoki stollarda - vertikal ravishda devorlarga yoki maxsus tuzilmalarga joylashtirish usuli [1].

Ichki makonda vertikal ko'kalamzorlashtirish bir qator afzalliklarga ega:

1) Yuqori dekorativ qiymat.
2) G'ayrioddiy ko'rinish.
3) Toza, toza havo.
4) Qulay mikroiqlim.

Xonani vertikal ravishda bezash uchun to'g'ri joyni, konstruksiyani va uni to'ldirish uchun o'simliklarni to‘g‘ri tanlash kerak.

Ichki makon uchun juda ko'p turli xil vertikal bog'dorchilik konstruktsiyalarini moslashingiz mumkin. Ular umumiy dizaynning uslubi va kontseptsiyasiga mos kelishi muhimdir. Misol uchun, tabiiy materiallardan tayyorlangan kompozitsiyalar zamonaviy uslublarda noto'g'ri ko'rinishi mumkin.

Vertikal ko‘kalamzorlashtirishning bir nechta dizayn variantlari mavjud ular quyidagilardir [4]:

Osilgan kashpolar: Vertikal bog'dorchilik uchun eng oson va eng maqbul variant. Gullar va manzarali o'simliklarni kashpolarga (guldon) ekib devor yoki shiftga guruhlab yoki yakka holda osib qo'yish mumkin.

Vertikal gilam. Bunday modulning afzalligi optimal o'lchamni tanlashda. Ushbu variantning dizayni juda oddiy - maxsus mato materialidan tayyorlangan "cho'ntaklar" yog'och yoki plastmassadan tayyorlangan taglikka biriktiriladi.Har bir cho'ntagiga mos o'simlik ekiladi va to'g'ri parvarish bilan ta'minlanadi. Devor modullari plastik yoki boshqa materiallardan tayyorlanishi mumkin.



Rasm 2. Osilgan kashpolar va vertikal gilam

Modulli tirik devorlar - bu tuproqli konteynerlar o'rnatilgan ramka. Ular maxsus sug'orish tizimi bilan jihozlangan bo‘ladi. Interyerni ko‘kalamzorlashtirishda bunday yashil kartinalarni yaratish eng ko'p ishlatiladigan variant hisoblanadi.

Konteynerli yashil devor - bu o'simliklarning idishlari yoki guldonlarni joylashtirish uchun mo‘ljallangan javonlardan iborat konstruktsiya. Javonning orqa qismini yashirish uchun asosan katta bargli o‘simliklar tanlanadi. Bunday devorlar

xonaga qiziqarli bezak elementlarini qo'shibgina qolmay, balki joylashuvi qanday bo'lishidan qat'i nazar, umumiy uslubini saqlab qolishga yordam beradi.



Рисунок 3. Rasm 3. Modulli va konteynerli fitokompozitsiyalar.

Vertikal ko‘kalamzorlashtirishda o'simliklarni to‘g‘ri tanlash devordagi kompozitsiyani to'liq va uyg'un holga keltiradi. O‘simliklarni nafaqat tashqi ko'rinishiga, balki ularning sharoitlari va o'sish xususiyatlariga bo'lgan talablar nuqtai nazaridan ham tanlash kerak [5].

Tanlov qoidalari:

- Oddiy va injiq xususiyatli o‘simliklrni bitta kompozitsiyada birlashtirmaslik kerak.
- Gullarning namlik, yorug'lik va harorat talablari bir xil bo'lishi kerak. Qurg'oqchilikka chidamli va namlikni yaxshi ko'radigan o'simliklar birga ekilmasligi kerak.
- Vertikal ko‘kalamzorlashtirish uchun plyush, filodendron, sindapsus kabi chirmashuvchi va ampelli o'simliklarni tanlash lozim. Ular tez o'sadi va yoqimli bir hil yoki rang-barang fon yaratadi.

- O‘simliklardan - Gusmania, Aechmea, Tillandsia; paporotniklar - Nefrolepis, Adiantumlar kabilar vertikal bog'dorchilikda jozibali ko'rinadi. Ular kompozitsiyaga "jonli" tropik ko'rinish beradi.
- Xonaning vazifasiga qarab o'simliklarni tanlash lozim. Masalan, yotoqxonalar uchun kam yorug'likka moslashtirilgan, kuchli iforsiz o'simliklarni tanlanadi. Mehmonxona uchun o'simliklarning barcha turlarini tanlash mumkin - katta va kichik, gulli va manzarali. Oshxonaga esa aromatik, namlikni yaxshi ko'radigan va hattoiste’mol qilish mumkin bo'lgan o'simliklar mos keladi.

Rasm 4. Vertikal kompozitsyalar uchun o‘simliklarga misollar





Plyush *Tillandsiya*





Adiantum *Filodendron*

Interyerda o'simliklardan foydalanishning barcha zamonaviy usullarini tushunganimizdan so'ng, biz ichki muhit uchun ko‘kalamzorlashtirish turini tanlash muammosi har doim dolzarb bo'lib qoladi va dizaynerlar, dekorator va floristlar, shuningdek oddiy odamlarning ham e'tiborini jalb qilishda davom etadi degan xulosaga kelishimiz mumkin.

Yashil ranglarning elementlari ichki makonni to'ldirishga yordam beradi va unga yangi, engil va qulay tuyg'u beradi. Ularning mavjudligi odamlarni bo'shashtiradi va tinchlantiradi, ularga ijobiy kayfiyat bag'ishlaydi.

Albatta, har bir kishi o'simliklar uchun to'g'ri g'amxo'rlik qila olmaydi, eng qimmat dizaynlarni sotib oladi yoki allergik reaktsiyalar tufayli o'z yashil maydonlarini boshlay olmaydi. Ammo ichki makonni ko‘kalamzorlashtirishning hozirgi xilma-xil usullarida har qanday toifadagi odam uchun eng yaxshi variantni tanlash qiyin bo'lmaydi, barchasi o'z uyingizda yashil maydonlarga ega bo'lish istagiga bog'liq.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Berdiyev E.T., Maxmudova G.B. “Vertikalniy ozelenenie” (o‘quv qo‘llanma).– Toshkent, 2017y.
2. Bobileva O.N. “Rasteniya v interyere”: darslik / Moskva : MGUL, 2012 y.
3. Gavrilova O.I. “Ozelenenie interyerov”: o‘quv qo‘llanma –PetrGU, 2015 y.
4. Gracheva A.V. “Osnovi fitodizayna” : o‘quv qo‘llanma. – Moskva, 2007 y.
5. Ladvinskaya A.A. “Ampelnie i vyushiesa rasteniya”: kitob – Moskva, 2006 y.
6. Kapranova N.N. “Komnatniye rasteniya v interyere” MGU, 1989 y.

УДК 721

ПРОГРЕССИВНЫЕ ТЕНДЕНЦИИ ПРОЕКТИРОВАНИЯ И СТРОИТЕЛЬСТВА ОБЪЕКТОВ СЕМЕЙНОГО ОТДЫХА

Н.Н. Фоменкою

Ташкентский архитектурно-строительный университет. Узбекистан.

Аннотатция: *Потребность в сфере туризма и хорошего полноценного отдыха в мире растет. Наличие экологически чистой природной среды привлекает туристов. Анализ современной практики по organizatsiu и многообразию туристических объектов стран представляет значительный материал для выявления прогрессивных тенденций развития объектов семейного отдыха.*

Annotation: *The need for tourism and good recreation in the world is growing. The presence of an ecologically clean natural environment attracts tourists. An analysis of modern practice in the organization and diversity of tourist facilities in countries provides significant material for identifying progressive trends in the development of family recreation facilities.*

Ключевые слова: *туризм, семейный отдых, природная среда, здоровье, уединение, экологический район, пышная растительность.*

Keywords: *tourism, family vacation, natural environment, health, solitude, ecological area, lush vegetation.*

Туризм в 21 веке стал одной из быстро развивающихся отраслей. Некоторые страны полностью строят свою экономику на туризме. Это является эффективным и перспективным источником роста natsionalного дохода [1,с.20] особенно для стран, которые располагают рекreatsionными возможностями, благоприятными природно-климатическими условиями, памятниками истории и архитектуры. Анализ современной практики organizatsii туристических объектов разных стран представляет значительный интерес для выявления прогрессивных тенденций их проектирования и строительства.

Keemala Birds Nest, Таиланд Курортный отель Keemala - SHA Plus, расположен посреди пышной растительности на холмах с видом на поселок Камала и Андаманское море.



Рис.1. отель Keemala - SHA Plus

К услугам гостей оздоровительный спа-центр, расслабляющие массажные процедуры и ресторан (***Рис.1***.). До пляжа Камала — 2 км. В течение всего периода проживания предоставляется бесплатный Wi-Fi. Во всех со вкусом оформленных номерах имеется собственный бассейн, мультимедийная система, гостиный уголок и терраса с потрясающим видом на лес и сверкающее море. Также в распоряжении гостей круглосуточная стойка регистратsiи, прачечная и камера хранения багажа. В туристическом бюро можно организовать однодневные экскурсии и приобрести билеты. На территории курортного отеля работают фитнес-центр и сауна.

Оригинальный курортный комплекс **Kakslauttanen Arctic в Норвегии.**

Гастрономический ужин, бранч, послеобеденный чай со сластями в отеле **Engo Gard**. Причем каждый раз трапеза происходит в разных местах: бранч - на открытой террасе, чай - в библиотеке.

В итоге гости вообще почти не попадаются друг другу на глаза, обеспечивая отдых в кругу семьи.



Рис.2. отель в Норвегии Engo Gard

База отдыха «Уя». Одна из самых известных баз отдыха Карелии «Уя» располагается в одноименном поселке в Прионежском районе.



Рис.3. база отдыха «Уя»

На территории имеется: кафе, где можно заказать комплексное питание с завтраком, обедом и ужином; финская и русская бани; домик для приготовления шашлыков; бильярд, бадминтон, прокат квадроциклов, велосипедов, лодок и другого спортивного инвентаря; для любителей порыбачить — троллинговая и весельная рыбалка, а также на удочку и с поездкой на остров Кижи.

При проектировании современных объектов отдыха и туризма основой архитектурного решения становится воплощение оригинальной идеи, создание запоминающегося образа.

Таким , например, является глубоководный отель **Poseidon Undersea Resort.**

Это и аттракцион «Полет на гиппогрифе», и хижина Хагрида, лавка Олливандера, где можно найти волшебные палочки и различные модели метел для участия в турнире по квиддичу. Благодаря кропотливой работе дизайнеров с детальной точностью были воссозданы интерьеры замка. Следует отметить, что с появлением данного парка наблюдался даже незначительный спад посещаемости парка Walt Disney World, сооружение которого превратило Орландо из малозаметного посёлка в процветающий туристический центр.

В нидерландской провинции Северный Брабант расположен парк Эфтелинг, один из старейших тематических парков. Парк выделяется своей архитектурой, ведь большинство сооружений парка были созданы в соответствии с известными голландскими сказками и потому так особенно любимы детьми и их родителями. На территории «Эфтелинга» построено большое количество аттракционов. Парк входит в 25 самых посещаемых тематических парков ира [2].



Рис.3 Парк «Эфтелинг»

Крупнейший развлекательный парк Everland В Южной Корее включает 5 крупных зон, в которых предлагаются разнообразные развлечения, а также круглый год проходят красочные и феерические мероприятия: Фестивали тюльпанов, роз, Иллюминatsionный фестиваль и т.д. Наряду с аттракционами в Эверленде есть также зона животных Zootopia, на территории которой содержится около 2 000 животных, за которыми можно понаблюдать с достаточно близкого расстояния. С 2013 года в Zootopia осуществляется увлекательный тур-сафари Lost Valley, который подразумевает осмотр животных на небольших экскурсионных автобусах. Во время такой поездки гости парка могут полюбоваться около 150 животными [4].



Рис.4 Парк «Everland»

Парковые территории играют важную роль как в крупных, так и в малых городах. Данные примеры показывают, что создание популярного специализированного парка с интересной тематикой может стать основой маркетинговой стратегии, увеличить туристический поток, привлечь инвесторов, улучшить экономику населенного пункта. Это будет способствовать поддержке его бренда и оказать большое влияние на имидж города и повышать уровень качества жизни горожан.

Список литературы:

1. World Urban Parks: как парки меняют города и делают людей равными. https://news.rambler.ru/other/43037380-world-urban-parks-kak-parki-menyayut-goroda-i-delayut-lyudey-ravnymi/
2. https://realty.rbc.ru/news/5c59ce419a7947032e86c8d6
3. ww.universalorlando.com/harrypotter.
4. http://www.everland.com/web/multi/english/everland/main.html

UDK 711

SHAHARSOZLIK VA LANDSHAFT ARXITEKTURASINING DOLZARB MUAMMOLARI HAMDA AMALIY YECHIMLARI

Sh.M. Umarkulova. dotsent T.Sh. Safiev.
Toshkent arxitektura-qurilish universiteti, O'zbekiston.

Annotatsiya: *Maqolada yoritilayotgan mavzu hozirgi kundagi shaharsozlik va landshaft arxitekturasining dolzarb muammolarini o'rganadi va mavjud muammolari bo'lmish aholi sonining ortishi, tabiiy resurslarning tugab borishi, tirbandliklar, ekologiya, aholi yashash sharoitiga ta'siri va muammolarni hal etish yo'llari haqida ma'lumot beradi. Rivojlangan mamlakatlarda shaharsozlik muammolarini bartaraf etishda qanday chora-tadbirlar ko'rayotgani o'rganilgan. Shaharsozlik va arxitekturaning dolzarb muammolarini hal etishda innovatsion metodlar o'rganilgan va amaliyotga tadbiq etish yo'llari ko'rib chiqilgan.*

Abstract: *The article deals with the topical problems of urban planning and landscape architecture and discusses existing problems such as population growth, depletion of natural resources, traffic congestion, ecology, impact on living conditions and ways of solving them. Examined what measures are being taken to address urban planning problems in developed countries. Innovative methods of solving current problems of urban planning and architecture are studied and ways of practical implementation are considered.*

Kalit so'zlar: *shaharsozlik, arxitektura, transport, tirbandliklar, landshaft, ekologiya, aholi, Birlashgan milllatlar tashkiloti, Via Verde, sponge cities.*

Key words: *urban planning, architecture, transport, traffic, landscape, ecology, population, UN, Via Verde, spongy cities.*

Kirish. Mamlakatimizda arxitektura-shaharsozlik sohasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilayotgan bo'lsa-da, shu bilan birga yillar davomida saqlanib qolayotgan yoki yangidan yuzaga

kelayotgan muammolar yo‘q emas. Shaharsozlik va landshaft arxitekturasining muammolari haqida so’z yuritishdan avval qisqacha bo’lsada shaharsozlik o’zi nima ekani haqida gapirib o’tmoqchiman. Shaharsozlik deganda aholi yashash joylari va aholini joylashtirish sistemasining urbanizatsiyalashgan muhiti shakllanishida kompleks va ko’p tomonlama ishlab chiquvchi jarayon tushuniladi. Shaharsozlik faoliyatining ob’yekti bo’lib – rejaviy hududlar va aholi punktlari, turar-joy tumanlari va sanoat hududlari, dam olish hududlari va shahar hududining boshqa rejalashtirish elementlari hisoblanadi. Shahar deganda esa, bir-birlari bilan bog’liq bo’lgan ko’p turli korxona va zavodlar majmuasi tushuniladi. Har kuni shahar minglab tonna xom-ashyo va oziq-ovqatlar iste’mol qiladi, minglab tonna sanoat va boshqa chiqindilarni chiqaradi. Boshqacha qilib aytganda shahar - bu qudratli muhandislik xo’jaligi. Bu yuzlab kilometr suv o’tkazgich quvurlari, elektr quvvati bilan ta’minlash, o’choqxonalar, oqava suvlarini tozalash inshootlari hisoblanadi. Bundan tashqari shahar - bu moddiy va ma’naviy- madaniyat durdonalari yaratilib kelingan taraqqiyot namunasidir.

Shaharsozlik bu juda keng qamrovli tushuncha bo’lgani kabi uning muammolarining ham ahamiyati juda yuqori va bu muammolarni global muammolar desak ham mubolag’a bo’lmaydi. Chunki shaharsozligida yokida landshaft arxitekturasida muammosi bo’lmagan davlatning o’zi yo’q. Shu o’rinda ushbu maqolada shaxarsozlik va landshaft arxitekturasining dolzarb muammolari haqida hamda ularni oldini olish, mavjud muammolarga echimlar keltirib o’tiladi. O’ylaymanki har bir arxitektor yokida shaxar qurilishi bilan shug’illanadigan odam shaxarsozlik muammolaridan va kamchiliklaridan habardor bo’lishi lozim. Chunki kelgisi loyihalarda mavjud xatolarni takrorlamasligi va kamchiliklar, muammolarni iloji boricha hal etishi lozim

Qo’llanilgan materiallar va uslublar.


Maqolada statistik, qiyosiy, internet materiallari va mavjud loyihalarni tahlil qilish, kuzatish, qiyosiy tahlil qilish va umumlashtirish kabi usullardan foydalanilgan.

Asosiy qism. Shaharsozlik va landshaft arxitekturasining muammolari juda ko’p, ularni barchasini bartaraf etish esa imkonsiz. Bir muammoni bartaraf etib bo’lmasdan boshqa muammo kelib chiqaveradi. Quyida esa shaharsozlikdagi eng dolzarb muammoning qisqacha tavsifi bilan tanishib chiqamiz.

Shaharsozlikning asosiy maqsadlaridan biri, odamlarga mazmunli hayot kechirish imkoniyatini beradigan infratuzilmani yaratishdir. Shahar aholi punktlarining tez kengayishi, aholi sonini ortishi, bu maqsadga erishishni qiyinlashtiradi. Aholi soni ortgani sari yashash maydonlari ham kengayib boraveradi. Qayerda yashash uchun qulay shart-sharoit mavjud bo’lsa, aholi ham shu joyda ko’paya boshlaydi [1]. Bu esa aholi turar-joylarini tartibsiz o’sib borishiga sabab bo’ladi. Bunday holatlar shaxar bosh rejasini izdan chiqib ketishiga sabab bo’ladi. Shu kabi muammolar bo’lmasligi uchun O'zbekistonda quyidagi loyihalash bosqichlari qabul qilingan: shahar rivojlanishining bosh tarxi (shahar rejalashtirish loyihasi) shaharni to'la qamrab oladi. Buning tarkibiga transportni, muhandislik tarmoqlarini, ko'kalamzorlarni va boshqalarni rivojlantirishning shartli chizmalari ham kiradi. Shahar bosh tarxi 20 yil muddatga ishlanadi. M 1: 10000; batafsil rejalashtirish loyihasi 7—10 yil muddatga ishlanadi. Tarkibiga shaharning yirik bir qismini (markaz, sanoat qismi aholi joylashgan qismi va boshqalar) qamrab oladi. M 1:2000; qurilish loyihasi muddati 3-5 yil. Bu shaharning ayrim kichikroq bo'laklarini qamrab oladi (kichik tuman, maydon, anhor bo'yi, dam olish markazi va boshqalar). M 1:1 000, 1 : 500 [2].

Birlashgan Millatlar Tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, 2050 yilga kelib dunyo aholisining taxminan 68 foizi shaharlarda yashashi kutilmoqda . Bu zamonaviy hayot bilan solishtirganda 55 foizga keskin o'sishdir. Aholi soni o'sishda davom etar ekan, dunyoda o'ttiz yildan kamroq vaqt ichida shaharlarda 2,5 milliarddan ortiq odam yashashi mumkin. Shahar hayotining tez kengayishi, iqlim

o'zgarishi kabi tashqi omillar bilan birlashganda, katta shaharlarda yashovchilarga sezilarli bosim o'tkazadi. Agar tabiiy ofat ro'y bersa, aholi zich joylashgan shahar aholi punktlari iqlim o'zgarishi oqibatlarini juda katta halokatli oqibatlar olib kelishi mumkin.



1-rasm. Aholi sonining ortishi.

Iqlimning o'zgarishi muammosi va echimi. Iqlim o'zgarishi jamiyatga turli yo'llar bilan ta'sir ko'rsatmoqda, so'nggi bir necha o'n yilliklardagi ob-havo sharoitlarining o'zgarishi yangi shaharlarning rivojlanishiga haddan tashqari ta'sir ko'rsatdi. Tabiiy ofatlar va yuqori darajadagi issiqlik, shamol va yomg'ir xavfi ortib borayotganiga qarshi kurashish uchun shaharni rejalashtiruvchilar shahar hududlarini ushbu tabiiy kuchlarga nisbatan chidamliroq qilishga intilmoqda. Bunday muammolarni bartaraf etish uchun rivojlangan mamlakatlarida bir qator ishlar olib borilmoqda. Misol tariqasida yomg'ir ko'p yog'adigan mamlakatlarda yomg'ir suvini tez shimib oladigan va zaxarli gazlarni katta miqdorda tozalaydigan "sponge cities" loyihalari amaliyotga tadbiq etilmoqda. Bundan tashqari ushbu shaharlarda suv toshqinlarini oldini olish maqsadida suv o'tkazuvchan asfalt hamda yomg'ir suvlari uchun bo'g'lar loyihalari ishlab chiqilmoqda. Shaharda suv quvurlari va sug'orish tizimlarining talab etilgan darajada ishlamasligi katta moddiy sarf harajatlarga olib keladi. Shu sababdan ham suv quvurlari hamda sug'orish tizimi mukammal tarzda loyihalangan bo'lishi lozim.

Tabiiy resurslar tanqisligi va ekologiya muammosi. Navbatdagi muammolardan biri bu mavjud tabiiy resurslarini tugab borishi. Bu ham shaharsozlik muammolaridan biri hisoblanishiga sabab, shahar aholisining tez o'sib borishi, bu hududlarda resurslarni tugashiga sababchi bo'ladi. Misol uchun oziq-ovqat tanqisligi shahar aholisining doimiy tashvishidir, hozirgi kunda aholi soni ortgani sari fermerlik uchun joy allaqachon cheklangan. Boshqa resurslar ham tanqislikka duch kelmoqda, masalan suv yoki energiyaga bo'lgan ehtiyoj, aholi o'sishi bilan ortib bormoqda. Odamlar tabiat bilan asrlar osha olishib kelmoqdalar. Tuproq, tosh va yog'ochlardan uy-joy qurish, ekinzorlar barpo etish, er ostidan foydali qazilmalarni kavlab olish - bularning barchasi tabiat boyliklaridan foydalanish bo'lib, shu bilan birga tabiatni barbod qilish hamdir. Hozirgi texnika inqilobi asrida teskari masala, ya'ni tabiatni saqlash, qayta tiklash va sog'lomlashtirish inson uchun hayotiy zaruriyatdir. Shahar va tabiat, inson va tabiat bu arxitektor uchun bir ma'nodagi tushunchalardir. Ular arxitektordan o'z faoliyatiga falsafiy yondoshishni talab etadi, chunki arxitektor inson va tabiat o'rtasidagi birlikni o'rnatishdagi etakchi shaxsdir. O'zbekistonda shaharlarni loyihalash turar-joy binolari va sanoat korxonalarini sanitariya-gigiena oraliqlarini ta'minlagan, qulay transport aloqalarini tashkil qilgan holda o'zaro eng maqsadga muvofiq joylashtirish tamoyiliga asoslanadi.

Bunda shahar va shahar atrofida bog'lar tashkil qilish, o'rmonlarni kengaytirish, suv havzalarini tashkil qilish va hokazolar orqali tabiatni odamga yaqinlashtirish ko'zda tutiladi [3]. Shunday qilib, tabiatni himoya qilish va uning boyliklaridan maqsadga muvofiq, tejamli foydalanish hozirgi zamon shaharsozligining asosiy masalalaridandir. Shaxarni bosh rejasini tog'ri loyihalash orqali resurslarni sarf- harajatini kamaytirishga erishishimiz mumkin.

Transport muammosi va echimi. Zamonaviy shaharsozlikda transport tizimi asosiy infratuzilma bo'lib xizmat qiladi. Shaharning barqaror rivojlanishi, aholi sonining o'sishi transport tizimiga ham ta'sir ko'rsatmay qolmaydi. Shunday ekan shahar aholi soni o'sishi ko'cha, yo'l avtomobil transportlar tirbandligi, shovqinli, transportlardan chiqadigan zararli gazlarning miqdorini oshishiga olib keladi. Hozirgi vaqtda shaharlarda avtomobil transporti tirbandliklari asosiy muammalardan biri bo'lib kelmoqda. Xorij mamlakatlarida tirbandliklarni bartraf ertish uchun turli tashkiliy ishlar amalga oshirilmoqda. Shuningdek, Markaziy Osiyo yirik va kata shaharlarining asosiy ko'chalarida shuday muammolar vujudga kela boshladi. Tobora ko'proq shaharlar jamoat transporti tizimini takomillashtirmoqda, avtomobillarga muqobil izlashmoqda va fuqarolarni ekologik jihatdan zararli transport vositalaridan voz kechishga undash uchun yangi vositalardan foydalanmoqda [4]. Parijdagi shahar hukumati doimiy ravishda yangi transport tushunchalarini ko'rib chiqadi. Shuning uchun ular elektr skuterlar uchun ko'chalarni ochdilar. So'nggi oylarda Parijda elektr rolik haqiqiy hitga aylandi. Bu ekologik toza va boshqa barcha transport vositalariga qaraganda arzonroq. Siz ko'chada yoki yo'lakda yurishingiz mumkin. Sayyohlar ham elektr skuterlariga o'tishni boshladilar. Ularning aytishicha, tarixiy joylar bo'ylab harakatlanish tezroq va qulayroq. Lekin piyodalar norozi. Endi hiyobonlar foydalanilmayotgan skuterlar bilan to'ldirilgan yoki skuterlar yo'laklarni "zabt etayapti". Madrid shahrida esa, 2018-yil 30-noyabrdan Madrid shahar kengashi havo ifloslanishi va transport harakati bilan kurashishga qaratilgan keng qamrovli cheklovlarni amalga oshirishni boshladi. Ispaniya poytaxtining markaziy qismida eski benzinli va dizelli avtomobillarning kirishiga yangi qattiq cheklovlar joriy etilganidan keyin jamoat transporti tezlashdi, tirbandliklar kamaydi, ifloslanish darajasi 32 foizga kamaydi. Yevropa, AQSh, Yaponiya, Avstraliya va Kanadaning zamonaviy aholisi shahar erlarining har bir qatorini ko'kalamzorlashtirish zarurligini uzoq vaqt davomida tushunishgan. An'anaviy er usti bog'lari va hiyobonlari bilan bir qatorda, bugungi kunda butun dunyoda uy-joylar jabhasini vertikal ko'kalamzorlashtirish, yuqori qavatli va kam qavatli binolarning mox, buta va bog' bilan qoplangan, barjalar va ko'chma pontonlarda suzuvchi bog'lar, temir yo'llar va avtomobil yo'llari bo'ylab shahar xizmatlari, shuningdek, mahalliy aholi tashabbuslari bilan yashil hududlar tashkil etilmoqda. Shuningdek, havoning yuqori darajada ifloslanishiga qarshi kurashish va shahar landshaftini yaxshilash maqsadida, Mexiko "Via Verde" loyihasini ishlab chiqmoqda. 2700 km masofani bosib o'tadigan avtomobil yo'lining 1000 dan ortiq ustunlariga 60000 m2 atrofida vertikal bog'lar o'rnatiladi. Havoning sifati yomonligi sababli har 10 nafar aholidan 6 nafari nafas olish yo'llari kasalligiga chalingan. Shaharda bu bog'lar yangi yashil o'pkasi vazifasini bajarib, u kislorod ishlab chiqaradi, ifloslantiruvchi moddalarni o'zlashtiradi va hatto mo'tadil tirbandlikka yordam beradi [5]. Shahar avtomobil yo'llari sharoitidagi daraxtlarni himoyalashning ahamiyati va xususiyatlari, tashqi muhitidagi o'simlik va tirik organizm uchun noqulay sharoitlar: shovqin, chang, gazlar va shahmoldan himoyalash darajasiga qarab baholanadi. Ma'lumki, shaharlarda transpot yo'llari va turar-joy binolari chegarasida o'ta qalin shoxshabbali va uzoq yashaydigan o'simlik turlari joylashtirilsa ular changdan va tashqi shovqin-suronli muhitdan himoyalaydi va natijada ichkarida hayot sokin bo'ladi.

Xulosa. Xulosa qilib shuni aytishim mumkinki, shaharsozlik muammolarini biror-bir bilim doirasida qolgan holda tushunish, baholash va hal qilish mumkin emas. Shaharlarni o'rganish va

loyihalash turli fanlar yondashishlari va qarashlarini integratsiya qilishni, shaharni hozirgi dunyoning fenomeni deb anglashni talab etadi. Katta shaharlar va aglomeratsiyalarning hamma erda to'xtovsiz o'sishi bu hodisalarning ichki qonuniyatlari va sabablari haqida o'ylashga, aholi joylashuvi bunday shakllarining kamchiliklarini aniqlashga va ularning haqiqiy qimmatlarini baholashga majbur etadi [6].

Tarixiy manbalar transport, shovqin, atrof-muhit ifloslanishi kabi muammolar o'tmishda ham mavjud bo'lganligidan guvohlik beradi. Masalan: Qirolicha Yelizaveta davrida Londonda toshko'mir yoqish taqiqlangan, buning uchun jazolashgan. Bundan shu narsa ko'rinadiki, transport va ekologiya muammolari faqatgina shahar kattalashuvigagina bog'liq bo'lmasdan, balki ularni hal qilish uchun jamiyatda mavjud bo'lgan ijtimoiy, iqtisodiy, texnik va texnologik vositalarga ham bog'liq ekan. Hozirgi zamon eng yirik shaharlari o'rta asr shaharlariga qaraganda juda katta va ifloslantiruvchi manbalar ta'siri ostida bo'lsa ham ularga nisbatan tozaroq, qulayroq va obodonlashtirilgandir [7]. Insoniyat kelajakda transport, ekologiya va boshqa muammolarning echimlarini topishiga shubha yo'qdir. Birlashgan Millatlar Tashkilotining ekologiya va ijtimoiy kengashi o'zining bir qarorida shaharlarning rivojlanishi muammosini er yuzida tinchlikni saqlashdan keyingi insoniyat oldida turgan eng muhim muammo deb atadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. https://uk.indeed.com/career-advice/career-development/urban-planning-challenges
2. Авдотьин Л., Азизян И.А., Бернштейн Д. и др. «Архитектура и градостроительство» М. 2001
3. http://www.cawater-info.net/all_about_water/?p=16217
4. https://fayllar.org/pars_docs/refs/1010/1009016
5. Isamuhamedova, D.U., M.K. Mirzayev "Zamonaviy shaharsozlik nazariyasi". O'quv qo'llanma. Toshkent-2015
6. Isamuhamedova D.U. —Shaharsozlik asoslari o'quv qo'llanma. T, 2000.
7. Исамухамедова Д.У. Исмаилов А.Т., Хотамов А.Т. "Инженерлик ободонлаштириш ва транспорт". Дарслик., Тошкент, 2009

UDK 711.455

SHAHAR VA TUMAN MARKAZLARINI SHAKILLANISHIDA JAMOAT MARKAZLARINING AHAMIYATI

N.X. Matkarimov. D.A. Qo'chqoraliyev.

Farg'ona politexnika instituti. O'zbekiston.

Annotatsiya: *Madaniy va ma'rifiy markaz binolari aholi o'rtasida keng miqyosida madaniy-ma'rifiy ishlarni olib borish uchun mo'ljallanadi. Shu bilan birga aholining barcha tabaqalarini birlashtiruvchi, bir biriga yaqinlashtiruvchi ahamiyatga ega bo'lishligi uchun ham qishloq va shahar aholi markazlarida asosiy bino bo'lib dominant vazifasini ham bajaradi.*

Abstract: *The buildings of the cultural and educational center are designed to carry out large-scale cultural and educational work among the population. At the same time, it serves as the dominant main building in rural and urban population centers, since it has a unifying, bringing together significance for all segments of the population.*

Аннотация: *Здания культурно-просветительского центра предназначены для проведения широкомасштабной культурно-просветительской работы среди населения. В то же время он служит доминантой в качестве главного здания в сельских и городских центрах населения, поскольку имеет объединяющее, сближающее значение для всех слоев населения.*

Kalit so'zlar: *Sivilizatsiya, funksional ansamblya, madaniy-ma'rifiy markaz, landshaft-rekreatsiya, klub, tarz, tarx, qirkim, funksional asos, funksiyaviy zonalar.*

Keywords: *Civilization, functional ensemble, cultural and educational center, landscape and recreational, club, style, history, haircut, functional basis, functional zones.*

Ключевые слова: *Цивилизатsiя, функциональный ансамбль, культурно-образовательный центр,*

ландшафтно-рекреатsіонный, клуб, стиль, история, стрижка, функциональная основа, функциональные зоны.

Ildizlari xalq an’analariga, shaharlari esa jamoat markazlarining tarixan tarkib topgan jamoa munosabatlariga borib taqaluvchi shahar va qishloqlarimizning jamoat markazlaridagi binolar asrlar davomida shakllanib kelgan. Shahar va tuman markazlarimizdagi jamoat markazlarining shakillanishida mahalliy shart-sharoit, milliy urf-odat hamda an’analarning ahamiyati beqiyosdir. Istiqlolga erishganimizga ham yaqinda o‘ttiz ikki yil to‘ladi. [1] O‘tgan qisqa davrda yurtimizda asrlarga tatigulik ulkan bunyodkorlik ishlari amalga oshirildi. Barchamizning fahrimiz, g‘urur va iftihorimiz bo‘lgan istiqlol tenglar ichra tenglikni, hur va ozod hayotni, erkin va farovon turmushni, obod va barqaror jamiyatni in’om etdi. Jamoat markazlari tizimi esa har birimizning kundalik hayotimizda, turmushimizda alohida o‘rin tutadigan institutga aylanib bormoqda. Inson manfaatlariga qaratilgan islohotlar zamirida bugunimiz, ertamiz, farzandlarimizning yorqin istiqboli o’z ifodasini topmoqda. Bir so’z bilan aytganda, bugungi kunda har birimiz qaysidir yumush bilan mahalladagi jamoat markazlariga murojaat etamiz. Bu tizim aynan istiqlol tufayli ildizlari xalq an’analari bilan chambarchas bog’liq va obod maskanga aylandi. Obod maskan esa, xayrli ishlarning bardavom bo‘lishi uchun ezgulik beshigi vazifasini o’tashi shubhasiz. Murakkab shaharsozlikning qadr-qimmatlari va saqlanilgan tabiatlarni o‘rab olgan muhitlarining yaxshilanishi davlat va jamiyat faoliyatining ustuvor yo’nalishi hisoblanadi. Shaharsozlik an’analari va tabiat muhiti zamonaviy siyosiy-iqtisodiy munosabatlar tizimida, xuddi milliy boylikning qimmatbaxo komponenti kabi yoritilishi lozim. [1] Shaharni tashkil etish va amalga oshirish strategiyasining siyosiy-iqtisodiy rivojlanishi va davlat siyosatining ekologiya va shaharsozlik sohasida saqlangan milliy me’moriy madaniyati o’zaro uyg’unlashgan bo‘lishi uchun aholining sog’lig’i, siyosiy va ekologik tinchligi ajralmas bir butunlikda bo‘lishi lozim. Mamlakatimiz shahalaridagi jamoat markazlarini o’rganish va ularning taraqqiyot yo’llarini tadqiq etishga bizga Respublikamiz prezidentining O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining birinchi sessiyasidagi “Noyob tarixiy yodgorliklarni saqlash va ta’mirlash, O’zbek xalqi yaratgan va milliy boyligi bo‘lgan san’at asarlarini izlab topish, ularni O’zbekistonga qaytarish, mazkur dasturning muhim bo‘lagini tashkil etadi. [1] Bu milliy boylik bizga ota-bobolarimizdan meros bo‘lib qolgan. Binobarin, biz ham uni ko’z qorachig’iday asrab-avaylashimiz va farzandlarimizga meros qilib qoldirishimiz kerak,” deb aytgan so’zlari biz uchun qanot bo‘ladi. Respublikamiz Prezidentining “Shaharlar, shahar poselkalari, qishloq turar-joylari bosh tarzlarini amalga oshirish chora-tadbirlarini takomillashtirish to’g’risida”gi qarori bizning kichik shaharlar jamoat markazlarini mustahkam rivojida shaharlar atrofi va shahar markazlarining o’zlashtirish kontseptsiyalari amalga oshirishga undaydi. U bevosita jamoaviy muhitda me’moriy tashkillashtirishni amalga oshirish bilan bog’lanib, aniq bir maqsadga yo‘naltirilgan jamoat markazlari saqlanishini va hududlar tuzilishi asosining yashash joylarida qaytadan tashkil qilingan an’anaviy echimlari bilan aniqlanadi. [2] Yuqorida bayon etilgan fikrlar asosida ilmiy-tadqiqot ishlarni bajarish lozimligidan kelib chiqib, jamoat markazlari hududida mavjud holat tahlil qilish, shahar va tuman markazlaridagi jamoat markazlarining shakillanishida uning o‘rnini tavsiflovchi usul va uslublarni milliy-an’anviy hamda amaliy tajribalari asosida tashkil qilish bugungi kundagi dolzarb masalalari qatoridan joy olgan.

Emily Claire O' Shaughnessy tomonidan "Defining Public Space: An Analysis of Contemporary Public Architecture and it's Social Implications" yozilgan Maqolada zamonaviy jamiyatda jamoat arxitekturasi va aholining ijtimoiy holati o'rtasidagi munosabatni baholaydi. U muzeylar, fuqarolik markazlari va jamoat bog'lari kabi jamoat joylari dizaynini o'rganib, ularning ijtimoiy o'zaro ta'sir va jamoatchilik ishtirokiga qanday ta'sir qilishini ko’rsatib bergan.

Ketrin Mari Xemmesning "Designing Public Centers for Inclusive Communities" nomli Maqolasida ijtimoiy tenglik va arxitekturaviy xilma-xillikni rag'batlantiradigan inklyuziv jamoat joylarini yaratishga qaratilgan. [2] U turli ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy guruhlar o'rtasida tegishlilik tuyg'usini va jamiyat ishtirokini targ'ib qilishda arxitekturaning ro‘lini ochib bergan.

Aaron Pauls tomonidan "Sustainable Architecture for Public Centers" yozilgan Maqola ishida jamoat markazlarida barqaror dizaynning rolini, shu jumladan qayta tiklanadigan energiya, yashil materiallar va qurilish tizimlari integratsiyasini o'rgangan. U barqaror jamoat markazlarini loyihalash bo'yicha eng yaxshi tajribalarni namoyish qilish uchun butun dunyo bo'ylab amaliy tadqiqotlar o’tkazgan.

Sara Xeysning “Revitalizing Public Centers: Urban Regeneration through Architecture” nomli tadqiqot ishida shahar maydonlari, bog'lar va jamoat binolari kabi jamoat markazlarini jonlantirish uchun arxitekturadan qanday foydalanish mumkinligini ko'rib chiqadi. [3] U haroba holga kelgan yoki foydalanishga yaroqsiz holdagi jamoat joylarini qayta tiklash dizaynini o'rgandi.

Jamoat markazlarida jamoaviy ahamiyatga ega muhitni me’moriy tashkillashtirishning nazariy asoslarini ishlab chiqish, mamlakatimizdagi kichik shahar va tumanlar jamoat markazlarining ilk shakllanishidan boshlab amalga oshirilgan me’morchilik va shaharsozlik ob’yektlarini o’rganish, ularni ilmiy tadqiq qilish orqali tahlil qilish, bu sohada shakllangan me’moriy uslublar hamda yo’nalishlarga xolisona baho berish asosida jamoat markazlarining an’anaviy shakllanish echimi negizida ularning kelajagi, zamonaviy me’morchiligi va shaharsozlikdagi rivoji uchun kerakli vazifalarni belgilash kabilarni tadqiqot ishining maqsadi sifatida e‘tirof etish mumkin. Maqola maqsadidan kelib chiqqan holda quyidagilar vazifalarni keltirish joiz: [3] jamoat markazlarining shakllanish jarayonlarini o’rganish va rivojlanish davrini aniqlash (mustaqillikgacha bo‘lgan davr); jamoat markazlarining xajmiy-rejaviy hamda konstruktiv echimlarini tadqiq qilish, landshaft va mikroiqlim muhitini o‘rganish; jamoat markazlarining me’moriy-badiiy hamda binolarda qo‘llanilgan dekorativ elementlarni tadqiq etish; mustaqillik davrida bunyod etilgan jamoat markazlarining tarkibi va tuzilmalarini aniqlash hamda mazkur jamoat markazlari atrof muhitini shakllanish bosqichlarini belgilash orqali jamoat markazlarining zamonaviy modelini ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot jarayonida tizimli tahlil, kuzatuv, statistik guruhlash, yo‘naltirilgan saralash, tajribalarni o‘rganish, anketa so‘rovlarni tashkil etish, umumlashtirish va tarixiy yondashuv kabi usullaridan foydalaniladi. [4] Shahar va qishloqlardagi jamoat markazlari komplekslarini qurish, qayta tiklash ilmiy-amaliy kontseptsiyalar yaratish, ularning muhofaza hududi shaklantirish, mavjud va yangi qurilishlarni tartibga solish, shaharsozlik tizimi bilan bog‘lash masalalarini ishlab chiqish, olib borilgan tadqiqot natijalari bo‘yicha yakuniy xulosalarga va erishilgan yutuqlarga tayangan holda, jamoat markazlarini tamoyillari bo’yicha ilmiy tavsiyalar hamda undagi arxitektura muhitini shakillantirishning kompleks modelini ishlab chiqish va amaliyotga tadbiq etish kabi masalalar tadqiqot ishining ilmiy ahamiyatini kasb etadi. [4] Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati, nazariy modelni qo‘llash asosida ishlab chiqilgan tavsiyalarini amaliyotga joriy etish, mavjud jamoat markazlarini rekonstruksiya qilishning eng yaxshi vositalarini tanlash yoki yangi loyihalar yaratish imkonini beradi. Zamonaviy ijtimoiy-madaniy talablarga javob beradigan jamoat markazlari uchun arxitektura muhitini ishlab chiqish orqali aholiga eng yaxshi sharoitlarni yaratish bilan izohlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. KodirovaS. A. “Jamoat binolarini loyihalash” Toshkent 2015 y.
2. Gelfond.A.L. “Архитектурное проектирование общественных зданий и сооружений”. Москва из. “Архитектура” 2006 г.

3. KMK 2.08.02-09 “Jamoat binolari va inshootlari”.
4. KMK 2.07.01-94 “SHahar va qishloq manzillarini rejalashtirish va qurilishi”.

UO’K 711.55

XORAZM VILOYATIDA REKREATSION KO‘NGILOCHAR MASKANLARNI TASHKIL ETISH MUAMMOLARI

A.Sh. Ibadullayev

Toshkent arxitektura-qurilish universiteti, O’zbekiston.

Annotatsiya. *Maqolada Xorazm viloyatining mavjud turistik - rekreatsion resurslari tahlil etiladi, rekreatsion hududlar, ularni tashkil etish va loyihalash bo’yicha jahon hamda mamlakatimiz tajribalari o’rganiladi. Mintaqada rekreatsion dam olish maskanlarni, shu jumladan, turizmni rivojlantirish istiqbollari va muammoli jihatlari ko‘rib chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *Xorazm, rekretsion hududlar, ma’daniy landshaftlar, turizm, turistik resurslar, tarixiy-madaniy meros, tabiiy landshaftlar, funksional hududlashtirish.*

Abstract. *The article analyzes the existing touristic and recreational resources of the Khorezm region, explores the experiences of the world and our country on the organization and design of recreational areas. Prospects and problematic aspects of the development of recreational resorts, including tourism, in the region were considered.*

Key words: *Khorezm, recreational areas, cultural landscapes, tourism, tourist resources, historical and cultural heritage, natural landscapes, functional zoning.*

Kirish. Zamonaviy dam olish va dam olish majmualari XX-asr oxirida jahon shaharsozlik amaliyotida keng tarqalgan bo‘lib, ommaviy dam olish uchun dam olish va ko‘ngilochar ob’ektlarning yangi o‘ziga xos turidir. Dam olish va dam olish majmualarining paydo bo‘lishi turizm va ko‘ngilochar industriyaning rivojlanishi bilan bog‘liq. Har xil turdagi ko‘ngilochar majmualarning ommaviy qurilishi ularning madaniy xizmatlarni monofunktsional tashkil etishning an’anaviy shakllariga nisbatan bir qator afzalliklari bilan izohlanadi: birinchi navbatda, turli funktsional maqsadlardagi binolar majmualari va ansambllarini, attraksionlarni (issiq va issiq joylarda) yaratish. iqlim) va dam olish zonalarida maxsus hududlarda yopiq suv o‘yin-kulgilari, inshootlar (sovuq iqlim zonalarida). Ular turli xil madaniy tadbirlar va ularning faol o‘zaro ta’siri uchun qulay muhit yaratadi va tashrif buyuruvchilarga ko‘p qirrali kompleks ta’sir ko‘rsatishi bilan ajralib turadi.

Yirik ko‘ngilochar majmualarning an’anaviy roli hozirgi davrda ijtimoiy xilma-xillikning zarur shartiga aylanib borayotgan muloqot, bilim, dam olish, o‘yin-kulgi, ijodkorlikning har xil turlarini tanlash uchun noyob imkoniyat yaratishdir.

Mahalliy amaliyotda XX-asr davomida madaniyat va dam olish markazining (klub, madaniyat uyi, madaniyat saroyi, madaniyat markazi) bir qator barqaror modellari shakllandi, ular asosan klub va ko‘ngilochar funktsiyalarga qaratilgan. Biroq, sotsiologik tadqiqotlar va zamonaviy madaniy-ko‘ngilochar markazlar faoliyatini o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, ular XXI asrning yangi ijtimoiy hayotining voqeliklarini va aholining turli guruhlari ehtiyojlarini oqlamaydi.

Jamiyatdagi yangi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar tegishli tuzilma turlarini hayotga olib keladi. Hozirgi davr turli maqsadlar uchun ko‘p funksiyali tuzilmalarning paydo bo‘lishi bilan tavsiflanadi: ishbilarmonlik, ko‘ngilochar, madaniy va dam olish, ta’lim, rekreatsiya va boshqalar va ularning umumiy ajralib turadigan xususiyati ularning murakkabligi va ko‘p qirraliligidir.

XX-asrning oxirida turli xil sub’ektlarning dam olish majmualari turi faol rivojlanmoqda va takomillashtirilmoqda. Ularning xilma-xilligi ortib bormoqda, dam olish majmualari bugungi kunda butun dunyoda va O‘zbekistonda mashhur. O‘zbekistonda yangi iqtisodiy sharoitda ular sezilarli tijorat jozibadorligiga ega bo‘lmoqda.

Jahonda bunday madaniy-maishiy va dam olish majmualarini loyihalash va qurish bo‘yicha amaliy tajribani umumlashtirish dam olish majmualarini yangi turdagi jamoat majmualari sifatida rivojlantirish istiqbollarini ko‘rsatish imkonini beradi. Ularning shakllanishining ba’zi jihatlari mahalliy tadqiqotlarda allaqachon ko‘rib chiqilgan. Ular ijtimoiy-madaniy funktsiyani eng muhim tuzilmani tashkil etuvchi va fazoviy tashkil etuvchi omil sifatida e’tirof etgan holda madaniyat markazlarini tashkil etishda yangicha yondashuv shakllanganidan dalolat beradi.

Dam olish va dam olish majmualarini tipologik va arxitektura-makoniy tashkil etish muammosini etarli darajada bilmaslik ularni loyihalash metodologiyasi, funktsional rayonlashtirish, joylashuvi va arxitektura-kompozitsion modellashtirishning yangi tendentsiyalarini hisobga olishni taqozo etdi.

Noyob fazoviy echimlar, jonli obrazli echimlar, tabiiy va sun’iy muhit bilan o‘ziga xos birlik istagini aks ettiruvchi “ommaviy shahar va shahardan tashqari madaniyat vohalarining” yangi avlodining paydo bo‘lishi va nihoyat, yangi marosimlar va xatti-harakatlarning joriy etilishi, bularning barchasi ushbu jarayonning arxitekturaviy asoslarini o‘rganishning dolzarbligi, zamonaviy rekreatsiya tizimini tashkil etish tamoyillarini kengaytirish va chuqurlashtirish foydasiga jiddiy dalillardir.

Shaharning ijtimoiy, iqtisodiy, demografik va hududiy jihatdan doimiy rivojlanishi sharoitida aholining hayotning turli sohalari va sohalarida o‘zini o‘zi anglash imkoniyatiga qo‘shimcha ehtiyojlari paydo bo‘ladi.

Tadqiqotning dolzarbligi. Inson va jamiyatning dam olishi va ko‘ngil ochishi uchun qulay muhit yaratish madaniyat va dam olish muassasalarini loyihalash va qurishning arxitektura amaliyoti uchun an’anaviy hisoblanadi. XXI-asrning boshlarida atrof-muhitni insonparvarlashtirish va estetiklashtirish, uni ma’naviy va hissiy jihatdan to‘ldirish istagi yanada kuchaydi, mamlakatimizda dam olish va ko‘ngilochar binolar va majmualar tarmog‘ini kengaytirish va tubdan qayta ko‘rib chiqish zarurligi to‘g‘risida tushuncha paydo bo‘ldi. Yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar.

Mamlakatimizda mavjud turdagi dam olish muassasalarini o‘zgartirish tendentsiyasi keyingi yillarda aholining o‘zgaruvchan ehtiyojlari va ularni kengaytirish va o‘zgartirish orqali bo‘sh vaqt (ko‘ngilochar va ta’lim) xizmatlari turlarini ko‘paytirish talablari tufayli yaqqol namoyon bo‘ldi. Ayni paytda O‘zbekistonda dam olish maskanlarining yangi turi – dam olish va hordiq chiqarish majmualarini shakllantirish jarayoni kuzatilmoqda. Ushbu yangi progressiv turdagi ko‘p funktsiyali komplekslar ko‘plab shahar muammolarini hal qilishning o‘ziga xos turidir. Turizmning barcha turlarining rivojlanishi rekreatsion tizimning paydo bo‘lishiga ham yordam beradi. Ko‘ngilochar xarakterdagi yirik zamonaviy dam olish majmualarini qurish har qanday zamonaviy shahar atrof-muhitini shakllantirishning ajralmas qismi bo‘lib, unda madaniy dam olish, rivojlanish, ta‘lim, sog‘lom turmush tarzi va insonni yaqinlashtirishga maksimal darajada e’tibor qaratiladi.

Xorijiy mamlakatlarda dam olish va hordiq chiqarish markazlarini loyihalash va qurish tajribasi, mamlakatimizda bu boradagi ilk qadamlar bilan tanishish respublikamizning barcha hududlarida, jumladan, Xorazm viloyatida ham bunday majmualar tarmog‘ini kengaytirish masalasiga yondashish imkonini beradi.

Dam olish va dam olish majmualari madaniy hordiq chiqarish va inson faoliyatining ko‘plab sohalarida turli xil bilimlarni olishning yangi markazlari hisoblanadi. Bunday ko‘ngilochar majmualarni yaratish g‘oyalari keyingi yillarda O‘zbekistonda ham amalga oshirila boshlandi. Shu munosabat bilan, ayniqsa, Xorazm viloyati uchun og‘ir iqlim sharoiti bilan bog‘liq holda ularni loyihalash va qurish, o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash bilan bog‘liq masalalarni nazariy jihatdan ishlab chiqish zarurati tug‘iladi. Buning uchun mahalliy va xorijiy tajribani nazariy umumlashtirish,

dizaynerlar uchun hozirda mavjud bo‘lmagan yo‘riqnomalar ishlab chiqish talab etiladi. Kelajakdagi rekreatsion tizimlar uchun loyihalar mualliflari ularning arxitektura va kompozitsion xususiyatlarini, tuzilishini, funktsiyalarini, maydon o‘lchamlarini, o‘tkazish qobiliyatini, rentabelligini, loyihalarning o‘zini oqlash muddatini va boshqalarni hisobga olishlari va aniq ko‘rsatishlari kerak.

Dam olish va dam olish majmualari XX-asr oxirida paydo bo‘lgan madaniy va dam olish majmualarining yangi turi bo‘lib, bu sohada sifat o‘zgarishlarini keltirib chiqaradi, bu birinchi navbatda ularning dasturi va tarkibini qayta ko‘rib chiqishda ifodalanadi.

Dam olish maskanlarining rivojlanishi va paydo bo'lishi.

Uyushtirilgan dam olish shakllarining paydo bo‘lishining kelib chiqishi, odamlarning ommaviy dam olishi va muloqot qilish muhitini shakllantirishga to‘xtaladigan bo‘lsak, qadimgi Yunonistonning shahar maydonlarini me’morchilik va shaharsozlik tarixidan ma’lum bo‘lgan eng qadimgi misollar sifatida keltirish mumkin. Ular bir vaqtning o‘zida shaharlar aholisining ijtimoiy va ijtimoiy hayotining markazlari bo‘lib xizmat qilgan. Antik davrdagi dam olish muassasalari yunon heteriyasi, Rim kollejlari tomonidan taqdim etilgan. Yagona me’moriy binolar majmuasida dam olish, madaniy va ko‘ngilochar funktsiyalarning uyg‘unligi keyinchalik qadimgi Rim forumlarida mujassamlangan, ular baland devorlar bilan o‘ralgan, ammo qoplamasiz ulkan zal edi. Qadimgi Rimning asosiy ko‘ngilochar binolari - teatrlar, amfiteatrlar, sirklar.

O‘rta asrlarda diniy binolar ijtimoiy hayotning bo‘sh vaqtlari markazlari - monastirlar, cherkovlar, soborlar, shahar maydonlari bo‘lib qoldi [1].

Uyg'onish davrida arxitekturaning ajoyibligi va teatrlashtirilganligi shaharsozlikda o'z aksini topdi, tomosha shaharlari bino va inshootlar arxitekturasi ommaviy teatrlashtirilgan tomoshalarda (toj kiygan shaxslarning zafarli kirishlari, diniy yurishlar) ishtirok etganda paydo bo'ldi [2].

XVIII-asrda Angliyada butunlay yangi turdagi binolar - banket zallari, klublar paydo bo'ldi. Ingliz klubining asosi vaqti-vaqti bilan o'yin-kulgi bilan birlashtirilgan ovqatlanish funktsiyasi edi. Ushbu dastur ish kunlarida “ovqatxona” vazifasini bajaradigan bitta ko'p maqsadli xonadan va bayramlarda raqs zalidan iborat standart turdagi klub binosini yaratishni belgilab berdi. Keyinchalik, jamiyat rivojlanishining barcha bosqichlarida me'morlar doimiy ravishda jamoat joylarini yaxshilashga, ko'p maqsadli dam olish muhitini tashkil etishga, uni shahar infratuzilmasiga yashil jamoat joylari yoki maxsus binolar yoki ularning majmualari - markazlar ko'rinishida kiritishga intilishdi. dam olish, madaniyat, ijodkorlik.

XIX-asrda Angliyada bo'sh vaqtni o'tkazishning keng dasturiga ega birinchi proletar klublari paydo bo'ldi. Ular shahar markazida bir-biridan mustaqil va mustaqil faoliyat ko'rsatadigan madaniy-ma'rifiy muassasalarning elementlarini o'zlashtirdilar. Bunday klublarga quyidagilar kiradi: yakshanba maktabi, kutubxona, ko'ngilochar va o'yin-kulgi xonalari: bilyard xonasi, karta o'yinlari uchun xonalar, sport va auditoriyalar [3].

Inqilobdan keyingi yillarda SSSRda birinchi ishchi klublari vujudga kela boshladi. Sovet ishchilar klubi dastlab fabrikalarda, bunga moslashtirilgan binolarda tug'ilgan. 1920-yillarda ishchilar klublari tarmog‘ini tizimli qurish boshlandi. Sovet hokimiyatining dastlabki ikki yilidagina mamlakatda 7 ming aholi uyi va klublar ochildi. Birinchi ishchi klublari sobiq saroylar va qasrlarda, erto'lalarda, cherkovlarda joylashgan bo'lib, ular uylar - kommunalar, Mehnat saroylarining ajralmas qismi edi. Bu davrda klublar mehnatkashlar ijtimoiy-madaniy hayotining markazlariga aylandi. Bular asosan yangi turdagi binolar edi. Ishchilar klublarida ko'ngilochar funksiya ham, hajm bo'yicha auditoriya ustunlik qiladi [4-5].

1960-1980 yillardagi dam olish va ko‘ngilochar maskanlar mamlakatimizda va xorijda

Mamlakatimiz uchun bu davr mikrorayon va tumanlarning jadal qurilishi, ularda bosqichma-bosqich madaniy xizmat ko‘rsatish tizimi rivojlanayotgani bilan ajralib turadi. Ijtimoiy va madaniy binolar turar-joy binolari markazida loyihalashtirildi. Bunday madaniyat markazlariga birinchi marta klub, kinoteatr, kafe kiradi.

Shuningdek, yopiq sport inshootlari, xalq teatriga ega klub va ikki ekranli kinoteatrdan iborat madaniyat saroylari ham loyihalashtirilmoqda. Buning natijasida to‘liq va xilma-xil bo‘sh vaqt, dam olish va ko‘ngilochar tadbirlar tashkil etiladi.

Ushbu davrdagi dam olish va ko'ngilochar ob'ektlarning xususiyatlari:

1. Universallashtirish va ixtisoslashtirish; universal turga jalb qilish va madaniy faoliyatning ko'p funktsional turlarini kiritish.

2. Kasbning asosiy turi - muloqot, havaskorlik faoliyati, madaniy tadbirlar (kino, uchrashuvlar, kontsert tomoshalari). Tomosha asosiy narsa emas - funktsiyalar "aralash".

3. Madaniyat markazlarining o'ziga xosligi - turli yoshdagi kontingentning xizmati (ilgari faqat yoshlar yoki bolalar uchun ixtisoslashganidan farqli o'laroq).

4. Madaniyat markazi “ochiq” aholiga xizmat ko‘rsatish tizimi asosida shakllantiriladi, lekin shahar markazidagi ob’yektlardan farqli o‘laroq, odatiy emas.

5. 1980-yillardagi madaniyat markazi - ko'p funksiyali majmua, uning funktsiyalari orasida uchta guruh mavjud: birinchisi - asosiy (klub, kino, kutubxona); ikkinchisi - bo'sh vaqt (tashqi mashg'ulotlar, raqslar, o'yinlar va boshqalar uchun zal); uchinchisi - bog'liq (jamoat ovqatlanish, do'konlar, obodonlashtirish).

Bu davrda xorijda arxitekturada yangi yo`nalish - rekreatsion urbanizm rivojlandi. Ushbu yo'nalishning kontseptsiyasi shahar sharoitida ko'p sonli odamlarga xizmat ko'rsatishga mo'ljallangan yirik me'moriy maydonlarni yaratishdir. Majmualar ichki rekreatsion keng ko'lamli makon - atrium bilan yaratilmoqda. Atriumlar “mikroshahar”, qoplangan va ko‘kalamzorlashtirilgan, “maydonlar va ko‘chalar”, ko‘kalamzorlashtirish va suvdan (favvoralar, daryolar, sun’iy ko‘l) dam olish maskanlari, tomoshalar va ko‘ngilochar joylar (Yunayteddagi Brown Place mehmonxona majmuasi) bo‘lgan. Shtatlar, Atlantadagi ko'p funktsional majmualar "Pichti Center" va "Omni Center"). Ajoyib va dam olish uchun mo'ljallangan binolar va inshootlar baland atriumlar atrofida to'plangan. Noqulay iqlim sharoitlariga joylashtirilganda atrium ichida ma'lum bir mikroiqlim saqlanib qoldi. Sun'iy mikroiqlimga ega bo'lgan bunday dam olish majmualari loyihalari 1970-yillarda Rossiyaning shimolida (Norilskdagi "Snejnogorsk" uy-joy majmuasi) keng tarqaldi [6].

1970-1980-yillarda Evropada yangi tur - "jozibali arxitektura" (lotinchadan - o'zimga jalb qilaman) shakllandi, bu dam olish uchun me'moriy muhitdir. Ushbu yo'nalish kontseptsiyasi "arxitektura-bezak" ning tabiiy muhit bilan uyg'unlashuvidir. Birinchi marta bunday mamlakat ko'ngilochar, arxitektura majmuasi 1955 yilda AQShda (Kaliforniya) yaratilgan bo'lib, uning asosiy g'oyasi U. Disney multfilmlarining sehrli shohligini qayta tiklash edi. 1971 yilda xuddi shunday Disneylend kompyuterda ochildi. Florida Uolt Disney dunyosi. Keyin ular tezda boshqa mamlakatlarga tarqaldi [7].

XX-asr oxiri va XXI-asr boshlaridagi zamonaviy ko'p funktsiyali dam olish va dam olish majmualari. O'zbekistonda va xorijda

1990-yillarda O‘zbekistonda klublar va madaniyat saroylari klub binolarining ulushi va roli kamaygan holda ko‘p funksiyali madaniyat markazlariga aylanib bormoqda. Funktsiyalar kengaymoqda: madaniy-ko'ngilochar, ta'lim, ko'rgazma va muzey, sport. Ularning integratsiyalashuvining keyingi jarayoni mavjud. Bu endi bitta bino emas, balki umumiy obodonlashtirilgan maydon bilan o'zaro bog'langan bir nechta binolar (yoki hajmlar). XX-asr

oxiridagi jamoat binolari tipologiyasida yirik, ko‘p funksiyali markazlarni (biznes, savdo, madaniy, ilmiy, ko‘rgazma va boshqalar) shakllantirish tendentsiyasi mavjud. Ular sof sport, madaniy, ko‘ngilochar yoki boshqa inshootlardan ko‘p funksiyali binolarga – aloqa, dam olish va dam olish markazlariga aylantirilmoqda [8-11]. Ularning me’moriy sifatlari takomillashmoqda, bu esa turli yoshdagi va ijtimoiy guruhlarga mansub sayyohlar sonining ko‘payishiga xizmat qilmoqda.

Yangi turdagi dam olish-ko'ngilochar majmualarni shakllantirish zarurati tug'ildi. Ularni ma'lum ma'noda ko'ngilochar va attraksionlar shaharchalariga aylantirish jarayoni (masalan, "O'yin parklari", "Disneylendlar" va boshqalar) mavjud [12].

Yashil maydonlar ustunlik qiladigan parklardan farqli o'laroq, ko'ngilochar va dam olish majmualarida yashil o'simliklar asosiy emas, balki faqat ma'lum bir tarkibiy element hisoblanadi. Parklarda tuzilmalar odatda vaqtinchalik, pavilon shaklida bo'ladi. Ular gazebos, kichik ko'rgazma pavilyonlari va kafelar, yozgi kinoteatrlar ko'rinishida yashil o'simliklar orasida tarqalgan va landshaft parkiga qisman qo'shiladi, ko'pincha bu yil davomida foydalanish uchun kapital binolar emas, balki bir mavsumda (yoz) bo'lganlar. Har bir sektor zonasida har qanday tuzilma ajratilgan. O'yin-kulgilar ham alohida zonada ajratilgan. Hovuz, ko'l, dekorativ hovuz, favvoralar ko'rinishidagi suv madaniyat va istirohat bog'larining muhim va ajralmas tarkibiy elementiga aylanadi [13].

Xulosa. Xorazmda ko‘ngilochar va dam olish majmualarini loyihalash va qurish aholi salomatligini yaxshilash hamda turizmni rivojlantirish uchun eng muhim vazafalardan biridir. Dam olish va hordiq chiqarish majmuasi ko'p maqsadli va ko'p funktsiyali bo’ishi bu ko’zda tutilgan maqsadni amalga shirishda samarali natijalarni berishi mumkin. Dam olish majmuasi - bu funktsional echim darajasida ham, g'oyaviy va kompozitsion yo'nalish darajasida ham bo'sh vaqtni tashkil etishning qayta ko'rib chiqilgan an'anaviy usullarini qamrab olishi, tarixiy-turistik muhitni saqlashga, uni yanada boyitishga hizmat qilishi lozim. Ko’ngilochar majmualarning o'ziga xosligi hordiq, ta'lim, sog'lomlashtirish va savdo maqsadlariga xizmat qiluvchi arxitektura, dizayn va tabiiy elementlar bilan to'yingan yagona me’moriy kompozitsion muhitni shakllantirishidadir.

Adabiyotlar

1. Китай. [историческая справка турфирмы «Вокруг света». 11.11.2008.] [Электронный ресурс]. – URL: http://www.vokrugsveta.ru/

2. Tourism 2020 Vision. A new forecast from the WTO. Madrid, 2000. — 211 b.

3. Хартия туризма // Туристские фирмы. - СПб., 1995. — Вып. 8. - 208 с.

4. У. Чжнчжао. Теория и метод рекреatsionного планирования и проектирования современного города / У Чжнчжао. - Пекин, 1998. - С.21-59.

5. Биржаков, М. Б. Международное туристское право / М. Б. Биржаков, А. А. Пшенко // Законодательство государств участников содружества в сфере туризма. — СПб.: Невский Фонд, 2008. — 232 с.

6.Рекомендатsii по охране окружающей среды в схемах и проектах районной планировки. ЦНИИП градостроительства Госгражданстроя. Москва.,1985.-52 с.

7. Стратегия развития туризма на период до 2015 года. Москва., 2008. — 95 с.

8. У. Чжнчжао. Изучение рекреatsionной деятельности в туристическом районе // Наука географии. - 1999. -№ 19, номер. 5. - С. 437-441.

9. М. Цзянье. Изучение и проектирование рекреatsionной среды города / Пекин, 2002. - 282 с.

10. Цянь Юсэнь., Кун Цзе. Мышление развития туризма Шанхая / Газета шанхайского университета. - 1998. -№ 11. - С. 23-24.

11. Юй Шэн. Строение и изучение рекреatsionных зеленых территорий города// Изучение современного города. - 2002.-№ 2. - С. 47-51.

12. У Чжнчжао. Характер и метод планирования туризма / Сборник градостроительства. - 1994. - № 3. - С. 52-57.

13. У Чжнчжао. История, теория и метод планирования рекреatsii города в Западной Европе / Сборник

градостроительства. - 1995. -№ 4. - С. 22-28.

УДК 712

ЭКОЛОГИЧЕСКИЙ ДИЗАЙН ОФИСНЫХ ПРОСТРАНСТВ

Валиева Шахноза Абдугаффор кизи.,
к. арх., доц. Ветлугина Анна Викторовна
Ташкентский архитектурно-строительный университет. Узбекистан.

Аннотация: *В статье рассматриваются вопросы применения элементов фитодизайна для обеспечения экологичности интерьеров офисных зданий, в частности в рекреатsionных пространствах.*

Ключевые слова: *бизнес-центры, фитодизайн, рекреатsionные пространства, офис, интерьер, фитокомпозиции.*

Annotation: *The article deals with the application of phytodesign elements to ensure the environmental friendliness of the interiors of office buildings, in particular in recreational spaces.*

Key words: *business centers, phytodesign, recreational spaces, office, interior, phytocompositions.*

В настоящее время очень актуальны задачи проектирования и дизайна современных офисов. В то время, как множество процессов стали автоматизированы, все больше людей связаны с процессом интеллектуальной и креативной деятельности. В офисах люди проводят довольно много времени, поэтому дизайн офисного пространства приобретает большое значение как для успеха компании, так и для ее имиджа.

Современные офисы и бизнес-центры работают в насыщенном темпе. Однако, для продуктивной работы очень важно создание комфортных условий. Это соблюдение функциональных требований, эргономических, эстетических и экологических. Исследователями доказано, что на самочувствии, работоспособности и психологическом состоянии сотрудников положительно отражается наличие зоны рекреatsii. Наличие свободного времени в течение дня позволяет сотрудникам психологически и эмоционально восстановиться, что может способствовать повышению производительности труда. Так, забота о сотрудниках, программы укрепления здоровья привели к меньшему количеству жалоб на здоровье, большей производительности, сокращению невыходов на работу и более высокой отдаче от вложенных денег [1]. Физическая активность на рабочем месте сократила количество отпусков по болезни на 32%, расходы на здравоохранение на 50% и производительность на 52% [2].

При создании рекреatsionных пространств в офисах большое значение имеет экологический аспект. Известно, что укрепление связи с природой снижает стресс и улучшает здоровье. Однако, в силу своей деятельности люди вынуждены проводить много времени внутри здания. Поэтому особое значение имеет применение экологического подхода к дизайну офисных пространств, и в частности, в зонах рекреatsii.

Все больше дизайнеров мира при оформлении интерьеров используют открытые пространства, натуральные материалы, теплые цвета, естественный солнечный свет, живые растения. С точки зрения видеоэкологии, даже просто изображение природы, водопадов, растений улучшает настроение людей. Так, виртуальная «природная» среда в помещении имеет практически такой же положительный эффект, как и реальная, например, искусственное освещение в крыше или технологии, заменяющие дневной свет, положительно влияют на настроение в условиях отсутствия окон [3]. Однако, воздействие настоящего солнечного света

имеет первостепенное значение для здоровья человека. Поэтому симуляция не может заменить природные элементы, так как связь с природой является биологической и психологической потребностью людей.

ЎзССР Вазирлар Кенгашининг 1949 йил 28 майдаги 764 сонли фармойишига асосланиб Масжиди Калон 6 ой муддатга "Заготзерно" корхонасининг омборхонаси сифатида (буғдой сақлови мақсадида–*Д.А.*) ажратилиши белгиланади[8]. Ёдгорликлар муҳофазасига масъул муассасалар эса тузилган ижара шартномаси учун бир қатор мажбуриятлар белгилаш билангина чекланади. Жумладан, дезинфексия қилиш жараёнида ёдгорлик деворларининг ҳолатига салбий таъсир этиш мумкин бўлган рангли суюқликлардан фойдаланмаслик, юк машиналарини киритиш учун дарвозаларни кенгайтирмаслик (чунки бу кейинчалик бино таъмирига катта маблағ сарфланишига олиб келиши мумкин), бунинг учун ёдгорлик жанубидаги деворни тешиш ва шу йўлдан ҳаракатланиш, ижара муддати тугагач, очилган бўшлиқ қайта терилиши ва ижарадор маблағи асосида таъмирланиши кераклиги таъкидланган. Шу ўринда, ижара тизимидаги белгиланган муддат қатъий бўлмай, томонлар розилиги билан узайтириб борилганлигини ҳам қайд этиш жоиз. 1949 йилда 6 ой муддатга ижарага берилган Масжиди Калон биносининг 1951 йил август ойида ҳам Заготзерно фойдаланувида бўлганлиги фикримизни тасдиқлайди. Шартномада кўрсатилган охирги муддат 14 август этиб белгиланган бўлсада, масжид биноси бўшатилмаганлиги қолаверса, ҳудудий вакил Шарипов бошчилигида ўтказилган кўрик натижасида бинога катта шикаст етказилгани маълум бўлди. Таъмир учун 120.000 рубл миқдоридаги маблағ зарурлиги аниқланган. Шунга қарамай, ижарадор масжидни қайта ижарага олиш ниятида эканлигини билдиради. Ҳудудий вакил ёдгорлик ҳолатидан келиб чиқиб, қайта ижарага бермасликни талаб қилади ҳамда ишга оид ҳужжатларни Архитектура ишлари бошқармаси талаби билан прокуратура ва арбитражга тақдим этади[9]. Мавжуд маълумотлар эса 1968 йилга келибгина масжид омборхона вазифасидан "озод этилганлиги"дан гувоҳлик бермоқда.

Масжиди Калоннинг муҳофаза ҳудуди билан боғлиқ масала юзасидан амалга оширилган идоралараро ёзишмалар ёдгорлик сақловидаги тадбирлар ҳам талаб даражасида бўлмаганлигини кўрсатади. Муҳофаза тартибига мувофиқ ёдгорликлар атрофидаги камида ўн

метрлик майдонда ҳеч бир қурилиш ишлари олиб бормаслик шартлиги белгиланганлигига қарамай, Масжиди Калон ғарбий девори яқинида 1949 йил бошида шаҳар Деҳқон бозорига қарашли бир қанча кичик дўконлар қурилади[10]. Бу борада Бухородаги ҳудудий вакил Юсупов томонидан Деҳқон бозори маъмурияти директори Икромовга берилган огоҳлантиришлар кор қилмаган. Архитектура ишлари бошқармаси раҳбари В.А.Жаҳонгиров, Ёдгорликлар муҳофазаси бўлими бошлиғи Астраханский, Бухоро вилоят ижроия қўмитаси раиси Абдужабборовларнинг масала юзасидан музокараларидан кейингина қурилишлар тўхтатилганлиги маълум бўлди.

Таҳлиллар, 1950 йилга келиб Масжиди Калон ЎзССРнинг давлат муҳофазаси рўйхатидаги “бутун иттифоқ аҳамиятидаги” ёдгорликлар тоифасига киритилганлигини кўрсатади[11]. Бу унинг муҳофазаси, таъмирланиши ва қайта тиклаш ишларининг силжишига олиб келди. 1954 йил 16 ноябрда Масжиди Калонда тозалаш ва ободонлаштириш ишлари амалга оширилган бўлса, режалаштирилган таъмир ишлари шу йилнинг 28 декабрь санасида Таъмирлов ишлари идорасининг Бухоро участкаси томонидан амалга оширилган[12]. Ишлар кўлами 105.092 рубл миқдорида тузилган смета юзасидан олиб борилган. 1957 йилда бош фасаднинг жанубий қанотидаги таъмир ишларни якунланиб, 1958 йилда масжид ҳовлисидаги айвон ва гумбазларнинг қоплама қисми ҳам мустаҳкамланади[13]. Масжиди Калоннинг гумбаз устунлари ва бурчак деворлари сайқалланган ғишт ҳамда ғиштли мозаикалар билан қопланиши эса 1961 таъмир йилида Бухоро МИРИЧУ ҳисобига давлат бюджетидан 35.000 рубл миқдорида маблағ кўчирилганидан сўнг амалга оширилади[14]. Масжид ҳовли фасадининг шимолий ва шимоли-шарқий қисмларини тиклаш, меҳроб ҳамда айвон шимолидаги шикастланган олтита қубба таъмири билан боғлиқ амалиёт 1963 йилда Бухоро МИРИЧУ томонидан амалга оширилган[15].

1964 таъмир йилида режалаштирилган ишлар эса кечиктирилганлиги кузатилади. Бухоро МИРИЧУ раҳбари С.Шариповнинг Моддий маданий ёдгорликларни сақлаш ва музейлар бошқармаси бошлиғи А.Ш.Шомуродовга билдирган маълумотномасида таъмир учун зарур хом ашё (сирланган плиткалар) Самарқанд устахонаси томонидан кеч етказиб берилганлиги бунга сабаб қилиб кўрсатилган[16]. Бундай ҳолатнинг доимий равишда такрорланиб туриши бошқа ёдгорликлар таъмири билан боғлиқ жараёнларда ҳам кузатилади. Бу, албатта, таъмир сифатига ҳам таъсир этмай қолмаган. 1970 йилда Масжиди калонда ташқи девор, асосий кираверишдаги зиналар, пештоқ қисми таъмирланди. 1971 йилда айвон гумбазларида қайта тиклаш ишлари олиб борилиши юзасидан 45.700 рубл ажратилган бўлса, 1973 таъмир йилида гумбаз қопламалари ва айвон қисми таъмирланиши учун 33000 рубл маблағ ажратилади[17].

Хулоса ўрнида айтиш жоизки, совет ҳокимияти йилларида ҳукмрон коммунистик мафкуранинг ҳар қандай дин ва диний эътиқодга муросасиз сиёсати оқибатида диний мазмундаги иншоот сифатида масжидларга ҳам салбий иллат маскани сифатида қарашни юзага келтирди. Бундай шароитда меъморий обидалар бирламчи вазифасидан бегоналаштирилиб, уларнинг таъмирига ҳам эътиборсизларча муносабатда бўлинди. Шунга қарамай, юқорида келтирилган далилий маълумотлардан хато ва камчиликлар билан бўлса-да, масъул ташкилот мутасаддилари ҳамда уста-меъморлар саъй-ҳаракатлари натижасида Масжиди Калонда бир қадар таъмир ишлари амалга оширилишига эришилган.

Адабиётлар рўйхати:

1. Ўзбекистон Миллий архиви (кейинги ўринларда - ЎзМА), Р-2296-фонд, 1-рўйхат, 8-йиғмажилд, 70-варақ.
2. ЎзМА, Р-2296-фонд, 1-рўйхат, 14-йиғмажилд, 52-варақ.
3. Бухоро вилоят давлат архиви (кейинги ўринларда – ВДА), 836-жамғарма, 1-рўйхат, 9-йиғмажилд, 1-варақ.
4. Бухоро ВДА. 836-жамғарма, 1-рўйхат, 17-йиғмажилд, 198, 293-варақлар.
5. ЎзМА, Р-2296-фонд, 1-рўйхат, 144-йиғмажилд, 3-варақ.
6. Бухоро ВДА 837-жамғарма, 1-рўйхат, 34-йиғмажилд, 3-варақ.
7. ЎзМА, Р-2296-фонд, 1-рўйхат, 245-йиғмажилд, 13-варақ.
8. ЎзМА, Р-2296-фонд, 1-рўйхат, 360-йиғмажилд, 160-варақ.
9. ЎзМА, Р-2296-фонд, 1-рўйхат, 382-йиғмажилд, 185-196-варақ.
10. ЎзМА, Р-2296-фонд, 1-рўйхат, 360-йиғмажилд, 162-варақ.
11. ЎзМА, Р-2296-фонд, 1-рўйхат, 369-йиғмажилд, 8-варақ.
12. ЎзМА, Р-2296-фонд, 1-рўйхат, 449-йиғмажилд, 135- варақ.
13. ЎзМА, Р-2296-фонд, 1-рўйхат, 487-йиғмажилд, 190-варақ
14. ЎзМА, Р-2296-фонд, 2-рўйхат, 65-йиғмажилд,41-42-варақ
15. ЎзМА, Р-2296-фонд, 2-рўйхат, 117-йиғмажилд, 13-варақ
16. ЎзМА, Р-2296-фонд, 2-рўйхат, 166-йиғмажилд, 6-7-варақ
17. ЎзМА, Р-2296-фонд, 4-рўйхат, 36-йиғмажилд, 45, 133-варақлар

УДК: 703.2.53

КЛЮЧЕВЫЕ ФУНКЦИИ ЭЛЕМЕНТОВ ТЕКСТИЛЯ В СОВРЕМЕННОМ ИНТЕРЬЕРЕ ГОСТИНИЧНЫХ КОМПЛЕКСОВ

М. Назарова Малика., проф. М.Р.Бородина

Ташкентский архитектурно-строительный университет. Узбекистан.

Аннотация. *Статья посвящена символической и функциональной роли текстиля, его взаимосвязи с современным гостиничным интерьером. Эти знания особенно необходимы для понимания современной культуры дизайна туристических комплексов. Тенденции развития искусства текстиля проступают при изучении функциональных особенностей пространственной среды жилища Узбекистана, так как именно здесь текстиль проявляет своё ролевое назначение.*

Izoh. *Maqola to'qimachilikning ramziy va funktsional roliga, uning zamonaviy mehmonxona interyeri bilan aloqasiga bag'ishlangan. Bu bilim, ayniqsa, turistik majmua dizaynining zamonaviy madaniyatini tushunish uchun zarurdir. To‘qimachilik san’atining rivojlanish tendentsiyalari O‘zbekiston turar-joyining fazoviy muhitining funksional xususiyatlarini o‘rganishda namoyon bo‘ladi, chunki aynan shu yerda to‘qimachilik o‘z rolini namoyon etadi.*

Annotation. *The article is devoted to the symbolic and functional role of textiles, its relationship with the modern hotel interior. This knowledge is especially necessary for understanding the modern culture of tourist complex design. The trends in the development of the art of textiles appear when studying the functional features of the spatial environment of the dwelling of Uzbekistan, since it is here that textiles show their role.*

Ключевые слова: *текстиль, жилище, дизайн, интерьер, туризм, ткачество.*

Большая роль в создании предметной и функциональной среды жилого интерьера в Средней Азии, на протяжении истории многих цивилизаций, отводилась различным видам текстиля. Эта роль не утратила своего значения и в настоящее время. Через эстетическую организацию пространства жизнеобеспечения человека, текстиль оказывается связанным с духовными и художественными слагаемыми культуры.

Существенные изменения, происходящие в предметной оснащенности современных жилых домов в последние десятилетия, являются очень важными показателями развития

дизайна и активного воздействия его на человека. С помощью дизайна можно преобразить внешний вид помещения, придать интерьеру настроение и полностью изменить стилистическое направление.

Изменение типологических и композиционных характеристик современных жилых интерьеров влечет и преобразование применяемого в них текстиля[1]. Жилой интерьер стал своего рода имиджевой характеристикой, определяющей стиль жизни. Эти факторы повлияли на расширение индивидуального проектирования и вслед за ним декорирования жилого интерьера, которое к началу XXI века реанимируется в качестве отдельной области профессиональной деятельности, что провоцировалось необходимостью комплексного решения жилого пространства, формирования его образа и стилистики.

Образный аспект на сегодняшний день становится одним из основных в решении предметно- пространственной среды жилого интерьера, в том числе и его текстильной составляющей. Итак, исследования по данному вопросу являются актуальными в связи с появлением новых архитектурных форм и изменениями в типологии жилых интерьеров, что естественно повлекло увеличение функциональных разновидностей текстиля, требующих классификации и описания.

В соответствии с вышесказанным необходимой областью научного исследования становится теоретическое обоснование современного подхода к предметно-пространственному наполнению жилища.

Тем более, что за постсоветские 4 десятилетия накоплен достаточно большой опыт по созданию, как уникальных произведений современного текстильного искусства, так и синтетических решений текстильного декорирования современной жилой среды в Узбекистане, которые требуют обобщения и анализа.

Большей частью вопрос о роли текстиля в пространственной организации интерьера анализировался на примере использования коврового ткачества, паляков, сузане, жульхирсов. Развитие этого вида искусства в историческом контексте, с позиций авторского исполнения, проблема синтеза коврового ткачества - гобелена с интерьером на материале как отечественного, так и зарубежного опыта.

Значительный объем практического материала, состоящий из многих разрозненных объектов, обобщен, впервые подвергнут разностороннему анализу и представлен системной картиной развития современного средового текстиля. Результаты исследования меняют традиционные представления в области текстильного проектирования: интерьерный текстиль рассмотрен как синтетическое направление в области смежных дисциплин – архитектуры, декоративно-прикладного искусства, текстильного дизайна.

Комплексность исследования позволяет ввести в научный оборот новые объекты текстильного искусства: «потолок», «стена», «текстильная мебель», «текстильная скульптура» и пр.

Интересен спектр стилевых направлений современного текстильного убранства интерьера. Представленный в диссертации материал относится к постсоветскому периоду, еще не ставшему предметом глубокого научного изучения. Например: культура постели, основными видами которой являлись ватные матрасики – курпача, одеяла и подушки была очень высокой, так как эти вещи характеризовали достаток хозяев дома. Кроме того, этикетные нормы требовали достойного уровня приема гостей, которых усаживали на матрасы, крытые дорогими шелковыми и полушелковыми среднеазиатскими тканями. Кочевники такие курпачи покупали на рынках, но и сами изготавливали матрасы из

сукна и бархата, зачастую украшая их вышивкой.особый стиль отличал курпача, сшитые в лоскутной технике курак, считавшейся в регионе магическим защитным средством[1].

Итак, главный штрих дизайн-проекта, который должен создать законченный вид помещения, - это наполнение его текстилем. При оформлении гостевого дома, ткани имеют весьма многообразные возможности: они выразительны и не требуют особых трудозатрат при замене.

Текстиль дает возможность придать интерьеру романтику этничности, исторической адресности. Текстильные аксессуары во многом способствуют созданию уюта. Без грамотного смыслового подбора тканей интерьер не будет выглядеть привлекательным.

Раскрытие общей картины развития современного интерьерного текстиля в рамках статьи, не позволяет подробно останавливаться на его отдельных тенденциях, которые должны стать объектами для проведения дальнейших научных исследований.

В данной статье рассматриваются следующие тенденции:

1.Функции текстиля: организация пространства, социальная, духовная, компенсаторная, обрядовая в совокупности с основополагающими (художественная и утилитарная) - наиболее полно раскрывают специфику современного жилого интерьера.

Функция организации пространства по степени значимости может быть причислена к основным функциям текстиля.

2. Основные приемы взаимодействия текстиля с современным жилым интерьером заключаются в выявлении тектоники интерьера, а также реальной и иллюзорной трансформации его объемно-планировочной структуры. Средствами, при помощи которых осуществляются эти взаимодействия, являются разнообразные виды интерьерного текстиля.

3. Авторская классификация включает в себя понятие интерьерный текстиль, его виды, подвиды и типологию. Понятие «интерьерный текстиль», раскрывается в многокомпонентном единстве его видов, участвующих в текстильном декорировании интерьера.

- Установлены основные виды интерьерного текстиля: текстильные материалы и текстильные объекты (объемно-пространственные и плоскостные) и его подвиды.
- Типология интерьерного текстиля связана с характером его функционирования в пространстве интерьера, с конструктивными и пластическими особенностями: стационарные, мобильные и трансформируемые текстильные объекты.
- Развитие отечественного текстильного искусства подчиняется общим закономерностям мировой художественной практики.

4. Современные стилевые тенденции текстильных композиций интерьера связаны с основными стилистическими направлениями архитектуры в русле постмодернистской трактовки - с использованием реконструкций исторических стилей (историзм), этнических тенденций, неоэклектики, минимализма как направления востребованного в свете тенденций новой проектной культуры.

5. Классификация современных текстильных материалов показывает существенное расширение спектра ручного и промышленного текстиля. Активное экспериментирование в области формообразования и орнаментации. Любой объект интерьерного текстиля способен обрести в современной проектной культуре качество репрезентативного авторского изделия.

По характеру художественных особенностей текстиля и способов его изготовления предложено следующее разделение:

a/авторский репрезентативный текстиль (или результат студийной творческой деятельности), b/текстиль промышленного производства, c/текстильные изделия народных промыслов.

Таким образом, сформировавшийся подход к проектированию интерьера как декоративно завершенному пространству определил отношение к любому виду текстиля как художественно значимому объекту.

Утилитарная функция текстильных изделий в современной средовой ситуации понимается расширительно и соотносится с соответствующими требованиями гостиничного интерьера: его цветовыми и орнаментальными предпочтениями, его ориентацией на те, или иные художественные, или сакральные ценности. Однако при всей расширительности отношения к данной функции качественные характеристики текстиля, целесообразность его применения остаются важнейшими.

Функция текстиля определяется, прежде всего, степенью его участия в пространственной и ролевой организации гостиничного интерьера.

Литература

1. Хабибуллина С. К. Текстиль как средство формирования интерьера современного жилища: дис. канд. искусствоведения: 17.00.04. Екатеринбург, 2011.
2. Нодир Бинафша – доктор искусствоведения. Роль текстильной культуры в конструировании национальной идентичности Узбекистана и Казахстана. https://e-history.kz/ru/news/show/4047

UO'K 728.8

XORAZMDA HOVLI TIPIDAGI TURAR-JOY ME'MORCHILIGI (ULLI HOVLI ME'MORIY YODGORLIGI)

N.J. Kariyeva.
Toshkent arxitektura-qurilish universiteti. O'zbekiston.

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Xorazm viloyati hududida hovli saroy sifatida shakllangan turargox majmua arxitekturasi yoritilgan.*

Аннотация: *В данной статье описывается архитектура жилого комплекса, сформированного как дворцовый двор в Хорезмской области.*

Annotation: *This article describes the architecture of a residential complex formed as a palace courtyard in the Khorezm region.*

Kalit so'zlar: *turar-joy, hovli, saroy, turkmanlar, "Ulli hovli", mahalla, Xiva, aholi yashash hududi.*

Ключевые слова: *жильё, двор, дворец, туркмены, «Улли ховли», окрестности, Хива, жилой район.*

Key words: *residence, courtyard, palace, Turkmens, "Ulli khovli", neighborhood, Khiva, residential area.*

Xorazm me'morchiligi azaldan sirlar, taxminlar, rivoyatlar, osori-atiqalar, rivoyat va e'tiqodlar bilan qoplangan. Bularning barchasi bu hududga alohida qiziqish uyg'otadi – ochiq osmon ostidagi tirik muzey, qiziquvchan tadqiqotchini o'ziga tortadi.

Viloyat hududida ko`plab tarixiy yodgorliklar mavjud. Ayniqsa, Xiva shahridagi me'moriy obidalar bugun dunyo ahlining e'tiborini tortib kelmoqda.

Xorazmning ko'p sonli inshootlaridan hozirda eng yaxshi holatda yarmi o'rganilgan. Qadimiy inshootlar xarobalarini o'rganish tufayli shaharlar hayoti, hunarmandchilik va savdoning gullab-yashnashi, yirik sug'orish inshootlari tarmog'i, qal'alar tizimi va mavjud turar joy manzilgohlari orqali halq turmush sharoiti va me'morchilik mahoratini tasavvur qilish mumkin.

Xorazm vohasi uchun bir necha turar-joy massivlaridan iborat bo‘lgan tarqoq turar-joy binolari – hovli tipidagi aholi punktlari xarakterlidir. Tarixan ma’lum bo’lgan feodal urushlari ular tarxlarini ilk feodal qal'alari asosida tashkil topganligidan dalolat beradi va Xorazmning zamonaviy qishloq maskanida an'anaviy tarzda saqlanib qolgan asl mudofaa vositalarining mustahkamlanishiga olib keldi.

Qishloq mustaxkam qo’rg’on hovli saroylarining paydo bo‘lish davri ilk o‘rta asrlar V—IX-asrlarga to’g’ri kelib, O’rta Osiyoning ijtimoiy hayotida feodal munosabatlarining paydo bo’lishi bilan bog’liq. [1]

Dehqonning turar joyida, odatda, urug’ning barcha a’zolari bilan bir qatorda uning uy xo’jaligi, chorva mollari, suv va oziq-ovqat zaxiralari bo’lgan. Bu davrdagi feodallarning qasrlari mustahkam qal’alar shaklida qurilgan.

Hovli uy – paxsa loy bloklaridan qurilgan bo’lib, ular qalin va baland devorlarni chiqarishga imkon berdi, yanada barqarorlik uchun pastga qarab kengaytirildi, kirish darvozasining burchaklari va yon tomonlarida mudofaa minoralari, yarim doira pilasterlarning ritmi bilan bunday minoralarga taqlid qilindi, barcha turar-joy va xo’jalik binolarini o’rab turgan bo’sh tashqi devorlar bilan o’raldi va vaqt o’tishi bilan bu minoralar va devorlarning mudofaa qiymati yo’qoldi.[1]

Xorazm viloyati hududida hovli uy sifatida shakllangan saroy majmualari o’zining shu davrga xos turar-joy binolari me’morchiligi bilan ajralib kelgan.

Xorazm azaldan mehmondo’st xalq hisoblangan va Xiva xonligi davrida turkmanlar uchun qishloqlar, uy-joylar barpo etilgan.

Jumladan, Xorazm viloyati Urganch tumani G’oybu qishlog’i “Olauylik” mahallasida qadim zamondan turkmanlar yashab kelayotgan hududda hozirda etnomahalla tashkil etilgan. 2015-yilda mahalla nomi “Turkmanlar” nomiga o’zgartirildi.

Mahallaning o’ziga xos tomoni shundaki, ushbu hududda XVI-XVII asrlarga oid Turkmanlarning “Ulli hovli” deb nomlangan katta tarixiy qal’a qo’rg’oni joylashgan va turkman mahallasi mazkur tarixiy majmua tevarak atrofida joylashgan. (1-rasm).

Xiva xoni Abulg’oziy Baxodirxon (1603-1664) davrida hozirgi G’oybu qishlog’iga 1650-1690 yillarda Turkman millati vakillari kelib joylashishgan va shu yerda qo’nim topishgan. Tarixiy ma’lumotlarga qaraganda, mashxur Abulg’oziy Baxodirxon Turkmanlarning iltimosiga binoan imorat qurishlari uchun G’azovot qanalining orqa (shimol) tomonidagi qumloq yerlarni ularga ajratib bergan. Shundan keyin bu hududda turkmanlar o’z uylarini qura boshlashgan va uylar o’sha paytda xar yer - xar yerda, betartib joylashganligi sababli bu hudud «Olauylik» deb atalgan. Unchalik ko’p vaqt o’tmasdan Turkman sardorlari o’zining tashabbuskorligi bilan tez tanilishgan. Ulardan eng mashhuri bo’lgan Turkmanlar katxudosi oqsoqol Xo’jamberdi bojimon tashabbusi bilan «Olauylik» hududida katta qurilish ishlari boshlangan va bir necha yil ichida qurib bitkazilgan. [2]

“Ulli hovli” turkman millatiga mansub aholi yashagan hududdagi eng katta hovli-joy bo‘lgan. Shu bois unga “ulli”, ya’ni katta sifati berilgan.

“Ulli hovli”ga kiraverishdagi qadimiy darvoza va devorga shunday yozuvlar bitilgan: “Ushbu muborak “ulli” hovli Xorazmshoh Abulg‘ozi Bahodirxon tomonidan Soler turkmanlarining oqsoqollari Xo’jamberdi va Shermamatboy iltimosiga ko‘ra bunyod qilingan. Bunyod qilingan sanasi 1694 yil”. [2]



1-rasm. “Ulli hovli” tarixiy majmuasi kirish darvozasi

“Ulli hovli” salkam bir gektar maydonni egallagan. Shu bois unga Ulli (katta) hovli deb nom berishgan. Dastlab Xiva va Urganch oralig‘ida yashab, bu hududdan o‘tuvchi savdo karvonlarini dushman bosqinlaridan himoya qilgan mard turkmanlar uchun harbiy shaharcha sifatida qurilgan. [3]

Ular aholi punktini obodonlashtirilgan hududga aylantirib, u yerda oilalari bilan istiqomat qilishdi, hunarmandchilik do‘konlari, barcha turdagi ustaxonalar ochishdi. Ular gilam, kulolchilik va to‘qimachilik ishlab chiqarishgan. “Ulli hovli”ning 100 ta xonasi bo’lib, ular 100dan ortiq oilani o’z bag’riga olgan.(2-rasm).

Ulli hovli mahallasida istiqomat qiluvchi Davlatnazar Rajabov ma’lumotlariga ko’ra bu imoratlar poydevorsiz qurilgan, ya’ni devorlarning osti bir metr kavlanib, qum solingan va ustiga qamish to‘shalib, so‘ng paxsa urilgan. Ajdodlarimiz qo’llagan qurilish texnologiyalar asosida devorlar bugungi kunda ham nuramasdan o‘z holicha saqlanishida davom etmoqda. Devorga faqat loysuvoq qilib ta’mirlagan.[4]



2-rasm. Hovli ayvoni

Xorazmdagi imoratlarning aksariyati singari, qal’a ham yog‘ochdan qurilgan va shuning uchun yomg‘ir, ayoz va shamoldan jiddiy zarar ko‘rgan. Qayta qurish jarayonida turar-joy va maishiy binolar, qal'a devorlari joylashgan qal’aning choraklaridan biri qayta tiklandi.[4]

Endi devor bilan o‘ralgan qal’a o‘tmishga nazar tashlash va ikki xalq madaniyatini o‘rganishni istagan har bir kishi uchun mo’ljallangan: turkman uylarida o‘sha asrlarda qayta tiklangan tegirmonda ot va tuyalar saqlash joylari qayta tiklangan.

Majmua hududida sayyohlik uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Bir nechta ekspozitsiyalar – eski fotosuratlar, hunarmandlar ustaxonalari, 20 o‘rinli mini-mehmonxona qurildi, o‘tovlar tikilgan. Bundan tashqari, hunarmandchilikning yettidan ortiq turi bilan shug‘ullanish uchun ustaxonalar tashkil etilgan. O‘zbek va turkman millatlari azaliy do‘stligining yorqin namunasi bo‘lgan ko‘rkam majmuaga bugun dunyoning turli mintaqalaridan keladigan sayyohlarning qadami uzilmaydi. Mehmonlar bu yerda bir ariqdan suv ichib, ahil va inoq yashab kelgan azaliy do‘st o‘zbek-turkman xalqlarining turmush tarzi, urf-odatlari, milliy an’analari va me’morchiligi haqida yaxlit tasavvurga ega bo‘ladilar.

Adabiyotlar ro’yxati:

1. Л.Маньковская , В. Булатова, “Памятники зодчества Хорезма”. Издательство литературы и искусства имени Гафура Гуляма. Ташкент. 1978 г.
2. “Turkmanlar” MFY ning 8.04.2022-yilgi ma’lumotnomasi.
3. “Ta’lim fidoiylari”, jurnal 4/2022 y. 29-b.
4. xorazm.uz - sayti

УДК-93:929:82

САДРИДДИН АЙНИЙНИНГ БХСР ҲУКУМАТИ ДАВРИДАГИ ИЛМИЙ – МАДАНИЙ ФАОЛИЯТИ

т.ф.ф.д (PhD) дотц. Ф.У. Темиров.
Бухоро давлат университети.Ўзбекистон.

Аннотация: *Ушбу мақолада маърифатпарвар адиб Садриддин Айнийнинг илмий-ижодий йўли, ўлкашунос, тарихшунос олим сифатида ўлка тарихини, меъморий обидаларни, тарихий-маданий мерос объектларини асраб-авайлаш, келажак авлодга етказиш борасидаги саъй-ҳаракатлари ва ёзган илмий тадқиқотлари илмий жиҳатдан таҳлил этилган*

Аннотация: *в данной статье научно проанализирован научно-творческий путь просветителя автора Садриддина Айни, а также изложена информация о деятельности Садриддина Айни как краевед и историк в области изучения истории края, сохранения архитектурных памятников и объектов историко-культурного наследия и передачи их будущему поколению. Даны сведения о его научных исследованиях.*

Abstract: *This article scientifically analyzes the scientific and creative path of Sadriddin Aini, the enlightening author, and provides information about Sadriddin Aini's activities as a local historian and historian in the study of local history, preservation of architectural monuments and objects of historical and cultural heritage and their transmission to the future generation. Information about his scientific research is also given.*

Калит сўзлар: *Бухоро ахбори, кутубхона, шарқшунослик, тарих, музей, газета, адабиёт, қўлёзма*

Ключевые слова: *Бухоро ахборы, библиотека, востоковедение, история, музей, газета, литература, рукопись.*

Keywords: *Buxoro axbori, library, orientalism, history, museum, newspaper, literature, manuscript.*

Маърифатпарвар адиб, шарқшунос, манбашунос ва ўлкашунос олим, жамоат арбоби Садриддин Айний(1878 – 1954) ўзининг қарийб 60 йиллик илмий-ижодий фаолияти давомида ўзидан бой маданий ва маънавий мерос қолдирди.Унинг илмий мероси илм ва маърифат ихлосмандлари учун ўзига хос маҳорат ва ибрат мактаби бўлиб хизмат қилмоқда.

Садриддин Айний нафақат машҳур ёзувчи, адабиётшунос ва тарихчи олим, балки фан ташкилотчиси ва йирик жамоат арбоби сифатида ҳам танилган шахсдир. Мамлакатда етук, истеъдодли ва салоҳиятли кадрларни тайёрлаш, уларни ўқитиш, таълим-тарбия бериш, янги

ўқув дарсликларни ёзиш, нашр эттиришда фаоллик кўрсатган. У Тошкент, Самарқанд, Бухоро ва умуман ўлкамизнинг турли ҳудудларида янги типдаги мактаблар очиш, уларни ўқув адабиётлари билан таъминлаш ва таълимни ривожлантириш ишларида ҳам самарали фаолият олиб борган.

С.Айний 1920 йил 17 октябрда Бухоро Халқ Совет Республикаси (БХСР) Маориф Нозири Қори Йўлдош Пўлатов номига мактуб ёзиб, унда Бухорода янги типдаги мактаблар ташкил қилиш йўллари ҳақида ўз фикр ва мулоҳазаларини баён қилиб ўтган. Маълумки, С.Айний Бухоро инқилобидан анча илгари, 1908-1910 йилларда янги усул мактабларини ташкил қилиш ташаббускорларидан бири бўлган эди. Ўша пайтларда у ана шундай мактабларнинг ўқувчилари учун дарсликлар ёзиш, уларни Оренбург, кейинроқ эса Самарқанд шаҳарларида нашр қилдиришга муваффақ бўлганди.

1920 йил, Бухоро амирлиги тугатилиб ўрнига БХСР тузилгач, ўлкада халқ маорифини ривожлантириш, янги типдаги мактабларни ташкил этиш, халқни маърифатли ва маънавиятли қилиб тарбиялаш, ёш авлодни қисқа муддатда саводини чиқариш учун кураш бошланган эди. Аммо бу давр тузилган ёш давлат (БХСР) ҳам бу ерда фаолият олиб бораётган ташкилотлар ҳам маориф ва маданият соҳасида деярли моддий техник базага эга бўлмаган. Янги мактабларда ишлайдиган ўқитувчи кадрлар, дарсликлар, ўқув қуроллари йўқ эди.1921-йил Бухоро халқ совет республикаси (БХСР)да ташкил этилган “Тарихи анжуман” жамияти ўлкадаги қадимги обидаларни муҳофаза қилиш, халқ амалий санъатини ривожлантириш, фан тарихига оид қўлёзмаларни йиғиш, археологик ашёлар ва халқ оғзаки ижоди намуналарини тўплаб тадқиқ этиш каби ишлар билан шуғулланган. Олим, ёзувчи ва маърифатпарварлардан Абдурауф Фитрат, Отажон Пайрав Сулаймоний, Абдулвоҳид Бурҳонов (Мунзим), Садриддин Айний, Салимбек Салимий, Шарифжон Махдум (Садр Зиё), Аҳмаджон Ҳамдий, Мусажон Саиджонов, Қори Йўлдош Пўлатов, Сиддиқхон (Ҳашмат Бухорий - 1885-1910-йилларда Бухоро амири бўлган Амир Абдулаҳаднинг укаси, амир Музаффархоннинг ўғли – Ф.Т) жамият аъзолари бўлишган. Бухоро илмий жамоаси илмий экспедициялар ташкил этган.

Бухородаги 3 шахсий кутубхонада сақланган шарқшунослик, тарих, адабиётга оид қўлёзма китобларни тўплаган. Биргина Шарифжон Махдум кутубхонасидан 300 жилдга яқин форс-тожик ватуркий тиллардаги ноёб қўлёзма асарлар рўйхатга олинган. Жамият тўплаган қўлёзма асарлар орасида тарихчи Наршахийнинг “Тарихи Бухоро” [1] Аҳмад Донишнинг “Наводир ул вақоеъ” [2] (“Нодир воқеалар”) асарлари бор. Жамиятнинг “Анжумани тарих” бўлими “Бухоро арки тарихининг қўлёзмаси” [3] китобини тайёрлаган. Бухоро илмий жамоаси тўплаган материаллар Ўзбекистон ФА Шарқшунослик институти қўлёзмалар фондида сақланади.

БХСРда бир қатор вақтли матбуот, “Бухоро ахбори газетаси”, “Бухоро ҳақиқати” нашрлари катта аҳамият касб этди. “Бухоро ахбори” - БХСР ҳукумати газетаси. 1920-йил 9-сентябрдан 1923-йил июлгача ўзбек тилида чиққан [4]. Газета 3000 нусхада нашр қилинган. У Бухоро жадидларининг минбари бўлиб, миллий мустақилликка эришиш, мамлакатда буржуа демократик ўзгаришларни амалга оширишни тарғиб қилган.

“Бухоро ахбори” газетасида Бухорода виждон эркинлигини таъминлаш, миллий ҳукумат ва миллий қуролли кучларга таяниш, рус қизил қўшинларини Бухоро ҳудудидан олиб чиқиб кетиш ва бошқа сиёсий ҳамда иқтисодий масалалар кўтарилган. Газета 1923-йил июлда Совет ҳокимияти томонидан тақиқланган. Газетага Фитрат, Чўлпон, Саид Аҳрорий, Зиё Усмоний, Қори Йўлдош ва бошқалар муҳаррирлик қилган [5].

С.Айний Бухоро Халқ Совет Республикаси (БХСР)нинг доимий матбуот органи бўлган “Бухоро ахбори” газетасида эълон қилган тарихий-бадиий мақолалари ҳам муҳим аҳамиятга эгадир. Бухоро Халқ Совет Республикаси (БХСР) ҳукуматининг ўзбек тилидаги ягона, доимий матбуот органи бўлган “Бухоро ахбори” (кейинчалик “Озод Бухоро”) газетасида С.Айнийнинг 1923 йилда “Кўрсунлар ва Эшитсунлар”[2], “Шўролар ҳукумати муомаласи”[2], “Бухоро жадидлари ва инқилобчиларига мурожаат”[4] номидаги мақолаларини эълон қилган.

С.Айнийнинг “Кўрсунлар ва эшитсунлар” номли мақоласи билан танишар эканмиз, ушбу мақолани ёзилишига Боку (Озарбайжон) газеталаридан бирида Бухоро ҳақида ёзилган салбий бир хабар сабабчи бўлган. Мақолада 1922-1923 йилларда БХСР ҳукуматининг Бухоро тарихий обидаларини таъмирлаш соҳасидаги саъй-ҳаракатлари баён қилинади. Муаллифнинг маълумотича, ҳукумат қарори билан Минораи Калоннинг 1920 йил сенятбрдаги большевиклар тўнтаришидан кейин шикастланган жойларини тузатиш учун усталар ва мардикорлар икки йил таъмирлаш ишларини олиб боришган.

Ярим вайрона ҳолатида келган бошқа тарихий обидаларни қайта тиклаш учун махсус режа тузилиб, кўп миқдорда қурилиш ашёлари: ғишт, оҳак, ганч ва ёғоч келтирилган. Жумладан, 1923 йилда: “Ваража микроби (кўзга кўринмай турган зарарли қурт) уяси бўлғон Девонбеги ҳовузи атрофидаги ифлос дўконлар кўтарилиб, тошдан янги иморат тиклана бошланғон, илгаридан яхши ҳаво ва шамоли тушиб турғон жойлар очилиб, саломатлик учун мувофиқ равишда иморат қилинғон”[4] - деб ёзади, С.Айний.

БХСР ҳукуматининг тарихий обидалар ва осори-атиқаларни асраб келажак авлодларга етказиш, Бухоро шаҳрини ободонлаштириб саломатлик марказлари ҳамда янгидан замонавий бинолар қуриш билан боғлиқ хайрли ишлар маърифатпарвар адибни тўлқинлантирган. 1921 йилнинг баҳорида амир қўшни Афғонистон ҳудудига ўтиб кетган. Унинг ортида Бухорода 100 дан ортиқ қавм-қариндошлари қолиб кетади.

Амир Сайид Олимхоннинг 1918 йил “Колесов воқеаси”дан кейин жадидлар ва уларнинг оиласига нисбатан шафқатсиз муносабати, жабр ва зулми С.Айнийнинг иккинчи мақоласида баён қилинган. У Ф.Хўжаев ҳукумати амирнинг оиласига ҳовли-жой, озуқа ва кийим-кечак берганлиги уларга яхши муомала қилганлиги, 52 нафарини амирнинг олдига (Афғонистон)га юборганлигини ёзиб қолдирган.

Олим Бухоро Республикасининг Ф.Хўжаев бошчилигидаги ёш ҳукуматга қилинган туҳматларнинг асоссизлигини исботи сифатида улар қилаётган савоб ишларни “кўзи бор кўрсин, қулоғи бор эшитсун”[3] - дея мақолага нуқта қўяди.

“Бухоро жадидлари ва инқилобчиларига мурожаат” мақоласи эса, ҳажм жиҳатидан олдинги икки мақоладан катта бўлиб, муаллиф унда энг долзарб масалани кўтариб чиққан. Яъни, унда Бухоро жадидларининг курашлар тарихи ва фаолиятини келажак авлодларга етказиш масаласи ҳақида баҳс юритилади. “Қўлимиздаги саналарни (гувоҳномалар), расмларни, эски мактуб ва газеталарни бир ерга йиғиб қўйиб, шаҳид бўлған ўртоқларимиз учун, бир ёдгорлик, бир музей тайёрламак керакдур. Айниқса, шаҳид қилинғон биродарларнинг расмлари ва мактублари буюк ҳадялардан ҳисоб қилинадур”[4] - дейилганди мурожаатномада.

Мақола матнидан маълум бўладики, С.Айний Бухоро тарихини келажак авлодларга тўла тўкислигича етказиш учун амалий фаолият ҳам олиб борган. Бухоронинг маҳаллий зиёлиларидан бири бўлган Аббос Алиев (1899-1958 й) билан учрашиб, бу масаладаги фикр-мулоҳазалари билан ўртоқлашган. Бухоро аркидаги ўзи ҳибсда сақланган зиндоннинг обхонасидан “1337 ҳижрий ҳамали, Пўлатбек Намангоний, “Оҳ золимлар” деб ёзилган бир

дона пишиқ ғиштни тарихий далил сифатида олиб чиққан. Адибнинг маълумотича, 1919 йилда Пўлатбек исмли наманганлик жадид С.Айний ҳибс қилинган обхонада ётган. Амир томонидан ўлимга маҳкум қилингандан кейин, у ўзидан бирор бир из қолдириш мақсадида юқоридаги ёзувни ғиштга битиб қолдирган. Пўлатбек Намангоний каби юзлаб шахслар ҳаётини ўрганиш эса тарихчиларнинг вазифаси эканлиги адиб томонидан алоҳида таъкидланган[4].

БХСР ҳукумати ёзувчи С.Айнийнинг ижодий юксалишини моддий ва маънавий жиҳатдан қўллаб-қуватлади. Шахсан, Ф.Хўжаевнинг раҳбарлигида 1923 йил 13 сентябрида С.Айний ҳақида қуйидаги қарор қабул қилинади. “Ўртоқ Айнийнинг революцион ҳаракатдаги хизматларини ва Бухоро меҳнаткаш оммасининг фойдаси учун узоқ йиллик фаолиятини ҳисобга олиб, Бухоро МИК фракциясига унга қўшимчаси билан 17- разряд ставкаси миқдорида шахсий пенсия белгилаш таклиф этилсин. Секретариатга ўртоқ Айнийга хат билан мурожаат қилиш топширилсин, бундан кейин ундан ўзини фақат адабий фаолиятга бағишлаш сўралсин”[11].

1923-йил сентябрдан “Озод Бухоро” номи билан чиқа бошлаган. Дастлаб “Учқун” номи билан Самарқандда нашр этилиб (1920-йил июн-сентябр), Бухорода яширин тарқатилган, БХСР ташкил этилгач (1920-йил сентябр.), Бухоро шаҳрида “Бухоро ахбори” номи билан нашр этила бошланган. Кейинчалик “Озод Бухоро” (1923-1930), “Бухоро пролетари” (1930-1938), “Бухоро ҳақиқати” (1938-1999) номлари билан чиқди. 1999-йил декабрдан ҳозирги номда [9].

Газетага турли даврларда Файзулла Хўжаев, Фитрат, Чўлпон, Сайид Ахрорий, Остонқул Абдуқаюм ўғли, Қосим Сорокин, Фотиҳ Сулаймон, Абдусалом Ниёзий, Аббос Алиев, Аҳмаджон Ёқубов, Рустам Абдураҳмонов, Ашур Бозоров, Турғун Ёқубов, Отахон Тошхўжаев, Йўлдош Муқимов, Абдураҳим Нурмуҳамедов, Тошпўлат Ҳамид ва б. муҳаррирлик қилган. Газета саҳифаларида Абдурауф Фитрат, Абдулҳамид Чўлпон, Садриддин Айний, Иброҳим Мўминов, Абдулҳамид Мажидов, Атоулла Хўжаев, Усмонхўжа Пўлатхўжаев, Муинжон Аминов, Неъмат Аминов, Омон Мухторов каби таниқли давлат арбоблари ва зиёлилар долзарб мавзулардаги мақолалари билан қатнашишган[7]. Газетанинг дастлабки сонларидан бошлаб миллий мустақиллик ғояси ундагимақолаларнинг бош мавзуи бўлган.

XX-асрнинг 20-йилларда газетада БХСР ҳудудидан шўро қўшинларини олиб чиқиб кетиш, демократияни ривожлантириш, давлат идораларини руслаштиришга чек қўйиш, ёшларни тараққий этган хорижий мамлакатлардаги олий ўқув юртларида ўқитиш каби долзарб масалалар ёритилган. Шу боис газета таҳририят жамоаси ва муаллифлари шўро тузумидан кўп жафо кўришган. Газетанинг собиқ муҳаррирлари ва этакчи муаллифларидан Файзулла Хўжаев, Абдурауф Фитрат, Сайид Аҳрорий, Абдулҳамид Чўлпон, Маҳмуд Бадайлий, Зиё Усмоний, Остонақул Абдуқаюм 30-йиллардаги қатағонда ҳибсга олиниб, қатл этилган. Аббос Алиев, Абдусалом Ниёзов, Абдулҳамид Мажидов, Аъло Камолов, Ашур Бозоров узоқ муддатга қамалган [7].

Шунингдек, Бухоро ҳукумати мамлакатда маданий оқартув муассасалари ташкил қилиш ва улар фаолиятини яхшилашга ҳам эътибор қаратди. 1924-йилга келиб БХСРда 14 та кутубхона, драма театри, музей ва кўплаб клублар аҳолига хизмат кўрсатди. Ўзбек ва рус тиларида янги газета ва журналлар ҳамда бошқа адабиётлар чоп этиш ҳам йўлга қўйилди.

1925-йил 13-17-февралда Бухорода бўлиб ўтган Ўзбекистон ССР Советларининг 1-қурултойида “Ўзбекистон Совет Социалистик Республикасини ташкил этиш тўғрисидаги декларация” қабул қилинди. Қурултойда республика ҳокимиятининг олий органлари расмийлатирилди. 1925-йил февралдан майигача Бухоро шаҳри Ўзбекистон ССРнинг

пойтахти бўлди. Ф.Хўжаев Ўзбекистон ССР ХКС раиси ва Й.Охунбобоев Ўзбекистон ССР МИҚ Президиуми раиси қилиб сайланди.

Фойдаланилган манбалар ва адабиётлар рўйхати:

1. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни олийжаноб халқимиз билан бирга қурамиз. – Тошкент, Ўзбекистон, 2019.
2. Айний С. Кўрсунлар ва эшитсунлар // Бухоро ахбори, 1923 йил, № 210, 5 август.
3. Айний С. Шўролар ҳукумати муомаласи // Бухоро ахбори, 1923 йил № 214, 8 август.
4. Айний С. Бухоро жадидлари ва инқилобчиларига мурожаат // Бухоро ахбори. 1923, № 214, 21 август.
5. Муҳаммад Наршахий. Бухоро тарихи. – Тошкент: Камалак, 1991
6. Брагинский И. Западно – восточний литературний синтез и творчество С.Айни. – Душанбе, 1986.
7. Тўраев Ҳ. Бухоро тарихи. Ўқув қўлланма. – Бухоро: 2020.
8. Тўраев Ҳ. Бухоро топонимикаси. (Дарслик). – Бухоро: Дурдона, 2021.
9. Тўраев Ҳ. Бухоро тарихи ёзма манбалари. – Бухоро: Дурдона, 2023.
10. Мулложонова З, Азизқулов Ж. Феҳристи асарҳои С.Айнӣ ва адабиёт оид ба ӯ (то охири соли 1961). – Душанбе, 1963.
11. Ҳасанов М. Файзулла Хўжаев. – Тошкент: Ўзбекистон, 1990.

UDC 72.03

GRAPHIC RECONSTRUCTION OF THE "HALL OF KINGS" IN TUPRAK KALA PALACE

M.B. Abduvaxobova

Tashkent University of Architecture and Civil Engineering.

Аннотация: *В данной работе рассматриваются теоретические вопросы, связанные с таким направлением в археологии, как графическая реконструкция, а также на конкретном примере воссоздания "Зала царей" дворца Топрак-кала.*

Annotation: *This paper reveals theoretical issues of the graphic reconstruction as a method of study of architecture on example of the reconstruction of the "* Hall Of Kings *" of the Toprak-kala palace.*

Ключевые слова: *графическая реконструкция, архитектурная археология, реконструкция, 3D моделирование, строительные материалы, строительные конструкции.*

Key words: *graphic reconstruction, architectural archeology, 3D modeling, building materials, building structures.*

The territory of Central Asia is considered as one of the oldest places where people settled. In its valleys, steppes, foothills and mountains, many monuments dating back to the ancient and medieval periods have been discovered. Archaeological research indicates that small city-states were formed on the territory of Uzbekistan in the Bronze Age. In Central Asia during VIII - VII centuries. such historical and cultural regions as Khorezm, Bactria, Sogd and ancient Ferghana were formed [3, p. 47], that experienced unique development process. Architecture, along with culture and art, was formed and developed [9, p. 26] in this area. The study, conservation, repair and restoration of monuments located in the territory of these regions have been relevant for many years, as a result of which the science of restoration and the concept "architectural archeology" was developed.

It should be noted that the original use of the concept "architectural archeology" was unusual, mainly used a concept of "archaeological and architectural research of architectural monuments" [3, p. 48]. To date, the concept of "architectural archeology" has become firm within schientific society. This concept being originated in the 19th century, had experienced extended transformation and

represents a product of the integration of archaeological research with methods of study of historical monuments. In the process of development of architectural and archaeological research, they were combined, aimed at deeper and more comprehensive study of ancient architectural monuments. From a scientific point of view, this combination manifests itself according to the following scheme: an architectural monument is a method of archaeological research [9, p. 25].

In the course of formation and development of architectural archeology its methodology became more complicated. Modern architectural and archaeological research, as in its first form, cannot be imagined without the participation of various specialists. Currently, the subject-methodical scheme remained the same. Only the attitude to the research topic has changed: an architectural monument is now considered as a source of obtaining various information. Archaeological methods work only to obtain "architectural" material that serves as a historical source. An architectural monument, in fact, is isolated from the cultural and historical context and is considered independently, as a separate phenomenon, against the background of the general development of culture, and all attention is directed to the main goal, to the study of architectural remains.

The methodology of architectural archeology is unique and peculiar in each region and largely depends on the building materials and architectural structures used in the area. In the history of architecture of Central Asia, the most ancient basic building material was clay, extracted from pure soil. Clay is a traditional and widely used local material that has been used in the construction of all types of structures. To increase the strength of the brick, binders such as dried reed, straw, crushed natural stone were added to the clay mixture. They protected the clay from cracking during construction and served as a strong frame [5, p. 5]. Foundations, walls, arched structures were also built of clay [1, p. 200].

Together with building materials, the study of building structures is also an integral aspect in the analysis of architectural monuments. The building materials and structures used in ancient architecture witness a high level of engineering culture of that time. Moreover, another important aspect in the study of architectural monument and in its subsequent reconstruction is the study of architectural fragments that once adorned a particular building [3, p. 50]. The term "reconstruction" refers to the restoration of the original appearance of the object on the basis of written sources and surviving materials. There are three types of reconstruction: descriptive, graphic and natural. Nowadays the most common type is graphic reconstruction [4, p. 180].

In recent years, the method of creating three-dimensional models has become popular and convenient in archaeological research. Basically, 3D has become widespread - modeling and creating a virtual view of an object, which in turn makes it possible to recreate the historical processes of the distant past. The use of geometric and physical modeling allows a detailed study of the object, and then a virtual reconstruction [10, p. 80]. 3D - modeling is a very convenient method in the study of the monument, which makes it possible to recreate in detail the original appearance of the building through graphic reconstruction. A perfect example of this method being used is the graphic reconstruction of the "Hall Of Kings" of the palace on Toprak-Kala, located in the territory of the Ancient Khorezm. The relevance of the project lies primarily in creating a visual representation of its elements, using them in order to preserve the cultural heritage. Additionally, the 3D model provides possibility for detailed assessment of the scope of restoration work.




Figure 1. Graphic reconstruction of the "Hall Of Kings".

This monument, like many other monuments of the ancient Khorezm state, was discovered by the famous archaeologist and historian S.P. Tolstov (1945-1950). At present, the Republic of Karakalpakstan is located in the Ellikkala region, 12 km from the village of Boston. The magnificent palace is the core of the ancient city and the residence of the Khorezm kings in the II-III centuries AD. Toprak-Kala had an orderly layout (500 x 350 m) with a large city square on the northeast side with a palace on the northwest side. The palace had 150 rooms, and the "Hall Of Kings" stood out among other rooms with its uniqueness and luxury.

Firstly, to create a three-dimensional model of the "Hall Of Kings", it was necessary to make a research on its dimensions. For that purpose, various sources of information were used, including: publicly available information (Internet) images from the excavation site, information about the excavations and archaeologists' assessments, historical information about this type of structure, personal photos taken at the site. 3Ds Max (Autodesk) was used as 3D rendering software.

The first stage was a detailed design of a room with use of Autocad program [Fig. 1]. Based on the research of S.P. Tolstov, its dimensions were calculated. Old photos from the excavation site played a decisive role in the calculation most of the building's dimensions. The initial stage began with processing of drawings and photos, and for the subsequent stage, a contour drawing reduced to the base scale was processed in the Autocad program. As a result, the following approximate dimensions of the room were obtained to complete its 3D model: it has a rectangular shape with sides of 21.7 m and 14.3 m, and the southern central part of the room is open in the form of a loggia 8 m length and 4.5 m wide Its total size was 350 m2 [8, p. 56]. Based on the created outline, the height of the room was increased using a simple Box modifier and reduced to the desired shape using the EditPoly modifier.



Figure 2. View of the "Hall Of Kings" from the northeast. situation in 1950, situation in 2022 and graphic reconstruction

As a result of the complex work carried out in 3DS Max, several models were created giving the first virtual view [Fig. 2]. These graphic models allow one to see the image of the room without changes and in its original appearance.

The model of the palace had a shape of a trapezoid, which was subject to strict geometry in accordance with the laws of construction of that time. Under the influence of climate, destructive tectonic processes, as well as human intervention, the building suffered great losses. Unfortunately, at present, the Toprakkala Palace has lost its original appearance [Fig. 2] and the creation of a graphic reconstruction makes it possible to present not only its original appearance, but also valuable information about the building materials and structures used in it. All information is easily perceived due to the integrity and clarity of the image. In the future, it is planned to develop not only a graphic reconstruction of the premises, but also models of the interior and exterior.

List of sources:

1. Nielsen V.A. Formation of feudal architecture in Central Asia (V - VIII centuries). - Tashkent, 1966. - p. 202.

2. Novoselov S.Z. Thematic architectural archeology// Electronic scientific library on the history of ancient Russian architecture. - M., 2008

3. Nurmukhamedova Sh.Z. The history of the development of the architecture of Uzbekistan in the ancient period // INFOLIB. - Tashkent, 2020. - No. 3. - p. 47-54.

4. Likhacheva O.S. Graphical Reconstruction Technique (on the Example of the Armament Complex of the Bystryanka Culture)// HISTORICAL SCIENCES AND ARCHEOLOGY. Altai State University (Barnaul, Russia), 2015. - P. 180-185.

5. *Pugachenkova G.A. Problems of architectural archeology and the study of the society of Central Asia // Archeology and architecture.* - M., 1982 . – p. 5-12 .

6. *Pugachenkova G.A.* To the knowledge of the ancient and early medieval architecture of Northern Afghanistan // Ancient Bactria. - M., 1976. - p. 125.

7. Sverchkov L.M. Archaeological monument of the Baysun region // Proceedings of the Baysun scientific expedition. History and traditional culture of Baysun. - Tashkent, 2005. - Issue. 2. - P. 35.

8. Tolstov S.P. TOPRAK-KALA PALACE. - M., 1984. - S. 302.

9. Usmanov K., Sodikov M., Burkhonova S. "History of Uzbekistan". - Tashkent, 2005. - p. 25.

10. Chernenko E. A. Three-dimensional graphic reconstruction and visualization of memorial archeology // Information Society. - M., 2015 . - p. 80-85.

УДК: 72.03

НАМАНГАН ВИЛОЯТИНИНГ ТАРИХИЙ ҲАММОМЛАРИНИНГ ШАҲАР МИҚЁСИДА ЖОЙЛАШИШИ

Д.М. Хатамова., Ф. Абдусаломова., М. Тошбаева.

Наманган муҳандислик-қурилиш институти. Ўзбекистон

Аннотация. *Ушбу мақолада Наманган вилоятида жойлашган қадимий ҳаммомларнинг хизмат кўрсатиш жараёнлари ўрганилган ва уларнинг ўзига ҳос томонлари аниқланган. Қадимий архитектура ёдгорликларидан бири бўлган ҳаммомларнинг қисқача тарихи, қурилиш жараёни, меъморий ечимлари, айрим шифобахш хусусиятлари ҳам ёритилган. Олиб борилган узоқ йиллик илмий изланишлар мазкур ёдгорликларни бир неча марта бориб ўрганиш ва текшириш ҳамда соҳа олимларининг илмий манбаларига таянган ҳолда тайёрланди.*

Калит сўзлар: *Наманган, ҳаммом, гумбаз, даволаш маскани, буғхона, ечиниш хонаси, совуқ хона, иссиқ хона, массаж хонаси, ювиниш хонаси.*

Кириш. Миллий истиқлол мафкурасининг пойдевори бўлган тарихий меросимизни ўрганиш жамият маънавиятини юксалтиришнинг асосий шартларидан биридир. Маданий мерос кишиларнинг савиясини оширади, уларнинг ҳаётини ақлий ва ҳиссий жиҳатдан бойитади, билимнинг туганмас манбаи бўлиб хизмат қилади. Архитектура ёдгорликларини ўрганиш уларни келажак авлод учун қолдириш учун, зарур ҳолатларда тиклаш ёки таъмирлаш ишларини олиб боришга асос бўлиб хизмат қилади. Шунингдек, Фарғона водийси, хусусан, Наманган вилояти ҳудудида барпо этилган тарихий ҳаммомларни илмий жиҳатдан ўрганиш ҳамда тадқиқотлар натижаларини умумлаштириш билан зарур маълумотлар базасини яратиш муҳим ҳисобланади. Бу мамлакат ҳудудларида туризм имкониятларини кенгайтиришга, иқтисодий имкониятларни оширишга хизмат қилади (1-расм).



1-расм. Наманган вилоятида тарихий ҳаммомларнинг жойлашиши.

тратить время на необдуманные действия и совершать непоправимые ошибки. Как правило, гайдлайн содержит описание и стандарты для корректного применения всех компонентов стиля и градостроительной концепции.

Итак, в качестве примера, рассмотрим состав польского **гайдлайна -"сборника хороших архитектурных практик"**(перевод с польского), издаваемого не только для каждого крупного города, но и для отдельных городских районов.

Благодаря престижности этого района, стремлению все большего числа жителей обосноваться в нем, и был разработан отдельный гайдлайн, в котором приводятся **рекомендации** с учетом исторического, геологического, социального, экологического (на его территории много парков и скверов), логистического и прочих контекстов. Весь район расположен вдоль реки Вислы, что видно на карте – схеме, размещенной на первой странице гайдлайна - Верхний и Нижний **Мокотув**, отдельно выделяются и обосновываются принципы формирования этого района, как исторического.

На схеме обозначены градообразующие тенденции застройки базовой части района - вдоль реки Влтавы. Различными цветами обозначены объекты и территории исторической застройки, разделенные по степени их значимости и зависимости их от времени строительства. Такая карта – схема способна помочь наиболее наглядно представить индивидуальные особенности данного района, для того, чтобы в конечном итоге выявить те положительные моменты возможной реконструкции и добавочного строительства, с опорой на которые должен строиться процесс модернизации жилой среды.




Рис. 2 Карта – схема района Мокотув.



Рисунок 5.Рис 3. Рекомендации для реконструкции фасадов

На странице, посвященной реконструкции фасадов говорится, что следует **избегать утепления здания пенополистиролом.** Под толстым слоем теплоизоляции **исчезают многие архитектурные детали** фасадов, либо искажаются и теряют пропорции. Отображены основные проявления декоративной отделки зданий и особенностей конструктивных элементов.

Но здесь проявляется одна из ключевых особенностей гайдлайна: он не только рекомендует, но и предостерегает от уже совершенных ошибок. Кроме того, в нем содержатся и рекомендации: сохранить историческое название здания: например «дом Александра и Богдана Гутта».

В сборнике подробно описываются **недостатки проводимых ранее реконструкций** и выявляются **проблемы для последующего решения**. Говорится, что большая часть застройки района была разрушена в 1944 году, а в 1950-х годах оба фасада были дополнены новыми зданиями. **Ставилась задача**: восстановить художественные и архитектурные ценности таунхауса, которые в настоящее время полностью разрушены из-за неправильной термомодернизации исторического здания. Следует описание, что: **первоначально фасад был отделан благородной штукатуркой и клинкерным кирпичом**. Он применен в отделке портала, входного обрамления и цоколя. Клинкерный кирпич применен в обрамлении застекленной лестницы.

Приводится возможное решение: восстановление первоначального тела здания **путем удаления пенополистирола с фасада** и проведение тепловизионных исследований на предмет целесообразности термомодернизации. Также приводятся **результаты проведения архитектурно-реставрационных исследований** для идентификации штукатурки под пенополистиролом, анализ оригинальной окраски; методы консервации цоколя и входного



Рис 4. Историческая архитектура на гравюрах 17-18 вв.

портала с заменой неприглядно выполненных вставок. Восстановление зеленого цвета перил балкона полукруглой формы из трубок с круглым профилем.

Рассматривается оборудование так называемого «термоокна» лестничной клетки.

Сделан негативный вывод: пенополистирол вызвал изменение поверхности находящейся под ним штукатурки, он не повторяет оригинальный рисунок в штукатурке. Окраска слишком интенсивная и яркая.

Нужно отметить, что гайдлайн это не сухая инструкция с набором нормативных материалов, а довольно широкое издание, аккумулирующее сведения различного характера, включающих старинные гравюры (рис 4) и даже жанровые фотографии (рис 5), говорящие о знаковых объектах, достопримечательностях и исторических событиях.




Рис 5. Жанровая фотография первых месяцев 1945г.

Такие фотоматериалы оказывают большое психологическое воздействие на работу проектировщиков и архитекторов – дизайнеров.




Рис 6. Основные объекты города даны в привязке к шкале времени. Это своего рода ритм интенсивности исторической застройки этого района.



Рис 7. На странице приводится схема вертикального планирования территории района.



Рис 8,9. Эти страницы посвящены элементам металлопластики

Художественную обработку металлов иначе называют металлопластикой. Ее выразительность основана на технологиях и представляет собой процесс изменения формы под действием давления и температур. С ходом времени технологии меняются или исчезают совсем. И тогда ценность каждого сохраненного элемента становится неизмеримой.



Рис 10. Страница гайдлайна посвящена образцам отделочной аутентичной плитки.

Таким образом можно сказать, что каждый гайдлайн является своего рода **«дизайн – кодом»** города. И мы видим, что для его составления в Европейских странах проводится глубокий анализ культурных, исторических, природных, климатических и других особенностей, выявляются объекты и элементы планировочной структуры, которые формируют его историческую идентичность.

Такой дизайн - код, как мы можем убедиться, невероятно актуален и для нашей Республики. Он должен разрабатываться отдельно для каждого города. И должен служить отправной точкой перед началом работ в области реконструкции, модернизации и строительства. **Дизайн – код** позволяет получить **цельный, понятный и согласованный объект в городской среде.**

Также дизайн - код способствует созданию и применению элементов **айдентики** (логотипа, фирменных цветов и шрифтов).

Городская **айдентика** — архитектурный имидж города, включающий материалы, конструктивные, декоративные решения, элементы благоустройства, малые архитектурные формы (МАФы), визуальную символику, которая используется при оформлении фасадов зданий. [3]

Примером первых элементов городской айдентики может служить логотип Нью Йорка, который разработал графический дизайнер **Милтон Глейзер**. Логотип представляет собой своеобразный ребус (Рис11), разработанный в 1977г. Его эмблема — **I Love New York** — стала частью американской поп- культуры [2].

Слово айдентика – происходит от английского словосочетания «**corporate identity»,** что означает в переводе как «фирменный стиль» [2]. До Милтона Глейзера никто и нигде не сокращал названия городов до знака. Визитными карточками городов ранее были только гербы. В настоящее время уже никто не



Рис 11. Милтон Глейзер. Логотип – айдентика – Нью Йорка.

помнит о разработчике, а подобные логотипы можно встретить почти повсеместно.

В 21 веке городской дизайн обратился к бренд - концепции многоликого города. Под стать Глезейру начали делать типографические логотипы из первых букв названий городов. Но с отказом от минимализма, хотя достичь универсальности пытались вариативностью знака.

Айдентика **г.Мельбурна –** многонационального, разноликого без сердечек, строгая. Это явилось первым, смелым и масштабным брендингом города. Это настоящий дизайн – код, так как его фирменные знаки нашли невероятно широкое применение. Логотип г. Мельбурна создавался на основе модульной сетки, которая рождает множество вариаций.



Рисунок 6..Рис 12. Айдентика г.Мельбурна

Айдентика Мельбурна содержит комплексный концепт. Граненую букву **М** можно гибко использовать в рекламных пространствах (рис 13), не вставляя всюду один и тот же логотип, а использовать его фирменный стиль, адаптированный под и функцию событие.

Так угловатая буква «М» – несет в себе напоминание о бренде, граненый шрифт – напоминание о бренде, композиция из треугольников–напоминание о графическом бренде города. Этот дизайн органичен и ненавязчив.

Как пишут в СМИ, в последние месяцы и в Узбекистане начал активно подниматься вопрос о «дизайн-коде» городов Республики. И можно надеяться, что на самом деле система нормирования нового строительства, понятие «гайдлайнов», в том числе «дизайн-кодов», будет хранить идентичность и историческую связь облика древних и неповторимых городов Республики Узбекистан с формированием родственной им модернизированной среды.

Список литературы:

1. Иконников А.В. Пространство и форма в архитектуре и градостроительстве,М.:КомКнига - 2006. URSS. 352 с. ISBN 5-484-00424
2. Milton Glaser, Master Designer of ‘I ♥ NY’ Logo, Is Dead at 91 (англ.) — The New York Times, 2020
3. https://welovebrands.com.ua/blog/gajdlajn-dizajn/

UO‘K 351.853.1

XORAZM VILOYATI BOG’OT TUMANIDAGI QALAJIQ QAL’A ARXEOLOGIK YODGORLIGIDAN TURISTIK YO’NALISHLARDA FOYDALANISH ISTIQBOLLARI

M.B.Setmamatov., E.R. Raximov., M.R. Karimov.
Urganch davlat universiteti, O‘zbekiston

Annatatsiya: *Maqolada Qalajiq qal’a atrofidagi tadbirkorlar tomonidan qo’shimcha amalga oshirilgan ishlar tahlili va mavjud sho’r ko’l va uning atrofi landshaftini yangicha loyihaviy takliflar asosida yaxshilash, turizm salohiyatini oshirish bo’yicha istiqbolli rejalar va takliflar ilgari surilgan.*

Annotation: *In the article, the analysis of the additional works carried out by the entrepreneurs around the Kalajik fortress and the improvement of the existing salt lake and its surrounding landscape based on new project proposals, promising plans and proposals for increasing the potential of tourism are put forward.*

Kalit so‘zlar: *Samarqand, Buxoro, Xiva, Qarshi, SHahrisabz, Toshkent, Termiz, UNESCO, Ekstremal turizm, Gastronomik,*

Keywords: *Samarkand, Bukhara, Khiva, Karshi, Shahrisabz, Tashkent, Termiz, UNESCO.*

Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Hozirgi kunda respublikamizda mavjud **7000** dan ziyod yodgorliklardan - **2500** tasi me’moriy yodgorliklar, **2700** tasi arxeologik yodgorliklar va **1800** tasi monumental yodgorliklar bo‘lib, ularning barchasi davlat muhofazasiga olingan. Istiqlol yillarida Samarqand, Buxoro, Xiva, Qarshi, SHahrisabz, Toshkent va Termiz kabi qadimiy shaharlarning (2200-2750 yillik) yubileylari munosabati bilan ko‘pchilik me’moriy yodgorliklar ta’mirlandi, muzey qo‘riqxonalar atroflari obodonlashtirildi.

Tarixiy yodgorliklar “O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat va turizm vazirligi huzuridagi Madaniy meros agentligi” tomonidan muhofaza qilinadi. Bugungi kunda dunyoda tarixiy me’moriy yodgorliklarni saqlash va ulardan foydalanishga oid samarador yo‘nalish bo‘yicha UNESCO tashabbusi bilan 413 ta qadimiy shaharlar hududidagi Butunjahon moddiy madaniy meros yodgorliklari ro‘yxatiga kiritilgan 1007 ta obyektlardan 779 tasi me’moriy yodgorliklar sirasiga kiradi.

Jamiyatimiz taraqqiy qilishida turli xil hududlardagi tarixiy obidalar hududiga yaqin joylarda turizm infratuzilmasini rivojlantirish bo‘yicha ishlar amalga oshirilmoqda. Ekoturizmni rivojlantirishda turli xildagi sharoitlarni inobatga olish va shu joylarga bo‘lgan ehtiyojni o‘rganib turistlarni jalb qilish bugungi kunning dolzarb masalalariga aylanmoqda.

Ekoturizmni ko‘rinishlari bo‘yicha klasslarga ajratishda ularning maqsadi va sayohat olib boriladigan obyektiga qarab tasniflanadi. Ekoturizmlarni maqsadiga ko‘ra:

- “Yovvoyi” yoki “madaniy” tabiatni kuzatish va o‘rganish (ekologik ta’lim va tarbiya elementlari bilan birga);
- Atrof tabiiy muhitda emotsional va estetik jihatdan dam olish;
- Tabiiy omillar bilan davolanish;
- Sport bilan shug‘ullanish va sarguzasht kabi turlarga ajratiladi.

Ekoturizmlarni obyektiga ko‘ra:


- Botanik, zoologik, geologik, geografik va shu kabilar;
- Ekologik-etnografik, arxeologik, ekologik-madaniy;
- Agroekotur yoki agrotur;
- Speologik, suv, tog‘ va shu kabilarga ajratiladi[1].

Xorazm viloyati Bog‘ot tumanida joylashgan Qalajiq qal’asi atrofida tadbirkorlar tomonidan bir qancha infratuzilma obyektlari qurilib ishga tushirildi. Asosiy masala aholini va turistlarni jalb qilish hamda yaratilgan sharoitlardan samarali foydalanishdir.



1-rasm. Qalajiq qal’aning umumiy ko‘rinishi.

Undan tashqari, Qal’a ichini qum bilan tekislab yer ostida shu qal’a qurilgan davrni eslatuvchi turar joy binolarini qurib muzey tashkil qilish. Muzeyda o‘tgan davr muhitiga tushib yarim soat hayot kechirish ushbu yarim soat vaqt davomida eramizning IV asrida yashab faoliyat olib borgan odamlar hayot tarzi namoyon bo‘lgan haykallarini shakllantirib har bir uyda har xil uy ro‘zg‘or ishlari bilan shug‘ullanayotgan voqealarni shakllantirish lozim. 2-rasm.



2-rasm. Yerto‘la shaklidagi turar joy binosi.

Undan tashqari, qal’ani ta’mirlab atrofiga kuzatuv kameralari o‘rnatish va integratsiya qilish bo‘yicha ishlarni amalga oshirish lozim.

Tadbirkorlar tomonidan mahalliy aholi uchun dam olish uylari, o‘tovlar, mehmonxonlar va boshqa infratuzilma obyektlar qurib bitkazilgan. Bu hududni yanada obodonlashtirish bo‘yicha loyihaviy takliflarni amalga oshirib amaliyotga tatbiq qilish lozim. Qal’aning janubiy qismidagi suvi sho‘rlangan ko‘l mavjud bo‘lib, ushbu ko‘lga aholining davolanish maqsadida cho‘milishi uchun suvni filtirlab tozalash, atrofini silliq toshlar bilan hoshiyalab tranfilinar qurish, kichik qayiqlarda suzish va kemalar to‘xtash joylarini loyihalash, ko‘lning ayrim joylarida robot delfinlarni o‘rnatib suv sepishlari tasvirlanadigan harakatlarini namoyishini tashkillashtirish lozim. Yuqoridagi g‘oyalar amalga oshsa, ushbu maskanga bo‘lgan qiziqish yanada oshadi. Bu maskanda kelgusida turli xil tadbirlarni o‘tkazish uchun amfiteatrlar ham tashkil etilib, quyidagi tadbirlarni o‘tkazishni yo‘lga qo‘yish lozim.



3-rasm Qalajiq qal'a atrofini obodonlashtirishga lovihaviv takliflar.

Ichon qal'ada har 2 yilda P.Maxmud xotirasiga bag'ishlab, o'tkaziladigan "Bahodirlar" sport musobaqalari va boshqa tadbirlar shu qal'ada o'tkaziladi u bilan atrofidagi tadbirkorlar yaratgan maishiy xizmat ko'rsatish binolaridan unumli foydalanish imkoniyatiga ega bo'lib, turizm yanada rivojlanadi. 3-rasm.

Qalajiq qal'a atrofida bir qancha tarixiy binolar kompozitsion ko'rinishini aks ettirgan bir qancha infratuzilma binolari qad rostlagan. Undan tashqari, qal'aning janubiy qismida baliqchilikka ixtisoslashgan klasterlar faoliyat olib bormoqda. Qal'a atrofida turli xil hayvonlarni tomosha qilish hamda otda va tuyada sayr qilish imkoniyati ham yaratilgan. Sim orqali yo'lak tashkil qilib, yozda yoshlarimizni shu maskanda dam olishlarini tashkil qilish imkonini ham yaratish mumkin bo'ladi. 4-rasm.



4-rasm. Qalajiq qal'a hududining bosh rejasi M:1-2000.

Adabiyotlar ro'yxati.

1. Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti doktoranti Shomuratova N.T."Ekologik turizm va uning geoekologik jihatlari" mavzusidagi dissertatsiya. T.2007 y. 30-b.

2. https://www.youtube.com/watch?v=gz2SMws_9so

UO‘K 351.853.1

XORAZM VILOYATIDAGI XAZARASP QAL’ASINING ISTIQBOLLI KELAJAGI

M.B. Setmamatov., E.R. Raximov.
Urganch davlat universiteti, O‘zbekiston

Annatatsiya: *Maqolada Xorazm viloyatidagi Xazarasp qal’asi tarixi, o‘tmishdagi ahamiyati, kelib chiqish asoslari, tuzilishi tahlil qilingan va kelgusida qal’a ichki qismiga an’anaviy turar joylarni ketma-ket loyihalar asosida uylarni yangilash va tashqi ko‘rinishini atrofidagi suv havzalarini va uning atrofini yaxshilash borasida istiqbolli rejalar va takliflar ilgari surilgan.*


Kalit so‘zlar: *At-Tabariy, Al-Istahriy, Amudaryo, Juvay, Yoqut, Ming ot, gofr, Marg‘iyona, Parfiya, Durnali.*

Annotation: *The article analyzes the history, past significance, origins, and structure of the Khazarsp fortress in the Khorezm region, and in the future, forward-looking plans and proposals are put forward for the interior of the fortress, on the basis of successive projects, to renew the houses and to improve the exterior of the water basins and its surroundings.*

Keywords: *At-Tabari, Al-Istahri, Amudarya, Juvai, Yakut, Thousand Horses, Gofr, Marghiyana, Parfiya, Durnali*

Qal’a tarixi to‘g‘risida yana bitta quyidagicha hikoya mavjud: Qadimgi vaqtlarda to‘rtta podshoh yashagan bo‘lib, ulardan ikkalasi musulmon, yana ikkitasi esa musulmon bo‘lmagan ekan. Birinchi musulmon podshohning ismlari Shedad’ va Faran’, ikkinchilarining ismlari bo‘lsa, Iskandar va Sulaymon bo‘lgan. Ularning har biri turli vaqtlarda yashab hukmronlik qilishgan. Shular ichida eng mashhurlaridan biri hazrati Sulaymon bo‘lib, u hamma yerlarni, hattoki pari va devlarni, hayvonot olami ustidan ham o‘z hukmronligini o‘rnatgan ekan. Kunlarning birida Sulaymon o‘z taxtiga o‘tirib, shamol hamrohligida devlari bilan yerlarni ko‘rish uchun osmonda parvoz qiladi. Osmonda parvoz qilib ma’lum bir vaqtdan so‘ng hozirgi Xazarasp hududida to‘xtaydi. Bu paytda bu yerlar qalin o‘rmon (to‘qayzorlar) va boy o‘tloqlar bilan qoplangan o‘lka bo‘lgan. Ushbu o‘lkada xushmanzara buloq ham bo‘lib, o‘sha paytda 1000 nafar ajoyib ot ham suv ichgani kelgandi. Hayratlanarlisi otlarning yonida boqib yurgan cho‘pon ham yo‘q bo‘lib, ular erkinlikda o‘tlab yurishgandi. Hazrati Sulaymon yonidagi hamrohlari otlarga qiziqib ularni ushlab qo‘lga tushirishga qanchalik harakat qilishmasin bitta ham otni ushlab ololmaydilar. Shunda Sulaymon buloqqa otlarni sarmast qiluvchi sharbat aralashtirishga farmon beradi. Ana shunday holatda otlar buloq bo‘yiga kelishadi va musaffo suvni iste’mol qilishgach samrast bo‘lganicha shu yerda qolib ketishadi. Sulaymonning odamlar bundan foydalanib otlarni ushlab olib qanotlarini qirqishadi. Ana shu voqeadan buyon ot odamning do‘stiga aylangan ekan. Sulaymon barcha otlarni qo‘lga kiritgach buloq yonida qal’a qurishga faromon beradi va uni Xazarasp (ming ot) deya ataydi.

Ushbu qal’a oradan bir necha yuz yil o‘tgach vayronaga aylanadi va aynan uning o‘rnida Muhammad Niyoz Inoq tomonidan yangi qal’a barpo etiladi. Ushbu qal’aning qaytadan qad rostlanganiga 100 yil bo‘lgan. Qal’a atrofi Muhammad Aminxon davrida devonbegi Ibrohim tomonidan yangi devor bilan o‘rab olinadi. Ana shunday qilib, eski qal’a tarkibi arkdan iborat bo‘lib, uni Yangi qo‘rg‘on deb ataydilar. Natijada yangi qo‘rg‘onning janubiy devori arkka tutashib ketadi. Yangi qal’ada bozor mavjud bo‘lib, darvozadan tashqari, chiqib uzoqqacha cho‘zilib ketgan. Arkning shimoliy-sharqiy tomonida hozir ham oldingi davrlardagi qadimiy qal’a devorining bir qismi saqlanib qolgan bo‘lib, mahalliy aholining aytishicha bu devor qismi Sulaymon hukmronlik qilgan davrga tegishli [2] 1-rasm.



1-rasm. Xazarasp qal'asining tarhi va umumiy ko'rinishi.

XV asrda Xazarasp yana Xorazmdagi shahar sifatida aytiladi. Hozirgi kungacha Xazarasp qal'asi XIX asrda oxirgi marta qal'a devorlar qurilgan holda saqlanib turibdi. Xazarasp qal'asining umumiy maydoni 340x320 metrga teng. Devorga oldindan qolgan chuqur o'rnidagi botqoq past tekislik yondoshgan. Qal'aning barcha hududida zamonaviy uylar qurilgan. Faqatgina qal'a janubiy-sharqiy burchagida balandlik bo'lib uning nomi halda Devsolgan deb ataladi. Uning maydoni 40x40 metr bo'lib, hozirgi balandligi 15 metr keladi. Bir vaqtlar bu yerda tishsimon (gofrlar) bilan qurilgan katta bino mavjud bo'lib, ularda tashqi tomonda sharqiy tomoni yaxshi saqlangan. Janubiy tomoni yomonroq saqlangan. Shimoliy va g'arbiy devorlari ichki qismi buzilgan. Uning qurilgan vaqti hozircha ma'lum emas. Keyingi davrlardagi qal'aning qurilish vaqtida Devsolgan qal'a devori tizimiga keldi va u qal'aning janubiy-sharqiy qismini egallab, uning tepasida 7 xonali bino joylashdi. Devsolgan balandligining tashqi ko'rinishi konstruktsiyasi va usullari bilan keyingi XIX asrda qurilgan qal'a devorlaridan farq qiladi. Va bu uning oldin qurilganidan dalolat beradi. Minoralar devordan ham oldin qurilib ular devordan 10-15 m tashqariga chiqib turadi. Ularning soni har xil bo'lib, shimoldan 7 dona, janubdan 6 dona, sharqdan 4 ta, janub tomondan 1 ta saqlanib qolgan [1] 2-rasm.




2-rasm. Xazarasp qal'asi.

Minoralar uzunchoq oval shaklida bo‘lib, devorlar singari paxsa tishchalar bilan naqshlangan. Janubiy tomonining o‘rtasida kirish darvozasi bo‘lgan. Xazarasp darvozasi XIX asrda yog‘ochdan bo‘lgan. Uning eni 8 metrga etgan. Uning yonida qorovulxona bo‘lib, qoravulxonadan minoraga kirilgan. Minora yonida madrasa joylashgan. Ma’lumki, qal’aga kirish joyida Xiva xoni Rahimqulixon tomonidan (1841-43 y) saroy qurilgan. Va bu saroy saqlanib qolmagan. 1-rasm.

Qazilmalar 1958-60 yillar davomida ochilgan qal’a devorlari qurilish materiallari va joylashishi bilan farq qiladi. Qayta qazilmalar natijasidagina bir butun antik davrga xos bo‘lgan qal’a devorining aniq sxemasi topilgan. Devorning eng katta qalinligi 2,6 m nozik joyi 1,5-1,6 m. Devorning sharqiy tomonidagi minoralarning biri boshqalariga qaraganda balandroq bo‘lib, uning balandligi 4,43 m. Qazilmalarda qal’aning 4 burchagida minoralar joylashgani aniqlangan. Burchakdagi minoralar orasida har tomonda uchtadan minora joylashib, ularning orasidagi masofa 54-55 metrga teng bo‘lib chiqdi. Minoralar to‘rtburchak shaklida bo‘lgan.

YUqoridagilarni e’tiborga olib, qal’aning qadimgi davrdagi ko‘rinishi 280x294 m to‘rtburchak shaklda bo‘lgan. Devorlar pasxadan qurilgan. Devorlar tepasida plyastirlar mavjud bo‘lib, ular orasida o‘q otish joylari shakllangan. Eramizdan avvalgi I-II asrlarda Marg‘iyonadan Xorazmga olib keladigan katta qadimiy yo‘l bo‘yida joylashgan Parfiyaning Durnali (Turnali) qal’asiga o‘xshash qilib qurilgan. 3-rasm. Bundan Marg‘iyonadagi devorlarni plyastir bilan ishlash Xorazmdan oldin kelib chiqqan degan xulosaga kelinadi[1].



3-rasm. Parfiyaning Durnali (Turnali) qal’asi



4-rasm. Xazarasp qal’asining atrofi va umumiy ko‘rinishi.



5-rasm. Xazarasp qal'asi devorlari.



6- rasm. Xazarasp qal'asi devorlari.



7-rasm. Xazarasp qal'asi ichki bosh rejasi.

Bugungi kunga kelib, Xazarasp qal'asini konservatsiya qilib saqlab qolish bo'yicha alohida konsepsiya ishlab chiqib yillar davomida ketma-ket ta'minlash ishlarini olib borish va atrofini landshaft bilan bezatish lozimdir. Shu bilan qal'a ichidagi 57 ta turarjoylarda istiqomat qilayotgan aholiga o'sha davrni eslatuvchi uylarni qurish bo'yicha qattiq loyiha asosida ketma-ketlikda qurilish ishlarini olib borish va ochiq osmon ostidagi muzey sifatida shakllantirish lozim.



Markaziy qismiga taklif [4].



Qal'a ichki qismi atrofiga taklif [5].

8-rasm. Xazarasp qal'asi ichki qismiga loyihaviy taklif.

Bu bilan qal'aga bo'lgan etibor yanada oshadi. Hostel mexmonhonalar faoliyati yo'lga qo'yiladi turizm faoliyati yanada oshadi. Qal'a atrofidagi suvli hovuzlardan samarali foydalanish,

atrofini obodonlashtirib chiroyli ko‘rinishga olib kelish, ko‘kalamzor maysalarni va manzarali darxtlarni o‘stirishni rejalashtirish lozim. Qal’a atrofida chegaralab olingan qismiga alohida loyihaviy takliflar ishlab chiqish bo‘yicha tanlovlar o‘tkazish va qal’aning kelajagini istiqbolli takliflarni amaliyotga tadboq qilish turizmni rivozlantirish lozimdir.

Adabiyotlar ro’yxati:

1. Воробьева. М. Г, Лапиров-Скобло. М.С, Неразик. Е. Е. Археологические работы в Хазараспе в 1958–1960гг. М., «Наука», Вып. 6, 1963.
2. INTERDISCIPLINE INNOVATION AND SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE British International Science Conference 95-97 b. XAZARASP QAL’ASI HAQIDA SHARQSHUNOS A,L, KUNNING XOTIRALARI R.Abdirimov Xorazm Ma’mun akademiyasi yetakchi ilmiy xodimi tarix fanlari nomzodi, dotsent
3. Г.А.Кошеленко Родина парфян. Москва “Совеский художник” 1977. 40-41 с.
4. Xudayberganoa N.Q. Xva Ichon qal/a Deshon qal’adagi turarjoy binolarining an’anaviy klassifikatsiyasini yaratish. magistirlik dissertatsiyasi.(Urganch 2023)
5. Jumaniyazova R.A.Xiva – Urganch uslubidagi an’anaviy turarjoylarni zamonaviy turarjoylarda qo’llash usullari. (Xorazm viloyati misolida) magistirlik dissertatsiyasi. .(Urganch 2023)

4-SHO‘BA:
ARXITEKTURA OBYEKTLARINI REJALASHTIRISHNING AN’ANAVIY VA ZAMONAVIY USULLARI

СЕКЦИЯ №4:
ТРАДИЦИОННЫЕ И СОВРЕМЕННЫЕ МЕТОДЫ ПРОЕКТИРОВАНИЯ АРХИТЕКТУРНЫХ ОБЪЕКТОВ

4-MEETINGS:
TRADITIONAL AND MODERN METHODS OF PLANNING ARCHITECTURAL OBJECTS

TURAR-JOY BINOLARINI KONSTRUKTIV EKOLOGIK LOYIHALASH ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH VA ENERGIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING KOMPLEKS KIMYOVIY QO‘SHIMCHALAR BILAN MODIFIKATSIYALANGAN USULLARI

t.f.n., prof. Z.M. Sattorov.
Toshkent arxitektura-qurilish universiteti.O’zbekiston.
S.S. Bekmirzayev.
Farg’ona politexnika instituti.O’zbekiston.

Annotatsiya: *Tadqiqotlar quyidagi tartibda olib borildi, dastlab alohida texnik ko‘pik tayyorlandi. Ko‘piklashtiruvchi vosita miqdori suvning 0,5% ni tashkil qildi. Ko‘pik 3 daqiqa davomida tayyorlandi, keyin ko‘pikka sement va to‘ldiruvchi (qum va kul) qo‘shildi. Ko‘pikbeton qorishmasini aralashtirish 2 daqiqa davom etdi. So‘ng qorishma 10x10x10 sm o‘lchamdagi metall qoliplarga quyildi, ko‘pikbeton namunalarini qotishi tabiiy sharoitda amalga oshirildi. Olingan namunalarning xususiyatlarini 7, 14 va 28 kundan so‘ng aniqlandi.*

Аннотация: *Исследования проводились в следующем порядке, сначала готовилась отдельная техническая пена. Количество пенообразователя составляло 0,5% воды. Пена готовилась 3 минуты, затем в пену добавлялся цемент и наполнитель (песок и зола-уноса). На замешивание пенобетонной смеси ушло 2 минуты. Затем смесь заливали в металлические формы размером 10x10x10 см и образцы пенобетона твердели в естественных условиях. Характеристики полученных образцов определяли через 7, 14 и 28 дней.*

Abstract: *Researches were carried out in the following order, first a separate technical foam was prepared. The amount of foaming agent was 0.5% of water. The foam was prepared for 3 minutes, then cement and filler (sand and fly ash) were added to the foam. It took 2 minutes to mix the foam concrete mixture. Then the mixture was poured into 10x10x10 cm metal molds, and the foam concrete samples were hardened in natural conditions. The characteristics of the obtained samples were determined after 7, 14 and 28 days.*

Kalit so’zlar: *Ko‘pikbeton, kompozitsion, deformatsiya, g‘ovaklashtirish, KDj-3SMB, modifikatsiyalovchi.*
Ключевые слова: *Пенобетон, композит, деформация, пористость, КДж-3СМБ, модификатор.*
Key words: *Foam concrete, composite, deformation, porosity, KDj-3SMB, modifier.*

Kirish: Ko‘pikbetonlarning, ijobiy tomonlari ko‘pligiga qaramay, kamchiliklardan holi emas, ularni bartaraf etish orqali ularning qo‘llanilish doirasini kengaytiradi va ishlab chiqarish harajatlarini kamaytiradi.

Bu materiallarning asosiy kamchiliklari-kompozitsion matritsa yaxlitligini buzilishining omillari hisoblanadigan mustahkamligini pastligi va cho‘kish deformatsiyalarini yuqoriligidir [147;25-26-b].

Optimal tuzilishga ega bo‘lgan serg‘ovak materiallarni olish uchun g‘ovaklar shakli va ularning ichki yuzasini xarakteri; havo pufakchalarining material hajmida bir hilda taqsimlanishi; g‘ovak devorlarining qalinligi va zichligi; serg‘ovak strukturaning yopiqlik darajasi va boshqa faktorlarni nazorati qilish orqali olish mumkin [148;5-12-b, 149;362-363-b].

Bu parametrlarni ko‘p funksiyali xususiyatli turli qo‘shimchalar va modifikatorlar yordamida beton tarkibini tanlash, tizimni g‘ovaklashtirish jarayonida barqarorligini ta’minlash, shuningdek, bir hilda taqsimlangan geterog‘ovakli zich, mustahkam yaxlit matritsaning shakllanishini boshqarish natijasida erishiladi.

KDj-3SMB qo‘shilgan ko‘pikbeton fizik-mexanik va issiqlik o‘tkazuvchanlik xossalari

Ilgari o‘tkazilgan tadqiqotlar natijalari sementning tarkibiga murakkab kimyoviy qo‘shimchalarning kiritilishi ularni ijobiy ta’siri asosan kompozitning mikrotuzilishini o‘zgartirishi, ya’ni sement toshining strukturasini shakllannshini tezlashtirishi hisobiga erishiladi.

Shuning uchun ko‘pikbeton aralashmalariga KDj-3SMB markadagi kompleks kimyoviy qo‘shimchaning ijobiy ta’sirini baholashning asosiy me’zonlari sifatida qorishmaning o‘rtacha zichligi hamda oquvchanligi, ko‘pikbetonning qotish kinetikasi (har xil vaqtdagi mustahkamligi) qabul qilindi.

Tadqiqotlarda modifikatsiyalovchi KDj-3SMB kompleks kimyoviy qo‘shimchaning oltita dozadagi miqdori ishlatildi: sement og‘irligiga nisbatan 4;6;8;10;12 va15%.

Ko‘pikbeton namunalarini tayyorlashda xom-ashyo sifatida “Quvasoysement” OAJda ishlab chiqarilgan PS400 D20 markali portlandsement, Farg‘ona viloyati, Yozyovon tumanida joylashgan karyerning qumi, “Yangi Angren” issiqlik elektr stansiyasi uchuvchan kulidan ajratib olingan alyumosilikat mikrosferalari, PB 2000 ko‘piklashtiruvchi vositasidan foydalanildi.

Modifikatsiyalovchi KDj-3SMB kompleks kimyoviy qo‘shimchaning ko‘pikbeton xususiyatlariga ta’sirini o‘rganish uchun, tajribalarni rejalashtirishning matematik usuli yordamida aniqlangan, D600 markadagi ko‘pikbetonning 330 kg portlandsement, 175 kg qum va 1,1 kg ko‘piklashtiruvchi agentdan tashkil topgan tarkibi ishlatildi.

$1m^3$ KDj-3SMB kompleks kimyoviy qo‘shimchali ko‘pikbetonning haqiqiy tarkibi 1-jadvalda berilgan.

1–jadval

Ko‘pikbetonlarni tarkibi

KDj-3SMB, %	Xom ashyo materiallari				
	Sement, kg	Qum, kg	Suv, l	PB- 2000, kg	ASM, %
0	330	175	115	1,1	2
4	330	175	115	1,1	2
6	330	175	115	1,1	2
8	330	175	115	1,1	2
10	330	175	115	1,1	2
12	330	175	115	1,1	2
15	330	175	115	1,1	2

Ko‘pikbeton aralashmasini tayyorlash laboratoriya beton qorgichida, bir bosqichli usulda amalga oshirildi. Ushbu usulga muvofiq, oldindan o‘lchangan suv va KDj-3SMB qo‘shimchasining belgilangan miqdori qorgichga quyildi. Qo‘shimcha suv bilan 1 daqiqa davomida aralashtirildi. So‘ng, qorgichga qum, sement, ASM solindi va bir xil tarkibli plastik qorishma hosil bo‘lguncha hammasi 2 daqiqa davomida qorishtirildi.

Keyin hosil bo‘lgan qorishmaga ko‘pikli vositaning suvli eritmasi qo‘shildi va barcha komponentlar yana 4-5 daqiqa davomida aralashtirildi. Tayyor ko‘pikbeton qorishmasi oldindan tozalangan va moylangan, 10x10x10 sm o‘lchamdagi metall qoliplarga quyildi. Qoliplangan ko‘pikbeton namunalariga belgi qo‘yildi va

normal qotirish kamerasida 20±2ºC harorat va havoning nisbiy namligi 90% dan kam bo‘lmagan sharoitda sinov muddatigacha saqlandi.

Siqilishga mustahkamlik chegarasini aniqlashdan avval, ko‘pikbeton namunalari quritish javonida, 100^0 C haroratda turg‘un vazngacha quritildi.

Har bir tarkibdagi qorishmaning oquvchanlik qobiliyati Suttarda viskozimetrida, ko‘pikbetonning haqiqiy, o‘rtacha zichligi va siqilishdagi mustahkamligi GOST 25485–2019 talablariga muvofiq aniqlandi.

O‘tkazilgan eksperimental tadqiqotlar natijalari, KDj-3SMB kompleks kimyoviy qo‘shimchani kiritilishi natijasida qorishmaning plastikligi sezilarli oshganini, undagi havo pufakchalari o‘lchamining kichrayishi hisobiga Suttard viskozimetridagi yoyilish diametri 20 dan 30 sm gacha etganini ko‘rish mumkin (2-jadval).

2–jadval

Ko‘pikbetonning fizik mexanik xossalari

KDj-3SMB, %	Yoyiluvchanligi, sm	O‘rtacha zichligi,kg/m^3	Siqilishdagi mustahkamligi, MPa				
			Qotish muddati, kun				
			1	3	7	14	28
0	20	570	0,42	0,85	1,55	2,0	2,3
4	22	575	0,48	0,9	1,75	2,1	2,4
6	23	580	0,52	0,95	1,9	2,2	2,5
8	24	588	0,65	1,3	2	2,4	2,7
10	26	592	0,8	1,5	2,12	2,6	2,9
12	28	604	0,72	1,4	2,05	2,52	2,85
15	30	615	0,67	1,35	2	2,4	2,72

2–jadvaldan ko‘pikbeton qorishmasiga KDj-3SMB kompleks kimyoviy qo‘shimchani sement massasining 4% va 15% gacha miqdorda kiritilishi natijasida ko‘pikbetonning o‘rtacha zichligini faqat 5-45 kg/m^3 gacha oshishi kuzatildi.

3–jadval

Ko‘pikbetonlarni suv kamaytirilgandan keyingi tarkibi

KDj-3SMB, %	Xom-ashyo materiallari				
	Sement, kg	Qum, kg	Suv, l	PB- 2000, kg	ASM, %
0	330	175	115	1,1	2
4	330	175	107	1,1	2
6	330	175	102	1,1	2
8	330	175	95	1,1	2
10	330	175	92	1,1	2
12	330	175	89	1,1	2
15	330	175	86	1,1	2

Suttard viskozimetridagi yoyilish diametrini bir xil 20 sm qilib olindi va suvning miqdori qo‘shimchaning miqdoriga qarab o‘zgarganini ko‘rishimiz mumkin.


4–jadval

Ko‘pikbetonning fizik mexanik xossalari

KDj-3SMB, %	Oquvchanligi, sm	O‘rtacha zichligi,kg/m^3	Siqilishdagi mustahkamligi, MPa				
			Qotish muddati, kun				
			1	3	7	14	28
0	20	570	0,42	0,85	1,55	2,0	2,3
4	20	572	0,5	0,95	1,75	2,2	2,5
6	20	578	0,55	1.15	1,9	2,4	2,7
8	20	585	0,65	1,35	2	2,5	2,9
10	20	585	0,8	1,5	2,12	2,7	3,2
12	20	600	0,75	1,45	2,1	2,66	3,18
15	20	605	0,7	1,4	2,05	2,58	3,1

Ko‘pikbeton qorishmasiga KDj-3SMB kompleks kimyoviy qo‘shimchani sement massasining 4% va 15% gacha miqdorda kiritilishi natijasida ko‘pikbetonning o‘rtacha zichligini 35 kg/m^3 ga va suv talabchanligi 25% ga kamayganligi kuzatildi.

Kimyoviy qo‘shimchasi miqdorining 10% dan oshishi iqtisodiy jihatdan samarasiz hisoblanib, konstruksiyani tannarxini oshishiga olib kelishi mumkin.



1–rasm. Ko‘pikbetonning siqilishdagi mustahkamligiga KDj-3SMB kompleks kimyoviy qo‘shimchasini ta’siri.

Modifikatsiyalovchi KDj-3SMB kompleks kimyoviy qo‘shimchani kiritilishi bilan kichik o‘lchamdagi berk g‘ovaklar hosil bo‘ldi. Olingan ma’lumotlarga ko‘ra, modifikatsiyalovchi qo‘shimchaning kiritilishi natijasida ko‘pikbetonning mustahkamligiga 1,4 barobar oshirishga erishildi.

Tadqiqot natijalari 4% KDj-3SMB kompleks kimyoviy qo‘shimchasi qo‘shilgan ko‘pikbeton “GOST 25485-2019 G‘ovak beton. Texnik shartlari.” talablari bilan taqqoslaganda D500 markadagi V2,5 sinf konstruktiv–issiqlik izolyatsiyasi betoniga, 15% qo‘shimcha qo‘shilgan ko‘pikbeton D600 markadagi V3,5 sinfdagi konstruktiv betonga mos keladi.

Qorishmaga sement massasining 4 va 15% miqdorida KDj-3SMB kompleks kimyoviy qo‘shimchani kiritilishi ko‘pikbeton strukturasini shakllanish jarayonlariga, betonning fizik-mexanik va ekspluatatsion xususiyatlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Sement massasining 10% oshiq miqdordagi KDj-3SMB qo‘shimchasi ko‘pikbetonning 15 kundan so‘nggi strukturalanish jarayonini sekinlashtirdi.

KDj-3SMB kompleks kimyoviy qo‘shimchasi bilan modifikatsiyalangan ko‘pikbetonning mexanik xususiyatlarining oshishi sabablarini tushuntirish uchun skanerlovchi elektron mikroskop yordamida namunalarning mikrotuzilishi o‘rganildi.

Ko‘pikbeton mikro tasvirlarini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, sement massasining 4-12% miqdorida KDj-3SMB kompleks kimyoviy qo‘shimchasi bilan modifikatsiyalash natijasida siqilishdagi mustahkamligini oshishi uning bir hil mayda strukturaga ega bo‘lishi bilan izohlanadi.

Nazorat namunalarida g‘ovak devorlarining shikastlanishi va tez yemirilishi, shuningdek ularning birlashishishi natijasida, mustahkamlikning pasayishiga va uning ekspluatatsion xususiyatlarining yomonlashishiga yordam berishi kuzatildi. Kompleks kimyoviy qo‘shimchasi bilan modifikatsiyagan namunalarda esa g‘ovaklar mayda tuzilishda bo‘lib, butun bo‘shliqni bir tekisda to‘ldirganini ko‘rish mumkin.

KDj-3SMB kimyoviy qo‘shimchali ko‘pikbetonning fizik kimyoviy tahlili

Fizik-kimyoviy tahlil usullari kompleks kimyoviy qo‘shimchalar ta’sirida ko‘pikbetonning mikrostruktursini va uning o‘zgarish jarayonlarini, masalan, gidratatsiya, kristallanish va boshqa xossalarini o‘rganishga imkon beradi.

Ko‘pikbetonni fizik-kimyoviy xossalarini o‘rganish uchun infraqizil spektroskopiya, rentgen fazoviy tahlillari, differensial termik tahlil va elektron mikroskopiya usullaridan foydalanildi.[152;27-28b, 153;22-b].

Ma’lumki, ko‘pikbetonning g‘ovak strukturasini tuzilishi uning xususiyatlariga katta ta’sir ko‘rsatadi [154;**52-56-b**].


Ko‘pikbetonning g‘ovak strukturasi o‘lchami 10x10x10sm bo‘lgan, qo‘shimchasiz hamda 8; 10 va 12% kompleks kimyoviy KDj-3SMB qo‘shimchali, 28 kun normal sharoitda qotgan namunalarda o‘rganildi.


G‘ovak strukturasi parametrlari sifatida GOST 12730.4-78 me’yoriy hujjatda berilgan umumiy g‘ovakdorlik (P_{um}), ochiq g‘ovakdorlik (P_{och}), berk g‘ovakdorlik (P_b), g‘ovaklar o‘rtacha o‘lchami ko‘rsatkichi (λ) va g‘ovaklarni o‘lchamlari bo‘yicha birxillik ko‘rsatkichi (α) olindi.

5–jadval

Ko‘pikbeton namunalarinig g‘ovak strukturasi parametrlari

Ko‘rsatkichlar	KDj-3SMB qo‘shimcha miqdori,%			
	0	8	10	12
P_{um}	67,0	69,0	71,1	70,1
P_{och}	31,1	24,0	20,1	20,2
P_b	35,9	45,	51,0	49,9
λ	1,7	1,5	1,3	1,4
α	0,3	0,7	0,9	0,6





2-rasm. Ko‘pikbetonning g‘ovak parametrlariga KDj-3SMB qo‘shimchasini ta’siri

KDj-3SMB qo‘shimchasi ko‘pikbetonning umumiy g‘ovakdorligiga deyarli ta’sir ko‘rsatmaydi, lekin, ochiq g‘ovaklar hajmini oshirgan holda berk g‘ovaklar ulushini oshirishga imkon yaratadi. Betonda tartibsiz g‘ovaklar yoki ochiq kapillyarlar o‘rniga sferik shakldagi bir xil taqsimlangan mayda g‘ovaklar turkumi vujudga keladi, g‘ovaklararo devorlar qalinlashadi.

KDj-3SMB qo‘shimchasi bilan modifikatsiyalash natijasida ko‘pikbetonda bir xil o‘lchamdagi mayda g‘ovaklar shakllanadi. O‘tkazilgan tadqiqotlarning natijalari bo‘yicha ko‘pikbetonning g‘ovak strukturasini optimallashtirish KDj-3SMB kompleks kimyoviy qo‘shimchasini portlandsement massasiga nisbatan 10% miqdorda qo‘shganda erishish mumkinligini ko‘rsatdi. Bu o‘z navbatida betonning mustahkamligi, sovuqqa chidamlilik xossalarini va energiya tejamkorlik xususiyatlarini oshirishga imkon yaratadi.

Ko‘pikbetonning issiqlik o‘tkazuvchanligiga kompleks kimyoviy qo‘shimchalarni ta’siri

Issiqlik o‘tkazuvchanlik ko‘pikbetonning eng muhim xususiyatlaridan biri bo‘lib, u issiqlik energiyasini tashish qobiliyatini aks ettiradi. Ushbu mezon ko‘pikbetondan foydalanish ko‘lami va imkoniyatlarini, uning qo‘llanilish sohalarini belgilab beradi. Shu bilan birga issiqlik o‘tkazuvchanligi materialning zichligi, g‘ovak strukturasi va mustahkamligi kabi asosiy parametrlar bilan uzviy bog‘liqdir.

Shu sababli ko‘pikbetonning issiqlik tejamkorlik xususiyatlariga ta’sir etuvchi omillarni o‘rganish muhim ahamiyatga ega.

Ko‘pikbetonning issiqlik o‘tkazuvchanligi va konstruktiv sifat ko‘rsatkichi o‘lchami 10x10x10sm hamda 15x15x2,0sm bo‘lgan, qo‘shimchasiz hamda 8;10 va 12% kompleks kimyoviy KDj-3SMB qo‘shimchali, 28 kun normal sharoitda qotgan namunalarda o‘rganildi.

Namunalarni issiqlik o‘tkazuvchanlik koeffitsienti «ITS-1» markadagi qurilmada aniqlandi.


6-jadvalda berilgan ma’lumotlar ko‘pikbetonning issiqlik o‘tkazuvchanligiga kompleks kimyoviy qo‘shimchaning katta ta’siri borligini ko‘rish mumkin. KDj-3SMB qo‘shimchasi bilan modifikatsiyalash ko‘pikbetonning issiqlik o‘tkazuvchanlik.

6-jadval

Ko‘pikbeton namunalarining issiqlik o‘tkazuvchanlik koeffitsientlari

Kimyoviy qo‘shimcha miqdori KDj-3SMB, %	O‘rtacha zichligi ρ, kg/m^3	konstruktiv sifat koeffitsenti KSK,MPa/ (kg/m^3)	Namligi W, %	issiqlik o‘tkazuvchanligi λ, Vt/(m·°S)	Siqilishdagi mustahkamligi MPa
0	570	0,0038	21	0.172 100	2,3
4	572	0,0042	21.4	0.162	2,5

				94	
6	578	0,0045	21.8	0.155 90	2,7
8	585	0,0048	22	0.150 87	2,9
10	585	0,0053	22.7	0.135 78	3,2
12	600	0,0053	22.4	0,142 83	3,18
15	605	0,0052	22.1	0.147 85	3,1




3-rasm. Ko‘pikbetonning konstruktiv sifat koeffitsienti (KSK)ga KDj-3SMB qo‘shimchasini ta’siri

koeffitsientini 21%gacha, konstruktiv sifat ko‘rsatkichini 1,5 barobargacha oshirishga imkon yaratadi.

KDj-3SMB qo‘shimchasining ko‘pikbetonning xususiyatlarigi bunday ijobiy ta’sirini betondagi tartibsiz joylashgan g‘ovaklar va ochiq kapillyarlar o‘rniga sferik shakldagi bir xil taqsimlangan mayda g‘ovaklar turkumi vujudga kelishi, berk g‘ovaklar ulushini oshishi, g‘ovaklararo devorlarning qalinlashishi bilan tushintirish mumkin.

O‘tkazilgan tadqiqotlar natijalarisida issiqlik tejamkorligi bo‘yicha standart [GOST 25485-89. G‘ovakdor beton. Texnik shartlari”] tomonidan belgilangan meyordan 25-30% yuqori bo‘lgan ko‘pikbeton namunalari olindi.



4-rasm. Ko‘pikbetonning issiqlik o‘tkazuvchanlik koeffitsent (λ)ga KDj-3SMB qo‘shimchasini ta’siri

Bu o‘z navbatida loyihalash bosqichida teplofizik xususiyatlarga ega qurilish materiallarini yaratish muammosini hal qilish, jumladan ko‘pikli beton buyumlarning issiqlik o‘tkazuvchanligini pasaytirish va

buyumlarning issiqlik o‘tkazuvchanligini belgilashning ishonchli usullarini ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega.

Ko‘pikbetonning sovuqqa chidamligiga kompleks kimyoviy qo‘shimchasini ta’siri

Qurilish materiallari, shu jumladan sement betonlarining sifatini belgilaydigan ko‘rsatkichlar orasida ularning sovuqqa chidamliligi alohida ahamiyatga ega.

Markaziy Osiyo respublikasi iqlimida ishlatiladigan betonning zarur bo‘lgan sovuqqa chidamliligini ta’minlash muammosining ahamiyati va murakkabligi shundan dalolat beradiki, past va yuqori harorat va o‘zgaruvchan namlik ta’sirida beton va temir-beton konstruksiyalarning barvaqt yemirilishidan har yili xalq xo‘jaligiga yetkazilgan zarar o‘n million dollarlarni tashkil etadi.

Shuning uchun ko‘pikbetonning sovuqqa chidamliligiga ta’sir etuvchi omillarni o‘rganish zamonaviy betonshunoslikning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Tadqiqotlarimiz qo‘shimchasiz va KDj-3SMB qo‘shimchasi 8;10 va 12 %, qo‘shilgan 10x10x10sm ko‘pikbeton namunalarining sovuqqa chidamliligini aniqlash bo‘yicha olib borildi. Qo‘llanilgan ko‘pikbetonning tarkibi va xossalari haqidagi ma’lumotlar 7-jadvalda berilgan.

7–jadval

Ko‘pikbetonning tarkibi

KDj-3SMB, %	Xom-ashyo materiallari				
	Sement, kg	Qum, kg	Suv, l	PB- 2000, kg	ASM, %
0	330	175	115	1,1	2
4	330	175	107	1,1	2
6	330	175	102	1,1	2
8	330	175	95	1,1	2
10	330	175	92	1,1	2
12	330	175	89	1,1	2
15	330	175	86	1,1	2

Ko‘pikbetonning sovuqqa chidamliligi bo‘yicha sinovlar «Gidroproekt» AJning qurilish materiallari laboratoriyasida pasayishi GOST 10060-2012 «Beton. Sovuqqa chidamliligini aniqlash usullari» ning ikkinchi usuli talablari bo‘yicha namunalarni natriy xloridni 5% eritmasida shimdirish va eritish orqali aniqlandi.

Sinov uchun har bir tarkibdan 6 ta nazorat va 18 ta asosiy namunalar olindi. Asosiy namunalar muzlatish va eritish sinklaridan so‘ng, nazorat namunalar esa asosiy namunalar sinashdan avval siqilishdagi mustahkamlik chegaralari aniqlandi.

Asosiy namunalar quyidagi rejim bo‘yicha muzlatib va eritildi:

-2.5 soat minus 18±2°S haroratda muzlatildi.

-2.0±0.5 soat davomida natriy xlorid eritmasida, 18±2°S haroratda eritildi.

Namunalar 30 marta muzlatish va eritish sikllaridan so‘ng siqilishga sinaldi.Sinov natijalari 8–jadvalda berilgan.

8–jadval

Kompleks kimyoviy qo‘shimchali ko‘pikbeton namunalarini sovuqqa chidamlikka sinash natijalari

Tar-kib raqa-mi	KDj-3SMB %	Ko‘pikbeton namunalarining xususiyatlari				
		Sinashdan keyingi o‘rtacha mustah-kamlik	Sinashdan avvalgi o‘rtacha mustahkamlik	Muzlatish va eritishdagi yo‘qotish,%		Sovuqqa chidamlilik
				Massa	Mustah-kamlik	
1	-	2,18	2,3	4,1	5,1	$F_1$35
2	4	2,39	2,5	3,7	4,3	$F_1$35
3	6	2,59	2,7	3,2	3,9	$F_1$35
4	8	2,81	2,9	2,6	3,2	$F_1$35
5	10	3,13	3,2	1,4	2,1	$F_1$35
6	12	3,11	3,18	1,8	2,3	$F_1$35
7	15	3,02	3,1	2,1	2,5	$F_1$35

8-jadval ma’lumotlari 30 marta muzlatish va eritish sikllariga barcha tarkibdagi ko‘pikbeton namunalari yaxshi bardosh berganliklaridan dalolat beradi. Sinov jarayonidagi namunalarning massasi va mustahkamligini pasayishi GOST 10060-2012 «Beton. Sovuqqa chidamliligini aniqlash usullari»ning me’yor talablariga to‘liq javob beradi hamda sovuqqa chidamlilik bo‘yicha $F_1$35 markaga mos keladi.

Turar-joy binolarini konstruktiv ekologik loyihalash asoslarini takomillashtirish va energiya samaradorligini oshirishning KDJ-3SMB kompleks kimyoviy qo‘shimchasi bilan modifikatsiyalangan ko‘pikbetonni qo‘llashning texnik-iqtisodiy samaradorligi

KDj-3SMB kompleks kimyoviy qo‘shimcha qo‘shilgan ko‘pikbetonning yuqori fizik-mexanik ko‘rsatkichlari sementni kam sarflash bilan teng mustahkamlikka ega bo‘lgan ko‘pikbeton olishning asosi bo‘lib xizmat qildi.

KDj-3SMB kompleks kimyoviy qo‘shimcha sement sarfining pasayish kattaligini aniqlash uchun turli sement miqdorlarida ko‘pikbetonning ustida tajribalar o‘tkazildi. Normal nam qotishda turli x illardagi ko‘pikbetonlar uchun teng mustahkamlikka ega bo‘lgan kompleks kimyoviy qo‘shimcha bilan modifikatsiyalangan ko‘pikbeton olish maqsadida sement sarfini 15-25% gacha kamaytirish mumkin.

KDj-3SMB kompleks kimyoviy qo‘shimcha qo‘llashning texnik-iqtisodiy samaradorligi va mazkur samaradorlikni ishlab chiqarishda tekshiruvdan o‘tkazish. Polimer minerallar asosida ishlab chiqilgan KDj-3SMB kompleks kimyoviy qo‘shimchani qo‘llashning iqtisodiy samaradorligini baholash modifikatsiyalangan ko‘pikbetonning tannarxini taklif etilayotgan kimyoviy qo‘shimchasiz analogik ko‘pikbetonlarning tannarxi bilan taqqoslashni nazarda tutadi.

9-jadval

Ko‘pikbeton olish uchun sement sarfining pasayish kattaligini aniqlash.

t/r	Materiallar tarkibi, kg/m^3					Kompleks KDj-3SMB qo‘shimchasi %	Ko‘pikbetonning siqilishdagi mustkamligi (MPa), kunlarda	
	Sement	sement sarfining pasayishi %	Qum	Penokon-sentrakt	suv		1 kunlik	28 kunlik
	330	-	175	1,1	115	-	0,48	2,3
	330	-	175	1,1	94	10	0,6	3,2
	297	-10	175	1,12	92	10	0,57	3
	280	-15	175	1,15	90	10	0,55	2,8
	264	-20	175	1,2	88	10	0,52	2,6
	250	-25	175	1,25	86	10	0,49	2,35

KDj-3SMB kompleks kimyoviy qo‘shimchani qo‘llashning texnik-iqtisodiy samaradorligi va mazkur samaradorlikni ishlab chiqarishda tekshiruvdan o‘tkazish. Polimer minerallar asosida ishlab chiqilgan KDj-3SMB kompleks kimyoviy qo‘shimchani qo‘llashning iqtisodiy samaradorligini baholash modifikatsiyalangan ko‘pikbetonning tannarxini taklif etilayotgan kimyoviy qo‘shimchasiz analogik ko‘pikbetonlarning tannarxi bilan taqqoslashni nazarda tutadi.

Zavodda KDj-3SMB kompleks kimyoviy qo‘shimcha qo‘shish bilan temirbeton buyumlarini ishlab chiqarish sohasida ularni yuqori mustahkamlikka ega bo‘lgan holatda chiqarishda bog‘lovchini tejash imkonini beruvchi ko‘pikbetonning tarkibi ishlab chiqildi. Zavod sharoitlarida ko‘pikbetonni ishlab chiqarishda qo‘llanadigan materiallarning tarkibi va bu materiallarning tannarxlarini hisoblash natijalari 10-jadvalda keltirilgan bo‘lsa, tadbiq etishga taklif etilayotgan ko‘pikbetonniki esa 10-jadvalda keltirilgan.

10-jadval

D600 sinfli 1 m^3 ko‘pikbetonga zavod sharoitlarida qo‘llanadigan materiallarning sarfi va tannarxlari

Materiallarning nomi	**O‘l. birl**	**1 m^3 ga ishlatiladigan me’yoriy sarf**		**Narxi (QQS), so‘m.**	**Bahosi, so‘m**	
		Qo‘shimchasiz	Qo‘shimchali		Qo‘shimchasiz	Qo‘shimchali
Sement PS 400	kg	330	250	700	231000	175000

D20						
qum fr. 0-5	kg	175	175	40	7000	7000
Ko‘pik hosil qiluvchi	kg	1,1	1,2	25000	27500	30000
KDJ-3SMB qo‘shimchasi	kg		25	1300		32500
Jami:					265500	244500

XULOSA:

Kompleks kimyoviy qo‘shimcha qo‘llashda 1m^3 ko‘pikbeton uchun sement sarfini pasaytirishdan erishiladigan iqtisodiy samara 21000 so‘mni yoki 0,03m^3 hajmdagi 1 ta buyum uchun 777,78 so‘mni tashkil etdi. 540 ta ariqcha-taroqli bloklardan iborat chiqarilgan tajriba partiyasi uchun iqtisodiy samara 420000 so‘mni tashkil etdi. Bunda buyumlarning sovuqqa bardoshlilik va suv o‘tkazmaslik xususiyatlarining sezilarli darajada oshganligi texnik-iqtisodiy samaradorlikni aniqlashda inobatga olinmadi. KDj-3SMB kompleks kimyoviy qo‘shimchaning tadqiqotlar orqali olingan ba’zi konsentratsiyalari ishlab chiqarish sharoitlarida aprobatsiyadan muvaffaqiyatli o‘tdi.

Kompleks kimyoviy qo‘shimcha KDj-3SMB ishlab chiqarish tekshiruvidan muvaffaqiyatli o‘tdi. Ko‘pikbetonning umrboqiyligini oshirish uchun kompleks kimyoviy qo‘shimchalarni qo‘llash maqsadga muvofiqdir.

Zavod sharoitlarida ko‘pikbeton ariqcha-taroqli bloklari ishlab chiqarishda tadqiq qilinayotgan qo‘shimchalarni qo‘llashdan kutilayotgan iqtisodiy samara 1 m^3 beton uchun 28 000 so‘mni tashkil etishi mumkin. Agarda zavod bir kunda 20 m^3 ko‘pikbeton ishlab chiqarishda tadqiq qilinayotgan qo‘shimchalarni qo‘llashdan kutilayotgan iqtisodiy samara 420 000 ming so‘m tejab qoladi.

KDj-3SMB kompleks kimyoviy qo‘shimchali ko‘pikbeton ariqcha-taroqli bloklari ishlab chiqarish sohasida ularni yuqori mustahkamlikka ega bo‘lgan holatda tayyorlashda bog‘lovchini tejash imkonini beruvchi ko‘pikbetonning tarkibi ishlab chiqildi. ko‘pikbetonning yillik ishlab chiqarishda KDj-3SMB qo‘llashdan kutilayotgan iqtisodiy samara 134 400 000 so‘m.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sattorov, Z. M. (2018). Ekologiya. *Darslik Toshkent,«Sano-standart*. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=RLhcbSIAAAAJ&citation_for_view=RLhcbSIAAAAJ:qxL8FJ1GzNcC

2. Samigov, N. A., Djalilov, A. T., Karimov, M. U., Sattorov, Z. M., Samigov, U. N., & Mirzayev, B. Q. (2019). Physical and chemical researches of the relaxol series of cement composition with complex chemical additive KDJ-3. Scientific-technical journal, 23(4), 71-77. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=RLhcbSIAAAAJ&citation_for_view=RLhcbSIAAAAJ:0EnyYjriUFMC

3. Sattorov, Z. M., & Mamatov, V. S. (2022). Research on phosphogips waste utilization in the building materials industry. In Инвестиции, градостроительство, недвижимость как драйверы социально-экономического развития территории и повышения качества жизни населения (pp. 80-91).
https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=RLhcbSIAAAAJ&citation_for_view=RLhcbSIAAAAJ:u5HHmVD_uO8C

4. Саттаров, З. М., & Холмирзаев, С. Т. (2014). Производство строительных материалов с использованием промышленных отходов.
https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=RLhcbSIAAAAJ&citation_for_view=RLhcbSIAAAAJ:roLk4NBRz8UC

5. Tajibaev, J., Elmurodov, S., Matniyazov, Z., Sattorov, Z., & Rahimboyev, N. (2022). The Significance of the National Architectural Style in the Development of Design-Code Rules for the Historical Centers of the City of Bukhara. *Journal of Architectural Design*, *13*, 28-32.
https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=RLhcbSIAAAAJ&citation_for_view=RLhcbSIAAAAJ:ULOm3_A8WrAC

6. Отажонов, О. А., & Сатторов, З. М. (2022). Влияние золы на характеристики и долговечность бетона. In *Актуальные проблемы строительства, ЖКХ и техносферной безопасности* (pp. 190-194).
https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=RLhcbSIAAAAJ&citation_for_view=RLhcbSIAAAAJ:W7OEmFMy1HYC

4-расм. Оқим демпферининг ўрнатилиши.


4. Созланган Масс Демпфер (Tuned mass damper).



5-расм. Созланган демпфер қурилмасининг схемаси

Созланган Масс Демпфер (ТМД), шунингдек, тебраниш ютгичлари ёки тебраниш демпферлари сифатида ҳам танилган, зилзила каби кучли латерал куч ҳар доим тебраниш амплитудасини мақбул даражага камайтириш учун структуранинг маълум бир жойига ўрнатилган пассив бошқарув мосламаси..

Созланган оммавий демпферни қўллаш ноқулайлик, шикастланиш ёки тўғридан-тўғри структура бузилишининг олдини олади. Улар кўпинча электр узатишда, автомобилларда ва баланд биноларда қўлланилади.



6-расм. Созланган демпфер қурилмасининг ишлаш ва ўрнатилиш схемаси.


5. Металл пайвандли демпфер (Metallic yielding dampers).

Чидамли демпфер ёки металл ҳосил қилувчи энергияни йўқотиш мосламаси ёки пассив энергияни йўқотиш мосламаси осонгина олинадиган металл ёки қотишма материалдан ишлаб чиқарилади.

У энергияни пластик деформацияси (металл қурилманинг чиқиши) орқали тарқатади, бу тебраниш энергиясини айлантиради ва натижада асосий структуравий элементларнинг шикастланишини камайтиради. Ишлаб чиқариш демпферлари тежамкор, самарали ва яхши энергия тарқатувчи эканлиги исботланган.




7-расм. Металл пайвандли демпферининг қаватлараро ўрнатилиши.



8-расм. Металл пайвандли демпферининг ишлаш схемаси.

6. Магнит демпфер (Magnetic damper).

Магнит демпфер иккита рафт, иккита пинион, мис диск ва магнитларидан иборат. Ушбу турдаги амортизатор қиммат эмас ва ҳароратга боғлиқ эмас. Магнит дампинг куч эмас, шунинг учун у камроқ дампингни талаб қиладиган динамик тебраниш абсорберларида самарали бўлади.



9-расм. Магнит демпферининг схематик кўриниши

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

1. Chandnani D., Joshi R., Trivedi K. Characteristics & applications of different types of dampers as seismic energy dissipater //Int J Comput Sci Netw. – 2016. – Т. 5. – №. 2. – С. 369-372.

2. Kamalov B. THE PRINCIPLE OF UNIFORM DISTRIBUTION OF SEISMIC FORCES, WHICH CAN BE ACHIEVED THROUGH SYMMETRICAL AND UNIFORM DISTRIBUTION OF MASSES AND UNITS IN THE PLAN VIEW OF BUILDINGS //INTERNATIONAL CONFERENCES. – 2022. – Т. 1. – №. 7. – С. 155-158.

3. Kamalov B. SIZE-PLANNING AND URBAN PLANNING OF BUILDINGS IN SEISMICALLY ACTIVE REGIONS REQUIREMENTS FOR SOLUTIONS //Results of National Scientific Research International Journal. – 2022. – Т. 1. – №. 6. – С. 556-562.

БИНОЛАРНИНГ ЗИЛЗИЛАБАРДОШЛИЛИГИ

т.ф.н. доц., М.М. Бахрамов., А.Х. Аҳмадалиев.
Фарғона Политехника институти. Ўзбекистон.

Аннотатация: Ушбу тезисда сейсмик худудларда қуриладиган бино ва иншоотларни зилзила таъсирида асосларини нотекис чўкиши, заминда ҳосил бўладиган деформациялар ва бино ва иншоотларнинг асосларини нотекис чўкишига қарши чора тадбирлар ҳақида маълумотлар келтирилган.

Калит сўзлар: деформация, чўкиш, замин, бино ва иншоотларга таъсир этувчи сейсик юк, зилзилавий худудларда бино ва иншоотларни лойиҳалаш.

Маълумки зилзила содир бўладиган худудларда қурилиш олиб боришда махсус меоёрларга амал қилиш керак [1]. Амалдаги меоёрларда сейсмиклиги 7, 8, 9 ва ундан ортиқ бўлган худудларда қуриладиган бино ва иншоотларни лойиҳаалаш ва кўриш жараёнида уларга қўйиладиган талабарни белгилайди.

Тез-тез зилзила содир бўладиган худудларда қуриладиган бинолар ишлатилиш муддати давомида зилзилабардошлик талабларига жавоб бериши керак. Бундай талаблар қуйидагилардан иборат:

а) одамларнинг хавсизлигини таъминлаш, қиммат бахо буюм ва ашёларни сақлаб қолиш;

б) хисобий зилзила кучи таъсир этганда бинони бемалол ишлашини таъминлаш;

“Зилзилавий худудларда қурилиш” (КМК 2.01.03 - 19) меоёрий хужжатда сейсмик худудларда қурилишни меъёрлаш қоидалари ишлаб чиқилган бўлиб мамлакатимизда қурилаётган барча бино ва иншоотлар, шу меъёр талаби асосида бўлиши шарт.

Биноларни лойиҳаалаш ва мавжуд биноларни таъмирлаш жараёнида қурилиш олиб бориладиган худудни сейсмологик ҳолати хисобланишида қуйидагилар хисобга олинади;

1)Сейсмик таъсирнинг эхтимолий кучи ва замин тебранишлари тезланишини;

2) Сейсмик таъсирларнинг такрорийлиги;

3) Замин сейсмик тебранишларнинг спектрал таркибини.

Сейсмик кучларнинг таъсири ва такрорийлиги ўртача сейсмик хоссага эга бўлган грунтлардан ташкил топган майдонлар учун тўғри келади.

Қурилиш майдончасининг сейсмиклиги ихтисослаштирилган илмий-тадқиқот институтлари [2,3] изланишлари натижасида сейсмиклиги 6 балл ва ундан юқори бўлган худудлар учун тузилган сейсмик микротуманлаштириш карталар ва хужжатлари асосида белгиланади.

Грунтларни сейсмиклик тоифасига кўра, уларда содир бўладиган сейсмик баллар миқдорини, туманнинг сейсмиклигига қараб ва муҳандислик-геологик изланиш натижалари асосида махсус жадваллардан олинади.

Сейсмик худудлардаги чўкувчан грунтларда қуриладиган биноларнинг пойдеворлари доимий, узоқ муддатли, қисқа муддатли юклар таъсиридан ташқари махсус юклар таъсирига яъни - заминни чўкиши ва сейсмик юк таъсирига хисобланиши лозим. Замин ва пойдеворларни лойиҳаалашда албатта махсус юк деб караладиган чўкиш ва сейсмик юкнинг бир вақтдаги таъсирини хисобга олиш тавсия этилади. Бу ўз навбатида бино тузилишини мураккаблашувига сабаб бўлади, шунинг учун бу икки таъсирдан ҳосил бўладиган юкланишни иложи борижа камайтириш чорасини кўриш керак, Зилзилага қарши яъни сейсмик юкни камайтирувчи махсус конструктив чоралар қурилади холос. Пойдеворларнинг чўкишини олдини олиш мақсадида чуқур ўрнатиладиган пойдеворлардан фойдаланилади. Шунда чўкиш сабабли ҳосил бўладиган махсус юклар деярли нолга айланиб қолиши мумкин. Ушбу чора амалга оширилганда бинога таъсир этувчи ягона махсус юк сейсмик юк колади холос.

Амалда грунтни чўкишидан ҳосил бўладиган ва сейсмик юкнинг бир вақтдаги таъсири эхтимоли жуда кам бўлгани сабабли бу юклардан хисоблаш алоҳида-алоҳида бажарилиши мумкин, сунгра юклар туплами тузиш қоидасига мувофиқ нокулай юк танлаб олинади.

Турар жой бинолари ва йирик биноларни 8-9 балли зоналарда кўришда агар бино асоси 20-40 см гача чўкиш берса биноларни конструктив тузилишига таъсири хафли булмайди ва металл сарфи кўп бўлмаслиги исботланган. [13,14,20]

Агар асосда чўкиш 20-40 смдан ортиб кетса, бундай чўкишдан ҳосил бўладиган қўшимча зурикишларга қаршилик кўрсатувчи қўшимча чоралар қурилади, яони заминга қўшимча арматуралар ёт қизилади. Бундан келиб чиққан ҳолда бинони хусусий оғирлигидан ҳосил бўладиган чўкишларни 20-40 см ортмайдиган ҳолда лойиҳаалаш чоралари қурилади.

АДАБИЁТЛАР

1. Рекомендации по проектированию оснований и фундаментов зданий и сооружений, возводимых в сейсмических районах. Стройиздат. М., 1975.
2. Мавланов Г.А., Хасанова Х.А. - Инженерно-геологические свойства лассовқх пород Узбекистана. Изд-во “ФАН”. Ташкент,1974.
3. Расулов Х.З. Сейсмостойкость лессовых оснований зданий и сооружений. Изд-во “Узбекистан”. Ташкент, 1977
4. Крутов В.И. Основания и фундаменты на просадочных грунтах. Изд-во “Будівельник”. Киев, 1982.
5. Абелев Ю.М., Абелев М.Ю. Основқ проектирования и строительства на просадочных макропористых грунтах. 2-е изд. перераб. и доп. М., Госстройиздат,1968.
6. Цитович Н.А. Механика грунтов. М., Госстройиздат. 1963.

УДК 712.2

ШАҲАР ОЧИҚ МАЙДОНЛАРИДА ЛАНДШАФТ ТАШКИЛ ЭТИШНИНГ ТУРИЗМДАГИ АҲАМИЯТИ

Ш.Ф. Қосимова., К.Н. Набиев.


Фарғона политехника институти, Ўзбекистон

Аннотация: *Ушбу мақолада мамлакатимиздаги мавжуд очиқ турдаги майдонларни, чет эл майдонларини тахлил қилган холда олинган маълумотларга асосланиб янгиликлар киритиш ҳақида сўз боради, ҳамда туризимни ривожлантириш масалалари ёритилган.*

Калит сўзлар: *эстетик жозибадорлик, соя-салқин масканлар, иқтисодиёт, тарихий обидалар, шарқона бозорлар, миллий ошхоналаримиз, музей, кўргазма заллари, ландшафт дизайни элементлари, ёритгич мосламалари, ўриндиқлар, ер ёпма ашёлар, аҳлатдонлар, бекатлар, сув қурилмалари, ҳайкалтарошлик намуналари*

Аҳоли меҳнат қилиш ва дам олиш ҳуқуқига эга. Бу ҳуқуқ бахтимиз қомуси-Қонституциямизда белгилаб берилган. Шундай экан,шаҳарларда иш ўринлари билан бирга дам олиш масканларини ҳам шакллантириш давр талабига айланиши табиий.

Шаҳардаги очиқ майдонлар бўлмиш бульварлар, аллеялар, ҳиёбонлар, бинолар олдидаги майдонлар, йўл четидаги яшил ҳудудлар, каналбўйи ҳудудлари, меъморий мажмуалар ҳудудлари кўринишида намоён бўлади. Очиқ муҳитларни ландшафт ташкил этиш орқали бир вақтнинг ўзида бир қанча масалалар ўз ечимини топади. Бу масалалар сирасига кўкаламзор ҳудудларнинг экологик муҳитни яхшилашга хисса қўшишини, ҳавони кислородга тўйинтиришини, эстетик жозибадорликни оширишини, аҳоли дам олиш масканларининг барпо этилишини киритишимиз мумкин. Шунингдек, шаҳарда жазирама иссиқ пайтида соя-салқин масканларнинг мавжуд бўлиши эса нафакат шаҳар аҳолиси, балки меҳмонлар учун ҳам қулайлик яратади [1].



Махачкаладаги шаҳар майдони




"Place de la Concorde" - Парижнинг марказий майдони

1-расм. Чет элдаги очик майдонлар

Мамлакатимиз иқтисодиёти жадал суръатларда ривожланаётган ҳозирги даврда иқтисодиётнинг муҳим тармоқларидан бири бўлмиш туризм ҳам тез ривожланмоқда. Сайёҳлар учун меҳмонхоналар, тарихий обидалар, шарқона бозорлар, миллий ошхоналаримиз, музей ва кўргазма залларидан ташқари бўш вақтда дам олишга мўлжалланган очиқ муҳитларнинг мавжудлиги ҳам ниҳоятда муҳимдир. Бундай муҳитларни тўғри ташкил этишда ландшафт дизайни элементларидан унумли ва тўғри фойдалана билиш ниҳоятда муҳим. Ёритгич мосламалари, ўриндиқлар, ер ёпма ашёлар, аҳлатдонлар, бекатлар, сув қурилмалари, ҳайкалтарошлик намуналари, ўсимликлар ландшафтни шакллантиришда муҳим ўрин тутади. Ушбу элементларнинг ҳам анъанавий, ҳам замонавий, инновацион кўринишларидан ўз ўрнида фойдаланиладиган бўлса, шаҳарларнинг қиёфаси янада бетакрор бўлади. Бу борада ҳам жаҳон тажрибасидан унумли фойдаланилмоқда. Пойтахт Тошкент, вилоят марказлари, туман марказлари, тарихий шаҳарларимизда кўпдан-кўп яшил масканлар ташкил этилди [2].



Мусталлик майдони



Шовот канал бўйи

2-расм. Тошкент шаҳридаги кўкаламзор ҳудудлар

Мамлакатимизда иссиқ об-ҳаво деярли 9 ой ҳукм суришини назарда тутадиган бўлсак, ландшафт ташкил этилган ҳудудларнинг аҳоли учун қанчалик зарурлигини хис этамиз. Шундай экан, бу соҳани мукаммал эгаллаган мутахассисларни тайёрлаш долзарб масалага айланади. Тошкент ва Самарқанд архитектура мактаблари билан бир қаторда бир қанча вилоят марказларида фаолият юритаётган архитектура факультетлари, Турин политехника институти, Тошкентдаги Ёджу техника институти малакали ландшафт архитекторлари ва

ландшафт дизайнерларини тайёрлаб бермоқдалар. Ишонамизки, бу соҳада бундан кейин ҳам кўплаб ишлар амалга оширилади ва шаҳарларимиз янада гўзал ва жозибали бўлади.

Хулоса. Маълумки,ландшафт архитектураси Ўзбекистон шаҳарсозлигида муҳим роль ўйнайди. Ҳудудларни ландшафт ташкил этиш орқали биз шаҳар ва қишлоқларимизнинг янада қулай ва жозибадор бўлишига эришамиз. Шаҳар ҳудудида турли кўринишдаги очиқ муҳитлар мавжуд бўлиб,уларни ландшафт архитектураси ва ландшафт дизайни қонуниятлари асосида тўғри ташкиллаштирилса,шаҳарларимиз кўркига кўрк қўшилади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Bell, S., Tyrväinen, L., Sievänen, T., Pröbstl, U., & Simpson, M. (2007). Outdoor recreation and nature tourism: A European perspective. *Living Reviews in Landscape Research, 1*(2), 1-46.
2. М.А.Содиқова, М.А.Талипов. (2015). Шаҳар ландшафтини ташкил этиш. Тошкент.

UDK: 66.013.51

SAMARQAND VA TOSHKENT TURAR- JOY BINOLARINING KOMPOZITSION YECHIMLARI

Sh.F. Qosimova., M. Abdusamatov.
Farg‘ona politexnika instituti, O‘zbekiston .

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Toshkent va Samarqand turar-joylarining qurilishining o‘rni, me’morchiligi yoritib berilgan. Turar-joy maydoning funksional vazifasiga qarab joylashishi va ularning rejaviy echimlari, konstruksiyasi haqida so‘z boradi. Toshkent turar-joy me’moriy echimlarini Samarqand turar-joy me’moriy tuzilmasidan qay jihatlari bilan farqlanishi yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *ko‘chalar arxitekturasi, boloxona, tagsupa, inter’yer, tokchalar, qo‘sh sinchli, shift, devorlar ganch o‘ymakorligi, peshtoq, kompozitsiya, geometrik shakllar*

O‘rta Osiyo xalq turar joylari arxitekturasida Samarqand va Toshkent uysozligi alohida o‘rin tutadi. Bu ikki shahar me’morchiligidagi umumiylik shundan iboratki, turar joy binolari ko‘chalar arxitekturasining shakllanishida muhim o‘rin tutgan. Uylarning ko‘pchiligi ikki qavatli qilib qurilgan. Ikkinchi oshyonasidagi boloxona birinchi qavat devoridan birmuncha oldinroqqa chiqarilib, uzun ayvoncha galereya shaklida qurilgan. Bundan tashqari xonalarning joylashuvida ham umumiylik bor. Chunonchi bularda yashash xonalariga kirish o‘rtada joylashgan ayvon orqali bo‘lgan.

Samarqand va Toshkentda dolonlar garchi Buxoro uy-joylarida bo‘lgani singari ko‘p bo‘lmasada, ba’zi joylarida sharoit taqozosiga ko‘ra bunyod etilgan. Ayrim hollarda dolon o‘rniga usti yopiq yo‘lak (Buxoroda “rahrav” deyiladi) qurilgan. Toshkentda madon o‘rnida yordamchi xona-qaznoq (hujra ham deyiladi) qurilgan. Tashqari hovlilarda og`il va sayisxona (otxona) yonida hamda ichkari hovlida oshxona hamda hojatxona oldida bostirmalar qurilgan. Bu tip uylarining barchasi poygak (poygoh)dan boshlangan. Poygak bu oyoq kiyimlarning echish joyi bo‘lib xonalar hamda dahliz sahnidan bir muncha pastroq, chuqurroq qilib qurilgan va u erda qo‘l yuviladigan maxsus joy-tashnav bo‘lgan. Ikkinchi qavatda boloxonalar va ayvonlar qurish odat bo‘lgan va u asosan er tanqisligidan hamda mahalliy iqlim sharoitidan kelib chiqqan. Chunki boloxonalik uylarning birinchi qavati tomi oftob turi ta’sirida qizimagani va hovlida kengroq soya turganligi tufayli yozda salqin bo‘lgan [1].

Samarqand xalq qurilishi san’atida to hanuzgacha uzun hamda katta va keng ayvon qurish odati saqlanib kelmoqda. Ko‘pgina hollarda bu ayvonlar xonalardan ajratilgan holda hovuz labida yoki ancha balandlik tagsupa ostida qurilgan. Ayvon erdan to 2 metr balandga qurilib, uning tagida omborxona va shunga o‘xshash qo‘shimcha xonalar barpo etilgan hollar ham uchraydi.

Samarqand me'morchilik maktabi turar joylarning o'ziga xos tipini yaratdi. Imoratlar bir yoki ikki hovlili uylardan iborat bo'lgan. Qurilish ishlari er uchastkasining shimoliy qismida barpo etilgan. Uy asosini ayvon va uning ikki yonidagi xona tashkil etgan. Ba'zida tashqari ikki qavatli qilib barpo qilingan. Yashash xonalari to'sinlar bilan yopilgan hamda xo'jalik xonalari esa bo'yra bilan berkitilgan. Inter'yerda kundalik turmushga oid jihozlar uchun tokchalar ishlangan. Samarqand turar-joylaridagi xonalarda ikki devor orasi bir sinchli qilib qurilgan. Toshkent yoki Farg`ona vodiysidagi bu kabi xonalar bilan solishtirganda tokchalar soni nisbatan kam bo'lganligini ko'rish mumkin. Asosiy xonalar devorlari va shiftlari rang-barang naqshlar bilan bezatilgan.

Samarqand turar joylarining tarhi bir yoki ikki xona va ensiz dahlizdan iborat ekanligini ko'rish mumkin. Bir ustunli ayvon burchakka yoki xonalarning ko'ndalangiga joylashtirilgan. Xona devorlari yakka yoki qo'sh sinchli qilib qurilgan, devorlardagi tokchalar soni Farg`ona va Toshkent uylaridagiga nisbatan kam sonli hisoblanadi. Samarqand uylari inter'yerida shift va devorlar ganch o'ymakorligi va naqshlar bilan bezatilgan. Bezaklar keng ommalashgan va juda ham qiziq.

Samarqand shahridagi hovli mehmonxonasini misol qilib oladigan bo'lsak, mehmonxonaning tashqi hovlida joylashganligining o'ziyoq uyning ko'cha tomoni peshtoqi husniga-husn qo'shadi, ya'ni tashqi hovli ikki qavatli bo'lib, birinchi qavati pishiq g`ishtdan qurilgan. Uning o'rta qismida ikki tabaqali katta darvoza o'rnatilgan. Ikkinchi qavatda esa ko'cha tomonga qaratib hovlining eni bo'ylab uzunasiga birinchi qavat devoridan 1,5 metr kenglikda o'ymakor ustunli ayvon chiqarilgan. Ikkinchi qavatdan birinchi qavatga tushgan soya uy ko'rinishini jonlantirib yuboradi. Qizig`i shundaki, quyosh harakati bilan soya ham o'zgarib, uyning ko'cha tomondagi peshtoqi har soatda o'zgacha husn kasb etgan. Ikkinchi qavatdagi ikkala xona va ayvon o'rtasi hovli bo'lib, tashqi hovlining ajoyib kompozitsiyaga erishuviga yordam beradi. Shu bilan birga tashqi hovliga ikkinchi qavatdan qaraganda u qasr singari salobatli va hashamatli ko'rinadi. Ikkinchi qavatda joylashgan mehmonxonaning yangi gilam, ko'rpacha, yostiq, sochiq va boshqa kerakli anjomlar bilan jihozlangan. Uyning shiftlari asosan qabza usulida yasalib, rangdor naqsh berilgan, devorlari ganchkor, eshiklariga bezaklar o'yilib, bog`dod uslubida yasalgan.

XIX asrning oxirlarida Samarqand me'morchiligida mehmonxona katta xonalarni o'z ichiga olgan. Uning tashqi qismi to'rida "shohnishin" deb ataladigan joy qilish odat tusiga kirgan. "Shohnishin" podshoh joyi demakdir. U uy polidan bir oz ko'tarilgan supachadan iborat bo'lib, hashamdor ustunlari bilan xonadan ajralib turgan [2].

Mehmonxonalar ikki xona va dahlizdan iborat bo'lgan taqdirda, "shoh-nishin" ikki xona o'rtasidagi dahlizning ustida - ikkinchi qavatga o'xshatib qurilgan. Bunday mehmonxonalar asosan Buxoroda keng qo'llanilgan. Shunday bo'lishiga qaramasdan Samarqand me'morchiligida mehmonxonaning ichki bezagiga Buxoro me'morchiligia qaraganda ko'proq e'tibor qaratilgan. Samarqand mehmonxonalarining shifti qabza usulida ishlangan bo'lib, u kishiga o'zgacha zavq bag`ishlaydi [3,4].

Mehmonxona to'sinlariga chizilgan gullar xona o'rtasiga qarab intilishi hamda vassalarga ishlangan gullarning ko'pligi sababli xona chirmashib ketgan gullar bilan yopib qo'yilgandek tuyuladi. Bunday gullar kittti g`ashiga tegmaydigan yashil, ko'k, qizil ranglar bilan bo'yalgan. Ular kishiga estetik zavq berishi bilan bir qatorda yozda xonaning salqin, qitttda. esa issiq tuyulishiga imkon yaratadi. Bunday qabza shiftlar O'zbekiston ning barcha shaharlari arxitekturasiga oid uslub hisoblanadi.

Samarqand shahrida xona devorlari ham bezaklar bilan jonlantirilgandek tuyuladi. Devorlarga turli bezaklar ishlangan. Ba'zi devorlarga ganchdan ishlangan barglarni va zamonaviylashtirilgan geometrik shakllarni 5 mm chuqurlikda va kenglikda biri yuqoriga, ikkinchisi pastga qaratilgan holda

sathdan bo‘rtirib ishlangan. Uning o‘rtasida ganchdan atirgulga o‘xshagan nusxa devor sathidan 3 mm bo‘rtirib ishlangan. Ana shu guldan bo‘rttirib chiqarilgan ingichka barg shohchalari yon tomonlardagi boshqa gullarga tutashtirilgan. Qizig`i shundaki, bu shohchalar, gullar va barglarning ko‘pligi sababli bir-biri bilan birikib jimjimador abstraktsiya hosil qilgan bu nusxa ajoyib ko‘rinitttga. ega bo‘lib, juda tiniq yuzani tashkil etgan. Buning sababi barglarning boshqa shoh, barg va gullarga nisbatan qalin va chuqurroq ishlanishi bo‘lsa kerak. Chunki katta barglar o‘z kengligi bilan boshqa gullardan ajralib turadi, ustiga-ustak ularning atrofi bo‘ylab tushgan soyasi ham qalinroq bo‘ladi.

Toshkent hovli-joylari bir-biriga sira o‘xshamaydigan bir necha turar joy bo‘laklarining yig`indisidan iboratdir. Yagonalik va yaxlitlik hovli-joylarning mutanosibliklarini ta’min etgan. Baland-past tiklangan uylar va mo‘ri uchidagi o‘ziga xos qalpoqchalar ravonlikka zid o‘laroq sho‘hchan qiyofa ta’min etgan.

Xulosa: Toshkent turar joy imoratlarida imorat fundamenti qilinmagan. Devorning pastki qalin qismi bir necha qavatli pishgan g`ishtdan qilingan. Devorning asosini yog`och-sinch tashkil etgan. Imorat qurilishiga mahalliy daraxtlardan mirza terak, ko‘k terak va tol yog`ochlari ishlatilgan. Deraza, eshik, panjaralar terak yoki chinor, yong`oq, qayrag`ochdan ishlangan. Pol loydan ishlangan, boy xonadonlarda esa pishgan g`isht ishlatilgan. Toshkent turar joylari ko‘rinishining ikki tipi keng tarqalgan. Birinchi tipdagi turar joylar to‘g`ri to‘rtburchak tarhli bo‘lib, quyi qavatida assimetrik tarzdagi kirish qismi va havo almashtirish tizimi yo‘lga qo‘yilgani bilan xarakterlanadi. Sinchli ikkinchi qavat yashash xonalarida oynalar o‘yib ishlangani bilan ajralib turadi.

Adabiyotlar

1. Ahmedov M.Q. O‘rta Osiyo me’morchiligi tarixi. - T.: O‘zbekiston , 1995. -B. 99-100.
2. Nozilov D. O‘rta Osiyo me’morchiligi va mehmonxonalar. - T.: O‘zbekiston , 1977. - B.7.
3. Манакова В.Н. Художественная культура народного жилиша Узбекистана. -Т.: Издательство литературм и искусства имени Гафура Гуляма, 1990. - Б.33.
4. Nozilov D. A. O‘rta Osiyo me’morchiligi va mehmonxonalar. – T.: O`zbekiston, 1977. - 24 b.

UDC 712.01

ARCHITECTURE AND LANDSCAPE OF FERGANA CITY

B.T. Tojiboyev., P.Q. Nabiyev.
Fergana Polytechnic Institute, Uzbekistan.

Annotasiya: *Ushbu maqola yangi O‘zbekiston ning zamonaviy shaharsozlik talablariga to'liq javob berilishini, sanoat zonalari, turar va noturar joylari, jamoat joylari, transport va transport vositalarining joylashuvi, shahar ekologiyasi, shahar landshafti va arxitekturasini qamrab oladi.*

Kalit so'zlar: *Sanoat zonalari, shaharsozlik, zamonaviylik, ekologiya, turar joylar, jamoat, landshaft echimlari.*

Abstract:*This article covers the full response to modern urban planning requirements of new Uzbekistan, industrial zones, residential and non-residential areas, public spaces, location of transport and vehicles, urban ecology, urban landscape and architecture.*

Key words: *Industrial zones, urban planning, modernity, ecology, residences, public, landscape solutions.*

The Republic of Uzbekistan has given each field considerable attention starting in the ear of independence. Modern city development, the establishment of amenities for people, the layout of residential high-rises, and urban design are a few examples. The Republic of Uzbekistan's Law No. 174-I on "Architecture and Urban Planning" was passed on December 22, 1995. Numerous opportunities have arisen during the implementation and execution of this law, and it was on this

basis that the national-state "Construction norms and regulations" were developed, taking into account the historical and cultural assets, climate, earthquake risk, and other general conditions unique to our territory. It is important to remember that urban development has received attention ever since the first ear of independence. The "New Uzbekistan" massif, which is being constructed in Fergana, is a prime illustration of this. [1]

A 4,000-seat amphitheater, a hotel, a sports complex, 300 high-rise buildings (from 7 to 25 stories), two secondary schools, three kindergartens, medical facilities, retail and household service centers, and a mosque are all located within the massif. Additionally, on a 50 hectare site, a small industrial zone will begin operations, resulting in the creation of 20,000 new jobs. [2]

On the 70-hectare area in the heart of the massif, a park called "New Uzbekistan" with an artificial lake will be constructed. Here, more than 10,000 saplings will be planted, with the goal of covering 56% of the entire land. There will be a total of 21,000 trees planted. This mountain range is referred to as "the greenest and ecological massif" in a sense.

There are several cities in Uzbekistan, including Toshloq district, Margilon, Yozyovon, and Quva, which arose as a result of the country's rapid industrial development and concurrent population increase. In the case of the city of Fergana, we can clearly discern the intricate manner of urban rehabilitation. The founder of the Babur dynasty, poet, historian, geographer, statesman, and skilled general Zahiriddin Muhammad ibn Umarshaikh Mirza (Babur), said about the Fergana region: "Fergana region is the fifth climate... Eastern Kashkar, gHe didn't just characterize Samarkand in the east, Badakhshan in the south, and the cities in the north as mountains for no reason. [3]

One of the major agricultural and industrial districts is the Ferghana Valley, also referred to as the jewel of Central Asia, which is situated in the upper Syr Darya.

Currently, the word "Ferghana" refers to both a city and a valley. Regarding its origin, various theories exist. Legend has it that the terms "land of fairies" and "fairy house" were combined to create it. In reality, Parkana was the historical name for the area ringed by tall mountains. Because of the swap of sounds, the word Parkana became Fergana.

Geographically speaking, a valley is a basin between two mountains. From the north and north-west, approach Qurama, Chotkal. The Aloy mountain ranges encircle Turkestan from the south. The basin becomes more condensed and joins Mirzachol in the west. Uzbekistan, Kyrgyzstan, and Tajikistan are the three republics with administrative control over the valley. Most of the residents are Uzbeks, Tajiks, and Kyrgyz.

In the past, the Ferghana Valley was renowned as the Davan state. The city of Ershi served as this ancient state's capital. The name Ershi is presently associated with the Mingtepa city, Marhamat district, and Andijan area.

The Fergana region's capital is Andijan. The massive citadel of this city in Movaraunnahr can only be compared to the fortifications of large cities like Samarkand and Kesh. Three gates are present. On the city's south flank, a stunning arch rises. An extensive moat surrounds the fortress. There is a busy neighborhood nearby. [4]

One of the finest states in American history is regarded as being this one. They have been farming here on the foothills of the Qurama and Qoramozor mountains for a very long time. The vulture horses that were produced in this valley have proliferated all over the world. Chinese emperors were particularly interested in the horses of this valley. They even gave the term "Celestial" to one of the horse breeds. "Heavenly horses" had power and dexterity. The material in the Chinese annals was supported by evidence discovered by archaeologists. Davan grew into a highly developed state in the II and I centuries BC thanks to its vast population, well-equipped military, and skilled police force.

Shorabashat and Uchkurgan residents, for example, have had remarkable success cultivating the land, raising wheat and rice, and growing grapes. Scientists believe that the Davan state fell in the third century AD. This state was known as Fergana at the start of the Middle Ages. The "Ixshid" were Ferghana's monarchs. Ferghana's plains are exceedingly fertile, and its citizens relied on farming to support themselves by sowing rice and cotton. A variety of handicrafts have grown in popularity both domestically and abroad thanks to the development of these industries in major central cities including Koson, Axsikat, and Quva. Exports to the surrounding nations included paint, colorful glass items, and pharmaceuticals. Sahibgiron Amir Temur's rule marked the rise of this state at the start of the Middle Ages. [5]



1-Picture. A teapot in the village of Zarkent

Tashloq district was established in the Fergana area in 1935.

It shares boundaries with Quva districts to the east, Quvasoy city to the southeast, Margilon city to the west, Qoshtepa, Yozyovon to the northwest, and Boz district of Andijan region to the northeast. There are 0.24 thousand km^2 there. As of October 1, 2021, there are 208,700 inhabitants, including 48,200 urban and 160,400 rural citizens.

The district, industrial zones, residential areas, public spaces, and transportation facilities are all flawlessly and logically designed in every way to provide the best working and recreational environments.

References.

1. Arxitektura va shaharsozlik to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasining Prezidentining farmoni. Toshkent sh., 1995-yil 22-dekabr, 174-I-son.
2. Boburnoma -Zahiriddin Muhammad Bobur.
3. Farhod Sultonov, Farruh Bozorboyev “O‘rta asrlar tarixi (O‘zbekiston tarixi)” (maktab, akademik litsey, kasb-hunar kolleji o‘quvchilari, abiturientlar va tarix fani o‘qituvchilari uchun qo‘shimcha qo‘llanma) Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti 2007
4. uz.wikipedia.org

UO`K 725.54

SHAHARSOZLIK MUXITIDA IMKONIYATI CHEKLANGAN INSONLARGA TO`SIQLAR VA ULARNI ARXITEKTURAVIY YECHIMLARI.

X.R. Radjabov.
Urganch davlat universiteti, O‘zbekiston

Anatatsiya. *Ushbu maqolada imkoniyati cheklangan kishilar uchun shahar muhitidagi noqulayliklar, qiyinchiliklar, to‘siqlar, ularni bartaraf etish yo‘llari va mumkin bo‘lgan shart-sharoitlarni yaratishning arxitekturaviy echimlari to‘g‘risida.*


Kalit so‘zlar. *“QMQ”, BMT, “SHNQ”, chegara(бордюр).*

Jismoniy yoki aqliy nuqsonlari borligi tufayli turmush faoliyati cheklanganligi munosabati bilan ijtimoiy yordam va himoyaga muhtoj bo‘lgan shaxs nogiron hisoblanadi. Shaxsning turmush faoliyati cheklanganligi uning o‘z-o‘ziga xizmat qilish, yurish, yo‘lni topa olish, muloqat qilish, o‘z xatti-harakatini nazorat etish, shuningdek mehnat faoliyati bilan shug‘ullanish qobiliyati yoki imkoniyatini to‘la yoxud qisman yo‘qotganligida ifodalanadi. Shaxsni nogiron deb topish tibbiy-

mehnat ekspert komissiyasi (TMEK) tomonidan O‘zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiriladi.[1]

“O‘zbekiston Respublikasida nogironlarni ijtimoiy himoyalash haqida”gi qonun me’yorlarining ijro etilishi ustidan nazoratni davlat huquqiy mehnat inspektorlari, O‘zbekiston Respublikasi mehnat va aholini ijtimoiy himoya qilish vazirligi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi mehnat va aholini ijtimoiy himoya qilish vazirligi, Toshkent shahri va viloyatlarning mehnat va aholini ijtimoiy himoya qilish bosh boshqarmalarining mehnat sharoitlari bo‘yicha davlat ekspertlari, bandlik va aholini ijtimoiy himoya qilishning ko‘mak beruvchi tuman va shahar markazlari amalga oshirishlari belgilangan. Hozirgi kunda imkoniyati cheklangan insonlar uchun shaharsozlik muhitida ko`plab to`siqlarni bartaraf etish maqsadida qilingan chora tadbirlar natijasida noqulayliklar ham kelib chiqmoqda. Yangi loyihalanayotgan piyodalar yo`llarining chetki qismlaridagi chegara(бордюр)larning yo`qligi ko`zi ojiz insonlarga shaharsozlik muhitida sun`iy ravishda noqulayliklar kelib chiqmoqda. Yuqoridagi muammolarni arxitekturaviy echimi sifatida quyidagi loyihaviy takliflarni taqdim qilaman. Nogironligi bo'lgan shaxs – ijtimoiy yordam va himoyaga, jamiyat va davlatning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy hayotida boshqalar bilan birga teng to'liq va samarali ishtirok etish uchun shart-sharoitlar yaratilishiga muhtoj barqaror jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan shaxs.[3]

Shaharsozlikda harakatda imkoniyati cheklangan, ayniqsa ko‘zi ojiz insonlar harakatlanishida qulaylik bo‘lishi uchun piyodalar o‘tish yo‘laklarida turli g‘adir-budir, yo‘laklar yuzasiga qoplangan insonga sezilarli lekin zararsiz qoplamalardan foydalanish yanada yaxshi samara berishi ko‘pgina chet ellar shaharsozligida o‘z tasdig‘ini topdi (1-rasm).[2]



1-rasm. Ko`zi ojiz va ko`rishida muammosi bor kishilar ehtiyojlari uchun piyodalar o`tish yo`lakchasini bunyod etishning lavhasi: 1 - piyodalar o`tish yo`li; 2 - ko`zi ojiz va ko`rishida muammosi bor kishilar uchun g`adir-budur yo`lakcha. Umumiy foydalanishga mo`ljallangan yo`lakcha.

Bugungi kunda mazkur me’yorlarga rioya qilmaganliklari uchun hammasi bo‘lib 40 000 ta tashkilotlarga jarima solingan, bu ko‘rsatkich mamlakatdagi barcha tashkilotlarning 4% ni tashkil etadi.


Bu borada monitoring olib borishni O‘zbekiston Respublikasi mehnat va aholini ijtimoiy himoya qilish vazirligi amalga oshiradi. Mazkur vaziyatda – Mehnat vazirligi, qo‘polroq aytganda, boshini devorga urmoqda. Aytish mumkinki, mavjud bo‘lgan qurilishlarni hammabop qilish, ya’ni ularga nogiron kishilarning etib borishini ta’minlash mumkin emas yoki katta muammoni yaratadi, masalan, metropolitenni bunga misol tariqasida keltirish mumkin. Lekin imkoniyatlari chegaralangan odamlar uchun ham moslashtirilgan yangi binolarni qurishga nima xalaqit qilayapti? Afsuski, yangi binolar xuddi qo‘ziqorin singari ko‘plab paydo bo‘lmoqda, lekin ularda ham oddiy panduslar xuddi avvalgidek yo‘q yoki nomiga bor halos.

Faqat 2012 yilning birinchi yarmida 8828 korxona va tashkilotlarda invalidlarning to‘sqinsizlik harakatlanishlari uchun sharoitlar mavjud emasligi aniqlandi, ular inspeksiyadan

[1] O'zbekiston Respublikasi “O'zbekiston Respublikasida nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to'g`risida”gi qonuni. 11 iyul 2008 yil (o'zgartirish va qo'shimchalar bilan).

ogohlantirish xatlari olgandan keyingina ularga panduslar o‘rnatilishi yo‘lga qo‘yildi. Hamma yoqda hammabop binolar soni o‘sayotgan bo‘lsada, lekin hozirgi kunda ijtimoiy infrastrukturaning ko‘p sonli ob’ektlari: maktablar, pochta va aloqa shaxobchalari, banklarda panduslar mavjud emas. PROON va Mehnat vazirligi qo‘shma loyihasining ekspertlari tomonidan Toshkent va Samarqandda binolarning hammabopligi bo‘yicha monitoring olib borildi.

Natijada “Aholining kam harakatlanuvchi guruhlari va nogiron shaxslar uchun hayotiy faoliyatning hammabop muhitini ta’minlash asoslari” mavzusida maxsus qo‘llanma chop etildi va ushbu qo‘llanma tadbir doirasida ishtirokchilarga taqdim etildi. Nashr O‘zbekiston mehnat va aholini ijtimoiy himoya qilish vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi arxitektura va qurilish bo‘yicha hozirga (O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo`jaligi vazirligi) Davlat qo‘mitasi va O‘zbekiston dagi PROON hamkorligida tayyorlandi. Ushbu qo‘llanma arxitektorlar, quruvchilar, loyihachilar, ob’ektlar qurilishi buyurtmachilari, korxonalar rahbarlari, nogironlar va aholining kam haraktlanuvchi guruhlari uchun qo‘llanma metodik materialni o‘zida namoyon etadi. Seminar yakunlari bo‘yicha nashr oldingi Davarxitekqurilish va O‘zbekiston nogironlar jamiyatiga berildi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Rivojlantirish Dasturi va O‘zbekiston Respublikasi mehnat va aholini ijtimoiy himoya qilish vazirligining “Bandlikni ta’minlashda ijtimoiy hamkorlik” deb nomlangan qo‘shma loyihasi 2011 yil aprel oyida tasdiqlangan.



2-rasm. Qulay qilib qurilgan turar-joy binosining ko`rinishi: 1-notekis balandlikka ega hududda o`rnatilgan tutqichli pandus; 2-ko`zi ojiz va ko`rishida muammosi bor kishilar uchun g`adir-budur qoplamali yo`lka. Umumiy foydalanishga mo`ljallangan yo`lka

Quyidagi aytilgan fikrlarning ijrosi keltirilgan bo‘lib, harakatida imkoniyati cheklangan insonlarning uchun shaharda harakatlanishlari uchun qulay bo‘lgan shart-sharoitlar ko‘rsatib o‘tilgan bo‘lib ushbu tadbirlar natijasida keksalar va imkoniyati cheklangan kishilar sharoitiga moslanganligi ularning cheklanishini pasaytirishga olib keladi (2-rasm).[2]

Pandus - bino va inshootlarning ichki va tashqi qismida joylashgan va vertikal harakatlanish uchun moslashtirilgan qiya tekislik.[3] Ko‘pgina binolarda panduslarning yo‘qligi, moslashtirilmagan bekatlar, svetoforlar, jamoat transporti shu to‘siqqa misol bo‘la oladi. Masalan, ko‘zi ojiz kishi ko‘chani kesib o‘tishi kerak, agar svetafor tovushli signal bilan jihozlanmagan bo‘lsa, yoki kursi-aravada yuruvchi nogiron kishi bekatda turmoqchi bo‘lsa, bu bekat balandroq to‘siq bilan qurshalgan bo‘lsa, u qanday harakatlanishi mumkin?

Salbiy xususiyatlariga esa faol shahar hayotidan ajralib qolganlik va boshqa guruhdagi aholi qatlamlari bilan ijtimoiy aloqalardan mahrum bo‘lib qolish, dunyodan va do‘stlardan psixologik izolyasiyalanish, transport muammolari kabilar kiradi. So‘nggi omilning qarindosh-urug‘lar va do‘stlar bilan uchrashish imkoniyatlarini pasaytirish aniqlangan.

O‘zbekiston da turar-joy qurilishi muammolari bilan keksa yoshlilar (nafaqa yoshidagilar) uchun uylar qurish muammosi uzviy bog‘langan. Bu muammo aholining keksayishi va tug‘ilishning pasayishi bilan xarakterlanadigan iqtisodiy va demografik o‘zgarishlar ro‘y berishiga bog‘liq holda keyingi yillarda alohida dolzarblik kasb etmoqda. 50-70% oilalar oilali guruhlar strukturasi va ularning rivojlanish bosqichi (bolalar borligi va ularning yoshi, tug‘ishgan qarindoshlarining yoshi, shaharda joylashish va h.z.lar)ga bog‘liq ravishda yaqin, lekin alohida yashashni ma’qul ko‘rishadi.

Hozirgi vaqtda qariyalar uylarining joylashtirilishini quyidagi ikki kategoriyaga ajratish mumkin:

- shahar tuzilmasida joylashgan qariyalar uyi;
- shahardan tashqarida joylashgan qariyalar uyi.

Bu kategoriyalarning har biri o‘zining ijobiy xususiyatlari va kamchiliklariga egadir. Biroq, eng muammoli bo‘lib qariyalar uylarining ikkinchi kategoriya bo‘yicha joylashuvi sanaladi. Bu erda ijobiy xususiyat sifatida qulay ekologik vaziyatni, shovqin va noxush gazlarning yo‘qligi, keng ko‘lamdagi rekreatsion-park hududini shakllantirish imkoniyatini ko‘rsatish mumkin.

Turar-joy va jamoat binolari, inshootlar, kommunal xizmatga yo‘naltirilgan, muxandislik, transport va ishlab chiqarish obyektlarida qulaylikni taminlash tashkilot turi, mulkchilik shakli va moliyalash shaklidan qati nazar qurilish jarayonining barcha ishtirokchilari tomonidan amalga oshirilishi shart. Qulaylikni taminlash xarakatlanishda cheklanishga ega insonlar, shu jumladan, nogironlarning ehtiyojlari inobatga olingan SHNQ 2.07.02-07 ning amaldagi meyor va talablari asosida bo‘lishi lozim.[3]

Umumlashtirilgan tahlil shu haqida guvohlik beradiki, qariyalar uylarini loyihalashtirish va qurishning xorijiy tajribasida ularning o‘z ichiga turar-joydan tashqari tibbiy va ijtimoiy-maishiy xizmatlarni ko‘rsatishning barcha turlarini olgan holda qurish an’anasi tomonga ochiq-oydin ravishda o‘tib borish kuzatilmoqda. Tabiiyki, xorijiy tajribalarda orttirilgan barcha narsalar ham bizning sharoitlarimizga shundayligichi ko‘chirib o‘tkazilishi mumkin emas. Bu jarayon mazkur tajribalarni tanqidiy nuqtai-nazardan ularning barcha ijobiy hamda salbiy xususiyatlarini sinchiklab o‘rganishga asoslanishi lozimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O‘zbekiston Respublikasi “O‘zbekiston Respublikasida nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to'g`risida”gi qonuni. 11 iyul 2008 yil (o'zgartirish va qo'shimchalar bilan).

2. O‘zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo‘mitasi, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Taraqqiyot Dasturi. Nogironlar uchun qulay muhit yaratish asoslari.-Toshkent.: «SMI-ASIA» - 2010.

3. SHNQ 2.07.02-22 “Qurilish ob'ektlarini nogironligi bo'lgan shaxslar hamda keksalar ehtiyojini inobatga olgan holda loyihalashtirish” shaharsozlik normalari va qoidalarini tasdiqlash to'g`risida.

UO'K 725.573.(575.1)

TA’LIM MARKAZLARI HUDUDIDAGI O‘YIN MAYDONLARI DIZAYNINING ZAMONAVIY LOYIHA YECHIMLARINI SHAKLLANTIRISH

Sh.R. Ikromov., M.M. Ikromova.
Toshkent arxitektura-qurilish universiteti, O‘zbekiston .
D.D. Abdujabbarova
AKFA universiteti, O‘zbekiston .

Annotatsiya: maqolada hozirgi kunda mamlakatimiz hududida loyihalanayotgan ta’lim markazlari hududidagi o’yin maydonlari dizaynining zamonaviy loyiha echimlarini shakllantirish bo’yicha talab va takliflar berilgan. Bu takliflar asnosida loyihalangan xorijiy mamlakatlari o’yin maydonchalari zamonaviy loyihalari bo’yicha namunalar keltirilgan.

Annotation: in the article, there are requirements and proposals for the formation of modern project solutions for the design of playgrounds in the territory of educational centers that are currently being designed in the territory of our country. Examples of modern projects of playgrounds of foreign countries designed according to these proposals are presented.

Key words: landscape architecture, educational institution, design, children's playgrounds, educational center.

Kalit so‘zlar: landshaft arxitekturasi, ta'lim muassasasi, dizayn, bolalar o'yin maydonchalari, ta’lim markazi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va hukumat qarorlarining orqali mustaqillik yillarida maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha 2017-2021 yillarga mo‘ljallangan dastur tasdiqlandi. 2017- 2021 yillarda maktabgacha ta’lim muassasalarini yangidan qurish, rekonstruksiya qilish va mukammal ta’mirlashni tasdiqlandi. Ilg‘or xorijiy tajribani hisobga olgan holda bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish sharoitlarini yaratish nazarda tutiladi. Shahar va qishloq joylarida maktabgacha ta’lim muassasasini moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, shu jumladan, qishloq joylarda maktabgacha ta’lim muassasalarini yangidan qurish, namunali loyihalar bo‘yicha 70 va 120 o‘rinli, ularni zamonaviy talablarga javob beradigan inventar jihozlar, o‘quv-metodik qo‘llanmalar va multimediali vositalar bilan ta’minlashni tasdiqlandi [1].

Ta'lim markazi - bolalarni ta'lim olishlari uchun yaratilgan maskanlar hisoblanadi. Ta'lim markazi bolalarning ta’lim olishlari uchun qulay sharoitni yaratish maqsadida tashkillashtirilgan bolalar bog'chasi va boshlang'ich maktab binolari guruhini birlashtiruvchi binoning hajmi o’z ichiga oladi. Bularga: maktabgacha va boshlang'ich umumiy ta'lim (1-4-sinflar) kiritiladi. Ushbu turdagi ta'lim muassasalari maktabgacha va umumiy o'rta ta'limning izchilligini va bolalarning bir yosh guruhidan ikkinchisiga eng muhitga o'tishini ta'minlaydi.

Maktabgacha ta’lim va boshlang'ich umumiy ta'lim markazlarining zamonaviy standartlarga muvofiq obodonlashtirish darajasi 60 foizgacha bo'lishi kerak. Ta’lim markazining landshaft maydonini shakllantirish masalalarini o'rganishning dolzarbligi turli soha mutaxassislari o'quvchilarning sog'lig'ining yomonlashishini "ekologik vaziyatning murakkablashishi bilan chambarchas bog'liqligini, avtotransport vositalari sonining ko'payishi, havoning ifloslanishi, o'yin maydonchalarining qoniqarsiz holati va jismoniy faollikning kamayishi natijasida yuzaga kelgan tasdiqlaydi". [2, 30s.]. Tadqiqot mualliflari Potapovoy T.V. va Tsitzer O.Yu. murakkab ekologik vaziyat yuzaga kelayotgan bir payt ta’lim markazlarini loyihalash jarayonida e’tibor qaratish, ayniqsa ta’lim markazlari asosiy binolari va hududini uyg’unlashtirgan holda ekologik xavfsizlik zonalariga aylanishi zarur. Ochiq o'yin maydonining salohiyati bolalarning rivojlanishi uchun katta ahamiyatga ega (jismoniy faoliyati, tasavvurlar ko'nikmalar, aqliy qobiliyatlar). Texnologik taraqqiyot va urbanizatsiya bolalar hayotini sezilarli darajada o'zgartirdi. Endilikda ular uy bo’lgan vaqtlarini ko’p

qismini kompyuterlar, televizorlar va turli gadjetlarda o'tkazishadi. Bolalar bog'chasida, maktabda mashg'ulotlarga vaqtlarini esa tengdoshlari bilan o'zaro o'yinlar va dars mashg'ulotlariga sarflashadi. Texnik qurilmalarning jadal sur'atlar bilan o'sib borishi esa bugungi kunda bolalarda ancha kam jismoniy harakat qilishiga sabab bo'lmoqda. Hozirgi kundagi mavjud o'yin maydonlarining ko'p qismi standart tipda loyihalangani bois, avvalgiga qaraganda bolalarda o'yin maydonchalarida vaqt o'tkazishga bo'lgan qiziqish past darajaga tushib qolgan. Ilgari esa axborot tizimi bu qadar rivojlanmagan vaqtda bolalar turli jismoniy o'yinlar bilan vaqtlarini o'tkazar edilar.

Ushbu holat o'quv markazi hududlarida bolalar uchun o'yin maydonini tashkil qilishda yangi yondashuvlarni ishlab chiqish zarurligiga olib kelmoqda. Hozirgi kunda o'quv markaziga tashrif buyuradigan bolalar turli yoshda 3-10 yoshlar atrofida deb qabul qilib olsak, shunga nisabatan o'yin maydonini tashkil etishga bolalarning yosh jihatida kelib chiqqan holda yondashish maqsadga bog'liq. Psixologlar bolalarning yoshiga nisbatan davrni bir nechta sezgir davrlarga ajratib ko'rsatishadi:

- 1 davr (3 yoshgacha) - erta bolalik;
- 2 davr (3-5 yosh) - maktabgacha yosh;
- 3 davr (5-7 yil) - o'qish, maktabga tayyorgarlik davri;
- 4 davr (7-10 yosh) - boshlang'ich ta'lim, boshlang'ich maktabga borish davri.

Bolaning psixologik rivojlanish davrlari bolalarni tarbiyalash va o'qitish tizimining bosqichlariga to'g'ri keladi.

3 yoshdan 5 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun o'yin maydonchasi. Bu yoshda bolalar qum va suv bilan eksperimental faoliyatga faol ehtiyoj sezadilar, shuning uchun maydonda ushbu turdagi o'yin jihozlar yoki ko'kalamzorlashtirish elementlari bo'lishi kerak. Eksperimental faoliyatni o'tkazish uchun elementlar har xil bo'lishi mumkin:

- sun'iy ravishda qurilgan;
- tabiiy elementlardan (yog'och qoldiqlari, eski daraxtlar va boshqalar) tayyorlangan;
- takomillashtirish elementlari sifatida harakat qilish.

Eksperimental tadbirlarni o'tkazishga xizmat qiladigan obodonlashtirish elementlarining asosan bir vaqtning o'zida bir guruh bolalar uchun ham, bir nechta guruhlar uchun ham (umumiy bayramlarda) o'yin majmuasini ifodalashi mumkin. Bu elementlar loyihalash jarayoni bosqichida tayyorlanishi kerak. Suv o'yinlari loyihalanishi ham bolalar guruhlarini birlashtirishga yordam beradi va bolalar bog'chasi o'quvchilarini tajriba qilishga undaydi (1-rasm).



1-rasm. Namuna sifatida Moskva shahri.

5 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun o'yin maydonchasi ko'p funksiyaliligi bilan ajralib turadi. Tabiiy elementlarni, o'quv jarayondagi hodisalarni, vertikal narsalarni o'rganishda yosh ehtiyojlari (faol jismoniy rivojlanish uchun turtki) bilan belgilanadigan tabiiy muhitning sun'iy ravishda yaratilgan elementlari (tepaliklar, tepaliklar, kichik to'g'onlar) o'yin jihozlariga. qo'shilishi mumkin. Masalan daraxtlardagi uylar, raketalar, narvon daraxtlari va boshqalar. Maydonning

o'lchami va shaklini tanlashda, kattalar bolaning yuzini ajrata oladigan eng katta masofa 20-25 m loyihalanishi maqsadga muvofiq (2-rasm).



2-rasm. Namuna sifatida "Ermitaj"bolalar maydonchasi Moskva

7 yoshdan 10 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun o'yin maydonchasi. Bu yoshda xarakterli xususiyatlar bolalarning birgalikdagi faoliyati, jamoaviy o'yinlardir. Masalan, memo o'yin maydonchasi (3-rasm).



3-rasm. Namuna sifatida "Memo o'yin maydonchasi", Moskva

O'yin maydonchasining o'ziga xos xususiyati shundaki, bunda bolalar bir gurug bo'lib, yoki yolg'iz o'ynashlari mumkin. Masalan, agar hali hech kim bolalar maydonchasida o'ynagani chiqmagan bo'lsa va u yolg'iz zerikarli tuyulishi mumkin. Lekin bu turdagi o'yin maydonachalarida turli xil o'yinlar bilan shug'ullanish mumkin. Bu o'yinlar huddi sport variantida yaratilgan bo'lib, unda siz tezda ustunga tegishingiz yoki kerakli rangda ta'kidlangan ustunni tanlanishi kerak. Matematik o'yinlar ham taqdim etiladi, unda misolni tezda hal qilgan kishi g'alaba qozonadi.

Shu bilan birga, o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda, bolalar o'yin maydonchalarini loyihalashda nafaqat bolalarni qiziqishlarini qondiradigan va xavfsiz muhitni yaratish orqali bolalarning bo'sh vaqtini tashkil etish bilan bog'liq keng ko'lamli muammolarga e'tibor qaratish lozim. O'yin faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari, shuningdek, yangi usuldagi bolalar o'yin maydonlarini yaratish orqali shakllantirilishi mumkin.

Olingan ma'lumotlarga asoslanib, quyidagi xulosalar chiqarish mumkin: boshlang'ich maktab bilan bolalar bog'chasining o'yin maydonini loyihalashda zamonaviy dizayn amaliyoti bolalarning o'yin maydonchalarida xatti-harakatlari uchun stenariylarni loyihalash jarayonlarini amaliyotga tatbiq etish hozirgi kundagi asosiy masalalardan biri ekanini ko'rishimiz mumkin. Geomorfik shakllardan turli xil usullardan faol foydalangan holda rivojlantirish, zamonaviy materiallar va qoplamalardan keng foydalangan holda fitodizayn texnikasi orqali yangi turdagi o'yin maydonchalarini loyihalash zarur.

Yoshga qarab o'yin maydonchalariga qo'yiladigan turli talablardagi ma'lum farqlar bilan, bolaning faol ijodiy faoliyatga bo'lgan istagini qondirishi mumkin. O'yin maydonalarini kengaytirishi esa bolalarning jismoniy qobiliyatlarini yaxshilanishiga sabab bo'ladigan yana bir omillardan deb hisobga olinsa, uning dizaynidagi noodatiy uslublarni qo'llash orqali esa bolalarni internet qurilmalariga bog'lanib qolmasdan, vaqtlarini tabiat qo'ynida do'stlari bilan o'tkazishlariga sabab bo'luvchi bir omil deb hioblash mumkin.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Imomov M.R. “O‘zbekiston da zamonaviy maktabgacha tarbiya muassasalarining landshaft arxitekturasi va kichik bog’larni shakllantirish tamoyillari”. Me′morchilik va qurilish muammolari (ilmiy-texnik jurnal) Samarqand 2020 yil, №2 son, 34 bet.
2. Т. В. Потаповой и Ю. Ю. Галкина. Детский сад – эталон экологической культуры : научно-практические рекомендации / под ред.– Москва : ВООП, РЭФИА, 2003. – 146 с.
3. Internet resurs. www.parkseason.ru
4. Internet resurs. www.komfort-dvor.ru
5. Internet resurs. www.moscowalk.ru

УДК 69.058.8

ШАҲАРЛАР ҲУДУДИДА КУЧЛИ ЗИЛЗИЛА ОҚИБАТЛАРИНИ ТАҲЛИЛ ҚИЛГАН ҲОЛДА ҚУРИЛИШ ИШЛАРИНИ ОЛИБ БОРИШ

т.ф.н.,проф. З.С. Бузруков., А. Каримов., А. Жуманазаров.
Наманган муҳандислик-қурилиш институти, Ўзбекистон.

Аннотация. *Мақолада 2023 йилда Туркия давлатида содир бўлган даҳшатли зилзила ва унинг оқибатлари ҳамда шикастланган биноларни сабабларини конструкциявий нуқтаи-назардан таҳлил қилинган.Шунингдек, мамлакат ҳудудида жойлашган тектоник плиталарни жойлашиши ва уларни ҳаракатлари билан боғлиқ маълумотлар келтирилган. Мақолада Туркия давлатида содир бўлган сейсмик тебраниш натижасида вайрон бўлган биноларни барпо этишда йўл қўйилган ҳатоликларни келгусида Ўзбекистонда ҳам такрорланишини олдини олиш ва аҳолини сейсмик ҳавфлардан ҳимоя қилиш чоралари хақида фикр мулоҳазалар келтирилган.*

Калит сўзлар. *Сейсмик хавф, сейсмик фаоллик, тектоник плиталар, афтершок, сейсмик тўлқин, модернизация, бинолар хавфсизлиги, сейсмик мустаҳкамлик.*

Кириш қисми.Сейсмик хавфли ҳудудлардаги бино ва иншоотларнинг ишончлилигини таъминлаш замонавий қурилишнинг долзарб масалаларидан бири бўлиб қолмоқда. Кўпинча сейсмик ҳудудларда лойиҳалаш ва қурилиш ишларини олиб боришда ҳудуднинг тупроқ турлари ва бошқа ноқулай шароитлар мураккаблаштириб юборади. Энг хавфли вазият бино ва иншоотларни қуришда юқори сейсмик фаоллик шароитида юзага келади.Хусусан,бундай мураккаб шарт-шароитга эга бўлган ҳудудлардан бири Туркия ҳисобланади [5].

Жорий йилнинг 6 февралида Туркия ва Сурияда содир бўлган кучли зилзила натижасида 50 мингга яқин инсонлар ҳалок бўлди ва ундан ҳам кўпроқ одам тан жароҳати олди.Туркия сейсмик хавфли ҳудудда жойлашган бўлиб, ушбу ҳудуд 1939-1999 йилларда кучли зилзилаларни бошидан кечирган. Умуман олганда, 1900 йилдан буён ушбу мамлакатда камида 76 та зилзила қайд этилган бўлиб, уларнинг қурбонлари сони 90 мингдан ортиқ кишига етган [5].

Туркияда ва дунёнинг баъзи бошқа минтақаларида нима учун зилзилалар қайта-қайта содир бўлишини тушуниш учун ер қобиғи ўзига хос жумбоқ эканлигини ва шу билан бирга кўп қисмлардан иборат нисбатан динамик хусусиятга эга, яъни бир нечта улкан океан плиталари ва ер қобиғининг бир нечта континентал плиталаридан иборат эканлигини ҳисобга олиш лозим [8,13].

Сейсмик фаол ҳудудларда узоқ вақтдан бери маълум, аммо зилзила вақтини аниқ башорат қилиш ҳозирча мумкин эмас. Аммо биз уларга тайёргарлик кўришимиз мумкин.

Олимлар орасида кичик ва энг кичик плиталарнинг сони бўйича аниқ фикр йўқ. Бироқ, ушбу плиталарнинг йилига бир неча сантиметр доимий равишда ҳаракатланиши аллақачон исботланган.Ушбу жараёнда улар ё бир-биридан узоқлашади, ёки бир-бирига ишқаланади, ёки бир плита бошқасининг остига тушиб,кучли деформацияланиш ҳолатига учрайди. Кейин улар устида жойлашган қитъалар ҳаракатлана бошлайди. Бу плиталар *тектоник плиталар* деб номланади [8,13].

Италия Миллий геофизика ва вулканология институти томонидан аниқланганидек, Туркиядаги табиий офат натижасида литосферада 150 километрлик ёриқ пайдо бўлган ва Аравия плитаси Анатолий плитаси томон 3 м жануби-ғарбга силжиган. Олимларнинг таъкидлашича, ушбу плиталарнинг янги ўрни ҳали аниқланмаган, шунинг учун афтершоклар яна бир неча ой давом этиши мумкинлиги айтилган [8,13].



1-расм.Туркиянинг тектоник плиталар жойлашган энг сейсмик хавфли ҳудудлари ***[13]****.*

Туркия ҳудудини ўрганиш узоқ вақтдан бери сейсмологларни қизиқтириб келган. Германиянинг Потсдамдаги Геология фанлари тадқиқот маркази (GFZ) 1980 йиллардан буён Туркияда ўлчаш ускуналарини ўрнатиб, сейсмик мониторинг ишларини олиб борган. Ушбу кузатишлар шуни кўрсатадики, зилзила хавфи Мрамор денгизи атрофидаги бутун минтақада айниқса юқори.Ушбу қирғоқда эса Истамбул жойлашган [13].

Зилзилалар пайтида қурилиш усули ва тупроқ турининг асосий аҳамияти.

Мутахассисларнинг фикрича, ер ости силкинишларига нисбатан энг яхши ҳимоя зилзилага нисбатан чидамли бўлган биноларни қуришдир. Афсуски, бу жуда қимматга тушади, шунинг учун савол туғилади: қайси қулайроқ – модернизациями ёки нолдан бошлаб қуришми? Айрим маълумотларга кўра Туркия-Сурия чегараси ҳудудида содир бўлган сўнгги зилзилалар натижасида, биргина Туркиянинг ўзида 6000 тадан ортиқ бинолар вайрон бўлган [12].

Зилзила пайтида биноларнинг хавфсизлигини таъминлашда уларни барпо этиш усули ва замин сифатида фойдаланиладиган тупроқ қатлами муҳим аҳамиятга эга.



.2-расм.Зилзила натижасида вайрон бўлган бино кўриниши.

Натижалар.Суръатлардан кўриниб турибдики, қулаган биноларнинг бир қисми замонавий зилзила хавфсизлиги қоидалари кучга киргунга қадар қурилган бўлиши мумкин. Ушбу бинолар бундай катталикдаги зилзила кучига мўлжалланмаган (2-**расм).**

Зилзилалар улкан кучга эга эканлиги ва уларнинг ер юзасига нисбатан яқинроқ содир бўлиши ҳисобига катта вайрон келтирувчи зилзила кучини вужудга келтиради. Биз қулаган биноларни синчиклаб ўрганишимиз ва бу даҳшатли воқеадан сабоқ олишимиз керак. Фақат шу йўл билан биз биноларимиз ва шаҳарларимизни келажакда содир бўлиши мумкин бўлган зилзилаларга нисбатан хавфсиз ҳолатга келтира оламиз.

Шу билан бирга, зилзилалар пайтида биноларнинг хавфсизлиги нуқтаи назаридан нафақат қурилиш усули, балки бинолар барпо этиладиган грунт юзаси ҳам муҳим рол аҳамиятга эга.Бинобарин, замин қатлами ташкил топган грунт қанчалик қаттиқ бўлса, шунча яхши бўлади.Агар грунт қатлами гранитдан иборат бўлса мустаҳкам замин ҳисобланади, агар у чўкинди тоғ жинсларидан, масалан, қум ёки лойдан иборат бўлса, замин сифатида яроқсиз ҳисобланади [2].

Мутахассисларнинг фикрича [13] “қуйқаланиш эффекти” деб номланувчи ҳолатни келтириб чиқарувчи юмшоқ тупроқларда сирт харакатининг кучайиши билан боғлиқ салбий ҳолатлар содир бўлиш эҳтимоли юқорироқ. Бунга мисол сифатида оладиган бўлсак, агар қумли грунтнинг бир жойини қайта-қайта боссангиз, у ерда сув тўпланади, "сўнгра грунт нотурғун бўлиб қолади".

Туркиядаги уйларнинг ҳайратланарли даражада қулаши турли сабабларга кўра бўлиши мумкин, дейди экспертлар.Хусусан, геодезиячилар ва лойиҳачиларнинг айтишича, республикада айрим ҳолларда ёрдамчи тўсинларсиз фақат устунларга таянган ҳолда тўсинсиз каркас тизимидан фойдаланилган.Натижада горизонтал ва вертикал сейсмик кучларни қабул қилувчи яҳлит фазовий тизим яратилмаган.

Мутахассисликларни таъкидлашича [13], асосий сабаблардан бири барпо этилган уйлар кучсизроқ зилзилаларни инобатга олиб қурилган бўлиши мумкин ёки бинолардан фойдаланиш пайтида улар зарур сейсмик мустаҳкамликни йўқотган деб хулоса қилинмоқда. Бино тўғри қурилган бўлса ҳам, бир мунча вақт ўтгач, табиий шароитлар таъсирида сейсмик устуворликнинг йўқолиш ҳолати кузатилиши мумкин. Шунинг учун сейсмик ҳудудларда уйларнинг техник ҳолатини доимий мониторинг қилиш тизими ишлаб чиқилиши ва уни назоратини амалга ошириш зарур.

Қурилиш бошланишидан олдин буюртмачи ташкилотлар томонидан қўшимча равишда махсус сейсмологик ва сейсмотектоник тадқиқотларни ўтказиш керак. Бино ва иншоотларнинг сейсмик чидамлилигини оширишнинг анъанавий усулларига бетонли арматураланган тизимни яратиш, торкрет бетон билан кучайтириш, қўшимча темир-бетон ва металл рамаларни киритиш, углерод ва базальт толалари ёрдамида ташқи арматуралаш асосида мустаҳкамлаш тизимларини қўллаш киради. Энг муҳими, қурилиш майдонига олиб келинадиган қурилиш материалларининг сифат назорати ҳақида ҳам унутмаслик лозим.

Қурилиш қоидаларига риоя қилмаслик.

Охирги қоидаларга кўра [14], зилзила хавфи юқори бўлган ҳудудларда қурувчилар пўлат ўзаклар билан мустаҳкамланган юқори сифатли бетондан фойдаланишлари керак. Устунлар ва тўсинлар ер ости силкиниши натижасида вужудга келадиган зарбаларни самарали қабул қиладиган тарзда тақсимланиши керак, аммо бу қоидаларга доимо етарлича риоя қилинмайди.

Мутахассисларнинг таъкидлашича [14], мавжуд биноларни модернизация қилиш жуда камдан-кам ҳолларда амалга оширилган ва шу билан бирга, янги биноларда қурилиш меъёрлари жиддий бузилганлиги аниқланди.

Мисол учун, зилзила хавфи юқори бўлган мамлакат Японияда жуда қатъий қурилиш қоидалари ва меъёрлари мавжуд. Қурилиш хавфсизлиги талаблари бинонинг ишлатилишига ва биноларнинг зилзила хавфи юқори бўлган ҳудудларга яқинлигига қараб фарқланади.

Туркияда содир бўлган 7-8 магнитудали зилзила ҳалокатли тоифасига киритилди.Албатта,ушбу ҳалокатли зилзилалар ер юзидаги биноларга жиддий зарар етказиши табиий.

Туркияда содир бўлган зилзила пайтида вайрон бўлган уйларнинг конструкцияларида анчагина нуқсонлар аниқланди.Жумладан, зилзила оқибатида вайрон бўлган бинолар конструкцияларида жиддий нуқсонлар аниқланган.Прокуратура зилзиладан жабр кўрган камида битта вилоятда уйлар оммавий равишда қонунбузарликларга йўл қўйилган ҳолда қурилганини тасдиқлади. Мутахассислар бундай қурбонлар сони кўплигининг сабабларидан бири қурилишнинг сифатсизлигини асос қилиб кўрсатишган [7].

Ўтказилган тажриба синовлари бетондаги қум ва шағалнинг таркиби меъёрий талабларга жавоб бермаслигини кўрсатди. Маълумки, умумий бетон массасидаги шағал бўлакларининг ўлчами 3 см дан ошмаслиги керак, лекин баъзи ҳолларда бетон таркибида "мушт катталигидаги" тошлар топилган. Албатта, бундай хусусиятларга эга бўлган материалдан фойдаланиш бетоннинг мустаҳкамлигини сезиларли даражада камайтиради. Туркиядаги янги уйларнинг муҳим қисми ҳам сейсмик хавфсизлик талаблари ҳисобга олинмаган ҳолда қурилган [11].

Баъзи бинолар иккига бўлиниб кетган бўлиб, бундан кўринадики, қурилиш материаллари ниҳоятда сифатсиз эканлигини кўрсатади.

Мутахассисларнинг таъкидлашича, биноларнинг кенг кўламли вайрон бўлишига сабаб айнан ушбу ҳудуд учун хавф даражасини етарлича баҳоланмаганлиги, шунингдек, тегишли маҳаллий ҳокимият ташкилотлари томонидан биноларнинг хавфсизлигини мунтазам назорат қилмаслик оқибати деб баҳоланмоқда.

Содир бўлган зилзила ушбу ҳудудда маълум бўлган биринчи кучли сейсмик ҳодисадир, шунинг учун бу кутилмаган ҳолат эди. Сейсмик хавф аниқ баҳоланмаган, натижада уйлар сейсмик таъсирнинг пастроқ даражаси учун мўлжалланган ва қурилган, бу эса анча катта вайронагарчиликларга олиб келди. Бинолар бундай кучнинг зарбаларига бардош бера олмади.

Қандай қилиб уйларни янада мустаҳкам қуриш мумкин.Зилзилага мойил бўлган ҳудудда биноларнинг устуворлигини таъминлашнинг муҳим усулларидан бири бу, конструкцияларни қозиқли пойдеворлар устига ўрнатишдир. Табиийки, бундай конструктив ечим қўлланилганда зилзила пайтида ерни титратувчи тебранишларнинг бинога таъсир этиш эҳтимоли камроқ бўлади.

Катта ҳажмдаги вайронагарчилик нафақат бинонинг конструкцияси билан боғлиқ.Юк кўтарувчи элементларни шундай боғлаш муҳимки, ер ости силкинишлари пайтида, бинонинг фақат деформацияланган маълум бир қисмигина ўзининг чизиқли ҳолатини бирозгина ўзгартирсин.

Туркияда содир бўлган зилзила кучининг миқдори жуда катта эди. Меҳди Кашанининг сўзларига кўра [15], бу зилзила эпицентри унча катта чуқурликда содир бўлмаган. Агар у чуқурроқ жойлашганида эди, тектоник плиталарнинг тўқнашуви натижасида юзага келадиган силкинишлар анча заифроқ сезилиб, тебранишнинг ер юзасига етиб бориши учун муайян вақт керак бўлар эди.

Қурилиш усули қурилиш материалларидан кўра муҳимроқдир. Биноларнинг зилзилабардошлиги хақида гап кетганда қурилиш материаллари муҳим элемент эмас, деб

таъкидлайди Меҳди Кашани. Унинг сўзларига кўра, қурилиш усули ҳал қилувчи аҳамиятга эга. Тўғри лойиҳалаштирилган бетон, масалан, зилзилага чидамли бино учун яхши пойдевор бўлиши мумкин, дейди Кашани. Лекин, агар бинолар нотўғри лойиҳалаштирилган ва қурилган бўлса, унда ҳатто бутунлай бетондан ясалган уй ҳам қулаши мумкин [15].

Бино тўғри қурилган бўлса ҳам, бир мунча вақт ўтгач, табиий шароитлар таъсирида сейсмик мустаҳкамликнинг етишмаслик ҳолати вужудга келади. Шунинг учун сейсмик ҳудудларда уйларнинг ҳолатини назорат қилиш тизими яхши ишлаши керак.

Туркиядаги кўплаб эски биноларни қайта тиклаш лойиҳалари бино устига қўшимча қаватлар қуришга қаратилганлиги билан кишини эътиборини тортади.Бу эса, биноларга таъсир этувчи қўшимча юкни оширади ва натижада уларни сейсмик мустаҳкамлик талабларига жавоб бермайдиган ҳолатга олиб келди.Ҳатто 2000 йиллар бошидаги бош режада ҳам биноларнинг сифати ниҳоятда пастлиги, уларни комплекс реконструкция қилиш зарурлиги айтилган эди.

Шундан сўнг зилзила содир бўлиб, минглаб бинолар қулаб тушди. Антакья шаҳрида фалокатнинг оқибатлари даҳшатли эдики, эски бинолардан деярли ҳеч нарса қолмади. Аммо янги қурилган биноларнинг айримлари ҳам ҳудди қутисимон уйлар каби ғижимланиб қолди. Аммо, қўлланилган замонавий конструкциялар сейсмик хавфсизлик талабларига жавоб бериши керак эди.

Ўтмишда содир бўлган зилзилани таҳлил қилар эканмиз 1988 йил декабр ойида Арманистонда содир бўлган ҳалокатли зилзила сабабларига кўра қуйидагилар аниқланган эди: металл конструкцияларни сифатсиз пайвандланганлиги, бетон қоришмаларининг сифатсизлиги, ёмон лойиҳавий ечимлар ва бинолардан фойдаланиш даражасининг ниҳоятда пастлиги. Афсуски, Туркияда ҳам ҳудди шундай даҳшатли лойиҳавий ечимлар қабул қилинган.



Таблица 1.3-расм.Тўсинсиз тизим асосида қурилган бино.

Мутахассисларнинг фикрига кўра, Туркияда бир қатор ҳолларда ёрдамчи тўсинларсиз тўғридан-тўғри устунларга таянган ҳолда барпо этилган тизим қўлланилган. 9 балли сейсмик шароитда ушбу тизим умуман номақбул конструктив ечим ҳисобланади. Айниқса, биринчи эгилувчан қаватда очиқ савдо дўконлари сифатида қурилган биноларда иккинчи ва юқори қават ораёпмаларидан тушадиган юкларни ўзига қабул қилувчи деворлар мавжуд эмаслигини кўриш мумкин [3].Бундай тизим асосида қурилган биноларни қулаши табиийдир (3-расм).

Шуни яна таъкидлаш лозимки, қурилган биноларнинг аксарияти грунт шароити ва уларни қуйқаланиши ҳамда муҳандислик хизматларининг йўқлиги сабабли вайрон бўлган.

Мутахассиларнинг таъкидлашича, қулаган уйлар асосан 1999 йилдан олдин, яъни Туркияда ҳалокатли зилзила содир бўлишидан аввал қурилган.Ушбу фожиадан сўнг мамлакатда зилзила эҳтимоли бор ҳудудларда қурилиш қоидалари кучайтирилди.

1999 йилдаги фожиадан сўнг Туркия ҳукумати янги қурилиш меъёрлари ва зилзиладан ҳимоялашнинг мажбурий суғурта тизими жорий қилинди.Бироқ, жорий йилнинг феврал ойида содир бўлган зилзиладан зарар кўрган кўплаб бинолар 2000 йилдан олдин қурилганлигини кўрсатди.



4-расм. Олдинги ва кейинги: Искандарунда яқинда қурилган уй.

Мутахассисларнинг таъкидлашича [9], пойдевор таркибида баъзи ёт элемент бўлаклари, газета парчалари, шунингдек, полистирол бўлаклари мавжудлиги аниқланган. Уларнинг сўзларига кўра, пойдевордаги бегона жисмларнинг мавжудлиги бутун бинонинг мустаҳкамлигига ниҳоятда салбий таъсир кўрсатган, бу эса унинг ер ости силкиниши натижасида вайрон бўлишига олиб келган. Шунингдек, батафсилроқ таҳлиллар натижаси пойдеворни қуришда сифати паст бўлган материаллардан фойдаланилганлигини кўрсатди.

Фотосуратлардан кўриниб турибдики, пойдевор остигача вайрон бўлган, аниқ меъёрий талабларсиз қурилган уйлар юк кўтарувчи устунларида жиддий камчиликлар мавжудлигидан гувоҳ бериб турибди.



5-расм.Туркия уй-жой бошқармаси томонидан қурилган бинолар.

Таҳлилларнинг кўрсатишича, Туркия уй-жой бошқармаси (ТУЖБ) томонидан қурилган биноларнинг ҳеч бири қулаб тушмаган [10]. Зилзила ҳудудида жойлашган ушбу ташкилот томонидан қурилган 133 минг 759 та уйнинг ҳеч бири ҳатто зарар кўрмагани маълум бўлди (5-расм)

Барча ТУЖБ томонидан қурилган бинолар зилзиладан сўнг фойдаланишга яроқлилиги сақланиб қолинди. Чунки,ТУЖБ томонидан барпо этилган бинолар зилзилага чидамли сейсмик ҳимояловчи пойдевор устига қурилган бўлиб, барча юк кўтарувчи тизим ана шу қурилма устига барпо қилинган эди (6-расм).

Ушбу конструктив тизимдан фойдаланганда, зилзила пайтида бинолар қулаб тушмайди. Малакали қурилиш муҳандислари томонидан сейсмик ҳудудларга мос келадиган,етарли конструктив талабларга асосан қурилиш ишлари олиб борилсагина,ушбу бино шикастланмаслиги аниқ. Хусусан, ушбу ҳолатда зилзила вақтида бинолар ичидаги ёрдамчи конструкцияларга зарар етиши мумкин, аммо ҳеч қандай биноларда қулаш ҳолати содир бўлмайди. Туғруқхона ва болалар шифохонаси полларига ўрнатилган сейсмик изоляторлар туфайли зилзила пайтида биноларга ҳеч қандай зарар етмасдан бардош берди.



6-расм. Сейсмик изоляторлар ёрдамида ўрнатилган бино.

Хитойда ҳам сейсмик мустаҳкам қурилмаларни қўллаб барпо этилган бинолар замонавий лойиҳалашга асосланган бўлиб, у ерда ҳатто осмонўпар бинолар ҳам сўнгги ўн йилликлардаги қатор жиддий зилзилалардан омон қолган [14].

Республикамизда 1996 йилларни бошида ишлаб чиқилган, ҳозирда эскирган сейсмик туманлаштириш харитаси мавжуд. Табиийки, ҳозирда ушбу харита эскирган бўлиб, келгусида уни қайтадан ўрганиш асосида зудлик билан муайян вазифаларни амалга ошириш зарур. Хусусан, объектларни ҳудудлар бўйича лойиҳалашда параметрлар аниқлаштирилиб, батафсил туманлаштириш ва микро туманлаштириш ишлари амалга оширилиши лозим.Агар сейсмиклик жиҳатидан номақбул грунт мавжуд бўлса ҳудуд балини белгилашда ушбу ҳолатни инобатга олиш лозим.

Агар бинолар қурилишида ҳудуднинг сейсмиклик даражасини, муайян кучайтирилган конструкциялар асосида, бикрлик диафрагмаси, сейсмик ҳимояловчи таянчлар ва бошқаларни инобатга олиб лойиҳаланса, улар зилзилага бардош бера олади. Агар ҳисоблаш ишларида хатолик юз берган бўлса, ҳисоблаш ва лойиҳалаш шартлари ҳисобга олинмаган бўлса, бино албатта зилзила пайтида қулаб тушади. Кўп қаватли бинолар унчалик устувор бўлмаганлиги сабабли, катта фазовий тузилмага эга бўлган биноларни лойиҳалашга алоҳида эътибор қаратиш зарур. Ривожланган мамлакатларда биноларнинг техник ҳолатини мониторинг қилишга ҳам алоҳида эътибор қаратилган бўлиб, бугунги кунда биноларни замонавий назорат қилувчи мосламалар ишлаб чиқилган.

Сўнгги йилларда мамлакатимизда сейсмология, иншоотларнинг сейсмик мустаҳкамлиги ва сейсмик хавфсизлигини таъминлаш сохаларини ривожлантириш ҳамда соҳа ташкилотларининг фаолияти самарадорлигини тубдан ошириш бўйича кенг кўламли комплекс чора-тадбирлар амалга оширилди. Бугунги кунда бу соҳалардаги ислоҳотларни изчил давом эттириш, аҳолининг сейсмик хавфсизлигини таъминлашнинг янги усулларини жорий қилиш муҳим аҳамият касб этмоқда.

Хусусан,бу борада мамлакатимизда, зилзилабардош қурилишларни олиб боришга қаратилган кучли мактаб яратилганлиги билан аҳамиятлидир.Шу мақсадда, охирги

йилларда республикамизда ҳам сейсмик мустаҳкам биноларни қуриш борасида жиддий талаблар қўйилмоқда.

Бу борадаги ишларни янада такомиллаштириш мақсадида 2022 йилнинг 30 майида Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасининг сейсмик хавфсизлигини таъминлаш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-144 -сонли Фармони қабул қилинди.Ушбу Фармонга биноан “Ўзбекистон Республикаси аҳолиси ва ҳудудининг сейсмик хавфсизлигини таъминлаш тизимини 2025 йилгача такомиллаштириш концепцияси” ишлаб чиқилди [1].

Албатта, ушбу Фармон ва концепцияга асосан Ўзбекистон Республикасида сейсмология, иншоотларнинг сейсмик мустаҳкамлиги ва сейсмик хавфсизлигини таъминлаш соҳасини ривожлантиришнинг стратегик мақсадлари, устувор йўналишлари, вазифалари,ўрта ва узоқ муддатли истиқболдаги режалари белгилаб берилди.

Шу сабабли, мамлакатимиз аҳолиси ва ҳудудининг сейсмик хавфсизлигини таъминлашнинг қонуний асосларини такомиллаштириш, масъул давлат органларининг бу борадаги ваколатларини белгилаш ҳамда кучли зилзилаларга тайёргарлик кўриш, уларнинг оқибатларини бартараф этишнинг аниқ механизмларини ишлаб чиқиш зарурати мавжуд.

Шу мақсадда Қурилиш вазирлиги ҳузуридаги Қурилиш соҳасида назорат инспекциясига янги қурилаётган барча турдаги бино ва иншоотлар, шунингдек, кўп квартирали уй-жойларнинг электрон техник паспортларини шакллантириб, платформага доимий киритиб борилишини таъминлаш вазифаси юкланган.

Хулоса ва тавсиялар. Ўтказилган таҳлил шуни кўрсатадики, ҳатто яхши ўрганилган ҳудудларда ҳам келажакдаги ҳалокатли зилзилаларнинг содир бўладиган жойи, вақти ва магнитудаси ҳали ҳам мавҳумлигича қолмоқда. Айни пайтда бу ва бошқа кўплаб саволларга жавоб йўқ, инсониятнинг ўзини ҳимоя қилишнинг биргина йўли бор – бу ҳам бўлса кучли зилзилалар содир бўлган ҳудудларда зилзилага чидамли қурилишни такомиллаштириш ва ривожлантириш зарурдир.

Кембридж университетининг фан бўйича бош департаменти Жеймс Жексон шундай деган эди: “Инсон ҳаётини сақлаб қолиш учун зилзилаларни башорат қилишнинг ҳожати йўқлигини тушуниш муҳимдир. Сиз уларни фақат зилзилаларга бардош берадиган бинолар қуриш орқали қутқаришингиз мумкин. Одамларни зилзилалар эмас, бинолар ҳалок қилади”[11].

Шундай экан, келгусида мамлакатимизда сейсмомустаҳкам бино ва иншоотларни барпо этиш мақсадида қуйидаги муҳим масалаларни ҳал қилиш борасида зарур тадқиқот ишларини амалга оширишимиз долзарб ҳисобланади:

-Биноларни мониторинг қилишнинг мукаммал тизимини яратиш;

-турли асосларга таянган ҳолда ҳудудларни сейсмик фаоллик харитасини ишлаб чиқиш;

-сейсмик таъсирни камайтиришга мўлжалланган ва тажрибадан ўтган сеймик ҳимоялаш воситаларини ишлаб чиқиш ва амалиётда қўллаш;

- пойдеворларнинг махсус конструкцияларини ишлаб чиқиш;

-грунт параметрларини ҳисобга олган ҳолда биноларни жойлаштириш (микросейсмик туманлаштириш) масалаларини ҳал қилиш.

Фойдаланилган адабиётлар (манбаалар) рўйхати:

1.Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони.Ўзбекистон Республикасининг сейсмик хавфсизлигини таъминлаш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида.ПФ-144, 2022 йил 30 май.

2.П.Мартемъянов А.И. Проектирование и строительство зданий и сооружений в сейсмических районах: Учебное пособие для вузов — М.: Стройиздат, 1985. -255 с.

3.Айзенберг, Я.М. Реабилитация сейсмостойкости зданий с гибким нижним этажом // Сейсмостойкое строительство. Безопасность сооружений. Вып. 5. 2001.

4.*ҚМҚ 2.01.03-96.* Зилзилавий ҳудудларда қурилиш. /ЎзР Даваархитектқурилишқўмитаси. - Т.: 1996. - 65 б.

5.https://kun.uz/ru/news/2023/02/13/ushcherb-ekonomike-tursii-ot-zemletryaseniy-mojyet-prevysit-84-mlrd

6. https://www.topnews.ru/news_id_648895.html

7. https://tass.ru/obschestvo/17045153

8. https://www.vesti.ru/nauka/article/3189306

9.https://riafan.ru/23895376-neobichnie_predmeti_v_fundamentah_zdanii_mogut_bit_prichinoi_masshtabnih_razrushenii_v_turtsii

10. https://dzen.ru/a/Y-t4vgrQBUGIU_YW

11. https://www.rbc.ru/society/10/02/2023/63e6799c9a79473a86822510

12. https://www.bbc.com/uzbek/world-64702543

13.https://www.dw.com/ru/priciny-zemletrasenia-v-turcii-cto-govorat-nemeckie-eksperty/a-64634863

14.https://rg.ru/2023/02/07/eksperty-obiasnili-pochemu-pri-zemletriasenii-v-turcii-razrushalis-doma.html

15.https://www.dw.com/ru/zemletrasenie-v-turcii-nedostatki-pri-postrojke-domov-pricina-razrusenij/a-64667303.

УДК:72.04.03

ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН – ТУРАР-ЖОЙ КОМЛЕКСЛАРИ

Н.Т. Тўйчиева.

Тошкент архитектура-қурилиш университети, Ўзбекистон

Аннотация*:Мақолада "Янги Ўзбекистон – турар-жой комплекслари", аҳолига яратиб берилаётган қулайликлар, арзон уй-жойларни кўпайтириш, хусусий тадбиркорлик, инсоний капитални ривожлантириш, маҳаллий аҳоли орасидаги кўп қаватли уй-жойларга бўлган талабни қондириш.*

Аннотации: *В статье "Янги Узбекистан - жилые комплексы", предоставляемые жителям удобства, увеличение доступного жилья, развитие частного предпринимательства, человеческого капитала, удовлетворение спроса на многоэтажное жилье среди местного населения.*

Annotation: *The article "New Uzbekistan – residential complexes", the facilities created for the population, the increase of affordable housing, private entrepreneurship, the development of human capital, the satisfaction of the demand for multi-storey apartments among the population.*

Таянч иборалар: *Янги Ўзбекистон – турар-жой комплекслари, арзон уй-жойлар, кўп қаватли уй-жойларга бўлган талаб, субсидия, имтиёзли ипотека кредитлари, мактаб ва бозор, жамоат транспорти, яшил ҳудуд.*

Ключевые слова: *"Янги Узбекистан – жилые комплексы", доступное жилье, спрос на многоэтажных жилых домов, субсидии, льготные ипотечные кредиты, школа и рынок, общественный транспорт, зеленый зона.*

Keywords: *New Uzbekistan – residential complexes, affordable housing, demand for apartment buildings, subsidies, preferential mortgages, school and market, public transport, green spaces.*

Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегиясини ишлаб чиқишда ҳамда Ўзбекистон Республикаси Президентининг Олий Мажлис ва Ўзбекистон халқига Мурожаатномасида белгиланган вазифаларга мувофиқ аҳолининг ҳаёт даражасини янада юксалтириш, таълим

сифатини илғор халқаро стандартларга мувофиқлаштириш, барқарор иқтисодий ўсишга эришиш ҳамда камбағалликни қисқартириш борасидаги ислоҳотларини янги босқичга олиб чиқиш мақсадида «Янги Ўзбекистон» массивлари барпо этилиши бошлаб юборилган. [1]. Бундан кўзланган асосий мақсад, жамоатчилигимиз ва халқимиз билан кенг муҳокамаларда билдирилган таклифлар асосидир.

Ҳозирги кунда республикамизнинг барча ҳудудларида ёш оилалар, аҳолининг турли қатламлари учун янги турар жой комплекслари барпо этилмоқда. Хусусан, 19 гектар майдонда қад ростлаётган 70 та 5 ва 7 қаватли уйлар қарийб 2000 та оилани уй-жой билан таъминлаш имконини беради. [4]

Мисол учун, Пискент туманининг “Ғайрат” маҳалласи ҳудудида қурилаётган кўп қаватли уйларни кўздан кечирар экансиз, яқиндагина фақат қоғозда лойиҳаси турган уй-жойлар бугун ростмана қад ростлаётганини кўриб ҳайратланасиз.

Давлатимиз томонидан аҳолини уй-жой билан таъминлаш бўйича олиб борилаётган сиёсат туфайли, кечагина ўз уй-жойи бўлишини орзу қилиб юрганлар бугун шинам квартиралар эгасига айланаётганини кўриб, қувонасиз. Айниқса, аҳоли сони, янги оилалар кўпайгани сари уй-жойга талаб ҳам ортиб бораверади.

Ушбу турар-жой комплекслари барпо этилишида бугунги кундаги энг замонавий ва юқори сифатли қурилиш материалларидан фойдаланилмоқда. Мисол учун, биргина сув қувур йўлларни ташкил этишда (канализация мосламалари) Россия давлатдан келтирилган бўлиб, чиқинди сувлар замонавий технологиялар ёрдамида синтез қилиниши асосий кўзланган мақсадимиздир.

Эътиборлиси, кўп қаватли уй-жойлар аҳолининг уй-жойларга бўлган талабидан келиб чиқиб қурилмоқда. Хонадонлар эҳтиёжманд оилаларга молиявий аҳволи инобатга олиниб, кам фоизли ва узоқ муддатли имтиёзли кредит асосида берилаётгани, кам таъминланган фуқароларнинг бошланғич тўловлари давлат томонидан субсидия асосида тўлаб берилаётгани катта ғамхўрлик белгисидир. [2]

Бундан ташқари, “Янги Ўзбекистон – турар-жой комлекслари” ташкил этилишидан ташқари махаллий аҳолига қулайлик яратиш, тўлиқ комлекс шарт-шароитларни яратиш мақсадида уй-жойлар атрофида жуда катта ободонлаштириш ишлари жумладан, ён-атроф кўкаламзорлаштирилиб, сув бўйида аллеялар ташкил қилинади. Мактаб, боғча, савдо дўконлари, спорт комплекслари барпо этилмоқда.

“Яшил макон” худудларни барпо этилиши эса, аҳолида бир долзарб муаммоларнинг ечимини қисман бўлсада ечишга имкон беради. Жумладан, дарахтлар. Улар ҳаводаги зарарли карбонат ангидридни ютиб, ўрнига кислород ишлаб чиқаради ва бизнинг нафас олишимизга ёрдам беради. Улар иссиқда салқинлик беради, атроф-муҳитни шовқинлардан ҳимоя қилади.

Маълумотга кўра, ҳозирги кунда дунё бўйича 3 трлн атрофида дарахт мавжуд. Бироқ ҳар бир дақиқада уларнинг 27 та футбол майдонига тенг қисми кесилмоқда. Аҳоли яшаш пунктларида дарахтлар экиш ҳамда уларни парваришлаш доимий жараён хисобланади.

Эслатиб ўтамиз, 2019—2020 йилда ўтказилган “Бир миллион дарахт” акцияси давомида Ўзбекистоннинг барча ҳудудларида жами 3 млн 800 минг тупга яқин мевали ва манзарали дарахт кўчатлари экилган. «Республикада кўкаламзорлаштириш ишларини жадаллаштириш, дарахтлар муҳофазасини янада самарали ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида»ги Президент фармонига мувофиқ, юртимизда дарахтзорларни кўпайтиришга қаратилган «Яшил макон» умуммиллий лойиҳаси жорий этилган. Умуммиллий лойиҳа ҳудудларда яшил боғлар ва яшил жамоат паркларини барпо этиш, кўчатхоналар сонини кўпайтириш, тупроқ

унумдорлигини ҳисобга олган ҳолда, ҳудудлар иқлимига мос хорижий манзарали дарахтларни маҳаллийлаштиришни кўзда тутган. [3]

Шунингдек, кўп қаватли уй-жойларда истиқомат қилувчи аҳолининг асосий долзарб муаммоларидан бири бу - автотураргохларнинг йетишмовчилигидир. Ҳозирги кунда Республикамизда шахарсозлик-урбанизация жадал ривожланаѐтган бир пайтда, халқимизнинг турмуш шароити яхшиланганлиги муносабати билан оилаларнинг енгил автомобиль сотиб олишга эхтиѐжи ортганлиги ва хозирги кунда транспорт воситаларинг сони бундан 15-20 йил аввалги кўрсатгичдан кескин фарқ қилиб, статистик маълумотларга кўра халқнинг 50 фоизидан ортиғи енгил автомобилга эга эканлиги бу ижобий натижа бўлганлиги, аммо бу масала шахарлар ва туман марказлари худудларида янги автотураргохларни ташкил этиш заруратини келтириб чиқармоқда. Ушбу масала яқин вақтларда ечилиши лозим бўлган масала бўлиб, унга жиддий ѐндошилмаса, бир қатар муаммоларга сабаб бўлади. Агар автотураргох ташкил этиш учун хар бир енгил автомашинага, нормага аосан, 20-25 м2 ер майдони ажратилиши лозим бўлса, 1 гектар ер майдонига 400та енгил автомашина сиғишини хисобга олсак, шахар ва туман марказида хозирги кунда 1гектар (10 000м2) бўш ер майдони топиш ва ажратиш катта муаммони келтириб чиқаради. [5]. Демак, ушбу масалани ечиш учун ривожланган давлатлар тажрибасидан келиб чиқиб, бизда хам ер ости (қаерда имкон бўлса) ѐки ер устида эса қаватли (3-4 қават) автотураргохларни қурилмоқда. Қаватлар хисобига автотураргохлар сиғими 3-4 баравар кўпайтирилган, бу нарсанинг иқтисодий самараси хам анча кўзга кўринарли даражада бўлади. Хусусан, янги барпо этилаётган кўп қаватли уй-жойларнинг ер тўла қисмида ҳам автотураргохлар барпо этилмоқда. Бироқ, ер ости автотураргохларини барпо этишда объект жойлашган худуднинг релъефи, тупроқ-асос, ер ости сувларининг сатхининг ва агрессивлик даражаси баландлиги талабларидан келиб чиқиб белгиланади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 28.02.2023 йилдаги ПФ-27-сонли Фармони “2022 — 2026 йилларга мўлжалланган янги ўзбекистоннинг тараққиёт стратегиясини «Инсонга эътибор ва сифатли таълим йили»да амалга оширишга оид давлат дастури” тўғрисида

2. Мирзиёев Шавкат Миромонович «Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз». Тошкент, Ўзбекистон, 2017.

3. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси Кенгашининг қарори, 25.11.2021 йилдаги 1563-IV-сон «Мамлакатимизда «Яшил макон» умуммиллий лойиҳаси доирасида белгиланган вазифалар»

4. https://yuz.uz/news/yangi-ozbekiston-massivlarini-qurish

5. https://xs.uz

УДК 725.9

КОВОРКИНГ МАРКАЗЛАРИНИНГ ШАКЛЛАНИШИДА МАҲАЛЛИЙ ТАЖРИБАЛАР

М.Т.Абдужаббарова., Р.И. Алимджанов

Тошкент архитектура-қурилиш университети, Ўзбекистон.

Аннотация: *Ушбу мақолада коворкинг марказлар бўйича маҳаллий тажрибалар таҳлили, бундай марказларни шаклланиш жараёнлари ва коворкинг марказлари қандай функционал бўлимлардан иборатлиги баён этилган.*

Калит сўзлар: *Коворкинг, марказ, ижара, мажлислар зали, ижтимоий, тадбиркорлик, хона, ишчи жойи, офис.*

Annotation: *This article describes the analysis of local experience in coworking centers, the processes of formation of such centers and the functional divisions of coworking centers.*

Key words: *Coworking, center, rent, meeting room, social, entrepreneurship, room, working place, office.*

Коворкинг марказлари — ёшлар тадбиркорлиги субъектларига имтиёзли шартларда бинолар, офис техникаси ва сарфлаш материалларини ижарага бериш, уларни Интернет жаҳон ахборот тармоғи билан таъминлаш, шунингдек, ёшларнинг бизнес ташаббуслари, стартаплари, ғоялари ва лойиҳаларини амалга оширишга бошқача кўмак бериш, жумладан, бизнес режалар ишлаб чиқиш, маслаҳат, юридик, бухгалтерия ва бошқа хизмат турларини кўрсатиш, форумлар, маҳорат дарслари ва семинарлар ташкил этишга мўлжалланган мажмуадир [1].

Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Yoshlar — kelajagimiz» Давлат дастури тўғрисида» 2018 йил 27 июндаги ПФ-5466-сон Фармонига мувофиқ, шунингдек, ёшларни бизнес билан шуғулланишга фаол жалб қилиш ҳамда уларнинг тадбиркорлик фаолиятини ҳар томонлама қўллаб-қувватлаш мақсадида Вазирлар Маҳкамасининг «Yoshlar — kelajagimiz» Давлат дастури доирасида давлат-хусусий шериклик шартларида «Yosh tadbirkorlar» коворкинг марказлари ва «Yoshlar mehnat guzari» комплексларини қуриш ҳамда фаолиятини ташкил этиш тартиби тўғрисидаги низом тасдиқланган .

Кейинги йилларда Ўзбекистон Республикаси шаҳарларида ҳам коворкинг марказлари қурилиши ривожланиб бормоқда. Тошкент шаҳри мисолида бир неча коворкинг марказларини кўришимиз мумкин.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 14 июлдаги 3856-сон қарори бўйича ишлаб чиқилган “Йўл харитаси”га мувофиқ, Ўзбекистон Республикаси Бандлик ва меҳнат муносабатлари вазирлиги ташаббуси билан “Ground Zero” ҳамкорлигида Сергели туманида коворкинг маркази ташкил этилди (1-расм).



1-расм. Сергели туманидаги коворкинг маркази умумий зали

Коворкинг маркази мустақил фаолият юритувчи (фрилансер) турли соҳа вакиллари, шахсий бизнес режаларини юзага чиқариш истагида бўлган фуқаролар учун қулай шароитларга эга иш жойи ҳисобланиб, у ерда касбга йўналтириш, ОТМ ва коллеж битирувчиларининг малакасини ошириш, самарали ишга жойлашиш бўйича мунтазам курслар, мастер класслар ва семинарлар ўтказиб борилади.

“Ground Zero” ҳақида ҳам тўхталиб ўтсак. Ground Zero - бу:

- бирон бир киши бир кундан бир неча ойгача ижарага олиши мумкин бўлган жиҳозланган иш жойи.

- ижодий муҳит ҳукм сурадиган жой, одамлар фаол равишда ниманидир муҳокама қиладилар, янги ғояларни ишлаб чиқадилар ва амалга оширадилар.

- муваффақиятли одамлар жамоаси;

-тармоқ, билим ва кўникмаларни ривожлантириш учун марказ.

- бизнес-лойиҳаларни қабул қилиш жойи;

Бу кенг хона, Интернетга уланган алоҳида ва умумий иш жойларига бўлинган, офис ускуналари билан тўлиқ жиҳозланган, шунингдек, бошқа ёқимли ва фойдали нарсалар. Бу ерда турли хил фаолият соҳа вакиллари ишлайди: тадбиркорлар, дизайнерлар, фотосуратчилар, копирайтерлар, дастурчилар, талабалар ва бошқалар [2].

“Ground Zero” да мижозлар ва шериклар билан учрашувлар, машғулот жойлари ва дам олиш жойларини ташкил қилиш учун учрашув жойлари мавжуд.

Бундан ташқари “Ground Zero” нинг бир нечта филиаллари мавжуд: Самарқанд шаҳрида ва Тошкент шаҳри Олмазор, Чилонзор туманларида, Ground Zero Kitob Olami, Ground Zero Техно Плаза кабилар (2,3,4-расмлар). “Ёшлар келажагимиз” давлат дастури ижросини таъминлаш мақсадида Олий ва ўрта махсус таълим вазирлигининг молиявий кўмагида Тошкент архитектура-қурилиш институтида талабалар коворкинг маркази ташкил этилди. Бу Республика ОТМлари орасида биринчи коворкинг маркази ҳисобланади.



2-расм. Самарқанд шаҳридаги коворкинг маркази



3-расм. Олмазор туманидаги коворкинг маркази



4-расм. Groun d Zero ТехноПлаза коворкингмаркази

Коворкинг марказида талабалар қизиқарли архитектура лойиҳалари устида ишлашлари, мустақил ёки гуруҳ билан ишлаган ҳолда тажриба алмашиш ва ўз ғояларини ривожлантиришлари, жамоат ишлари билан шуғулланишлари мумкин. Эътиборлиси, коворкинг марказининг дизайн лойиҳасидан тортиб, то хонанинг ички безагигача бўлган ишларни институт талабалари ўз устозлари билан биргаликда амалга оширишган.

Марказ ҳар хил шаклга эга бўладиган (трансформер) мебель, тақдимот ускуналари, маркерли тахта (доска)лар билан жиҳозланган ҳамда архитекторлар учун барча замонавий дастурлар ўрнатилган иккита алоҳида компьютер хонаси мавжуд (5-расм).

Коворкингнинг афзалликлари нимада?

Муваффақиятга интилаётган одамлар орасида бўлганингизда, самарадорлигингиз ошади ва сизнинг фикрлаш доирангиз чегара билмайди. Бундан ташқари, коворкинг марказида ҳеч ким сизни кундалик масалалар ва турли майда-чуйда нарсалар билан чалғитмайди.



5-расм. ТАҚИ қошидаги коворкинг маркази умумий зали

Бу ерда сиз янги мижозлар, шериклар, ҳамфикрлар ва дўстларни топиш учун ноёб имкониятга эга бўласиз.

Коворкинг марказида турли хил тадбирлар, тренинглар ва ўқув семинарлари доимий равишда ўз сирларини ошкор қилишдан ва ғалабалар сирларини баҳам кўришдан хурсанд бўлган таниқли бизнесменлар иштирокида ўтказилади, бу нафақат қизиқарли, балки сизга мотивация ҳам бўлади.

Адабиётлар:

1.ISSN 1991-5497. Мир науки. Культуры. Образования. N 6 (91) 2021.
2. groundzero/uz

УДК:72.0

ЎЗБЕКИСТОН ТОҒ ОЛДИ ВА ТОҒЛИ ҲУДУДЛАРИДА ТУРАР-ЖОЙ ВА ЖАМОАТ БИНОЛАРИНИ ТАШКИЛЛАШТИРИШ

А.И. Юсупова.
Самарқанд давлат архитектура-қурилиш университети, Ўзбекистон.

Аннотация: *Ўзбекистон тоғ олди ҳудудларида аҳоли масканлари, турар-жой ва жамоат биноларининг меъморий режаси, ҳажмий-фазовий ечимлари, композицияси, иморатлар қурилишига таъсир кўрсатадиган асосий омиллардан асосийси табиий-иқлим шароитидир. Ҳар қандай турар-жой ва жамоат биноларини қаерда қурилишидан қаттий назар уларнинг жойлашиш жойи чуқур ўрганилган ҳолда лойиҳаланади.*

Таянч сўзлар: *турар-жой, архитектура, иқлим, табиий шароит, тоғли ҳудуд, районлаштириш ва бинолар.*

Инсон ҳаёти кенг маънода архитектура ва табиатни ўз ичига олган атроф-муҳитда ўтади. Уларнинг ўзаро уйғунлиги инсон фаолиятининг зарурий шартидир. Қулай ва гўзал шаҳарлар, архитектуравий ансабллар, саноат ва турар-жой мажмуалари, қишлоқ хўжалик қурилмалари, табиий ландшафт инсон учун қулай бўлган атроф муҳит ҳисобланади. Шундай қилиб, табиатни ҳимоя қилиш ва унинг бойликларидан мақсадга мувофиқ, тежамли фойдаланиш-ҳозирги замон архитектурасининг асосий масалаларидандир. Шунингдек, ер майдонларидан унумли фойдаланиш ва тоғли ҳамда тоғ олди ҳудудларда аҳоли масканлари,

турар жой ва жамоат биноларини лойиҳалаш ва аҳолига шинам шароитларни яратиш муҳим масаладир. Ўзбекистонда йилдан йилга аҳоли сони ошиб бормоқда ва тоғ олди ҳудудлардан аҳоли яшаши турар жойларини ташкил этилиши керак. Бу учун архитектуравий жиҳатдан барчаси инобатга олиниши муҳим, яъни текисликлар, қир-адирлар, табиий иқлим шароитлар, ҳажвий-фазовий ечимлар ва ижтимоий-демографик жиҳатлар асосий омиллардан иборат. Ўзбекистон ҳудуди икки қисмга бўлинади, (78,7 %) қисми текисликлардан , қолган (21,3%) қисми тоғлардан ва тоғ оралиғидаги ботиқлардан иборат[1]. Аҳоли яшаш жойлари асосан текисликларда жойлашган, келажакда демографик ўзгаришларни ҳисобга олиш, тоғли ҳудудлардан ҳам унумли фойдаланиб ва муҳитга хос бўлган ишлаб чиқариш заводларини ҳам ташкил этиш мақсадга мувофиқдир.

Ўзбекистон тоғ олди ҳудудларида аҳоли масканлари, турар-жой ва жамоат биноларининг меъморий режаси, ҳажмий-фазовий ечимлари, композицияси, иморатлар қурилишига таъсир кўрсатадиган асосий омиллардан асосийси табиий-иқлим шароитидир. Минтақаларда турар-жой бинолари лойиҳаланиши бўйича бир қанча талаблар мавжуд. Турар-жой биносининг лойиҳавий ечими ёзги жазирамадан, шамол ва чангдан ҳимояланиши керак. Уй-жой биноларининг ихчам, ёпиқ ёки ярим ёпиқ, турар-жой хоналарини шамол ва чангдан ҳимояланган ҳовли томонга очилишини таъминловчи максимал кенг корпусли режавий ечимларини қўллаш тавсия этилади. Ёзги хоналарни уй-жой биносининг ичкарисида жойлаштиришни режалаштириш лозим. Уй-жой биноларининг меъморий-режавий ечимлари иқлимнинг мақбул шароитидан максимал тўлиқ тарзда фойдаланишга ва шу билан бирга жазирама иссиқдан ҳимоя қилишга қаратилган бўлиши лозим. Жазирамадан ҳимоялаш иморатни соялаш турар-жойнинг ташқи муҳитга очилиши, салқин шамолларнинг мақбул йўналишларини ҳисобга олган ҳолда очиқ ва бурчакли шамоллатиш ҳисобига таъминланади[2]. Турар-жой биноларининг меъморий режавий ечимлари қишдаги экстремал иқлимий таъсирлардан ишончли тарзда ҳимояланишни, шунингдек тўғри ва қайта қияликларга эга бўлган мураккаб рельефларда қўлланилишини ҳисобга олиниши керак. Табиий-иқлим ва ландшафт шароитлари қулай бўлган тоғ олди воҳалари, водий ва паст тоғли ҳудудларда ёзги ҳарорат плюсда 35,7 градусда, қишки ҳаво ҳарорати минус 15 градусда тавсифланади. Қишки экстремал шароитларга эга бўлган тоғли ҳудудлар ёзги ҳаво ҳарорати плюс 30 градусда, қишки ҳаво ҳарорати минус 20 градусда бўлиши ҳисобга олган ҳолда турар-жой биноларини лойиҳалаш талаб этилади[3]. Амалий қурилишда иқлимшунослик фанининг сезиларли ривожланиши нафақат тегишли қурилиш меъёрий ҳужжатлар («ҚМҚ 2.07.01.94 Турар жой бинолари» “шаҳарсозлик”. ШНҚ 2.08.01-05 “Турар жой бинолари” ва бошқалар)да , балки бир қатор турар-жойлар ва шаҳарсозлик типизация масалаларини ечишда табиий-иқлим шартларини баҳолаш услубларини ишлаб чиқиш ҳамда районлаштириш услубларини такомиллаштиришга қаратилган тадқиқотларда ҳам ўз аксини топган.

Ҳар қандай турар-жой ва жамоат биноларини қаерда қурилишидан қаттий назар уларнинг жойлашиш жойи чуқур ўрганилган ҳолда лойиҳаланади. Асосан ердан унимли фойдаланиш, бунда ерлар зоналаштирилади бу ҳудудни ривожлантиришнинг фойдаланишдаги чеклашларни белгилаб олган ҳолда унинг функционал мақсадга кўра бўлиниши англатади[4]. Аҳоли пунктларининг хусусиятидан келиб чиқиб, уларнинг бош режа лойиҳаларида ҳудуднинг ўртача зоналарга бўлиниш структураси қуйидагича, жами-100 фоиз деб оладиган бўлсак, аҳоли пунктларининг турар-жой ҳудудлари-75 фоизни ташкил этади. Ишлаб чиқариш ҳудудлари -7-10 фоизни, йўллар ва кўчалар-10 фоизни, умумий фойдаланишдаги яшил майдон ҳудудлари-2 фоизни, санитар-химоя яшил ҳудудлар-1 фоизни

ва бошқа худудлар -2 фоизни ташкил этади[5]. Бу кўрсаткичлар турар-жой биноларини режалаштирилган дастурларга қараб ўзгариши ҳам мумкин.

Ўзбекистон аҳолисининг йилдан йилга кўпайиб бориши натижасида шаҳар ва қишлоқларимизда турар-жой биноларига табал ҳам ортиб бормоқда, бунинг натижасида шаҳарларда ва шаҳар марказларида ўрта ва кўп қаватли турар-жой бинолари қурилмоқда. Қишлоқларда ва тоғ олди ҳудудларда ҳам аҳоли пунктлари ва инсонларнинг саломатликлари учун дам олиш масканлари лойиҳаланмоқда. Аҳоли турар-жойларининг қурилиши натижасида жамоат бинолари ҳам ташкил этилади ва буларнинг барчаси инсонларнинг шароитларини яхшиланишига олиб келади. Ҳар бир шаҳар, қишлоқ ва маҳаллаларда аҳолининг турмуш даражасидан яъни яшаш муҳитидан келиб чиқиб жамоат бинолари лойиҳаланади. Чунки, ҳар бир ҳудудни аҳолисини сонига қараб ва уларнинг меҳнат фаолиятидан келиб чиқиб жамоат бинолари лойиҳаланади.

Мисол учун минг кишилик яшайдиган маҳаллада аҳоли сонига нисбат қилиб хизмат кўрсатиш муассасаларининг меъёрларидан келиб чиқиб қандай бинолар ва қанча миқдордаги ер майдонларидан фойдаланишни кўриб чиқамиз. Умумий турдаги болалар мактабгача муассасалари 1000 аҳолига 90-155 ўринли, умумтаълим муассасалари 1000 аҳолига 175-280 ўринли, поликлиникалар ва шифохоналар 1000 аҳолига 35 навбат киши, бозорлар 1000 аҳолига 24-40 кв.м. савдо майдони ва спорт заллари 1000 аҳолига 60-80 кв.м. пол майдони ҳисобида тақсимланади[6].

Сўнгги йилларда шаҳар ва қишлоқларимизни меъморий қиёфасини сифат жиҳатдан шаҳарсозлик нормалари ва қоидалари ҳамда тасдиқланган бош режалар, намунавий лойиҳалар асосида ижтимоий инфраструктураларни, транспорт ва муҳандислик тармоқларини ривожлантириш орқали шаҳар ва қишлоқ аҳолиси турмуш даражасини тубдан ўзгартириш, уй-жойлар ва ижтимоий соҳа иншоатларини барпо этиш масаласи принципиал мухим ва хал қилувчи аҳамият касб этиб, бу борада шаҳарлар ва қишлоқлар учун алоҳида-алоҳида махсус давлат дастурлари қабул қилиниб ҳаётга жорий этилиб келинмоқда.

Хулоса қилиб айтганда, ҳар бир лойиҳаланаётган турар-жой масканларини текисликдами ёки тоғ олди ҳудудлардами, ҳар қандай шароитларда ҳам уни ҳар томонлама ҳисоб-китоблар қилиниб, меъёрий қонун- қоидаларга амал қилган ҳолда қурилиш ишларини амалга ошириш ўринлидир. Шу ўринда аҳоли турмуш даражасини инобатга олиб, улар учун барча қулай шароит яратиш ва ҳудудга мос равишда ишлаб чиқариш зоналарини ташкил этиш керак. Бугунги кунда аҳоли сони кундан кунга кўпайиши натижасида тоғли ва тоғ олди ҳудуларидан унумли ва мақсадли фойдаланиш катта самарали бўлиб хизмат қилади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Қодиров Р.Б. Ўзбекистон табиий географияси ўқув-услубий мажмуа. Андижон-2020.
2. Нозилов Д.А. Зодчество горных районов средней азии. Тошкент-1999.
3. Шарипов Ш.М. “Ўзбекистон географияси” фани бўйича тайёрланган ўқув-услубий мажмуа.
4. Исамуҳамедова Д.У, Мирзаев М.К. “Замонавий шаҳарсозлик назарияси” ўқув қўлланма. Тошкент-2015.
5. ШНК 2.08.01-05. Турар-жой бинолари. Тошкент-2006.
6. ШНҚ 2.07.01-03*. Шаҳар ва қишлоқ аҳоли пунктлари ҳудудларини ривожлантириш ва қурилишини режалаштириш. Тошкент-2009.

UDK: 728.2

KO‘P QAVATLI UYLARDA YASHASH QULAYLIGINING QAVATLAR SONIGA VA TO‘G’RI LOYIHALASHGA BOG’LIQLIK JIHATLARI

D.A. Arziyev., D.A. Shaumarova Dilnoza., G‘.A. Meliqulov., J.K. Igitov.
Toshkent arxitektura qurilish universiteti, O‘zbekiston.

Annatatsiya: Mazkur maqolada ko‘p qavatli uylarda yashash qulayligining qavatlar soniga bog’liqlik jihatlari haqida yashovchilarning fikr-mulohazalari asosida tahlil qilingan ma’lumotlar keltirilgan. Bundan tashqari bu jihatga mutaxassislarning fikri va xalqaro tadqiqot xulosalariga ham to‘xtalib o‘tilgan. Bundan tashqari qurilish loyihalash jarayonidagi ayrim kamchiliklarning sabablari va oqibaltari misollar orqali tahlil qilingan.

Abstract: This article presents information analyzed based on the opinions of residents about the aspects of the comfort of living in multi-story buildings depending on the number of floors. In addition, experts opinions and international research conclusions were also touched upon in this aspect. In addition, the causes and consequences of some shortcomings in the construction design process are analyzed through examples.

Kalit so‘zlar: Biologik ta’sir, mikroiqlim, elektromagnit nurlanishi, binoning potensial shikastlanishi, strukturaviy shikastlanishlar

Key words: Biological impact, microclimate, electromagnetic radiation, potential damage to the building, structural damage.

Aholi ko‘paygani sari katta shaharlarda ko‘p qavatli uylarga talab oshib boryapti va talabga yarasha taklif ham ortgan. Kimdir yuqori qavatdagi uylarni tanlashiga tepadan ko‘rinadigan chiroyli manzara desa, kimdir zilzila vaqtida chiqib ketish qulay deb pastki qavatni tanlaydi. O‘zbekistonda oxirgi vaqtlarda 7 va 9 qavatli uylar ko‘proq qurilmoqda. Shuningdek, 12 va 16 qavatli uylar qurilishi ham ancha ko‘paygan. Qurilish vazirligining bergan ma’lumotiga ko‘ra, eng yuqori qavatli binolarning aksari Toshkent shahrida qad ko‘tarmoqda. Shular orasida “Toshkent city” hududidagi restoran, mehmonxona va savdo shoxobchalari joylashgan 51 qavatli imorat mavjud. Bundan tashqari 265 metr ko‘kka bo‘y cho‘zgan “Nest One” eng balandi hisoblanadi.

Undan tashqari, Shayxontohur tumanidagi I.Karimov va Bunyodkor ko‘chalari kesishuvida joylashgan savdo-maishiy va ofis shoxobchalari va mehmonxonani o‘z ichiga olgan 26 qavatli turar joy binolari ham bor. Mirzo Ulug‘bek tumani Do‘rmon yo‘li ko‘chasida joylashgan ko‘p tarmoqli IT-Park kompleksi ham 25 qavatli bo‘lib, poytaxtning eng baland binolaridan hisoblanadi[5].



1-.rasm. Toshkent cityning yuqoridan ko’rinishi

Facebook ijtimoiy tarmog‘ida o‘tkazilgan kichik so‘rovnomada aholi nechanchi qavatlardan uy olishni afzal ko‘rishi va buning sabablariga to‘xtalib o‘tgan. 400dan ziyod izohlar yig‘gan postda aksariyat foydalanuvchilar 1-2-3-qavatlardan uy olishni tavsiya qilishgan va quyidagicha izohlar yozishgan: “2-3-4-qavatlar eng yaxshi variant. 1-qavat nam bo‘ladi. 5-qavatdan uyog‘i og‘ir yuklar uchun minus”; “4-5-qavatdan g‘ishtli uy oling. Quyosh tushishi va shabada yurishi hisobini oling”; “25 yildan buyon ko‘p qavatli (mahallamizda o‘zi 2 qavatli uylar hammasi) domda yashayman. Albatta, 1-qavatda yashaganim uchun yozyapman. Hech qanaqa yomon joyi yo‘q. Zax

ham emas. Qishda issiq, yozda salqin. Balki, 2 qavatli uylar bo‘lgani uchundir. Podval yo‘q, pashsha yo‘q. Tinch, sokin”; “1-qavat yaxshi maksimum 2-qavatdan oling. Sababi shuki, og‘ir yuklaringiz bo‘lsa, tez olib kirasiz, shkaf yoki shunga o‘xshash. Pastki qavatdan bo‘lsangiz, zilzila vaqtida tez chiqishingizga qulay imkon bo‘ladi. Yana Alloh bilguvchi, asraguvchi”; “1-qavatda turamiz. Hech qanaqa muammo yo‘q. Hovlimiz bor, orqa tomondan eshik bor. Mevali daraxtlar bor, hovlidan farqi yo‘q”; “2-3-qavatlar maklerlar tilida “zolotoy” deyiladi”; “Zo‘ri 2-qavat deb bilaman. 3 ham yomonmas! 2-qavat tushib chiqishga qiyinmas. 1-qavatda ijarada yashab ko‘rganman, kechqurun pardangiz sal ochilib qolsa, uy ichi tashqaridan ko‘rinadi”; “Ikkinchi qavatni tavsiya etaman birinchi qavatga podvalning zaxi uradi, ikki balandlik qilmaydi, chiqib tushishga qulay, iloji boricha o‘rta podezddan oling, burchak bo‘lib qolmasin” [5].

Izohlar orasida aynan birinchi qavatning salbiy tomonini yozganlar ham bor: “1-qavatni umuman tavsiya qilmayman. Hozirgi uylar qisqa vaqtda qurib bitkazilayotgani uchun 4-5 yildan keyin polingiz trambovkasi ko‘chib, laminatlar ko‘tariladi. Zax hidi bo‘ladi”; “Eng yuqoridan 2 qavat pastroqdan oling” (tomdan suv o‘tsa sizga tushguncha boshqalar harakat qilishadi); “Nima bo‘lsa ham birinchi qavatdan olmang. Yerto‘lada suv toshsayam sizga hidi chiqadi. Hamma musor pastda. 15 yildan beri 1-qavatda yashayman”; “2-qavat ham yaxshi emas. Tagida do‘kon bo‘lsa, tarakan yoki sichqon to‘lib ketadi. Agar restoran bo‘lsa, hidi chiqib turadi”; “Katta ko‘chaning yuzidagi (birinchi qator)dan olmang iloji bo‘lsa. Shovqin va chang zarralari, mashinalardan chiqadigan gaz isi bo‘ladi”; “1-qavatdan olmang. Yerto‘la sizning bo‘yningizda, suv kanalizatsiya toshib ketsayam hech kimning ishi bo‘lmaydi. Ko‘chani sizdan boshqa hech kim tozalamaydi, zax, qishda isitish qiyin, yozda ko‘chada kech 12gacha o‘tirishadi, shovqin shundoq eshitilib turadi”.

Shuningdek, ko‘p qavat uylarning eng tepa qavati afzal tomonlarini yozganlar ham talaygina; “Uyning necha qavatligiga qarang avvalo. Balandrog‘ida havo o‘ynaydi, toza havo doimo bor, pashsha bo‘lmaydi, atrof zo‘r ko‘rinadi, juda quyoshli bo‘lsa, konditsionersiz qiyin”; “Eng tepadan oling. Alloh asrasin, zilzila bo‘lsa, birinchi sizni kovlab olishadi”; “Yuqori qavatda uyga chang ancha kamroq kiradi. Pod’ezd toza turadi, tepaga chiqishga qiynalmasangiz, tepa ham yaxshi, lift bo‘lsa bilinmaydi”; “Men to‘rtinchi qavatda turaman. Eshigim ochiq turaveradi. Hech kim zinadan do‘pir-do‘pir qilib tushmaydi. Tinch, tepadan hech kimning oyoq ovozi eshitilmaydi. Doim toza turadi” [5].

talablarga javob beradi. Loyiha qurilish me'yoriy qoidalari asosida ishlab chiqildi. Bu bino Toshkent shahrining ko'rkiga ko'rk va yanada fayz qo'shadi. Hozirda O'zbekiston ko'pgina xorijiy davlatlar bilan ijtimoiy, iqtisodiy siyosiy aloqalarni mustahkamlab bormoqda. Ta'lim sohasida ham tubdan o'zgarishlar kuzatilmoqda. Xorij talabalarni jalb etish, yokida universitetlar va institutlar o'rtasida talabalar almashinuvini yo'lga qo'yishda talabalar turar-joylari ham muhim ahamiyatga ega. Ushbu taklif loyihamda nafaqat yurtimiz talabalari balki xorij talabalari istiqomad qilishlari uchun mo'ljallangan. Keyingi o'rinlarda talabalar turar joyi loyihasi bilan yaqindan tanishib chiqamiz.





1-rasm. Mirzo Ulug'bek tumani, Dormon Yo'li ko'chasi, 2-rasm.Taklif etilayotgan loyihaning old ko'rinishi. 34 uyda joylashgan TTJ.

Ushbu sur'atlarda yurtimizdagi an'anaviy talabalar turar joyi hamda yangicha zamonaviy talqinda taklif etilayotgan loyihaning perspektiv ko'rinishlarini ko'rishimiz mumkin. Vazifa deyarli bir hil ammo tashqi dizayn va imkoniyatlar turlicha. Loyihalanayotgan haqida haqida hapiradigan bo'lsak, bino erto'la va 5 ta qavatdan iborat. Tarxiy echimlar ishlab chiqilishida binoning funksiyasidan kelib chiqqan holda ishlab chiqilgan. Bundan tashqari loyiha SHNK va QMQ larning barcha talablarga mos ravishda loyihalangan [6].

Yerto'lada talabalar yotoqxonasining sport bilan shug'ullanish uchun mo'ljallangan xonalari, ustaxona, texnik xonalari loyihalangan. Tabiiy yorug'likni tushishi ta'minlangan. Birinchi qavatda "Coworking" markazi hamda talabalar yotoqxonasida bo'lishi shart bo'lgan xonalar joylashgan. Coworking markazi asosan ofislardan iborat, u erni talabalar ijaraga olib o'zlari istagan faoliyat turida foydalanishlari mumkin bo'ladi. Talabalar yotoq xonasini bunday qilib loyihalashdan asosiy maqsad talabalarni ish bilan ta'minlash, o'z-o'zlarini moliyalashtirish va yuqorida keltirib o'tilgan qaror asosida amalga oshirilgan.

Binoning ikkinchi qavatidan boshlab talabalar yotoq xonalari loyihalangan. Bu qavat talabalarning ovqat tayyorlashi, ovqatlanishi, dam olishi, dars tayyorlashi uchun mo'ljallangan xonalar joylashtirilgan. tayyorlashi uchun mo'ljallangan xonalar joylashtirilgan. Ushbu loyhada yotoqxonalar yacheyka sifatida olinib, bitta yacheykada 2-3ta yotoq xona, hojatxona va yuvinish xonasidan iborat. Yotoqxonalar ham o'z sinfiga qarab 1 o'rinli, 2 o'rinli, 3 o'rinli hamda 4 o'rinlilarga bo'linadi.

Qaytariluvchi qavat: Loyihalanayotgan binoning qolgan qavatlari ya'ni 3-4-5 va 6 qavatlari qaytariluvchi qavat hisoblanadi va 2 qavat qanday loyihalangan bo'lsa yuqori qavatlarda ham xonalar shu asnoda joylashtirilgan.

Tarz. Tarz qismiga ishlov berishda yon-atrofga mos tashqi ko'rinish yaratish lozim. Ko'plab eskizlar tayyorlanib binoga butunlay yangicha zamonaviy ko'rinish berildi. Bino atrofida yashash hududlari, katta yo'l qismi mavjud bo'lganligi sababli landshaft hududi tashkil qilinishi zarur deb hisoblandi. Bino atrofiga o'zbek milliy ornamentlari asosida o'zgacha landshaft kompozitsiyasi ham yaratildi.



3-rasm.Tarz.

Dizayn echimi murakkab bo`lmagan, insonlar ko'rganida agressiv holatni paydo qilmaydigan, oson bo`lgan shakllardan foydalanilgan va rang baranglikda ham oshirib yubormaslik asab tizimiga yaxshi moslashadigan ranglardan foydalanish maqsadga muvofiq degan xulosaga keldim.



4-rasm. Perspektiv ko'rinishlar.

Xulosa. Arxitektura obektlarini shu loyiha kabi zamonaviy hamda ko'p funksiyali qilib loyihalash har tomonlama avfzal deb hisoblayman. Ushbu loyihada na faqat tashqi dizayn balki qulay planirovka, binoning yuqori energiya tejash imkoniyati, turli favqulotda vaziyatlarga bardoshliligi muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari Prizidentimiz tashabbuslari bilan talabalar yotoqxonalari barpo etishga katta ahamiyat berila boshlandi va yangi qonunlar ishlab chiqilmoqda hamda amaliyotga tadbiq etish uchun ishlar olib borilmoqda. O'ylaymanki yaqin kelajakda talabalar rurar-joylari muammolari butunlay hal etiladi. Bu kabi ijobiy ishlarning katta qismi kelajagimiz bo'lgan yoshlarga keng yo'l ochib berilayotganligiga dalolatdir. Loyiha haqida shuni aytib o'tmoqchimanki, bu loyiha amaliyotga tadbiq etilsa shahrining ko'rkiga ko'rk va yanada fayz qo'shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sh. Abdullayev "Arxitektura tarixi" Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi Toshkent - 2018
2. "Arxitekturaviy loyihalash asoslari" X. P o 'latovning umumiy tahriri ostida «NOSHIR» TOSHKENT – 2010
3. http://lib.jizpi.uz/pluginfile.php/18909/mod_resource/content/0/Arxitekturaviy%20loyihalash%20asoslari%20%281%29.pdf
4. https://fayllar.org/pars_docs/refs/1010/1009016/1009016.pdf
5. https://abt.uz/blog/talabalar-yotoqxonasi-haqida
6. https://mc.uz/gradostroitelnye-normy/

UDK: 721.011

UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABI BINOLARINI LOYIHALASHDAGI ARXITEKTURAVIY TAMOYILLAR

(Farg‘ona shahridagi Prezident maktabi misolida)

v.b.dots. O‘.Sh. Jo‘rayev., F.T. G‘ofurova.
Farg‘ona Politexnika instituti, O'zbekiston.

Annotatsiya: *Ushbu maqolada umumiy o‘rta ta’lim maktablariga hukumatimiz tomonidan qaratilayotgan e’tibor va amalga oshirilayotgan islohotlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar, shuningdek, Farg‘ona shahridagi Prezident maktabining hajmiy-rejaviy echimlari to‘g‘risida batafsil ma‘lumotlar keltirilgan.*

Annotation: *this article presents information about the attention and reforms being carried out by our government to general secondary education schools, as well as detailed information about the volumetric and plan solutions of the presidential school in Fergana.*

Kalit so‘zlar: *umumiy o‘rta ta’lim muassasalari, Prezident maktabi, arxitektura muhiti, ta’lim sifati, hajmiy-rejaviy echim, oriyentatsiya, azimut, tarx.*

Keywords: *: general secondary educational institutions, presidential school, architectural environment, quality of Education, volumetric-plan solution, orientation, azimuth, plan.*

Jahonda ijtimoiy-madaniy sharoitlarga bo‘lgan ehtiyojning ortib borishi, kundalik hayotda texnik va intellektual muammolarni hal qilishi hamda inson hayotining butun davri davomida zarur bo‘ladigan bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi uchun umumiy o‘rta ta‘lim muassasalari etakchi o‘rinni egallaydi. Har bir mamlakatning iqtisodiy qudrati, ijtimoiy-ma’naviy hayot darajasining yuksalishi ta’lim tizimining raqobatbardoshligi ilm-fan taraqqiyoti bilan belgilanadi. Ijtimoiy-iqtisodiy va texnologik taraqqiyot umumiy o‘rta ta'lim negizida kuzatilayotgan mavjud muammolar echimini kreativ yondoshgan holda ishlab chiqishni taqozo etmoqda. Yangi ilmiy bilimlar ta’siri ostida ta’lim mazmuni va jarayoniga qo‘yiladigan talablar ham tez suratlarda o‘zgarib bormoqda.

Bugungi kunda mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirzoyoyev tomonidan umumiy o‘rta ta’limni yangi rivojlanish bosqichiga ko‘tarish, milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari barqaror taraqqiyotga olib bora oladigan raqobatbardosh kadrlarni tayyorlab berish maqsadida ilg‘or milliy va xorijiy tajribalar, xalqaro baholash dasturlari talablarini inobatga olgan holda o‘quv dasturlari, yangi adabiyotlar va boshqa me’yoriy hujjatlar ishlab chiqilishiga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Shuningdek, umumiy o‘rta ta’lim maktablarida ta’lim olayotgan o‘quvchilar rivojlangan mamlakatlarda ta’lim olishi, yashashi va ishlashi uchun zarur ko‘nikmalarni shakllantirish dolzarb masalaga aylanib bormoqda. Zamonaviy fikrlaydigan, yuqori saviyali, o‘zlashtirgan bilimlarini amaliyotda qo‘llay oladigan kadrlarni etishtirish hozirgi kun talabidir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-fevraldagi “2022 – 2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini [1] “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga oid davlat Dasturi” to‘g‘risidagi PF-27-sonli Farmonida [2] ta’lim sifatini oshirish, sohani ilg‘or xorijiy tajriba asosida isloh qilishda:

- o‘quvchilarning ijobiy ijtimoiylashuvi imkoniyatlarini namoyon qilish;
- ularni har tomonlama shaxsga oid ma’naviy-axloqiy va ongli rivojlantirish;
- maktab yoshiga oid tegishli faoliyat turlari asosida tashabbuskorligi va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish;
- muloqot doirasida katta yoshdagi insonlar va tengdoshlari bilan hamkorlik qilish imkoniyatlarini ochishda umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining arxitekturaviy tendensiyalarini hisobga olish, shuningdek, umumiy o‘rta ta‘lim maktablari uchun arxitektura makonini tashkil etish

masalasiga alohida ahamiyat qaratilgan.

Yoshlarning intellektual va ijodiy salohiyatini rivojlantirish, iqtidorli bolalarni qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, ularning huquqiy ong va huquqiy madaniyati darajasini yuksaltirish xalq ta’limi sohasidagi davlat siyosatining eng muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Mamlakatning kelgusidagi jadal taraqqiyoti yosh iste’dodlarni aniqlash, iqtidorli bolalarni tanlab olish va o‘qitish tizimini tashkil qilish, o‘sib kelayotgan avlodning intellektual imkoniyatlarini namoyon etishga yordam beruvchi ko‘p tarmoqli ta’lim muhitini yaratish bo‘yicha ishlar sifatini oshirish zaruratini taqozo etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 20 fevraldagi “Prezident maktablarini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4199-sonli Qarorida [3], iqtidorli bolalarni aniqlash, ta’lim jarayonida ilg‘or texnologiyalarni qo‘llagan holda ularni o‘qitish va tarbiyalash bo‘yicha yaxlit tizim yaratish, iste’dodli yoshlarni yanada qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish, ma’nan etuk va intellektual jihatdan barkamol avlodni shakllantirish maqsadida 2017 – 2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili”da [4] Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida ixtisoslashtirilgan davlat umumta’lim muassasasi shaklidagi Prezident maktablari tashkil etildi. Prezident maktablarining asosiy vazifalari etib iqtidorli bolalarni aniqlash, tanlash va o‘qitish, ularning har tomonlama rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, shuningdek o‘quvchilarning intellektual, ilmiy va ijodiy salohiyatini ochib berish kabi vazifalar o‘z echimini topdi.

“Prezident maktablarini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4199-sonli Qarorida [5]:

- Prezident maktabining yillik qabul kvotasi 24 nafar o‘quvchidan iboratligi va unda ikkita sinfga bir xil – 12 nafardan o‘quvchi taqsimlanishi;
- Prezident maktablarida ta’lim jarayoni xorijiy ta’lim muassasalari bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan o‘quv rejalari va dasturlari bo‘yicha ingliz tilida amalga oshirilishi;
- asosiy o‘quv dasturi bilan birgalikda Prezident maktablarida o‘quvchilarning qiziqishlaridan kelib chiqqan holda sinfdan tashqari amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazilishi kabi bir qator vazifalar nazarda tutilgan.

Respublikamizning barcha hududlarida bunyod etilgan Prezident maktablari xususan, Farg‘ona shahrida ham 2021 yilda qurilib foydalanishga topshirildi (1-rasm).



1-rasm. Farg‘ona shahridagi prezident maktabining umumiy ko‘rinishi

Farg‘ona shahridagi prezident maktabi 168 o‘rinli o‘quv binosi va shuncha o‘ringa mo‘ljallangan yotoqxona, sport zali, basseyn, oshxona, sport maydonlari, 15 o‘rinli o‘qituvchilar mehmonxonani o‘z ichiga oladi. Fan xonalari, laboratoriyalar, sport zallarda eng zamonaviy

sharoitlar yaratilgan. Maktab sinfxonalari jahon andozalariga mos holda har bir fan uchun maxsus jihozlangan (2-rasm). Xonalarga kirishda o‘rnatilgan elektron doskalarda dars jadvali, tanaffus vaqti, o‘qituvchi haqida qisqacha ma’lumot berib boriladi [8].




2-rasm. Farg‘ona shahridagi prezident maktabi sinf xonalari

O‘quv jarayoni Kembrij universiteti bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan o‘quv reja va dasturlar asosida ingliz tilida amalga oshirilmoqda. Buning uchun AQSh, Buyuk Britaniya, Yangi Zelandiya, Filippin va Janubiy Afrika kabi davlatlardan 10 nafar chet ellik yuqori malakali mutaxassis tanlab olinib, dars mashg‘ulotlariga jalb qilingan. Shuningdek, 20 nafar tajribali mahalliy o‘qituvchilar ham o‘quvchilarga saboq berib kelmoqda.

Prezident maktabi binosining hajmiy-rejaviy echimi.

Prezident maktabi kompleksinidagi asosiy xonalarining oriyentatsiyasi janubiy va janubiy-sharqiy oriyentatsiyasida joylashgan. Derazalar 75-285° azimutga qaratilgan oriyentatsiyasida joylashgan bo‘lib, bu o‘z navbatida xonalarni isib ketishni oldini oladi. O‘quv xonalarida to‘g‘ri insollyatsiyasini tashkil etish uchun quyoshdan himoyalovchi elementlardan keng foydalanilgan.

Farg‘ona shahar markazi hududida qurilgan “Prezident maktabi” kompleksi o‘zining hajmiy – rejaviy echimlariga ko‘ra zamonaviy loyihalash talablari asosida ishlab chiqilgan. Binoning rejadagi shakli murakkab shaklda bo‘lib, u 3 ta blokdan iborat (3-rasm).



3-rasm. Blok sxema

Birinchi blok (A blok) gabarit o‘lchamlari: AA-LA o‘qlari orasidagi masofa 33,0 metrni va 1A-17A o‘qlari orasidagi masofa esa 87,9 metrni tashkil etadi. Mazkur blokda o‘quv mashg‘ulotlari xonasi, amfiteatr, ovqatlanish blogi, ustaxona, omborxona, musiqa va dramma mashg‘ulotlari xonasi hamda turli to‘garaklar uchun xonalar loyihalangan (4-rasm).

1-qavat tarxi




2-qavat tarxi




4-rasm. Birinchi blok, 1-2 qavatlar tarxlari

Ikkinchi blok (B blok) gabarit o‘lchamlari: 1B-2B o‘qlari orasidagi masofa 12,0 metrni, va AB-IB o‘qlari orasidagi masofa esa 36,5 metrni tashkil etib, unda suzish havzasi va gimnastika zali loyihalangan (5-rasm).

Uchinchi blok (V-blok) gabarit o‘lchamlari: 1V-4V o‘qlari orasidagi masofa 18,0 metrni va AV-RV o‘qlari orasidagi masofa esa 37,8 metrni tashkil etib, unda asosan o‘quvchilar yotoqxonasida ikki va to‘rt kishilik yashash xonalari, mehmonlar uchun maxsus joylar, sanitariya tuguni va boshqa xonalar loyihalangan (6-rasm).



5-rasm. B blok tarxi



6-rasm. V-blok tarxi

Loyihalanilayotgan binoning umumiy uzunligi 100,5 metrni, eni esa 54,8 metrni tashkil qiladi. Ushbu bloklar bir-biri bilan eni 0,5 metrlik seysmik va harorat choklari bilan ajratilgan. Loyihalanilayotgan binoning A blogi 2 qavatli, B-blogi 1 qavatli va V-blogi esa 3 qavatli qilib loyihalangan. A-blokning xona balandligi 3,44 metrni, qavat balandligi esa 4,16 metrni, umumiy balandligi esa 9,64 metrga teng. B-bloklar xona balandligi 7,52 metrni, umumiy balandligi esa 9,16 metr tashkil etadi Loyihalanilayotgan binoning V-blokning xona balandligi 3,19 metrni, qavat balandligi esa 4,16 metrni, umumiy balandligi esa 14,01 metrni tashkil etadi.

“Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” degan tamoyilga asoslangan holda, milliy g‘oya va uning mafkuraviy negizlarini puxta ishlab chiqish, yosh avlodni bolalikdan milliy g‘urur va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash dolzarb ahamiyatga ega.

Bugungi kunda jamiyat, madaniyat va ta’lim jadal rivojlanishida shahar yoki tuman muhitini o‘zgarishida umumiy o‘rta ta’lim maktablari binolarini “eski uslubda” loyihalash va rekonstruksiya qilishdan voz kechish, uzluksiz ta’lim tizimining muhim bo‘g‘ini bo‘lgan umumiy ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, umumiy o‘rta ta’lim muassasalari davlat va nodavlat tarmog‘ini kengaytirish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, ularni malakali pedagog kadrlar bilan ta’minlash, umumiy o‘rta ta’lim muassasalariga o‘quvchilarni qamrab olishni keskin oshirish, ta’lim-tarbiya jarayonlariga zamonaviy ta’lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish hamda umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari arxitektura muhitini shakllantirish orqali o‘quvchilarni har tomonlama

intellektual, ma’naviy-estetik, jismoniy rivojlantirish hamda ularni kasbga yoki ta’limning keyingi bosqichiga tayyorlashda Prezident maktablarining o‘rni va salmog‘i yuqori bo‘lishiga ishonaman.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022 – 2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-fevraldagi 2022 – 2026 yillarga mo‘ljallangan yangi o‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yilida amalga oshirishga oid davlat Dasturi” to‘g‘risidagi PF-27-sonli Farmoni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 20 fevraldagi “Prezident maktablarini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4199-sonli Qarori.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2017 – 2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturi to‘g‘risida”gi PF-5635-sonli Farmoni.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 20-fevraldagi “Prezident maktablarini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4199-sonli Qarori.
6. Tursunov, K. K, & Jurayev, U. Sh. (2020). Farg‘ona viloyati tarixiy shaxdrlaridagi turar-joy binolarida ganch va yog`och uymakorligining shakillanishi va rivojlanishi. Science and Education, 1(3), 264-267.
7. Djhalolovich, A. J., & Shavkatovich, J. U. (2022). Qadimgi va o’rta asrlarda samarqand shahri hududida landshaft arxitekturasining shakillanishi. Nazariy va amaliy tadqiqotlar xalqaro jurnali, 2(2), 82-89.
8. Jo`rayev, U. Sh. (2022). Formirovaniye Istoricheskogo Goroda Kuvi Ferganskoy Oblasti. Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities, 11, 123-126

УДК:711.552.3

SAVDO –SOTIQ MAISHIY XIZMAT KO’RSATISH BINOLARI

S.A. Masharipova., K.U. Allayorov., S.P. Parpiyev.
Toshkent arxitektura-qurilish universiteti, O`zbekiston

Annotatsiya: *Ushbu maqolada zamonaviy savdo va ko'ngil-ochar markazlarining kelib chiqish tarixi ya'ni qadimiy bozorlarimiz va mustaqillik davrida qurilgan bir nechta savdo markazlarini misol etib keltirilgan.Shuningdek hozirgi kunda dolzarb bo'lgan masala hozirgi zamon talabiga javob beradigan zamonaviy binolarni loyihasini yaratish maqsadida talabalarga jaxon tajribalari loyihalaridan namunalar bilan tanishtirish uchun foto suratlar joylashtirilgan*

Annotation: *This article presents the history of the emergence of modern shopping and entertainment centers, that is, our old markets and several shopping centers built during independence. Also, in order to create a project of modern buildings that meet modern requirements, which is a topical issue today, photographs were posted to familiarize students with examples of world experience projects.*

Kalit zo`zlar: *karvonsaroy, omborxona, ustaxonalar, supermarket, sayyohlar, CFK, Amerika Pizza, Caf.Jum, musiqiy zinapoya, hech qachon uxlamaydigan shahar.*

Key words: *caravanserai, warehouse, workshops, supermarket, tourists, CFC, American pizza, Caf.Jum, musical stairs, the city that never sleeps.*


Supermarket sotishning ilg‘or shakllarini qo‘llagan hamda aholiga kompleks xarid talablarini qondiruvchi turli xizmatlar ko‘rsatgan holda keng assortimentdagi oziq-ovqat tovarlarini va kundalik zarur nooziq-ovqat tovarlarini sotish uchun mo‘ljallangan savdo korxonalarining eng maqbul turi hisoblanadi.



1-rasm.. Mega Planet

Qadimgi savdo aloqalari. Buxoro amirligi va Xiva xonligi bilan Rossiya o‘rtasidagi savdo aloqalari ayniqsa Zakaspiy temir yo‘l qurilgach, ancha rivojlangan. Toshkentdagi Eski jo‘va bozori karvonlar kelib ketadigan yirik savdo markazi bo‘lgan. Shaharning barcha darvozalaridagi yo‘llar bozoriga kelib taqalgan. Atrofida karvonsaroy, omborxona, ustaxonalar, do‘konlar va boshqa joylashgan. 19-asr 2-yarmidan boshlab bu erda sanoatchi boylar o‘z do‘konlari, omborlari va idoralarini qurishgan. Farg‘ona vodiysida o‘zining kattaligi va savdo aylanmasi jihatidan Qo‘qon bozori alohida ajralib turadi.[2] O‘zining obodonligi va qulayligi bilan Buxoro Bozor mintaqada birinchi o‘rinda turgan. Ipak gazlamalari bilan butun Sharqda tanilgan Marg‘ilonda qator qator tizilgan do‘konlar (ko‘cha bo‘ylab 2,5 km cho‘zilgan)da savdo-sotiq qilingan.

O‘zbekistonning eng yirik bozori paydo bo‘lishi taxminan X asrga to‘g‘ri keladi. U “Buyuk Ipak yo‘li” yo‘lidagi muhim markaz bo‘lgan to‘rtta savdo ko‘chalari kesishmasida tashkil etilgan. Savdo butun yil davomida amalga oshirilgan va bu erda turli madaniyatlar bir-biriga bog‘langan holda faoliyat olib borgan. Savdo yo‘llarida chet ellik savdogarlarni, karvonlarni, do‘kon egalari, hunarmandlar, boy dehqonlar va oddiy ishchilarni uchratish mumkin bo‘lgan. 1000 yillar davomida Chorsu bozori o‘z ko‘rinishini o‘zgartirmagan.[4]



2-rasm. Karvon saroy

Supermarket turidagi do‘konlar universal assortimentli, bo‘sh savdo maydonlari bo‘lgan, zarur talablarga javob beradigan universamlar, oziq-ovqat do‘konlari, yirik oziq-ovqat do‘konlari negizida, shuningdek, savdo maydoni kamida 600 kv metr bo‘lgan, qishloq joylaridagi tuman markazlarida kamida 400 kv metr bo‘lgan hamda tovarlarni qabul qilib olish, saqlash, ularni sotishga tayyorlash va sotish uchun barcha zarur



3-rasm.Chorsu bozori.

sharoitlarga ega bo‘lgan yangi qurilishlar hisobiga tashkil etilishi mumkin.

MEGA PLANET savdo majmuasi. 2010-yil 11-dekabr sanasida Toshkent shahrining Yunusobod tumanida, O'zbek estradasining yorqin yulduzlari ishtirokida, O'zbekiston tarixida birinchi "Gipermarket" bo'lmush "Mega Planet" savdo majmuasining ochilish marosim bo'lib o'tdi.



4- rasm. Mega Planet.

Mega Planet savdo majmuasi o'zining no an-anaviy va o'ta zamonaviy ko'rinishi bilan ajralib turadi. Mega Planet savdo majmuasi 4 qavatdan iborat:

1-qavat: O'ta yirik Supermarket
2-qavat: Kiyim kechaklar (Butiklar)
3-qavat: Bolalar o'yin maydoni (5D kinozali)
4-qavat: Reustourant, Kafe va 3D kinozaldan
Shunindek Savdo majmuasining:
Yer osti qismida: Avtomobillar to'xtash joyi
Atrofida esa: Bolalar uchun mo'jazgina o'yingoh barpo etilgan
Mega Planet savdo majmuasi:

Toshkent shahri aholisi, Toshkent shahri mehmonlari va Chet ellik sayyohlar uchun eng qiziqarli maskanlardan biri hisoblanadi!

NEXT savdo majmuasi. NEXT savdo majmuasi 25000 kv.m. dan iborat bo’lib, 4 qavatdan iborat. Majmuada kuzatish maydoni, terrassa va 3D kinoteatr joylagan. Shuningdek, 500 o’rinli parkovka ham mavjud. Alohida e’tiborga savdo markazining 4-qavatida joylagan "COSMO PORT" o’yin hududi loyiq. Majmuaning Food-kordti turli formatdagi restoranlarni o’z ichiga oladi: WOK – osiyo oshxonasi, Shukran-arab oshxonasi Chaykhana food-milliy oshxona, Vanilla sky- shiriliklar va shokolad, EL Rancho,Fresh bar,New World Food,KFC,American pizza, Café JUM va boshqalar.

Majmuaning Orqa hovlisida lazer 3D-shou taqdim etiladi.

Umuman olganda, esa “Next” ko’ngilochar Savdo markazi o’zini zamonaviy va rivojlangan majmua sifatida taqdim etadi. 5-rasm.Next savdo majmuasi



6-rasm. NEXT savdo majmuasi

MEGA BELAYA SAVDO KO'NGILOCHAR MAJMUASI



7-rasm. Mega Belaya

7 yil oldin, Moskvada bir xil miqyosdagi savdo markazi Mega Belaya Dacha oddiygina mavjud emas edi. 300 ming kvadrat metr vaqtinchalik bog' markazi nomi bilan atalgan yangi loyihaning eksklyuzivligini ta'minladi. Eng yaqin metro stantsiyasi "Kotelniki", mikroavtobusga to'g'ridan-to'g'ri "Vykhino" va "Lyublino" stantsiyalaridan borish mumkin. Savdo markazida katta muz arenasi va IMAX formatidagi lentalarni translyatsiya qiluvchi kinoteatr mavjud. Kompaniyada faol vaqt o'tkazishni xohlovchilar uchun - bilyard va bouling, istirohat bog'i. Ko'pchilik orasida do'konlar tarmog'i Sumsung, M-Video, Ikea, Decathlon ro'yxatga olingan. Oziq-ovqat do'konini gigant Auchan egallaydi. Savdo markazi atigi ikki qavatdan iborat bo'lib, bu savdo markaziga ko'ngilochar funksiyalarni talab va taklifning ramzi epitsentri maqomi bilan uyg'unlashtirishga to'sqinlik qilmaydi.[5]

1. Aviapark. O'zining g'ayrioddiy kattaligi (400 ming kvadrat metr) tufayli savdo majmuasi tegishli parametrga ko'ra nafaqat Moskva, balki Evropadagi eng yirik savdo markazlari reytingida sharafli o'rinni egallaydi. Xodinskoye qutbida joylashgan bo'lib, u barcha yoshdagi odamlar uchun ajoyib savdo va ko'ngilochar markaz hisoblanadi. Bu erda siz turli xil rangdagi tropik baliqlar suv bilan ulkan suv havzalarida yashaydigan okeanariumga tashrif buyurishingiz mumkin. Kognitiv darsga alternativa kinoga tashrif bo'ladi. Savdo maydonini etakchi ijarachilar egallaydi turli hududlar(sport tovarlarini sotishdan tortib to sotishgacha maishiy texnika va uy-ro'zg'or buyumlari). Siz shinam qahvaxonada, masalan, Costa Coffee-da ba'zan charchatadigan xarid qilishdan tanaffus qilishingiz yoki Evropadagi mashhur Starbucks-ni tanlashingiz mumkin. Siz "Polezhaevskaya" va "Aeroport" stantsiyalaridan markazga yurishingiz mumkin, masofa ikki kilometrdan oshmaydi.

Arxitektura jihatidan diqqatga sazovor bo'lgan Moskva savdo markazi Kuntsevo Plaza "Molodejnaya" er osti bekatiga piyoda masofada joylashgan. 245 ming kvadrat metrdan samarali foydalanilmoqda savdo maydonchalari, ofislar va hatto uy-joy fondi. Brend kiyim-kechak, parfyumeriya, sport mashg'ulotlari uchun tovarlar do'konlari ertalab soat 10 dan 22 gacha ishlaydi. Ko'ngilochar sanoat va faol dam olish Savdo markazida Kuntsevo Plaza ish bilan ifodalanadi tarmoq kompaniyasi Kosmik, ya'ni mehmonlar bouling klubi va istirohat bog'ida kutib olinadi. Bolalar uchun o'yin maydonchalari mavjud, kattalar esa bilyard stolida vaqt o'tkazishlari mumkin. Savdo markazida Mori kinoteatri ham joylashgan.[3]



8-rasm. Malayziya davlatidagi savdo markazlaridan biri

Berjaya times. Maydoni 2 million kvadrat metrdan ortiq bo'lgan Osiyodagi eng yirik savdo markazlaridan biri bo'lgan Berjaya Tayms maydoni Nyu-Yorkdagi mashhur

Beshinchi avenyuga o'xshab ketgani uchun g'arbiy ko'rinishga ega. "Hech qachon uxlamaydigan" shahar atmosferasiga sho'ng'ishni xohlaydiganlar uchun markazda hatto metro stantsiyasi ham mavjud. 1000 ta chakana savdo nuqtalari haqiqatan ham ta'sirchan bo'lsa-da, savdo markazining diqqatga sazovor joyi Osiyodagi eng yirik yopiq attraksion parklaridan biri bo'lgan Berjaya Times Square mavzu parkidir. Bu erda ko'plab diqqatga sazovor joylar mavjud, jumladan, ajoyib rolikli qirg'oq, karusellar, perili uy, sakkizoyoq karuseli va boshqalar. Bolalar bog'ning "Fantasy Garden" deb nomlangan maxsus qismida vaqt o'tkazishdan zavqlanadilar. Agar bu etarli bo'lmasa, siz ulkan musiqiy zinapoyaga, bolalar teatriga, kinoteatrga tashrif buyurishingiz va turli tomoshalarni tomosha qilishingiz mumkin.

Adabiyotlar ro’yxati

1. Убайдуллаев Х.М, Иногомова М.М “Турар жой ва жамоат биноларини лойиҳалашнинг типологик асослари” дарслик, Тошкент 2009 й.

2. Хидоятов Т.А. “Типология общественных зданий” дарслик. Тошкент 2007.

3. Қодирова С.А. “Жамоат биноларини лойиҳалаш” ТАҚИ, Тошкент 2005 й. Ўқув қўлланма.

4. Гельфонд А.Л “Архитектурное проектирование общественных зданий и сооружений” учеб.пособии изд. Архитектура-С.М,2010г.

5. Нейферт П, “Строительная проектирование” справочник, М, “Архитектура-С”, 2010г.

6. ҚМҚ 2.08.02-09 “Жамоат бинолари ва иншоотлари”

Интернет сайтлари

1.ziyonet/uz

2. davarx.uz

3. www. Library.uz

4. proekts.uz

5-SHO‘BA:
LOYIHALASH VA QURILISH SOHALARIDA BIM TEXNOLOGIYALARINI JORIY ETISHNING ISTIQBOLLARI

СЕКЦИЯ №5:
ПЕРСПЕКТИВЫ ВНЕДРЕНИЯ BIM-ТЕХНОЛОГИЙ В ОБЛАСТИ ПРОЕКТИРОВАНИЯ И СТРОИТЕЛЬСТВА

5-MEETINGS:
PROSPECTS FOR THE IMPLEMENTATION OF BIM TECHNOLOGIES IN THE FIELDS OF DESIGN AND CONSTRUCTION

УДК 7.72.021

АНЪАНАВИЙ ЛОЙИҲАЛАШ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИДАГИ МАВЖУД МУАММОЛАР ЗАНЖИРИДА BIM ТЕХНОЛОГИЯЛАРИНИНГ ИСТИҚБОЛДАГИ ЎРНИ

доцент, Н.С. Бўронов.
Тошкент архитектура-қурилиш университети, Тошкент

Аннотация: *Мақола бугунги кундаги лойиҳалаш ва қурилиш сохасидаги баъзи бир муаммоларга ечим сифатида BIM технологиялари таклиф этаётган имкониятларга бағишланган. Ўзбекистон Республикасидаги амалдаги лойиҳалаш технологиялари ва мавжуд муаммо ва камчиликлар ҳақида сўз юритилади. Уларни келтириб чиқарадиган омиллар ҳақида ҳаётий мисоллар келтирилади. Мақолани диққат билан ўқиган мутахассис нима учун янги технологиялар иқтисодиётимиз учун зарур экани хақида хулосалар чиқаради.*

Annotation: *The article is devoted to the opportunities that open up BIM technologies as a solution to some of the problems of the modern design and construction industry. Modern design technologies in the Republic of Uzbekistan and existing problems and shortcomings are discussed. Real life examples about the factors that cause them are given. A specialist who carefully read the article will draw conclusions about why our economy needs new technologies.*

Калит сўзлар: *ишчи лойиҳа, BIM технологиялари, BIM йўналиш, ўтиш даврлари, қурилиш саноати, лойиҳа-смета хужжатлари,* "семиотик" текислик

Key words: *construction site, BIM technology, BIM construction, transition periods, construction industry, design and estimate documentation, semantics*

Кириш. Лойиҳалаш технологияларининг тарихи асрларга бориб тақалади. Саноат ривожланиши билан кўпгина тармоқларда инқилобий ўзгаришлар рўй бергани қаторида қурилиш ва лойиҳалаш саноатлари ҳам ўзининг ривожланиш йўлини босиб ўтди.

Бугунги кунимизда архитектура ва шаҳарсозлик лойиҳа хужжатларини тайёрлаш жараёнларида қўллайдиган усул ва технологиялар ана шу кўп даврлик босқичларни бошдан кечириб, хозирги кўринишга етиб келди. Лойиҳалаш технологиялари ривожининг кейинги босқичлари ҳам анча қизиқарли ва илғор тус олмоқда.

Аммо асосий масала шундаки, ўзгаришлар бугунги кунимизда лойиҳалаш сохасидаги муаммоларимизга қай даражада ечим бера олади? Таклиф этилаётган янги лойиҳалаш технологиялари қай даражада ҳаётимизни қамраб олади?

Асосий қисм. МДҲ давлатларининг ўзига хос жихотлари билан бирга, бир бирига ўхшаш томонлари ҳам бор. Бу турли сохаларда сезилгани каби, лойиҳалаш технологияларида ҳам сезилади. Жумладан, Ўзбекистонда қўлланадиган лойиҳалаш технологиялари ва лойиҳалашда қўллайдиган компьютер дастурлари Россия, Қозоғистон, Белоруссия, Қирғизистон каби давлатлардаги муқобиллари билан кескин фарқ қилмайди. Лойиҳалашда бажариладиган ишлар рўйхати ва кетма-кетликлар ҳам бир ҳил кўринишда амалга оширилади.

Лойиҳалашнинг мақсади - маълум талабларга жавоб берадиган ва маълум сифатга (тузилишга) эга бўлган объэктни яратишдир. Бироқ, объектни материалда ишлаб чиқариш ва уни амалда синаб кўришнинг экспериментал усулидан фарқли ўлароқ, объектни лойиҳалашда "семиотик" текисликда ишлаб чиқилган бўлиб, унинг бирликлари белгилар, схемалар ва билимлардир[1].

Шу билан бирга лойиҳаловчи қурилишга кетадиган материаллар тури, хажми ва қурилиш-монтаж технологияларини ҳам лойиҳада кўрсатиши лозим.

Масаланинг нозик жихати ҳам ана шу ерда кўринади. Берилган маълумотларнинг аниқлиги ва ишончлилиги лойиҳачининг рухий, жисмоний ва малакавий ҳолатига боғлиқ.

Лойиҳа ишларининг нозик, мураккаб ва “жиддий” томонига инсон омилининг аралашуви натижага тўғридан-тўғри таъсир этади. Қурилишда юзага келаётган муаммоларнинг катта қисми юқоридаги сабабга кўра юз бермоқда.

Мавжуд муаммони бар нечта омиллар доирасида таҳлил қилиб кўрсак.

1. Вақт. Мураккаблигига кўра лойиҳалаш ишларига кетадиган вақт миқдори амалдаги меъёрий хужжатлар асосида тартибга солинади. Лойиха-тадкикот ишларининг лойихалаштириш топширигида аник иш хажмларини хисобга олган холда куйидаги муддатларда белгиланади:

капитал таъмирлаш объектлари буйича - 1,5 ойдан куп булмаган;

реконструкция объектлари буйича - 3 ойдан куп булмаган;

намунавий лойихалар ва кайта (базавий) кулланиладиган лойихалар асосида янги курилаётган объектлар буйича - 3-4 ойдан куп булмаган;

йирик объектлар курилиши ва реконструкцияси буйича- 4 ойдан куп булмаган[2].

Лекин иш жараёнида киритиладиган ўзгаришлар ва лойиҳалашга бевосита алоқаси бўлмаган вазиятлар белгиланган муддатларнинг 2-3 баробар ошиб кетишига олиб келади.

Лойиҳа ишларининг вақтида бажарилмаслигининг бир қанча сабаблари мавжуд. Булар: ишларни тўғри тақсимламаслик, мэёрдан ортиқ иш юкламалари, лойиҳа-смета хужжатларида буюртмачи томонидан бўладиган ўзгаришлар кабилар бўлиши мумкин.

Буларнинг ичида буюртмачининг лойиҳа ишларига керагидан ортиқ аралашувлари ва айниқса, лойиҳа ишлари тугаганидан кейинги ўзгаришлар асосий салбий вазиятлардан хисобланади.

Чунки, бугунги биз ишлаётган лойиҳалаш технологиясига кўра лойиҳа-смета хужжатларидаги барча ўзгаришлар ўз вақтида ва тезлик билан амалга оширишнинг имкони камроқ.

Бош режалар мавжуд бўлмаганлиги сабабли жорий йилда 43 мингта уй-жой учун бюджет маблағларидан тижорат банкларига ажратилиши кўзда тутилган 13 трлн. сўм ресурсдан ўтган олти ойда 3,6 трлн. сўм (28%) ўзлаштирилган холос.

“Янги Ўзбекистон” массивлари лойиҳаси доирасидаги 619 та кўп қаватли уй-жойларнинг 222 тасида қурилиш ишлари бошланмаган[3].

Вақт меъёрларини тўғри белгилашда зарур бўлган ўлчовларнинг ҳаётийлиги ҳам лойиҳалашга кетадиган муддатнинг аниқ белгилашда муҳим хисобланади.

2. Сифат.

\Маълумки МДҲ давлатларининг лойиҳа ташкилотлари 2018-йилда давлатлараро қабул қилинган Архитектура ва конструктив хужжатларини бажариш қоидаларини назарда тутувчи ГОСТ 21.501 — 2018 мэёрий хужжат асосида иш юритишади[4].

Мазкур мэёрий хужжатда Архитектура ва конструктив хужжатларини бажаришда қўлланадиган қонун қоидалар, масштаблар, шартли белгилар ҳамда баъзи тушунчаларнинг изохлари келтириб ўтилган.

Тажриба асосида шуни таъкидлаш лозимки бу мэёрий хужжатга ҳамма жойда бир ҳилда амал қилинмаяпти. Умумий қоидалар деярли барча лойиҳа ташкилотлар томонидан қабул қилинган ва буни бошқа муқобили ҳам мавжуд эмас. Аммо, улардан ташқари алоҳида шартларни тақазо қиладиган қоидалар ҳам мавжудки, уларни қўлланиши барча лойиҳа ташкилотлари ишларида кўринмайди. Бу эса ўз навбатида қабул қилинган давлатлараро стандартларга мос келмайди ва натижада чизмаларнинг сифатига ҳам таъсир эмай қолмайди.

Бу муаммонинг сабаби сифатида 2 та омилни кўрсатиш мумкин:

- Лойиҳачи мутахассиснинг малакаси етарли даражада эмаслиги
- Инсон омили

Ҳар иккала ҳолатда ҳам мэёрий хужжатларнинг автоматлаштириш ечимларини топишга олиб келади.

3. Аниқлик.

Лойиҳа-смета хужжатларини ишлаб чиқишдаги энг масъулиятли босқич ёки бўлим бу шубхасиз қурилиш материалларининг хажмига доир ахборотлар жамланмасидир. Бу бўлим қурилиш харажатларига тўғридан-тўғри таъсир қилганлиги учун ўта аниқлик талаб этади. Янглишиш - у ёки бу даражада харажатларнинг ошиб кетишига, қурилиш хажмларининг нотўғри кўрсатилишига, оқибатда давлат маблағларининг ортиқча сарф бўлишига олиб келади.

Бу босқичдаги ахборотларнинг барчаси лойиҳа чизмаларига асосан тузилади ва чизмалардаги ахборотларнинг аниқлигини тақазо этади. Инсон факторининг роли айни босқичда сезилади.

Турли сабабларга кўра(чарчаш, толиқиш, эътибосизлик, малакасизлик, соғлиқ билан боғлиқ муаммолар, ва бошқалар) олинаётган маълумотларда хатоликлар бўлиши мумкин ва бу афсуски тез-тез кузатилади. Ахборотларнинг аниқлигига лойиҳа мутахассиси жавобгардир.

Бу ўринда автоматлаштирилган ахборотлар мажмуасининг заруратини оширади.

4. Ўзаро алоқалар.

Ўзаро бўлиши зарур бўлган алоқаларни 2 гурухга ажратиш мумкин:

- Буюртмачи-Лойиҳачи-Қурувчи
- Лойиҳа ташкилоти ичидаги лойиҳачилар ўртасидаги алоқалар

Биринчи гуруҳда буюртмачи қурилишнинг асосий ташаббускори сифатида - Лойиҳачи ва Қурувчини жалб қилади. Мижоз лойиҳачи ва қурувчини жалб қилгандан сўнг уларнинг барчаси бутун бир таъсир чўққилари билан бир хил бўлган учбурчакни ташкил қилади. Ушбу

учбурчакдаги алоқаларнинг ўзаро таъсирдан кейин Буюртмачи - Лойиҳачи - Қурувчи бутун қурилиш жараёнининг муваффақиятига боғлиқ томонларга айланади[5].

Иккинчи гуруҳдаги алоқалар лойиҳа ташкилоти ичидаги лойиҳачилар ўртасида кечади. Буюртмачи томонидан тақдим этилган таянч- лойиҳа олди хужжатларига асосан лойиҳачи ташкилот лойиҳа хужжатларини ишлаб чиқади. Бу босқич тахминан 80% иш ва вақтни талаб қиладиган босқич.

Лойиҳалаш жараёнида барча мутахассислардан ягона объект устида ишлаш талаб этилади. Объектга оид барча маълумотлар очиқ, барча лойиҳа иштирокчилари учун ахборот алмашиш қулай ва ўзаро келишига қулай равишда бўлиши лозим.

Муаммо ана шу ерда туғилади. Агар лойиҳа ташкилоти юқоридаги алоқаларни таъминлаб беролмаса лойиҳа-смета хужжатларида ноаниқликлар ва хатоликлар келиб чиқади.

Юқорида таҳлил қилинган 4 та жихат ҳам, афсуски, инсон омилига бориб тақалади. Муаммонинг ечими сифатида жахон лойиҳалаш ва қурилиш саноати янгиланган технологияни таклиф этмоқда. У сўнгги йилларда дунё мутахассисларининг тез-тез диққат марказида бўлиб келаётган BIM технологияларидир.

Биноларнинг анъанавий компьютер моделларидан BIMнинг ўзига хос хусусиятлари қуйидагилар:

Аниқ геометрия - барча объектлар ишончли (тўлиқ, шу жумладан ички ва ташқи жиҳатдан), геометрик жиҳатдан тўғри ва аниқ ўлчамларда ўрнатилади.

Объектларнинг кенг қамровли ва тўлдирилган хусусиятлари - моделдаги барча объектлар олдиндан белгилаб қўйилган хусусиятларга эга (моддий хусусиятлар, ишлаб чиқарувчининг коди, нарх, охирги хизмат муддати ва бошқалар), уларни ўзгартириш, тўлдириш, қўшиш ва навбатдаги лойиҳаларда фойдаланиш кабилардир.

Семантик боғланишларнинг кўплиги - алоқа ва ўзаро боғлиқлик жихатлари лойиҳани ишлаш ва ўзгартиришлар киритиш жараёнида ҳисобга олинади[5].

Интеграциялашган маълумотлар - модел барча маълумотларни битта марказда жамлайди, шу билан унинг изчиллиги, аниқлиги ва мавжудлигини таъминлайди.

Ҳаётий циклни сақлаб туриш - модел бутун лойиҳалаш, қуриш, фойдаланиш ва ҳатто бинонинг якуний бузилиши (йўқ қилиниши) давомида маълумотлар билан ишлашни қўллаб-қувватлайди.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев ташаббуси билан қабул қилинган 2017–2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича “Ҳаракатлар стратегияси” ва унга мувофиқ қабул қилинган Давлат дастурларида мамлакат иқтисодиётини янада жадал ривожлантиришда иқтисодиётнинг локомотиви сифатида қурилиш соҳасига, хусусан янги бино ва иншоотлар, янги ишлаб чиқариш объектлари ҳамда хусусий тадбиркорлик, темир ва автомобиль йўллари, турар жой бинолари қурилишига алоҳида урғу берган.

2018 йилда Ўзбекистон Республикаси Президентининг **«Қурилиш сохасида давлат бошқаруви тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»**ги Фармони қабул қилинди. Фармонга мувофиқ, Давлат архитектура ва қурилиш қўмитаси негизида Қурилиш вазирлиги ташкил этилди[6].

Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Қурилиш соҳасига ахборот-коммуникация технологияларини кенг жорий этиш чора-тадбирлари тўғрисида»ги Қарори қабул қилинди. Унга кўра, қурилиш соҳасида ахборот-коммуникация технологияларини ривожлантириш

маркази ташкил этилди.Буни қурилишда шаффофликни таъминлаш ва коррупцияга қарши курашиш чоралари бўйича ислоҳотлар самараси десак, асло муболаға бўлмайди.

2018 йил 14 ноябрь ойида Ўзбекистон Республикаси Президентининг **“Қурилиш соҳасини давлат томонидан тартибга солишни такомиллаштириш қўшимча чора-тадбирлари тўғрисида”** ПФ-5577-сонли фармони имзоланди. Унга кўра,

“...4-қисм, б) 2019 йил 1 мартга қадар манфаатдор вазирлик ва идоралар билан биргаликда Вазирлар Маҳкамасига қуйидагилар бўйича таклифлар киритсин:

хорижий компанияларни жалб қилган ҳолда замонавий халқаро талаблар ва стандартларга жавоб берадиган ҳамда Ўзбекистон Республикасида ишлаб чиқарилмайдиган ва мамлакат ҳудудига илк маротаба олиб кирилаётган қурилиш ускунаси, техникаси, материаллари ва буюмларини сертификация қилувчи Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Лойиҳа бошқаруви миллий агентлиги қошидаги Аккредитация маркази томонидан белгиланган тартибда аккредитация қилинган синов лабораторияларини ташкил этиш[7]....”

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 14 ноябрдаги ПФ-5577-сон “Қурилиш соҳасини давлат томонидан тартибга солишни такомиллаштириш қўшимча чора-тадбирлари тўғрисида”ги фармони, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 27 ноябрь, ПФ-6119-сонли “Ўзбекистон Республикаси қурилиш тармоғини модернизация қилиш, жадал ва инновацион ривожлантиришнинг 2021 — 2025 йилларга мўлжалланган стратегияси”да ҳам лойиҳалаш ва қурилишни модеринизация қилиш ва рақамли технологияларни сохага киритиш бўйича аниқ кўрсатмалар келтирилган.

Хулоса. Бу технологияда ишлаш бўйича ривожланган давлатлар тажрибаси нисбатан кўп эмас. Умумий хисобда кўпи билан 20 йилни ўз ичига олади. Шунга қарамай унинг иқтисодиёт ва саноатга қўшаётган хиссаси салмоқлидир. Жаҳон тажрибаси шуни кўрсатмоқдаки, қурилишда БИМтехнологияларини қўллаш соф фойдани 25 фоизгача, рентабеллик индексини 14-15 фоизгача ортишига хизмат қилади. Инвестицияларнинг ўзини оқлаш даврини 17 фоизга камайтириб, қурилиш харажатларининг қисқариши ҳисобига лойиҳанинг таннархини 30 фоизгача арзонлаштиради.

Ўзбекистонда анъанавий лойиҳалаш технологиясидан BIM технологиясига ўтиш жараёни анча секин тарзда амалга ошмоқда. Жараённи тезлаштириш учун лойиҳа ташкилотлари ўз олдига хақли саволни қўйиши лозим. BIM технологияси нима учун керак ва унинг устун томонлари нималардан иборат?

Бу саволларга мақоланинг асосий қисмида таҳлиллар асосида жавоб бердик. Қўшимча равишда шуни айта оламизки, максимум натижа -жахон қурилиш бозорига чиқиш ва минимум натижа - юртимизда рақобатбардош ташкилотга айланиш учун ҳам корхонага янги, илғор технологияларни олиб кириш замоннинг талаби бўлиб қолмоқда

Фойдаланилган адабиётлар

1. Розин В.М. — Развитие и особенности проектирования – основной технологии архитектурной и градостроительной деятельности // Урбанистика. – 2015. – № 3. – С. 65 - 108. DOI: 10.7256/2310-8673.2015.3.16489 URL: https://nbpublish.com/library_read_article.php?id=16489

2. Ўзбекистон республикаси курилиш вазирлигининг буйруги №3180. ЛОЙИХА-ТАДКИКОТ ИШЛАРИНИНГ КИЙМАТИНИ АНИКЛАШ ТАРТИБИ ТУҒРИСИДАГИ НИЗОМНИ ТАСДИКЛАШ ХАКИДА. 2019-йил 9-сентябр.

3. Ўзбекистонда қурилиш соҳаси:ислоҳотлар, режалар ва натижаларқандай? https://uza.uz/uz/posts/ozbekistonda-qurilish-sohasi-islohotlar-rezhalar-va-natizhalar-qanday_334224_31.12.2021

4. ГОСТ 21.501 — 2018.Система проектной документации для строительства. ПРАВИЛА ВЫПОЛНЕНИЯ РАБОЧЕЙ ДОКУМЕНТАЦИИ АРХИТЕКТУРНЫХ И КОНСТРУКТИВНЫХ РЕШЕНИЙ. Москва Стандартинформ 2019.

5. Аверина Ю.В. ВЗАИМОДЕЙСТВИЕ МЕЖДУ ЗАКАЗЧИКОМ, ПРОЕКТИРОВЩИКОМ, СТРОИТЕЛЕМ В ПРОЕКТЕ МАЛОЭТАЖНОГО СТРОИТЕЛЬСТВА Сибирский государственный аэрокосмический университет им. академика М.Ф. Решетнѐва, г. Красноярск https://cyberleninka.ru/article/n/vzaimodeystvie-mezhdu-zakazchikom-proektirovschikom-stroitelem-v-proekte-maloetazhnogo-stroitelstva/viewer

6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Қарори, 02.04.2018 йилдаги ПҚ-3646-сон

7. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018-йил 14-ноябрдаги “Қурилиш соҳасини давлат томонидан тартибга солишни такомиллаштириш қўшимча чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-5577-сонли Фармони, 7- банд, а) қисми

УДК 7.72.021

ЛОЙИҲАЛАШ САНОАТИНИНГ ЖАХОН ТАЖРИБАЛАРИГА ИНТЕГРАЦИЯЛАШУВ МУАММОЛАРИ

Доцент, Бўронов Н.С.

Turin Polytechnic University in Tashkent, Uzbekistan

Аннотация:*Мақола бугунги кундаги лойиҳалаш ва қурилиш сохасидаги баъзи бир муаммоларга ечим сифатида BIM технологиялари таклиф этаётган имкониятларга бағишланган. Ўзбекистон Республикасидаги амалдаги лойиҳалаш технологиялари ва мавжуд муаммо ва камчиликлар ҳақида сўз юритилади. Уларни келтириб чиқарадиган омиллар ҳақида ҳаётий мисоллар келтирилади. Мақолани диққат билан ўқиган мутахассис нима учун янги технологиялар иқтисодиётимиз учун зарур экани хақида хулосалар чиқаради.*

Калит сўзлар: *ишчи лойиҳа, BIM технологиялари, BIM йўналиш, ўтиш даврлари, қурилиш саноати, лойиҳа-смета хужжатлари, семантик*

Annotation:*The article is devoted to the opportunities that open up BIM technologies as a solution to some of the problems of the modern design and construction industry. Modern design technologies in the Republic of Uzbekistan and existing problems and shortcomings are discussed. Real life examples about the factors that cause them are given. A specialist who carefully read the article will draw conclusions about why our economy needs new technologies.*

Key words: *construction site, BIM technology, BIM construction, transition periods, construction industry, design and estimate documentation, semantics*

Дунё бўйича энг сердаромад ва энг кўп маблағ талаб қиладиган сохалардан бири бўлган қурилиш саноатининг бошланғич босқичлари айнан лойиҳалаш ишлари билан бошланади. Қурилиши режалаштирилган хар қандай турдаги объектнинг барча харажатлари айнан лойиҳалаш жараёнида белгиланади. Бу объектнинг тури ва хажмига қараб узоқ давом этадиган жараён хисобланади. Муаммо шундаки Ўзбекистонда лойиҳалаш саноати бу кўринишдаги масалаларни қай даражада еча олмоқда? Ривожланган мамлакатлар тажрибалари мураккаб масалаларга қандай ечим топмоқда? Замонавий лойиҳа ташкилотлари қандай масалаларни ҳал этиши керак? Бугунги кунимиздаги лойиҳа ташкилотларининг жаҳон бозорига интеграциялашувида қандай муаммолар мавжуд?

Дунёдаги техника ва технологияларнинг жадаллик билан ривожланиши кўп сохалар каби лойиҳалаш ва қурилиш саноатини ҳам янгича қарашга мажбур этмоқда.

Глобаллашув жараёни нафақат ички бозорга илғор технологияларни олиб келишни назарда тутади, балки, жаҳон бозорида ҳам ўзининг муносиб ўрнини топишга ундайди. Аммо бу борада талайгина масалаларни ўз вақтида ҳал этиш соха мутахассислари олдида турган асосий вазифалардан бири хисобланади[1].

Лойиҳалаш ва қурилиш саноатининг жаҳон тажрибаларига интеграциялашув масалалари ижтимоий-иқтисодий, техник ва технологик каби бир қатор жиҳатларни ҳал этиш билан амалга ошиши мумкин.

Шу ўринда дунё лойиҳалаш саноатининг технологик томонларини таҳлил қилиб кўрсак.

Лойиҳалаш технологиялари ҳақида сўз кетганда маҳаллий ва халқаро меъёрлар ҳамда қоида ва талаблар билан алоқаларини таҳлил қилиб кўрсак муммони яхшироқ тушунишга ёрдам берган бўларди.

Бино-иншоотларнинг лойиҳа хужжатларини ишлаб чиқишни маҳаллий ва халқаро талаб ва меъёрлар тартибга солиб туради. Бу тажриба барча давлатларда кузатилади.

Маҳаллий меъёрлар лойиҳаланаётган ҳудуд ёки объектнинг табиий-иқлимий шарт-шароитлари, геологик тузилиши, шаҳарсозлик истиқболлари ҳамда иқтисодий омиллар каби талаблари бўйича тартибга солса, халқаро меъёрлар асосан график тасвирлар, этимологик атамалар ва давлатлараро қабул қилинган тушунча ва тавсияларни эътироф этади.

Бундан келиб чиқадики халқаро миқёсдаги лойиҳалаш жараёнларга қўшилиш учун илғор технологияларни билиш ва керакли қарорлар қабул қилиш муҳим аҳамиятга эга.

Лойиҳалашда қўлланадиган шартли белгилар, ўлчов бирликлари, объект лойиҳаларига қўйилган талаблар ва стандарт қўшимчалар барча давлатларда деярли бир ҳил кўринишга эга.

Қуйида илғор технологияларни амалиётга жорий этган Буюк Британия давлати тажрибаларини таҳлил қилиб кўрсак.

Европа ва океан орти давлатлари мисолида Буюк Британия давлатининг лойиҳалаш технологияларини тартибга солувчи техник ва технологик ишланмалари тадқиқот объекти сифатида олинди.

Буюк Британия ҳукумати лойиҳа-смета хужжатларини ишлаб чиқиш жараёнига ахборотларни бошқариш шакли сифатида ёндошади. Яни бирон бино-иншоотнинг лойиҳалаш ишларини амалга оширилиши бу – лойиҳаланаётган объект ҳақидаги ахборотларни яратиш, алмашиш, таҳрирлаш ва чоп этиш жараёни экани билан изоҳланади. Бу ерда ахборотларнинг аниқлиги, ишончлилиги, тўлиқлиги ва хавфсизлиги асосий омиллар бўлиб хизмат қилади.

Қуйида Буюк Британия лойиҳалаш амалиётида қўлланадиган амалдаги стандарт ва унга қўшимча меъёрий хужжатлар ҳақида сўз юритилади.

AEC (Буюк Британия) BIM Технология протоколи Version 2.1.1. (AEC (UK) BIM Technology Protocol Version 2.1.1 June 2015)

Лойиҳалаш жараёнларини такомиллаштириш мақсадида 2009-йилда нашр этилган бу стандарт архитекторлар, мухандислар ва қурувчилар учун бино маълумотларини бошқаришни назарда тутади. 2015-йил бу нашр тўлдирилди ва қайта чоп этилди[2].

AEC (Буюк Британия) BIM(Building information modeling) Технология протоколи Version 2.1.1 Буюк Британия (ва тегишли халқаро) протоколлари, спецификациялари ва 1.6-бўлимида келтирилган ҳужжатлар, шунингдек, компаниянинг мавжуд, тасдиқланган ички жараёнлари томонидан белгиланган меъёрларга асосланади:

Мазкур ҳужжат қуйидаги мақсадларни ўз ичига олади:

1. Буюк Британия ҳукумати томонидан BIM етуклиги даражасига эришиш учун мувофиқлаштирилган ва изчил ёндашувни қўллаш орқали ишлаб чиқариш самарадорлигини ошириш (PAS 1192-2:2013 1-расм BIM етуклик даражаларига қаранг).

2. Бутун лойиҳа бўйича юқори сифатли ахборотни етказиб бериш ва ягона ахборот алмашинувини таъминлайдиган илғор тажрибаларни аниқлаш.

3. Лойиҳанинг барча иштирокчиларида ҳамкорлик муҳитида самарали ишлашни таъминлаш учун рақамли BIM файллари тўғри тузилганлигини таъминлаш.

1. В. В.Талапов, Технология BIM: суть и особенности внедрения информационного моделирования зданий. – М.: ДМК Пресс, 2015.

2. Талапов В. Внедрение BIM: фундаментальный опыт Великобритании (Talapov V. Vnedrenie BIM: fundamentally^ opyt Velikobritanii)

3. Готова ли Великобритания к внедрению BIM? — Электронный ресурс: http://isicad.ru/ru/articles.php?article_num=17332.

UDK 7.72.021

BIM TEXNOLOGIYALARINI JORIY ETISH MUAMMOLARI

N.B. Ashirmatova., Dotsent. N.S. Bo’ronov.

Toshkent arxitektura-qurilish universiteti. O’zbekiston.

Annotatsiya: *Ushbu maqolada loyihalashtirish sohasida BIM texnologiyalarini rivojlantirish masalalari tahlil qilinadi. Loyihalashtirish faoliyatidagi hozirgi holat, an'anaviy loyihalashtirish bilan taqqoslaganda BIM texnologiyalarining ijobiy va salbiy tomonlari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, maqola BIM texnologiyalaridan foydalanishni o'z ichiga olgan afzalliklarni tavsiflashni o'z ichiga oladi. Maqolada axborot modellashtirish yordamida hal qilinishi mumkin bo'lgan vazifalar ko'rib chiqiladi.*

Annotation. *This article analyzes the development of BIM technologies in the field of design. Considered the current situation in the project activities, the pros and cons of BIM technology in comparison with the traditional design. The article deals with the advantages of the use of computer technology and information modeling for the design of energy-efficient buildings. The article also includes a description of the benefits that involves the use of BIM-technologies.*

Kalit so’zlar*: BIM texnologiyasi, binolarni axborot modellashtirish, amalga oshirish muammolari, loyihalashtirish, qurilish, 2D, binoning hayot sikli, ekspluatatsiya.*

***Key words**: BIM technologies, building Information modeling, problems of implementation, designing, construction, 2D, building life cycle, exploitation.*

Loyihalashdagi innovatsion yondashuv muammosi butun qurilish majmuasi uchun juda muhimdir. Hozirgi vaqtda loyiha tashkilotlarining texnologik imkoniyatlari sezilarli darajada o'zgardi, bu innovatsion dasturiy ta'minot asosida zamonaviy dizayn yechimlaridan ko'p foydalanish bilan bog'liq. Zamonaviy sharoitda loyihani muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun axborot texnologiyalaridan keng foydalanish zarur. Ushbu ehtiyojlarni qondirishning yangi yo'li - BIM texnologiyasi.

BIM texnologiyasi - bu dizayn-qurilish ekspluatatsiyasining zamonaviy yondashuvi. U sizga turli xil dasturiy mahsulotlar va vositalarni birlashtirishga imkon beradi, bu esa sizga modellashtirishni ancha arzonlashtirishga imkon beradi, kelajakdagi ob'ektni vizualizatsiya qilish jarayonlarini soddalashtiradi[1].

Ushbu texnologiya qurilish sohasida yangi bo'lib, shuning uchun uni amalga oshirish va qo'llash bilan bog'liq ko'plab qarama-qarshiliklar mavjud. Shunga asoslanib, zamonaviy qurilishning asosiy vazifasi BIMning ahamiyatini anglash va axborot modellashtirishni rivojlantirish bilan bog'liq muammolarni hal qilishdir.

BIM nima? Hozirgi vaqtda ushbu tushuncha ko'pincha professional doiralarda paydo bo'ldi, ko'pincha konferensiyalar va forumlarda muhokama qilinadi, shuningdek, qurilish sohasidagi o'zini hurmat qiladigan har bir mutaxassis ko'pincha bu atamani o'z nutqida qo'llaydi[1]. Shu bilan birga, biz tez-tez ko'pchilikni tushunmaslik muammosiga duch kelamiz: BIM qisqartmasi nimani anglatadi?

BIM (Building information modeling, yoki Building information model) - binoning axborot modeli yoki binoning axborot modellashtirilishi. Ko'pchilik, agar BIM model bo'lsa, unda birinchi assotsiatsiya 3D modellashtirish va ma'lum bir obyektning axborot maketini yaratish g'oyasini ilgari suradi, deb hisoblashadi. Qisman, siz bunga rozi bo'lishingiz mumkin. Ammo BIM texnologiya nafaqat model, balki ma'lum bir sohadagi mutaxassislar tomonidan turli xil parametr obyektlariga topshiriq yordamida amalga oshiriladigan va loyihalashtirish bosqichida ham, loyihaning butun hayot aylanishi davomida ishlatiladigan zamonaviy loyihalashtirishda butun innovatsion yondashuvdir. Bu, shuningdek, binoni qurish, jihozlash, ishlatish va ta'mirlashni ta'minlash, obyektning hayot aylanishini, shu jumladan uning iqtisodiy tarkibiy qismini boshqarish, atrofimizdagi texnogen yashash muhitini boshqarish uchun tubdan farq qiladi. Ushbu tizim odatdagi ikki o'lchovli dizayn hujjatlaridan uzoqlashishga va faoliyat obyekti bilan bog'liq barcha omillar va ta'sirlarni hisobga olgan holda obyektni ko'rib chiqishning ko'p funktsional usuliga o'tishga imkon beradi.

BIM ishining asosiy prinsipida biz ishni dastlab loyihaning alohida qismlarini ishlab chiqishdan, ya'ni. chizmalar yaratish, smeta hujjatlarini ishlab chiqish, tegishli materiallarni tanlashdan emas, balki haqiqiy qurilish obyektini takrorlaydigan va parametrik ravishda berilgan yagona virtual modelni yaratishdan boshlaymiz. Dastlab, biz ushbu modelni yaratishga ko'p vaqt sarflaymiz, shunda kelajakda u yoki bu dastur tomonidan avtomatik ravishda yaratilgan yuqori sifatli dizayn hujjatlarini olamiz. Bu loyihalashtirish bosqichida BIM texnologiyalarining afzalliklaridan biri hisoblanadi, bu esa birinchi navbatda ushbu texnologiyadan foydalanishga qiziqqan qurilish tashkilotlarining e'tiborini tortadi.

Nima uchun BIM qurilish tashkilotlariga kerak? Bizning fikrimizcha, har qanday tashkilot yoki kompaniyaning asosiy vazifalaridan biri aniq boshqaruv tizimini yaratish va loyiha faoliyatini amalga oshirishdir. Qurilishda bunday tizimning mavjudligi, albatta, zarurdir, bundan tashqari, faoliyat natijasi bunga bog'liq. Bunday holda, obyektni yaratishda asosiy maqsadlar tez va sifatli

qurilish, hujjatlarni to'g'ri tuzish, qurilish paytida barcha tashqi omillarni, masalan, ekologik va iqlim sharoitlarini, ma'lum resurslarning mavjudligini, tashkilotning iqtisodiy holatini va boshqalarni hisobga olishdir. Ushbu omillarning barchasini hisobga olish va o'z vaqtida yaxshi natijaga erishish uchun ko'plab kompaniyalar innovatsion BIM texnologiyasidan faol foydalanishni boshladilar.

Ushbu texnologiyaning tashkilotlar uchun afzalliklarini hisobga olgan holda quyidagi fikrlarni ta'kidlash kerak:

– Virtual bino modelini yaratish;
– Ob'ektning individual parametrlarini belgilash;
– Yuqori sifatli loyiha hujjatlarini olish;
– Parametrlarni o'zgartirish orqali xato va noaniqliklarni tezda aniqlash va tuzatish;
– Muayyan sharoitlarda modelni eksperimental tekshirish;
– Qurilishning barcha bosqichlarida obyekt qurilishini boshqarish va nazorat qilish;
– Ob'ektning ishlashini dastlabki loyiha hujjatlari bilan doimiy ravishda kuzatib borish;
– Turli pudrat tashkilotlari tomonidan axborot modelidan foydalanish (sanitariya-tesisat tizimlari, shamollatish tizimlari, hisob-kitob va iqtisodiy tadqiqotlar va boshqalarni yaratish uchun);
– Ushbu obyektning ishlash talablariga muvofiq ta'mirlash va rekonstruktsiya ishlarini bajarish;
– Tashkilotlar uchun moslashtirilgan boshqa ko'plab dasturlar [2].

Xorijiy mutaxassislarning fikriga ko'ra, BIM-ni amalga oshirish davlat byudjeti hisobidan moliyalashtiriladigan obyektlarni qurish xarajatlarini 25 foizga kamaytirishni ta'minlaydi. Operatsion xarajatlarning pasayishi 35% dan ortiq. Axborot modelini shakllantirish tufayli an'anaviy yondashuvlarga nisbatan loyihani boshqarish yanada samarali ta'minlanadi. Shu bilan birga, shaffoflikning keskin o'sishi kuzatilmoqda, byudjet mablag'larining samaradorligi va maqsadli sarflanishini aniqroq baholash mumkin bo'ladi[3].

Shuni ham ta'kidlash kerakki, ushbu tizim barcha ma'lumotlarni bir-biriga birlashtirishga imkon beradi, bu ishlab chiqarish ishlarini to'liq baholash va qurilish jarayonidagi barcha zarur jarayonlar va muammolarni oldindan bilish imkonini beradigan aniq qurilgan modelni yaratadi. Bu ajralmas tarkibiy qism bo'lgan inson xavfsizligiga ham tegishli. Faoliyatni to'g'ri tashkil etish bilan biz BIM asosida qurilishni amalga oshirishni nazorat qiluvchi shaxs tomonidan noto'g'ri xatti-harakatlar qilish xavfini kamaytiramiz. O'zlari uchun inson xavfsizligini birinchi o'ringa qo'yadigan korxonalar, albatta, muhim vaziyatlarni aniqlash va dizayn bosqichida ularning imkoniyatlarini hisobga olish imkonini beradigan BIM texnologiyalaridan foydalanishning ahamiyati haqida gapirishadi[4].

Albatta, ushbu texnologiya ideal tarzda qurilish jarayonini to'liq nazorat qilish va to'g'ri amalga oshirishga imkon beradi. Bularning barchasi turli xil dasturiy ta'minot yordamida amalga oshiriladi, ularning ijobiy va salbiy tomonlarini batafsil ko'rib chiqish kerak bo'ladi.

BIM texnologiyalari: muammolar va ularni hal qilish usullari.

BIM texnologiyalarini ishlab chiqarish jarayoniga joriy etishda asosiy muammolar quyidagilardan iborat:

1. Korxonalarning yangi texnologiyalarga unchalik qiziqishi yo'qligi. Bu shuni anglatadiki, ushbu bosqichda ko'pchilik strukturaning, xodimlarning to'liq o'zgarishi, qurilish jarayonining yangi texnologiyalarini joriy etish tufayli o'tishga tayyor emas, chunki bularning barchasi dastlabki katta sarmoyani talab qiladi. Har bir inson vaqt sinovidan o'tgan narsaga sarmoya kiritish yaxshiroq va yangisi tashkilotning qurilish jarayonini buzishi mumkin deb hisoblaydi.

2. Mutaxassislarning yetishmasligi. Bularning barchasi oliy o'quv yurtlaridan kelib chiqadi, ularda o'qitish hali ham ikki o'lchovli loyihalashtirish darajasida. Mutaxassislar ta'lim muassasalarining ta'lim dasturlarida BIM yo'qligi muammosini alohida ta'kidlaydilar.

3. Ko'pgina dasturlarning noto'g'ri ishlashi. Modellarni yaratishda va ularni boshqa dasturiy mahsulotlarga eksport qilishda juda ko'p muammolar mavjud. Modelni yaratish va bir dasturdan boshqasiga o'tkazishda xatolarni tuzatish uchun vaqt va kuch sarflashdan ko'ra, ko'pincha ikki o'lchovli dasturiy ta'minotda biron bir ishni bajarish osonroq.

4. Dasturiy ta'minotning yuqori narxi. Bugungi kunda litsenziyalarning narxi o'rtacha mingdan 12 ming dollargacha o'zgaradi. Bu ko'plab tashkilotlarni juda hayratda qoldiradi, chunki ko'pchilik yangi dasturiy ta'minotni sotib ololmaydi. Shuningdek, mutaxassislarni tayyorlash ham qimmat ish ekanligini tushunish kerak[5,6].

Albatta, bu muammolarning barchasi O'zbekistonda BIM texnologiyalarini joriy etishni qiyin ahvolga solmoqda. Biroq, shunga qaramay, agar siz boshqa tomondan qarasangiz, ushbu muammolarni hal qilish usullarini oldindan aytish mumkin. Biz allaqachon BIM yo'lidan ketyapmiz va, albatta, barcha korxonalar bu tizimni darhol o'rganib ololmaydilar. Har bir tashkilot uchun birinchi qadam, ushbu texnologiya asta-sekin ikki o'lchovli dizaynni bozordan olib tashlashini va ushbu haqiqatni ilgari qabul qilgan tashkilot normal raqobatda muvaffaqiyat qozonishini anglashdir. Korxonaning o'zi o'z ishi uchun javobgardir va u o'z faoliyatini qanday quradi, uning obro'si bog'liq bo'ladi. Dastlab u kadrlar tarkibiga qiziqishi, o'qitish imkoniyatini berishi va ushbu sohadagi xodimlarning bilimlarini rag'batlantirishi kerak. Kompaniyaning axborot modellashtirish tizimining yetuklik darajasi uning individual loyihalar darajasida ham, butun tashkilot miqyosida ham BIM texnologiyalari bilan ishlash qobiliyati bilan belgilanadi. BIM texnologiyasidan foydalanish bo'yicha kompaniyaning yetukligining asosiy ko'rsatkichi BIMga o'tish doirasidagi texnologik va tashkiliy o'zgarishlar darajasidir.

Dasturiy ta'minot holatida biz faol rivojlanishni, dastur xatolarini bartaraf etishni, shuningdek mahsulotlarni faol qabul qilishni kuzatamiz. Shuni tushunish kerakki, har qanday yangi narsa alohida yondashuvni talab qiladi va O'zbekistonda BIM texnologiyalarini joriy etish to'g'ri yo'nalishda ketmoqda. Shuni ta'kidlash kerakki, bu masalada davlatning roli juda muhimdir. Qurilish vazirligi ko'magida hukumatning bu boradagi nufuzli fikri ushbu yo'nalishning rivojlanishiga ta'sir qiladi.

Xulosa BIM texnologiyalarini ishlab chiqarishga joriy etish jarayoni loyiha jarayonida ham, foydalanish va qurilish bosqichida ham ishlab chiqilayotgan loyihalar sifatini oshirishga imkon beradigan zaruratdir. Ammo ushbu axborot texnologiyalarini biznesning har bir darajasiga, ya'ni kichik va o'rta biznesga kiritish juda qiyin BIM-ni amalga oshirish har bir bosqichda loyihani boshqarish uchun juda qimmatga tushadi. Oddiy va odatiy loyihalarni ishlab chiqish uchun siz an'anaviy 2D loyihalashtirish usullaridan foydalanishingiz mumkin va batafsil ishlab chiqishni talab qiladigan murakkab loyihalar uchun ushbu axborot texnologiyalaridan foydalanish yaxshiroqdir.

Yana bir muhim tafsilot - bu nafaqat qo'shimcha ta'lim kurslari, balki oliy o'quv yurtlari yordamida ham tayyorlanishi kerak bo'lgan xodimlarni o'qitish va tayyorlash jarayoni.Talabalarga nafaqat BIM bilan ishlash vositalari, balki umuman ish ishlab chiqarishning har bir bosqichini tushunish ham o'rgatilishi kerak. Keyinchalik, yuqori malakali bitiruvchi mavjud mehnat bozorida eng muhim va raqobatbardosh bo'ladi . Loyihalashtirish texnologiyasini taqdim etish keraksiz operatsiyalarni istisno qilish, ish vaqtini qisqartirish, sifatni oshirish va ishlab chiqilgan loyihaga ajoyib ko'rinish berish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. М. А. Черных, Н. М. Якушев BIM-технология и программные продукты на его основе в России. Вестник ИжГТУ. 2014..
2. В.В. Полуэктов. Интеграция технологий информационного моделирования зданий в учебный процесс по направлению подготовки «Градостроительство». УДК 711.1:004.
3. И.С. Сусоев Плюсы и минусы внедрения BIM технологий в строительстве // Вестник науки и образования. 2016.
4. К.В.Постнов Применение BIM технологий в процессах управления проектными организациями // Научное обозрение. 2015.
5. В.Талапов, Технология BIM и эксплуатация зданий. [http://isicad.ru/ru/articles.php?article_num=17409] (дата обращения 16.12,2016)
6. В.П. Куприяновский, С.А. Синягов, Д.Е. Намиот, П.М. Бубнов, Ю.В. Куприяновская Новая пятилетка BIM – инфраструктура и умные города // International Journal of Open Information Technologies ISSN: 2307-8162 vol. 4, no. 8, 2016.

UDK:378.095

MUHANDISLIK VA KOMPYUTER GRAFIKASI FANIDAN DETALNING SHAKLINI KONSTRUKTIV O'ZGARTIRISHGA OID LOYIHALASH (Auto CAD dasturi vositasida)

E. Nurmatov

Toshkent arxitektura-qurilish universiteti. O'zbekiston

Annotatsiya: *Talabalarni grafik qobiliyatini hamda chizma chizish salohiyatini shakillantirishga qaratilgan. Muhandislik va kompyuter grafikasi fanini o'qitishda grafik dasturlar vositasida darslarni tashkil qilinishi dars samaradorligiga erishish uchun xizmat qilmoqda. Muhandislik va kompyuter grafikasida detal chizmalarini chizishda grafik dasturlardan Auto CAD grafik dasturi boshqa grafik dasturlarga nisbatan samaradorligi yuqoriligi bilan ajralib turadi. Shu boisdan muhandislik va kompyuter grafikasi darslarida grafik dasturlarni axamiyati yuqori hisoblanadi.*

Аннотация: *Она направлена на формирование потенциала и способности при выполнении графических чертежей у студентов.В обучении инженерной и компьютерной графике организация уроков с помощью графических программ служит достижению эффективности урока. Среди графических программ для построения чертежей деталей в инженерной и компьютерной графике графическая программа AutoCAD отличается высокой производительностью по сравнению с другими графическими программами. Поэтому важность графических программ на занятиях инженерной и компьютерной графикой высока.*

Abstract: *It is aimed at building the potential and ability of students to perform graphic drawings. In teaching engineering and computer graphics, the organization of lessons with the help of graphic programs serves to achieve the effectiveness of the lesson. Among graphics programs for drawing parts in engineering and computer graphics, AutoCAD graphics program is highly productive compared to other graphics programs. Therefore, the importance of graphic programs in engineering and computer graphics classes is high.*

Kalit so'zlar: *muhandislik grafikasi, grafik dasturlar, proyeksion chizmachilik*

Ключевые слова: *черчения, графические программы, проекционный чертежей*

Keywords: *drawing, graphic programs, projection drawings*

Ma'lumki hozirgi kunda barcha sohada rivojlanish jadal suratlarda o'sib bormoqda. Buni Prezidentning beshta muhim tashabbusida[2] ham ko'rish mumkin. Ta'limga qaratilayotgan e'tibor

[2] **Birinchi tashabbus** – yoshlarning musiqa, rassomlik, adabiyot, teatr va san'atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirishga, iste'dodini yuzaga chiqarishga xizmat qiladi.

Ikkinchi tashabbus – yoshlarni jismoniy chiniqtirish, sport sohasida qobiliyatini namoyon qilishlari uchun zarur sharoitlar yaratishga yo'naltirilgan.


Uchinchi tashabbus – aholi va yoshlar o'rtasida kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanishni tashkil etishga qaratilgan.

To'rtinchi tashabbus – yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ular o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish bo'yicha tizimli ishlarni tashkil etishga

boshqa sohalarga nisbatan ancha yuqoriroq. Ta'limni maktabdan rivojlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrdagi 997-son "**Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi** qarori[3] ham bunga yaqqol misol bo'ladi. Qarorda Xalqaro **PIRLS, TIMSS, PISA, TALIS** baholash tizimlari orqali ta'lim sifatini rivojlantirish nazarda tutilgan. Bundan ko'rinib turibdiki o'qituvchidan endilikda dars berish uchun rivojlangan davlatlar tajribalarini o'rganish va bilim berishda yuqori malakani talab etadi[1].


Maktabda o'tiladigan fanlar qatorida chizmachilik fani 8-9 sinflarda o'qitiladi. Chizmachilik fani o'quvchilarni fazoviy tasavvurini orttirib kelajakda texnik sohalar uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Muhandislik va kompyuter grafikasi fanida detalning shaklini konstruktiv o'zgartirishga oid masalalar keltirilgan bo'lib, bu masalalar talabalarni grafik savodxonligini oshirishda juda kata o'rin tutadi. Quyida ushbu mavzuni samarador usulda grafik dasturlardan foydalanib o'qitish keltirilgan[2].

Biror bir detal yoki buyumni chizmasini hosil qilish uchun detal shakliga ko'ra dastlab gabarit o'lchamlari asosida yaxlit bir qism olib undan keraksiz joylarini o'yib olib tashlanadi. Buning uchun gabarit o'lchamlarga mos yaxlit shakl olinadi va bu shaklni tashqi tomonlarida yasaladigan detal qirralariga hos xolatda nuqtalar qo'yib chiqiladi. Bu usulda o'quvchi detalni konstruktiv xolatini tasavvur qilishi soddalashadi. Dastlab yuqorida tariflangan shaklni Auto CAD grafik dasturi yordamida uch o'lchamli xolda chizib olamiz va kerakli qismlariga nuqta shaklidagi chiziqdan foydalanib o'yib olish chiziqlari chiziladi. Ushbu chiziqlar orqali o'quvchilar detalni taxminiy xosil bo'lish xolatini tasavvur qiladi (1-chizma).



1-chizma

Nuqtali chiziqlarni koordinata o'qlariga mos xolatda berilgan shakldan o'yib olinadi [3]. Uning uchun Auto CAD grafik dasturida nuqtali chiziqlarni yopiq chiziq bilan yani uzulmagan chiziq bilan chegaralab olinadi va shu chegaralab olingan chiziqlarni ***Extrude*** buyrug'i yordamida keraklicha hajm beriladi (2-chizma).



yo'naltirilgan.

Beshinchi tashabbus – xotin-qizlarni ish bilan ta'minlash masalalarini nazarda tutadi.

[3] https://**lex.uz**/docs/-4097073


2-chizma

Kerakli hajm berilgandan so‘ng detaldan aynan shu qismlar o‘yib olinadi. Buning uchun grafik dasturdagi o‘yib olish ***Subtract*** buyrug‘dan foydalanamiz. Bu buyruq orqali grafik dasturda chizilgan modellarni keraksiz qismlarini o‘yib olish uchun qo‘llaniladi. Qo‘llanish tartibi dastlab asosiy model tanlab olinadi hamda ***Enter*** tugmasi bosilib, so‘ngra o‘yib olinuvchi qism tanlanadi va yana ***Enter*** tugmasi bosiladi (3-chizma).



3-chizma

Natijada dastlab berilgan modelning ortiqcha qismlari olib tashlanadi va biz loyihalamoqchi bo‘lgan detalning konstruktiv holati xosil qilinadi (4-chizma).




4-chizma

Quyida yuqorida tasvirlangan detal kabi variantlar keltirilgan bo‘lib ushbu variantlardan o‘quvchilar bilimini sinashda foydalanish mumkin (5-chiza).

Ko‘rsatilgan usulda chizilgan chizma asosida muhandislik va kompyuter grafikasi fanidan beriladigan detalning ikki ko‘rinishi asosida uning uchinchi ko‘rinishini topish kabi masalalarni ishlash jarayoni birmuncha yengillashadi.

O‘qituvchi yuqorida keltirilgan usuldan foydalanib Auto CAD grafik dasturi yordamida talabalarga bilim bersa odatdagi ananaviy usulda o‘tilgan darslardan bir necha barobar yuqori samaraga erishadi. Ananaviy usulda doskada chizmani o‘quvchilarga chizib uni tasvirlab ko‘rsatish o‘qituvchidan ko‘p vaqt va yuqori malakani talab qiladi. Chizmalarni grafik dasturlar yordamida chizish ham vaqtni tejaydi ham o‘qituvchini samaradorligini oshiradi.



5-chizma

Adabiyotlar:

1. I.Rahmonov va boshqalar, Chizmachilik 9: Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 9-sinf o‘quvchilari uchun darslik. “O‘zbekiston”, 2019 y.
2. E.A. Nurmatov “Organizing Independent Education to Increase Graphic Knowledge of Students in Drawing” European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630) 15, 115-118, 2022/3/14**[1]**
3. Элиёр Нурматов “O‘quvchilarda qurilish chizmalarini chizish qobiliyatini shakllantirish (Auto CAD grafik dasturi vositasida)” Общество и инновации 3 (3/S), 36-41, 2022/4/27**[2]**
4. E.Ro‘ziyev, A.O.Ashirboyev. Muhandislik grafikasini o‘qitish metodikasi.-T.: “Fan va texnologiya”, 2010y.**[3]**
5. Nurmatov Eliyor Alimovich “Determination Of General Positions For The Solution Of Geometric Tasks”. International Journal of Progressive Sciences and Technologies 25 (2), 237-241, 2021/3/22

УДК: 624.075.235

ВОЗМОЖНОСТИ ПРИМЕНЕНИЯ АППРОКСИМАЦИИ ВИНТОВЫХ ПОВЕРХНОСТЕЙ В СТРОИТЕЛЬСТВЕ

доц.К.Х.Мадумаров., А. Л. Ахмаджанов

Наманганский инженерно строительный институт.Узбекистан.

Аннотация. *В статье предложены способы изготовления стволов колонн геометрические описание аппроксимацию правый и левый много обходной цилиндрических винтовых поверхностей. Определена оптимальная решения построения развёртки стволов колонн. Определена последовательность построения модели из плоских материалов, поперечные сечение ствола колонн, зависимость количество сторон правильного многоугольника в стволах колон и количество лент на развертке.*

Annotation. *The article suggests methods of manufacturing column trunks geometric description of the approximation of the right and left multi-bypass cylindrical screw surfaces. The optimal solution for the construction of the sweep of the trunks of columns is determined. The sequence of constructing a model from flat materials, the cross-section of the trunk of columns, the dependence of the number of sides of a regular polygon in the trunks of columns and the number of tapes on the scan are determined.*

Ключевые слова: правые и левые винтовых линии, меридианами, аппроксимация, октаэдр, икосаэдр, тетраэдр, контур развёртки, ствол колонн, паркетирования, граница мотивов.

Key words: right and left helical lines, meridians, approximation, octahedron, icosahedron, tetraer, unfolding contour, column trunk, parquetting, border of motifs.

При конструировании различных архитектурных форм широко используется аппросимация их серединной поверхности. Служебное назначение аппроксимации состоит в упрощенной технолагии изготовления той или ной конструкции[1]. Конструкции колонн, полученных аппроксимации цилиндрических винтовых поверхностей, паркетированы равносторонными трегольниками. Такие колонны улучшает архитектурную выразительность, укрощают наружной и внутренней виды зданий и сооружений[2].

Рассмотрим аппроксимацию правой и левой четырёх обходной цилиндрическую винтовую поверхность. Замена поверхности треугольниками даёт наилучший показатель.

Конструкция состоит повторяющиеся из одного мотива. Мотив состоит из двух частей – левый и правый. Они зеркально отображённые. Граница мотивов и середине располагают квадраты. Мотив паркетируется из равносторонними треугольниками.

Винтовая поверхность могут быть правым или левым и несколькими заходами.

Если одновременно дать несколько заходов правых и левых винтовых линии, которые образуют сетку на поверхности цилиндра (Рис 1.). При проведении в точках пересечения правых и левых винтовых линий плоскости, проходящих через ось тора получим квадраты(Рис 2.).




Рис 1. Винтовые линии на цилиндре. *Рис 2. Цилиндр с параллелями и меридианами*

На поверхности цилиндра построена сетка. Клетки сетки заменяем равносторонними треугольниками – аппроксимируем. Получена конструкция ствола колонн.

Для построения развёртку этой конструкцию рассмотрим свойства многогранников:

Тетраэдр — простейший многогранник, гранями которого являются четыре треугольника. Тетраэдр является треугольной пирамидой при принятии любой из граней за основание. У тетраэдра 4 грани, 4 вершины и 6 рёбер. Тетраэдр, у которого все грани — равносторонние треугольники, называется правильным(Рис 3).

Октаэдр — многогранник с восемью гранями. Пра́вильный октаэдр является одним из пяти выпуклых правильных многогранников, его грани — восемь равносторонних треугольников (Рис 4.).

Икосаэдр — это многогранник с 20 гранями. Наиболее известен правильный икосаэдр — один из правильных многогранников, гранями которого являются 20 правильных треугольников (Рис 5.).



Рис 3. Тетра́эдр. Рис 4.Октаэдр



Рис 5. Икосаэдр





Рис 6. Развёртки многогранников

Развёртки этих многогранников показаны на рис 6. Тетраэдр, октаэдр и икосаэдр состоять из равносторонними треугольниками. Развёртка этих многогранников можно построить многими способами.

Оптимальная решения построения развёртки стволов колонн является ленточными. Каждая лента состоять из равносторонними треугольниками. Развёртка, тетраэдральная колонна состоять из трёх, октаэдральная колонна состоять четырёх и икосаэдральная состоять из пяти лент (Рис 7.).


Контур развёртки – четырёхугольник (Рис 8.а). Последовательности построения модели из плоских листов (Например: бумага): На развёртке по линиям делается канавку с помощью угольки. 2. Края развёртки отрезается(оставляя короткую полосу для соединения). 3. Полученную заготовку превращается длинную призму. 4. Слегка, один конец делается неподвижным, а второй повернуть. В результате длинные линии становиться винтообразным, а короткие стороны контура развёртки квадрат. Длинные стороны соединяется (Рис 8.б).

На рис. 9 дана икосаэдральная колонна: а – вид спереди, б – вид наглядная. На рис. 10. дана колонна с сечением шестиугольник: а – вид спереди, б – вид наглядная.




а) б)

Рис 7. Развёртки колонн: а – тетраэдральная, б-октаэдральная




а) б) в)

Рис 8. Колонна: а) развёртка, б) модел в - икосаэдральная



а) б)

Рис. 9. Икосаэдральная колонна: а – вид спереди, б – вид наглядная.



а) б)

Рис. 10. Колонна с сечением шестиугольник: а – вид спереди, б – вид ***наглядная***

Антипризмой называется призматоид, верхнее и нижнее основания которого являются равными выпуклыми n-угольниками, развернутыми относительно друг друга на угол 180°/n, а боковые грани являются треугольниками[9].

Полученная конструкция ствола колонн состоять из антипризм. На рис.8. дана колонна состоящие из тетраэдральных антипризмами.

Заключение:

1. Рассмотрены аппроксимацию правый и левый четырёх обходной цилиндрическую винтовую поверхности и предложены замена поверхности равносторонными треугольниками даёт наилучший показатель.
2. Предложены оптимальные решения построения развёртки стволов колонн, контур развертки имеет четырехугольник, в котором три и больше полоса лент, каждая лента пакетированными равносторонними треугольниками.
3. Определены, что поперечные сечение ствола колонн всегда одинаковые правильные многоугольники. Количество сторон правильного многоугольника равен количество лент на развертке.

Литература

1. Михайленко В. Е. Ковалёв С.Н. Конструирование форм современных архитектурных сооружений/ В кн. Прикладная геометрия и инженерная графика. Киев: Будивельник 1978.-112с.
2. Маник А.Н., Павлов А.Б. Геометрические основы конструирования стволов тетраэдральных и октаэдральных колонн/В кн. Прикладная геометрия и инженерная графика. Киев: Будивельник 1973.вып.17.-112с
3. Мадумаров К.Х. Шоназаров А. Винт ҳалқа сирти чизиқли сирт/ Илмий – техник журнал. меъморчилик қурилиш муаммолари. СамДАҚИ , 2020, №4, 169-171 бет.
4. Мадумаров К.Х., Махкамов М. К. Графические способы изображения замкнутых винтовых поверхностей(ЗВП). Высшая школа. Научно-практический журнал. № 8/2015 г. Уфа.
5. Madumarov K. Kh. Graphic Methods Of Image And Mathematical Description Of Lobe Closed Helical Surfaces. Nat. Volatiles & Essent. Oils, 2021; 8(4): 2686-2694.
6. Madumarov K. Kh. Possibilities of using the approximation of helical surfaces in construction. International Engineering Journal For Research & Development Vol.6 Issue 5.
7. Мадумаров К.Х., Коржовых П.В. Математическое описание лепестковых замкнутых винтовых поверхностей. Высшая школа. Научно практический журнал. г. Уфа. Май(9)2015.стр. 86-88.
8. Tukhtakuziev A, Imamkulov Q.B., GaybullaevBSh Madumarov K. Kh., Buzrukov Z, S. Turaev N.S. Definition Optimal Values Of Device Parameters That Semi-Open Pomegranate Trees. Solid State Technology Volume: 63 Issue: 6 Publication Year: 2020.
9. П. Г. Талалай, «Компьютерный курс начертательной геометрии на базе КОМПАС-3D», 2010 г. [Google Книги]

УДК:*378.097(78)*

INTERERNI BEZASHDA AUTOCAD VA 3DS MAX DASTURLARIDAN FOYDALANISH

F.S.Rasulova

Toshkent arxitektura-qurilish universiteti.O'zbekiston.

Аннатация: *В данной стате приведено как организоват репродуктивност урока, отвечат дидактиченским стандартным требованиуам, а также терминологии и правилам учеников при проведениуа урока по черчении.*


Annotatsiya: *Ushbu maqola chizmachilik mashg'ulotlarida o'quvchilarga samarali darslarini tashkil etishda, darsga qo'yilgan didaktik talablarni standart asosida etkazish uchun chizmachilik fanga oid tushunchalarni o'quvchilarga to'g'ri tushuntrishning zaruriyati xaqida.*

Клуичевые слова: *Черчение, ученики, репродуктивност урока, дидактиченским стандарты, правила, поочередност, продолжителност*

Kalit so'zi: *Chizmachilik, o'quvchi, samarali dars, tushuncha, zaruriya,standart, mashg'ulot, ketma-ketlik, uzviylik, didaktik talab.*


Respublikamizning ijtimoiy-iqtisodiy kamoloti yosh avlodning sa'y harakatiga bog'liq ekanligi endi hech kimga sir emas. Davlat dasturi mamlakatimizda olib borilayotgan ta'limiy islohotlar tizimida chizma geometiriya va muhandislik gafikasining ham munosib o'rni borligi va ularga hukumatimiz alohida e'tibor bilan qarayotganligining e'tirofidir.

"Chizma geometriya va muhandislik grafikasi" fanlari konstruktiv-handasaviy tayyorgarlikni ta'minlaydi, hamda umumnazariy fandan, umummuhandisaviy grafika ishlariga, jumladan ixtisoslik fanlarni o'rganishda umummuhandislik fani poydevori bo'lib xizmat qiladi. Chizma geometriya va muhandislik grafikasi fanlarini o'qitish va zamonaviy informatsion texnologiyalarni qo'llash yordamida talabalarning shaxsiy sifatlarini rivojlantirish va takomillashtirish imkoniyatini beruvchi o'quv vositalari bo'lib, o'ziga xos didaktik va uslubiy asoslarga egadir. Chizma geometriya va muhandislik grafikasi fanlari uchun ularning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda ta'lim samaradorligini oshirishda xizmat qiladigan uslubiyotlarni ishlab chiqish dolzarb masalalaridan biridir. Grafik dasturlardan foydalanib, chizma geometriya , muhandislik grafikasi va badiiy bezak fanlarida, intererni bezash, talabalarni fanni yaxshi o'zlashtirishga, talabalarda fazoviy tasavvurlarini rivojlanishiga hamda ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Grafik dasturlaridan foydalanib talabalarga dars o'tish fanni yanada qiziqarli bo'lishiga , masalalar ko'rimli, tushunarli bo'lishiga, talabalar xotirasida saqlashni ta'minlaydi va o'zlashtirishni hamda ta'lim sifatini oshirishga imkon beradi. Yuqoridagi muloxazalardan kelib chiqgan holda bugungi kunda bir necha grafik dasturlar mavjud va ulardan chizma geometriya, muhandislik va kompyuter grafikasi fanlariga mos keladigani AutoCAD va 3ds MAX dasturidir. Ushbu dastur chizma standartlariga mos, berilgan o'lchamlarda, yuqori aniqlikda, ikki va uch o'lchamli formatda, chizma chizish qoidalariga asosan chizmalarni bajarishga va chizmalarni JPEG xolida saqlashga mo'ljalanganligi bilan ajraladi.



1-rasm

AutoCAD dasturida naqsh kompozitsiyasini chizib, chiziqlarni bir-biriga ulab **tushuvchi menyular** qatoridan Tools-Options…- Open end Save darchasidan AutoCAD 2000/LT 2000 Draving(*.dvg) formatida saqlanadi. Bu formatda saqlangan ishni 3ds MAX dasturi o‘qiy oladi. 3ds MAX dasturidan File-Import darchasiga kiriladi. AutoCAD dasturida saqlangan faylni topib “Tip faylov” ga AutoCAD Draving (*.DWG,*DXF) formati yuklanib “*Otkrt*” buyrugi tugmasi bosiladi. AutoCAD dasturida tayyorlangan naqsh kompazitsiyasi 3ds MAX dasturi oynasida paydo bo‘ladi. Bu naqshdan intererni bezashda o‘yilgan ganch namunasi sifatida foydalanamiz. [1] Naqshga qalinlik berish uchun **tushuvchi menyular** qatoridan “Extrude Modifier” buyrugi tanlanadi. Bu buyruq o‘ziga yuklatilgan “*standart*” qalinlikni qo‘yaadi. Biz Amount:1.0cm qalinlikga qo‘yamiz. Tayyor bo‘lgan ganch kompozitsiyasini intererni bezashda xonaning kerakli joyiga qo‘yaamiz. 3ds MAX dasturining qulaylik taraflaridan yana biri 3-“D” ko‘rinishdagi chizmalarni, chizma bajaruvchi o‘z talabiga binoan kameralarni kerakli joyga o‘rnatib, kadrni “Quick Render (Producktion)” buyrugi orqali rendr qiladi. Bir necha daqiqadan so‘ng 3-“D” ko‘rinishdagi chizma JPEG xoliga keladi. Tayyor bo‘lgan intererni saqlanadi. [2]



2-rasm

Chizma geometriya va muhandislik grafikasi fanlarini o‘qitishda undagi nazariyalar, misol va masalalar yechish, interer va eksterern bezash talabalardan fazoviy tasavvur qilishni talab etadi. [3] Fazoviy tasavvurni shakllanishiga esa, o‘qituvchi dars jarayonida talabalarga tayyor ishlarni ko‘rsatib, ularni ishlanish jarayonini o‘zi amalda chizib, elektron dars ishlanmalari vositasida ham ko‘satish mumkin. Chunki, ish jarayonini namoish qilish talabaga kerakli ma’lumotlarni berib, fazoviy tasavvurlarini rivojlanishiga hamda chizma geometriya va muhandislik grafikasi fanlarini o‘qitish jarayonida sifatini va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. www. info-baz.narod.ru, III-bob «Redaktirovanie geometrii», 3-qism.

2. A. Fedorenkov, A.Kimaev, AutoCAD 2002: «Prakticheskiy kurs», Moskva, «DESS SOM», 2002g., 340 ÷ 374 betlar.

3. B. Barchard va boshqalar. «Vnutrennыy mir AutoCAD» (Inglizchadan tarjima) Kiev: DiaSoft 2000. III-bob.

УДК 624.012.8

МАҲАЛЛИЙ ХОМ АШЁЛАР АСОСИДА ҚИЗИЛМИЯ ЎСИМЛИГИ ИЛДИЗИ ЧИҚИНДИСИ ҚЎШИЛГАН ДЕВОРБОП ҒИШТНИНГ ХОССАЛАРИ БЎЙИЧА ТАЖРИБА-СИНОВ НАТИЖАЛАРИ

т.ф.н., проф. Сатторов З.М., Ембергенов Қ.Қ., Бекбаулиев Р.И.
Тошкент архитектура-қурилиш университети. Ўзбекистон

Аннатация: *Мақолада қизилмия ўсимлиги илдизи чиқиндиси қўшилган деворбоп ғиштнинг хоссалари бўйича замонавий фазовий таҳлиллар ва ғиштнинг таркибини лойиҳалашда тажриба натижаларига статистик ишлов бериш усулларидан фойдаланиб, ташкил этувчилар миқдори ўзгаришининг керамик масса хоссаларини ўзгариши ва тузилма ҳосил бўлиш кинетикасига таъсири ёритилди.*

Аннотация:*В статье освещено влияние изменения количества компонентов на изменения в свойствах керамической массы и кинетике структурообразования с использованием современного фазового анализа свойств стенового кирпича с добавкой отходов корня солодки и методов статистической обработки результатов экспериментов по проектированию состава кирпича.*

Annotation:*In clause the influence of change of quantity of components on changes in properties of ceramic weight and kinetics structure formation is covered with use modern phase of the analysis of properties wall of a brick with the additive siftings of a root liquorice and methods of statistical processing of results of experiments on designing structure of a brick.*

Калит сўзлар: *Ғишт, девобоп материаллар, донадорлик, қизилмия илдизи чиқиндиси, қоришма, намлик, пиширириш, ташкил этувчилар, текисликлараро масофалар, тупроқ, хом ашё, хосса, ҳарорат.*

Ключевые слова: *Кирпич, стеновые материалы, фракция, отход корня солодки, раствор, влажность, обжигать, компоненты, межплоскостные расстояния, глина, сырье, свойства, температура.*

Keywords: *Brick, wall materials, fraction, withdrawal of a root liquorice, solution, humidity to burn, components, interplanar of distance, clay, raw material, property, temperature.*

Кириш. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 15 февралдаги “Қизилмия ва бошқа доривор ўсимликларни етиштириш ҳамда саноат усулида қайта ишлашни самарали ташкил этишга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги 138-сонли қарори асосида “Қизилмия ва бошқа доривор ўсимликларни етиштириш ва қайта ишлаш ташкилотлари” уюшмасига қизилмия ва бошқа доривор ўсимликлар ўсиши учун қулай ҳудудларда махсус плантациялар ташкил этиш, шу жумладан етиштиришнинг интенсив технологияларини жорий этиш орқали ва табиий ўсиш майдонларидан оқилона фойдаланган ҳолда уларни етиштириш ҳажмларини босқичма-босқич ошириб бориш вазифалари белгиланган [1].

Мазкур қарор асосида ҳозирги кунгача 20 минг гектар майдонга Қорақалпоғистон Республикасида қизилмия ўсимлиги янги плантацияларини ташкил этилди (1-жадвал).

1-жадвал

2019-2023 йилларда Қорақалпоғистон Республикасида қизилмия ўсимлиги янги плантацияларини ташкил этиш кўрсаткичлари

Т/р	*Туманлар номи*	*Экин майдони, йил/га*				
		2019	*2020*	*2021*	*2022*	*2023*
1.	*Тўрткўл*	*100*	*100*	*100*	*100*	*100*
2.	*Беруний*	*100*	*100*	*100*	*100*	*100*
3.	*Элликқалъа*	*100*	*100*	*100*	*100*	*100*
4.	*Амударё*	*100*	*100*	*100*	*100*	*100*
5.	*Хўжайли*	*310*	*310*	*310*	*310*	*310*
6.	*Тахиатош*	*100*	*100*	*100*	*100*	*100*
7.	*Шуманой*	*500*	*500*	*500*	*500*	*500*
8.	*Қонликўл*	*540*	*540*	*540*	*540*	*540*

9.	*Қўнғирот*	*480*	*480*	*480*	*480*	*480*
10.	*Нукус*	*340*	*340*	*340*	*340*	*340*
11.	*Кегейли*	*560*	*560*	*560*	*560*	*560*
12.	*Чимбой*	*580*	*580*	*580*	*580*	*580*
13.	*Қораўзак*	*520*	*520*	*520*	*520*	*520*
14.	*Тахтакўпир*	*520*	*520*	*520*	*520*	*520*
15.	*Мўйноқ*	*150*	*150*	*150*	*150*	*150*
Ҳаммаси:		***5000***	***5000***	***5000***	***5000***	***5000***
Жами:		***25000***				

Қизилмияга “мўъжизакор ўсимлик” дея таъриф берилган бўлиб, ундан 110 турдан ортиқ дори воситалари олиниши билан бирга, саноатнинг 20 та йўналишида фойдаланилади. Республикамизда мазкур ўсимликнинг силлиқ қизилмия тури кенг тарқалган бўлиб, у табиий ҳолда ўсади.

Қизилмия илдизларидан фармацевтика, озиқ-овқат саноати, қишлоқ хўжалиги, енгил саноатда рангли бўёқлар, металлургия саноатида металларни гидролизлашда, кимё саноатида сиёҳ тайёрлашда, қоғозларга ранг беришда қўлланилади. Унинг чиқиндисидан эса қоғозли термоизоляция плитаси, қоғоз сингари маҳсулотлар ишлаб чиқариш мумкин. Шу боис бугунги кунда ушбу ўсимликка АҚШ, Буюк Британия, Голландия, Япония, Германия, Венгрия, Хитой, Жанубий Корея ва бошқа кўпгина давлатларда талаб юқори ҳисобланади.

Хитойнинг “Shaanxi YuanZheng Investment Group CO.Ltd” компанияси мамлакатимизда қизилмия ўсимлигини етиштириш ва қайта ишлаш бўйича қўшма корхона ташкил этиш ишларига алоҳида эътибор қаратиб, бир нечта жараённи ўз ичига олувчи кластер яратиш, яъни қизилмия ўсимлигини етиштиришдан тортиб қайта ишлаш, тайёр ва чиқиндилардан иккиламчи маҳсулот ишлаб чиқариш ҳамда Ўзбекистон-Хитой илмий-тадқиқот марказини очишни режалаштирган [2].

Ҳисоб-китобларга кўра, рентабелсиз бир гектар майдонда 5 йил мобайнида қизилмия ўстириш учун 20 миллион сўм харажат қилиниб, 14 тонна ўсимлик илдизини олиш мумкин [3]. Қорақалпоғистон Республикасида йилига 100 минг тонна қизилмия илдизининг чиқиндиси ҳосил бўлади. Йил давомида 15-20 минг тонна брикет ва гранулали тайёр маҳсулот ишлаб чиқилади.

Қизилмия илдизи чиқиндиларини қайта ишлаш технологиясининг ҳар бир босқичидаги оптимал тартиб ўрнатилганлиги сифатли маҳсулот ишлаб чиқаришни таъминлайди.

Маълумки, қурилишда энг кўп қўлланиладиган пишган ғишт материалига бўлган талаб кун сайин ортиб бормоқда. Маълумки, ғиштнинг асосий хом ашёсини тупроқ ташкил этади. Ўзбекистон Республикасининг “Ер кодекси” қонуни 1998 йилда қабул қилган бўлиб, мазкур қонун ҳужжатларининг асосий вазифалари ҳозирги ва келажак авлодларнинг манфаатларини кўзлаб ердан илмий асосланган тарзда, оқилона фойдаланиш ва уни муҳофаза қилишни, тупроқ унумдорлигини тиклаш ва оширишни, табиий муҳитни асраш ва яхшилашни, хўжалик юритишнинг барча шаклларини тенг ҳуқуқлилик асосида ривожлантириш учун шароит яратишни, юридик ва жисмоний шахсларнинг ер участкаларига бўлган ҳуқуқларини ҳимоя қилишни таъминлаш мақсадида ер муносабатларини тартибга солишдан, шунингдек бу соҳада қонунийликни мустаҳкамлашдан иборат [4].

Адабиётлар таҳлили. R.Socolar, S.Gerl, N.Napke, K.Nikolson, E.Sundermena, K.Engeltamera, П.П.Будников, В.Н.Бурмистров, А.Е.Бурученко, В.И.Верещагин, Г.И.Книгина, Н.Н.Круглицкой, А.И.Кудяков, С.Ж.Сайбулатов, Г.И.Стороженко, А.Д.Шильцина, И.А.Гервидс, К.Э.Горяйнов, А.А.Новопашин, Р.Б.Оганесян, С.П.Онацкий, М.Г.Габидуллин,

И.У.Касимов, Л.М.Ботвина, Н.А.Самигов, А.И.Адилхаджаев, У.А.Газиев ва бошқа олимлар деворбоп ғишт буюмларининг хоссалари ва тузилмалари ҳосил бўлишини назарий ва амалий асосда бошқаришни ишлаб чиқишда тадқиқот ишларини олиб боришган.

Аввал ўтказилган тадқиқотлар таҳлили керамик девобоп материаллар ишлаб чиқаришда энергия самарадорликни ошириш ва ресурс тежамкор технологияларини яратиш соҳасида муҳим ижобий натижалар олинганлигини кўрсатади. Ҳозирги кунда уй-жой биноларининг ташқи деворларининг энергия самарадорлик меъёрий талабларининг кескин ортиши билан маҳаллий хом ашё ресурслари асосида энергия ва ресрус тежамкор технологиялардан фойдаланишни кўзда тутувчи керамик деворбоп материалларнинг самарали таркибларини ишлаб чиқишга қаратилган илмий тадқиқотларда, жумладан ғоваклаштирилган керамик ғиштнинг хоссалари ва уларни ишлаб чиқаришнинг технологиясини ишлаб чиқиш масалалари етарли даражада ўрганилмаганлигини кўрсатмоқда.

Атроф-муҳит муҳофазаси бўйича мутахассислар чиқиндиларни бошқаришнинг вазифасини шундай изоҳлаган эди: “Чиқиндиларни ишлаб чиқарилиши ҳам уларни бартараф эттирилиши ҳам шундай тартибга солиниши керакки, бу инсонларнинг саломатлигига зарар келтирмаслиги ва фойдаланиши учун мақбул бўлган экологик маҳсулотларни чегаралаб қўймаслиги лозим”. Бунда атроф-муҳитни ҳимоя қилишда профилактик экологик тамойилларга таянилади. Қишлоқ хўжалиги учун фойдаланилган барча материаллар табиий ресурслардан олинган бўлиб, фақат бир марта фойдаланилган ва тезда чиқиндига чиқариб юборилган. Чиқиндилар бартараф этилса ёки уни қайта ишлаб яна иқтисодий фойдаланилса, шунча табиий ресурслар асраб қолинган бўлади. Чиқиндиларни бошқариш тартиби имкон борича зарарсиз чиқиндиларни юзага келтиришга ва улардан қайта маҳсулотлар яратишга хизмат қилиши лозим [5, 6].

Энергия тежамкорлик муаммолари ечимида ривожланган хорижий давлатлар тажрибаларининг таҳлили шуни кўрсатмоқдаки, бино ва иншоотлар, саноат жиҳозлари ва иссиқлик тармоқлари конструкцияларининг тўсиқ деворлари орқали иссиқликни йўқолишини қисқартириш унинг энг самарали ечим йўли ҳисобланади.

Бино ва иншоотларнинг лойиҳаларини такомиллаштириш, энергияни тежайдиган технологияларни қўллаш, замонавий ва арзон қурилиш материалларидан фойдаланишга алоҳида аҳамият берилмоқда.

Ғишт бутун дунё миқёсида ишлатиладиган асосий қурилиш материали ҳисобланади. Бугунги кунда ғишт юқори технологик қурилиш материали бўлиб, ишончли ва юқори сифатли биноларни қуриш имконини беради. Бир метр куб ғишт териш учун ғишт сарфи, ғиштни нимадан тайёрланганлиги ва унинг хусусиятлари ва тавсифларига қараб аниқланади. Ғиштга бўлган талаб юқори эканлиги сабабли, уни ишлаб чиқариш ҳажми ва суръатлари ўсиб бормоқда.

Ўзбекистонда йилига ўртача ишлаб чиқарилаётган пишиқ ва хом ғиштлар сони (давлат дастури ва хусусий сектор ҳисоби билан) 4,8 млрд. дона бўлса, бунга тахминан 30-40 млн. метр куб тупроқ сарфланишига олиб келмоқда.

Жаҳонда деворбоп материалларнинг вақт бўйича бардошлилиги, ҳар хил иқлим шароитига чидамлилиги ва мустаҳкамлигини ошириш, иссиқлик-техник хоссаларини яхшилаш борасида, хусусан тайёрлаш жараёнида серғовак структурани ҳосил қилиш ва ўртача зичлигини камайтириш учун куйиб кетувчи қўшимчалардан фойдаланиш, минерал қўшимчалардан фойдаланиб материал структурасини оптималлаштириш, уларни ишлаб чиқаришнинг энергия самарадор технологияларини яратиш, мавжудларини

такомиллаштиришга йўналтирилган илмий-тадқиқот ишлари олиб борилмоқда. Бу борада, паст сифатли маҳаллий хом ашё асосида ва саноат ва қишлоқ хўжалиги чиқиндиларидан фойдаланиб самарали деворбоп буюмлар таркиблари ва ушбу буюмларни ишлаб чиқаришнинг энергия тежамкор технологиясини ишлаб чиқиш муҳим аҳамият касб этади [7].

Тадқиқот методологияси. Ғишт намунаси тайёрлаш учун Қорақалпоғистон Республикаси ва Жиззах вилояти тупроқларининг табиий тузилишини бузувчи зарарли аралашмалар чиқазиб ташланади, йирик аралашмаларни кукунлаш, гилни кукунлаш ва қўшимчалар қўшиш, барча ташкил этувчиларни қуйма масса ҳосил бўлгунча тупроқни майдаловчи тегирмон ва куракли аралаштиргичда аралаштирилади. Хом ашё массаси буюм тури ва хоссасига кўра эгилувчан, ярим қуруқ, бикр, қуруқ ва ҳўл усулларда тайёрланади. Эгилувчан усулда хом ашё ташкил этувчилари 18-28% табиий намликгача сув аралаштириб тайёрланади. Эгилувчан усулда олинган хом ашё массасидан буюм намуналари тайёрланади.

Бикр усулда қолиплаш эгилувчан усулнинг ривожлантирилган замонавий усули бўлиб, хом ашё массаси намлиги 13-18% бўлади. Буюм намунаси вакуум ёки гидравлик прессларвоситасида 10-20 МПа босимда қолипланади. Бу усулда буюмни қуритишга энергия сарфи камаяди, юқори мустаҳкамликдаги хом қолипланган буюм тайёрланади.

Ярим қуруқ усулда хом ашё ташкил этувчилари қуритилади, бўлакланади, майдаланади ва яхшилаб аралаштирилади. Бу усулда ғишт буюмлари 8-12% намликдаги хом ашё массасини 15-40 МПа босимда прессlаб тайёрланади. Бунда буюм ишлаб чиқариш давомийлиги икки марта қисқаради, буюм аниқ ўлчамларда ва қирралари тўғри ҳолда қолипланади ва энергия 30% тежалади. Гидравлик ёки механик пресс қолипда бир ва бир неча буюм прессlаб олиниши мумкин.

Қуруқ усул ярим қуруқ усулнинг ривожлантирилган замонавий усули бўлиб, прессқукун 2-6% намликда бўлади. Бунда хом ашё массасидан тайёрланган буюмни қуритишга зарурат бўлмайди.


Шликер усули хом ашё массаси кўп компонентли бўлганда, нотекис таркибли ва қийин пишадиган компонентлар бўлса, мураккаб шаклдаги буюмларни қолиплашда қуйма услубият зарур бўлганда ишлатилади.

Ғишт намуналари пиширишдан аввал 5-6% намликгача қуритилади, акс ҳолда улар нотекис киришиши, дарз кетиши ва шакли ўзгариши мумкин.

Ғиштларни танлашда бир нечта хоссаларига эътибор берилади: хусусан, экологик софлиги, товуш ўтказувчанлик, мустаҳкамлик ва совуққа чидамлилик, энергия тежамкорлик (иссиқлик ўтказувчанлик) ва ҳ.к. (2-жадвал).

2-жадвал

Қурилиш ғиштининг хоссалари

Ўлчамлари, мм	*250×120×65*	
Совуққа чидамлиги, цикл	*F25*	
Сув шимувчанлиги, %	*9-11*	
Ўртача зичлиги, кг/м^3	*1600*	
Маркаси	*M150-200*	
Иссиқлик ўтказиш коэффициенти, ккал/м^2	*1,8-2*	
Иссиқлик ўтказувчанлиги, Вт/м^2·°C	*0,59*	

Тажриба. Қизилмия ўсимлиги илдизи чиқиндиси қўшилган деворбоп ғиштнинг хоссалари “Республика Муҳандислик қидиривлари ва лаборатория тадқиқот маркази” МЧЖ лаборатория шароитида синовлари ўтказилди [8, 9, 10].

Дастлаб ғишт намуналари қуйидаги таркиб бўйича тайёрланди: Қорақалпоғистон Республикаси тупроғи – 9000 гр, қизилмия ўсимлиги илдизи чиқиндиси – 1800 гр, сув – 3840 гр, Жиззах вилояти тупроғи – 11250 гр, қизилмия ўсимлиги илдизи чиқиндиси – 2250 гр, сув – 4800 гр.

Ғишт намуналарини пишириш ҳарорати 900-1100ºС бўлиб, бу жараён 3-4 сутка давом этади. Ғиштлар юклаш, қиздириш, пишириш, совитиш ва хумдондан чиқариб олиш босқичлари натижасида пишириб олинади.

Намуна материалини фазавий таҳлил қилиш усули. Хом ашё ва тайёр намуналарнинг минералогик таркибини аниқлаш учун энг кўп қиррали бўлган ва кристалл панжаранинг атом тузилиши ва текисликлараро масофалар ўртасидаги боғлиқликка асосланган кукунли моддаларни дифференциал термик таҳлил усули (ДТТ) қўлланилди. *Кристалларнинг ўзига хос хусусиятлари.* Сифатли фазали таҳлил диффракция максималларининг ўрни ва жадаллигини аниқ аниқлашга асосланади. ўрганилаётган намунанинг фазавий таркиби текисликлараро масофаларнинг маълум тўпламидан ва уларга мос келадиган жадалликлардан аниқланиши мумкин. Намунанинг кимёвий таркиби маълум бўлганда, тажриба-синов равишда аниқланган текисликлараро масофалар ва жадалликларни жадвал маълумотлари билан солиштириш етарли бўлди. Минералларнинг текисликлараро масофаларини ўлчаш ДРОН-3 маркали рентген дифрактометрида амалга оширилди. Дифференциал термик таҳлил усули хом ашёнинг қуйиш хусусиятларини яхшилаш имкониятини башорат қилиш учун ишлатилади.


Таҳлил ва натижалар. Қизилмия ўсимлиги илдизи чиқиндиси қўшилган деворбоп ғишт учун ишлатиладиган Қорақалпоғистон Республикаси ва Жиззах вилояти тупроқларининг донадорлик таркиби аниқланди (3-жадвал).

3-жадвал

Қорақалпоғистон Республикаси ва Жиззах вилояти тупроқларининг донадорлик таркиби

Жойлашувчанлиги	*Донадорлик таркиби, %*								*Донадорлик йиғиндиси, %*
	2,0-1,0	*1,0-0,5*	*0,5-0,25*	*0,25-0,10*	*0,10-0,05*	*0,05-0,01*	*0,01-0,005*	*0,005-0,002*	
Жиззах вилояти	*3,60*	*3,64*	*2,04*	*1,00*	*39,16*	*38,57*	*10,95*	*1,04*	*100*
Қорақалпоғистон Республикаси	*0,68*	*2,80*	*2,00*	*1,20*	*40,33*	*33,82*	*15,22*	*3,95*	*100*

Қорақалпоғистон Республикаси ва Жиззах вилояти тупроқларининг донадорлик ўлчамлари зарраларининг миқдори аниқланиб, диаграммада тасвирланди (1-расм).



Зарра ўлчамлари, мм

1–Жиззах вилояти тупроғи; 2–Қорақалпоғистон Республикаси тупроғи.

1-расм. Қорақалпоғистон Республикаси ва Жиззах вилояти тупроқларининг донадорлик ўлчамлари зарраларининг миқдори.

Қорақалпоғистон Республикаси ва Жиззах вилояти тупроқларининг кимёвий таркиби, яъни аниқланди (4-жадвал).


4-жадвал

Қорақалпоғистон Республикаси ва Жиззах вилояти тупроқларининг кимёвий таркиби

Жойлашув-чанлиги	*h*	*Қуруқ қолдиқ, %*	*Анионлар*						*Катионлар*						*Шўрланиш, 2% HCl*
			HCO_3		*Cl*		*SO_4*		*Ca*		*Mg*		*Na+K*		
			%	*мг - экв*	*%*	*мг - экв*	*%*	*мг - экв*	*%*	*мг - экв*	*%*	*мг - экв*	*%*	*мг - экв*	*$CaSO_4 \cdot 2H_2O$*
Жиззах вилояти	*8,2*	*0,25*	*0,02*	*0,36*	*0,08*	*1,78*	*0,06*	*1,28*	*0,05*	*2,5*	*0,00*	*0,49*	*0,01*	*0,43*	*0,21*

Қорақалпоғистон Республикаси	*8,2*	*0,83*	*0,01*	*0,21*	*0,18*	*5,19*	*0,36*	*5,19*	*0,08*	*4,24*	*0,04*	*4,03*	*0,10*	*4,67*	*1,35*

Қоришма массасини пишириш жараёни тавсифларини унинг таркибига қизилмия ўсимлиги илдизи чиқиндисини киритилишида термографик, дилатометрик и рентген-фазали тадқиқотлар натижалари қуйидагиларни кўрсатиб берди: майдаланган қизилмия ўсимлиги илдизи чиқиндиси қўшилмаган бошланғич намунанинг термограммасида ҳарорат кескин ўзгаришидан далолат берувчи намунанинг маркаси ва Δt_2 сирти ўртасидаги ёркин ифодаланган чўққилар 890 ºС ҳарорат етгунча кўринмайди. Бунда куйдиришнинг бошланғич даврида кескин ўзгариш монотон равишда печдаги ҳарорат 200-220 ºС га етгунча ортиб боради ва максимал даражасига 45ºС ҳароратда етади.




Δt_1 – ҳарорат муҳитида намуна юзаси; Δt_2 - намуна марказида намунанинг юзаси; Δt_3 – ҳарорат муҳитида намуна маркази; t_n – печнинг ҳарорати.

2-расм. Қизилмия ўсимлиги илдизи чиқиндиси қоришмага қўшилмаган ҳолатда керамик намуналарда ҳарорат майдонининг ўзгариши.

Шундан сўнг, ҳарорат тахминан 35-45ºС оралиғида ўзгаради. Бу эса материалдаги куйдириш даврида кечаётган жараёнларнинг “юмшоқ” режимда кечишдан далолат беради ва ўрганилаётган намуналардаги хавфли термик кучланишлар мавжуд эмаслигини кўрсатади. Ушбу ҳолат куйдиришни 900ºС ҳароратгача чизиқли қонуният бўйича кўтаришга имконият беради. Печдаги ҳарорати 900-920ºС етганида ҳароратнинг ўзгариши (Δt_2) 55ºС ортиб кетиши кузатилади. Бу эса намунада карбонатлар парчаланиши жараёнлари содир бўлишидан далолат бериши мумкин. Жараёнларнинг бундай қонуният бўйича кечиши 850-950ºС ҳароратлар интервалида печни қиздириш тезлигини секинлаштиришга имкон беради ёки намуналардаги декорбонизация жараёнларини батамом якунлаш учун қисқа мудатда тўхтатишни тақоза этади (2-расм).

Қизилмия ўсимлиги илдизи чиқиндиси қўшилган намуналарнинг термограммалари мос равишда келтирилган. Термограммалардан шуларни кўриш мумкинки, қизилмия ўсимлиги илдизи чиқиндиси лойли масса таркибига киритиш термограмманинг эгри чизиқлари тавсифига сезиларли таъсир кўрсатмайди. Шуни айтиш кераки, ҳарорат ўзгаришининг Δt_2

миқдори абсолют қийматининг бироз ортиб кетиши, фаразга асосан қизилмия ўсимлиги илдизи чиқиндиси қўшилмаган намуналарни пиширишга нисбатан печнинг қизиши тезлигининг бироз ортиши билан изоҳланади (3-расм).



Δt_1 – ҳарорат муҳитида намуна юзаси; Δt_2 - намуна марказида намунанинг юзаси; Δt_3 – ҳарорат муҳитида намуна маркази; t_n – печнинг ҳарорати.

3-расм. Қизилмия ўсимлиги илдизи чиқиндиси қоришмага қўшилган ҳолатда керамик намуналарда ҳарорат майдонининг ўзгариши.

Олинган тажриба-синов таҳлилларига кўра, қорақалпоқ тупроқлари асосидаги гил массалари учун оптимал қолип намлиги мос равишда 21,4 ва 18,2 фоизни ташкил қилди. Аралаштириш усулидан фойдаланиш таркибий қисмларнинг ўзгарувчан нисбати бўлган керамика массалари учун оптимал қолип намлигини ёки иш ҳолатининг намлигини қуйидаги йўналишда ўзгартиришга ёрдам беради: аралашма 3-17,4%, аралашма 4-18,2%, аралашма 5-18,8, аралашма 6 -17,8%, такрорланиш хатоси 2,7%.

Тузилмавий-механик таҳлилларга кўра, қорақалпоқ тупроқларига қизилмия ўсимлиги илдизи чиқиндисини қўшиш керамик массаларга тузатувчи таъсир кўрсатади, улар қолиплаш хусусиятларини яхшилайди. Тупроқларни қўллаш билан аралаштиришнинг самарадорлиги тузилмавий-реологик константалар ва хусусиятларнинг ўзгариши табиати, силжиш кучланишлари таъсирида деформация жараёнларининг ривожланиш хусусиятларидан далолат беради.

Олинган тажриба-синов таҳлилларига асосланиб, жиззах тупроқларидан ва чиқиндидан ташкил топган ғиштнинг массаси ноль тузилмавий-механик типга тегишли эканлиги аниқланди, бу уларнинг ёмон шаклланувчанлигини кўрсатди.

Хулоса ва таклифлар. Маҳаллий хом ашёлар асосида қизилмия ўсимлиги илдизи чиқиндиси қўшилган деворбоп ғиштнинг хоссалари бўйича тажриба-синов жараёнида физик-кимёвий таҳлилнинг замонавий усулларидан, тузилма ҳосил бўлишини рентген-тузилмаси ва дифференциал термик таҳлили, керамик масса ва ундан олинган ғиштнинг сифат кўрсаткичлари ва хоссаларини ўрганишнинг стандартлаштирилган усулларидан ҳамда керамик ғиштнинг таркибини лойиҳалашда тажриба натижаларига статистик таҳлил қилиш усулларидан фойдаланилди.

Қизилмия ўсимлиги илдизи чиқиндиси қўшилган масса шихтасининг ташкил этувчилари миқдорини ўзгаришига қараб қолипланиш хоссалари аниқланди.

Ташкил этувчилар миқдори ўзгаришининг керамик масса хоссаларини ўзгариши ва тузилма ҳосил бўлиш кинетикасига таъсири ўрганилди.

Ғиштни пишириш жараёнида қизилмия ўсимлиги илдизи чиқиндисини керамик тузилмани ҳосил бўлишига таъсири ўрганилди ва тузилма ҳосил бўлиш қонуниятлари аниқланди.

Қизилмия ўсимлиги илдизи чиқиндиси қўшилган деворбоп ғиштни туннелли печда пишириш тартибини оптималлаштириш таклифи ишлаб чиқилди.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 15 февралдаги “Қизилмия ва бошқа доривор ўсимликларни етиштириш ҳамда саноат усулида қайта ишлашни самарали ташкил этишга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги 138-сонли қарори (Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 16.02.2019 й., 09/19/138/2633-сон, 30.09.2019 й., 09/19/829/3832-сон; Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 28.08.2021 й., 09/21/545/0832-сон; 09.04.2022 й., 06/22/101/0288-сон).

https://lex.uz/ru/docs/4204237

2. https://xs.uz/uzkr/post/khitojliklar-bilan-hamkorlikda-ozbekistonda-qizilmiya-osimligi-etishtiriladi-va-qajta-ishlanadi 18 Август 2019

3. https://uzpharmagency.uz/uz/news/bilasizmi-izilmijaga-nega-muzhizakor-usimlik-deja-tarif-beriladi

4. Сатторов З.М., Усаров Б.Р., Муродов Б.З. Маҳаллий минерал хом ашё ресурслари асосида энергия ва ресурс тежамкор замонавий деворбоп материаллар ва уларни фойдаланишдаги самарадорлиги. // Бино ва иншоотлар зилзилабардошлигининг долзарб муаммолари. Республика илмий-амалий анжуман материаллар тўплами. // ЎзР Қурилиш вазирлиги. – Тошкент, ТАҚИ, 18-19 март 2020 й. – 116–125 б.

5. Сатторов З.М., Аскаров М.С., Муродов Б.З. Классификация энергоэффективных стеновых и теплоизоляционных легких бетонов. // Научно-технический журнал ФерПИ. // 2020. Том 24. №4, – Фергана, 2020 г. – 48–54 с.

6. Сатторов З.М., Махамаджонов Ж.А. Чиқиндиларни бошқаришни тартибга солиш ва ундаги муаммолар. // Экологиянинг ҳозирги замон муаммолари ва уларнинг ечими. Республика илмий-амалий анжуман материаллари. // – Фарғона, ФерДУ, 3 апрель 2017 й. – 40–42 б.

7. Сатторов З.М. Қурилиш соҳасини такомиллаштириш ва ривожланиш истиқболлари. // Илмий–амалий журнал “Архитектура Қурилиш Дизайн”. // №1/2019, – Тошкент, 2019 й. – 45–50 б.

8. Ильясов А.Т. О выборе рационального режима обжига керамического кирпича с выгорающей добавкой из сельскохозяйственных отходов / Ильясов А.Т.//Материалы международной научно-практической конференции “Молодой исследователь” - №32(85) Москва, 2018.- С. 52-58.

9. Ильясов А.Т. Перспективные керамические материалы / Ильясов А.Т., Тургаев Ж.А., Калиев Н.М.//Республика илмий ва техник анжумани “Қишлоқ хўжалик маҳсулотларини ишлаб чиқариш, сақлаш ва қайта ишлашнинг тежамкор технологиялари ва уларнинг инновацион ечимлари” - Фарғона, 2017. 229-230 б.

10. Ильясов А.Т. Использование отходов в производства пористого керамического кирпича / Ильясов А.Т., Калиев Н.М., Пурханатдинов А.П.//Материалы республиканской научно-практической конференции «Инновационные технологии в строительстве» - Ташкент, 2017.- С. 124-128.

УДК 0.72

РЕНОВАЦИЯ ПАМЯТНИКОВ ЗЕМЕЛЬ ДРЕВНЕГО ОРОШЕНИЯ ТУРИСТИЧЕСКИМИ МАРШРУТАМИ – САФАРИ

Юсупов Ардашер Намазбаевич
Центрально Азиатский инновационный университет,г.Шымкент, Казахстан
Юсупова Акмарал Ардашеровна
Южно-Казахстанский университет им.М.Ауезова
Ажидинов Акмалдин Сапардинович
Центрально Азиатский инновационный университет,г.Шымкент, Казахстан
Малик Асылжан Мадияркызы
Южно-Казахстанский университет им.М.Ауезова

Аннотация: *в этой статье рассматриваются перспективные приемы реновации памятников земель древнего орошения туристическими маршрутами на внедорожниках - сафари, романтическими поездками в каракумы. Приведена карта памятников земель древнего орошения в низовьях Сырдарьи.*

Ключевые слова: *Туристический маршрут, Сафари, Архитектурные памятники, Экосистема, Чирик-рабат, Древнее орошение*

Annotation: *this article discusses promising methods for the renovation of monuments of ancient irrigation lands with tourist routes on safari, romantic trips to the Karakum desert. Furthermore, a map of monuments of lands of ancient irrigation in the lower reaches of the Syr Darya is given.*

Keywords: *Tourist route, Safari, Architectural monuments, Ecosystem, Chirik-rabat, Ancient irrigation*

Как известно, в старых руслах рек Сырдарьи и Амударьи расположены так называемые земли древнего орошения. Обширные зоны земель древнего орошения удалены от современных населенных пунктов, в тоже время там расположены многочисленные известные памятники истории культуры и природы ушедших цивилизации внесенные в список охраняемых памятников [3]. Принимая во внимание опыт зарубежных стран, авторы статьи предлагают реновацию памятников земель древнего орошения туристическими маршрутами на внедорожниках - сафари, романтическими поездками в каракумы.

Реновация историко-культурных памятников заключается в выборе наиболее художественных видов их раскрытия, подъездов и тропинок, стоянок для отдыха и др. Эти памятники омытые атмосферными осадками, отточенные воздействием ветров, имеют плавные художественные формы, сохранив в себе отпечаток ушедших цивилизации.

Ниже приведена карта памятников земель древнего орошения в низовьях Сырдарьи. Она была выполнен в 1984 году, архитектором Юсуповым А.Н. на основе карт московской археологической экспедиции, подземных водных источников, растительного и животного мира . На карте выделены два маршрута[5]:

- ближний маршрут до 100 км, в оазис Джетыасар
- дальний маршрут до 300 км, в оазис Бабиш мулла.

Для планирования маршрутов сафари следует использовать экосистемы земель древнего орошения:

- **тугайные экосистемы**, формирующиеся в долинах и низовьях рек

с богатой фитомассой (300 т/га) и животным миром;

- **пустынно-песчаные экосистемы**, с достаточной фитомассой (нескольк десятков т/га) с соответсующим животным миром;
- **глинисто-такырные экосистемы**, образованные на иловых заносах Сырдари , Амударьи с умеренной фитомассой (5-8 т/га) , обладают болшим агроиригационным потенциалом, здесь расположены около пятисот известных истрико-культурных памятников.

.

Например, городище Чирик-рабат столица племенного союза апасиаков находится в 300км юго-западнее Кызыл-Орды, в пустыне Кызыл-ум. Городище расположен на возвышенности высотой 15м. План городища вписан в овальные очертания холма, длина которого равна 850 м при ширине около 600м. Время существования памятника V-II в.в. до н.э. Вторично городище было освоено в XII веке[2].

Чирик-рабат имеет живописный, впечатляющий вид. Архитектурную достопримечательность памятника дополняет историческое сражение. По свидетельству македонского историка Арриана, в нем доспехи скифского катафрактария был пробит при введении в бой стрелометной машины. Доспех найденный на Чирик –рабате, датируется тем же временем, указанных в исторических эпизодах. Большую культурную ценность апасиакского наследия отмечал член-корреспондент АН России С.П. Толстов: « Богатый материал по фортификации и зодчеству, по земледелию и ремеслу, жилищу и погребальным обычаям, ценные находки предметов вооружений позволяют говорить, что они были ирригаторами, ремесленниками и градостроителями, творцами больших культурных ценностей и военного искусства» [1].



Рис 1. Земли древнего орошения в низовьях реки сырдарьи

Памятники республиканского значения Джетыасарской культуры: Алтынасар, Томпакасар, Косасар и др, расположены на растоянии до пяти километров на конусовидных холмах высотой до 30м, оживляя равнинный ландшафт; сохранили очертания крепости, монументальность и строгость обьемно-пространственного решения. На различных уровня

расположены ворота, башни, бойницы. Время существования памятника V -в. до н.э. - 1V в. н.э.

По утверждениям известного ученого археолога Л.М. Левиной эта культура сыграла решающую роль в этногенезе народов Южного Казахстана и Средней Азии, поэтому представляет большую научно-культурную ценность. Из Джетыасарская культуры (Кызыл-Ординская область) последовательно образовались культуры: Отырар-Каратауская (Туркестанскя область) и Каунчинская (Ташкентская область) .

В этой связи следует отметить, что известный ученый, археолог С.П.Толстов, изучив останки древнего купольного здания, в 1958 году, в урочище Баланды Кзыл-ординской области, сделал сенсационное открытие: он научно обосновал, что это первое купольное здание в мире. Это здание круглой формы диаметром 18 м., построенное IV-II в.в. до н. Здание состоит из внешней галереи и центрального круглого помещения, перекрытое куполом диаметром 3,5 м[1].

Древнеримский ученый Витрувий написал трактат о купольных конструкциях в I в. до н.э. По сведениям С.П.Толстова, здание в Баланды было построено на 100 лет раньше римских купольных зданий. С.П.Толстов отметил, что римляне купольную конструкцию заимствовали извне, так как в истории архитектуры Рима нет эволюции купольной конструкции, тогда как у кочевников эволюционный путь развития купольный системы прослеживается четко[1].

Купольное здание в урочище Баланды было местом захоронения известных личностей, так как у кочевников культу предков придавалась особое значение. Факт, что купольное здание Пантеон - также было предназначено для захоронения знатных людей Римской империи. Купол Пантеона освещается сверху, т.е. в точности также, как и жилище кочевников. В настоящее время Баланды покрыт навесом, охраняется в качестве памятника республиканского значения[4].




Рис.2. Виды архитектурного памятника Баланды

Для организации этих туристических маршрутов фермерские хозяйства расположенные в близи этих историко-культурных и природных памятников должны быть преобразованы в агро-рекреационные фермы[5]. Они могут оказать обслуживание туристам по следующим направлениям:

- верховой езде, прогулке на лошадях и верблюдах;
- национальные игры на лоне природы;
- национальная кухня и напитки;
- песни и танцы и др.

Туризм на землях древнего орошения способствуют знакомству историей, культурой и бытом региона, увеличению занятости сельского населения, укреплению физического здоровья и активности, прививанию любви родному краю.



Рис. 3 Виды земель древнего орошения Казахстана [6].

Литература:

1. Толстов. С.П. По древним дельтам Окса и Яксарта. -М. 1960 г. –С. 175-178.
2. .Басенов Т. Архитектурасы Казахстана. Том 2. Алматы. Онер-2010,154с.
3. Байпаков К.М Великий шелковый путь на территории Казахстана. Алма-Ата, 2007 – 500 с.
4. Назилов Д. А. Интерьеры в архитектуре центральной Азии (узб). Ташкент «Фан» 2005. - 215 с
5. Юсупов А.Н. Истроико-культурные и природные факторы в процессе формирования сельского расселения, канд. диссер. Москва, Мархи 1985,150с.
6. https://wildticketasia.com/ru/ Джип туры по Казахстану

УДК 721.012

ЭФФЕКТИВНЫЕ АРХИТЕКТУРНО-ПРОСРАНСТВЕННЫЕ ПРИЕМЫ ОРГАНИЗАЦИИ ОБЪЕКТОВ ТУРИЗМА

Фоменко Нина Николаевна

Ташкентский архитектурно- строительный университет, Узбекистан.

Аннотация: *Единое образное и стилевое объемно-пространственное решение объекта туризма позволяет воспринимать всю территорию рекреационного комплекса как целое архитектурное формирование. При проектировании современных объектов отдыха и туризма основой архитектурного решения становится воплощение оригинальной идеи, создание запоминающегося образа.*

Annotation: *A single figurative and stylistic volume-spatial solution of the tourism object makes it possible to perceive the entire territory of the recreational complex as a whole architectural formation. When designing modern recreation and tourism facilities, the basis of the architectural solution is the embodiment of an original idea, the creation of a memorable image.*

Ключевые слова: *образ, стиль, форма, коттедж, композиция, приемы организации.*

Keywords: *image, style, form, cottage, composition, organization techniques.*

Проектирование рекреационных объектов в современном дизайне при поиске идеальной формы необходимо в процессе комплексного изучения и анализа территории. Функциональная организация территории - это рациональное распределение множества элементов на проектируемом участке, что обеспечивает надежные и соответствующие функциональные связи с различными объектами и зонами, включая: парковочные места, въезды и выезды, зеленые зоны, водоемы, капитальные постройки и внутренняя дорожно-транспортная сеть от пешеходных дорожек до служебных транспортных коридоров и мест отдыха.

Единое образное и стилевое объемно-пространственное решение позволяет воспринимать всю территорию рекреационного комплекса как единое целое архитектурное формирование. А взаимосвязь зоны отдыха с природой, дает возможность отдыхающим прикоснуться к окружающим природным элементам. Спокойные, естественные и оригинальные пространства предпочтительнее обычных туристических центров [1].

При проектировании современных объектов отдыха и туризма основой архитектурного решения становится воплощение оригинальной идеи, создание запоминающегося образа.

Одна из самых распространенных современных тенденций в архитектуре - экологичность. Это связано не только с растущей осведомленностью о негативном влиянии человека на окружающую среду, но и с развитием технологий, появлением новых строительных материалов и конструкций и использования природных, а также альтернативных форм энергии (естественное тепло Земли и солнечный свет).

Разнообразие архитектурных форм коттеджей и используемых в их строительстве материалов обеспечивает широкий выбор для отдыхающих с разным составом семьи [3] (рис.1-3.).



*Дом с двумя отдельными номерами и единым входом. Общая площадь одного номера - **25 кв. метров.** Размещение двухместное.*



*Стандартный номер общей площадью **20 кв. м.** Размещение двухместное.*



Дом прямоугольной формы 2-х местное размещение Общая площадь дома - 18 кв. метров



Дом с панорамным остеклением площадью 18 кв.м Размещение двухместное.

Рис.1. Коттеджи с двухместным размещением.






Главные особенности: респектабельный экстерьер и панорамное остекление. 2-х местное размещение + 2 доп. места

Небольшой дом площадью 27 кв.м 2-х местное размещение + 2 доп. места

Рис.2. Коттеджи на четверых с панорамным остеклением .





Просторный коттедж со вторым светом 4-х местное размещение + 4 доп.места

Двухэтажный коттедж в стиле Post & Beam Вместимость до 8 гостей.





Рис. 3. Вместимость коттеджей до 8 гостей..

Одноэтажный домик – бунгало рассчитан на 2-4 человек. В двухэтажном гостевом домике вместимость до 8 человек каждый. Все апартаменты оснащены необходимой бытовой техникой: телевизор, холодильник, микроволновая печь. Желающие могут незабываемо провести время в беседках на воде или среди зеленых насаждений. Все беседки оборудованы электричеством (освещение и электрическая розетка), установлены столы и места для сидения [9].

При этом необходимо учитывать, что развитие сферы туризма идет вместе с развитием и использованием ресурсного потенциала других подсистем [3].

Более спокойные, естественные и оригинальные пространства предпочтительнее обычных туристических центров. Люди начали отдавать предпочтение занятиям, которые они могут выполнять, находясь на природе [2].

Многие проектные предложения имеют интересные решения в студенческих работах. Актуальность строительства баз отдыха и турбаз способствует выбору данной темы для архитектурного и дизайнерского поиска в молодежных проектах (рис.4.).



дипломник СФУ [2]. *дипломник ТАСИ*

Рис.4. Примеры решения коттеджей в студенческих работах.

Образ коттеджей, стилизованных под палатку, традиционно ассоциируется с отдыхом и путешествием. И невысокий размер объема удачно вписывается в природную среду.

Редко массивная квадратная коробка, обложенная красным кирпичом, будет гармонировать с лесной опушкой, берегом реки или горной вершиной. Именно для таких случаев, когда кажется, что стандартный объем просто не впишется в ландшафт, выходом может стать коттедж-шалаш. Коттеджи - шалаши отлично вписываются в природный ландшафт, выглядят оригинально и свежо, максимально не похожи на городские дома [6].

Ещё одним интересным проектным предложением является стиль барнхаус [7]. Барнхаус отлично смотрится на горном склоне, где отражается натуральность и экологически выдержанное решение (рис.5).



Рис.5. Стиль барнхаус в проектных предложениях.

Современный туризм - комплексное и массовое явление, форма организации отдыха, способ познания окружающего мира [2].

Комплексный анализ факторов, влияющих на архитектурно-пространственную организацию объектов отдыха и туризма позволил сформулировать следующие требования к проектированию объектов отдыха и туризма:

1) размещение объектов отдыха и туризма с учетом природоохранных зон;

2) применение различных типов объектов:

3) применение конструкций с учетом территориального размещения;

4) защита от низких температур в холодное время года и от перегрева в теплый период.

Композиция объектов в основном раскрывается на акваторию, либо открытое пространство. Для увеличения полезной площади в летнее время применяют различные террасы.

Основными планировочными приемами организации объектов являются:

1) террасная застройка;

2) застройка отдельно стоящими 3-4 этажными домами линейного или башенного типа;

3) одно или двухэтажная застройка отдельно стоящими коттеджами или блокированными домами.

Приветствуется применение энергосберегающих и экологически чистых технологий, а также использование преимущественно местных строительных материалов [6].

В настоящее время в Узбекистане наиболее популярными видами отдыха и туризма являются кратковременный отдых, длительный стационарный отдых и отдых с элементами лечения.

В настоящее время соотношение отдыхающих распределяется следующим образом: местные отдыхающие составляют 70%, приезжие из других регионов – 25% [1].

Туризм - социальный фактор отдыха, оздоровления, взаимопонимания между людьми, и поэтому обеспечение комфортной архитектурной среды даёт возможность туристу полноценно уединенно отдохнуть и восстановить силы.

Список литературы:

1. М.Амонбоев, О. Гимранова. “Региональный туризм”. Учебное пособие – Ташкент: Иктисодиёт, 2019 год, 271 стр.

2. Игнатьева И.Ф. Организация туристской деятельности. Учебное пособие. М.: КноРус, 2015.

3. Ярмолич О.А. Семейный туризм: проблемы и перспективы развития. Екатеринбург 2017- 52 с.

4. *Семейный* туризм, особенности, организация и география семейного туризма [Электронный ресурс] Режим доступа: http://travelluxtour.info

5. Шевченко О. Д., Корнилова А.А. Архитектурно-планировочная организация туристических комплексов и зон отдыха в региональных условиях. Материалы международной научно – теоретической конференции «Сейфуллинские чтения – 17 2021.- Т.2, Ч.1 - С.253-254

6. Строительство базы отдыха: концепция и проектирование // [Электронный ресурс // http: concept-development.ru/index.php/conceptbaza-otdyha по состоянию на 11.05.2017]

7. https://arh1.ru › project › proekt-bazy-otdyxa-turbazy

8. *https://www.pinterest.com*

9. https://lafaclub.ru

10. www.archi.ru

УДК:692.528

ХОРАЗМ КАМ ҚАВАТЛИ ТУРАР ЖОЙ БИНОЛАРИНИНГ АРХИТЕКТУРАВИЙ ЕЧИМЛАРИ

Abduraxmanov Doniyor
Toshkent Arxitektura-Qurilish Universiteti. O'zbekiston.

Аннотация: *Xorazm turar joy imoratsozligi uning o'ziga xos jihatlarga ega ekanligi ma'lum. Shahar uylarining asosiy yetakchi yacheykasi to'g'ri to'rtburchak shaklida bo'lib, bu yacheyka ortida xonalari joylashtirilgan ikki ayvon va ular orasida joylashgan hovlidan tashkil topgan. Turar – joylarning boshqa variantlarida ham ikki bo'ylama tarafli yacheykalar takrorlanadi. Ushbu maqolada Xorazm an'anaviy turar joylarning tarixiy shakllanishi, iqlimiy, hajmiy-kompozitsion, tipologik xususiyatlari ularga ta'sir qiluvchi tamoyillar tadqiqot asosida ko'rib chiqadi.*

Kalit so'zlar: *arxitektura, turar joy binolari, iqlim, orientatsiya, ayvon, tip.*

Аннотация: *Хорезмское жилищное строительство, как известно, имеет свои особенности. Главная передняя келья городских домов имеет прямоугольную форму и состоит из двух крыльцов с комнатами за кельей и двора между ними. В других вариантах резиденций повторяются клетки с двумя продольными сторонами. В данной статье на основе исследований рассмотрено историческое формирование хорезмских традиционных поселений, их климатические, размерно-композиционные и типологические характеристики.*

Ключевые слова: *архитектура, жилые дома, климат, ориентация, терраса, тип.*

Abstract: *Khorezm residential construction is known to have its own characteristics. The main leading cell of the townhouses is rectangular in shape, consisting of two porches with rooms behind the cell and a courtyard between them. In other options of residential areas, cells with two longitudinal sides are repeated. In this article, the historical formation of Khorezm traditional settlements, climatic, volume-compositional, typological characteristics, and the principles affecting them are considered based on research.*

Key words: *architecture, residential buildings, climate, orientation, porch, type.*

Вилоятдаги турар жой бинолари шаҳарда қуриладиган турар жой биноларидан батамом ўзгача қиёфа касб этиб, бу бинолар нафақат режалаш ва қуриш конструктив услублари билан балки композицион ва меъморий – декоратив пардози билан ҳам қишлоқ турар – жойларидан фарқ қилади. Шаҳарнинг бутун ҳудуди бўйлаб қалъа деворлари билан ўраб олинади. Девор билан қуршаб олишдан аввал пухта ва қатъий равишда қурилиш майдонларининг юзалари ҳисобга олинган. Шу сабабли шаҳар ҳудудидаги ҳар бир қарич ер майдони юқори нархли баҳога эга бўлган. Бу жиҳат Марказий Осиёдаги барча шаҳарларга хосдир, лекин Хоразм ўлкаси учун бу жудаям алоҳида, муҳим аҳамият касб этган.

Ҳар бир қарич ернинг қиммат бўлишининг асосий сабабларидан бири бу ўлкага жуда кўп сонли кўчманчиларнинг паноҳ излаб, шаҳар деворлари орқали ўзларини ҳимоя қилиш мақсадида қишлоқ уйларига муҳтож бўлганлигидир. Бу юқори нарх ва аниқ чегарага эга бўлган қурилиш майдончаси уй қурувчиларни ўз уйларини қуришда жуда жиддий ва етти ўлчаб бир кесиш қабилида пухта режалашга ёндашиш кераклигини тақозо этар эди. Уй қуришдан олдин талаб қилинадиган барча шарт – шароитларни ва қулайликларни ҳисобга олиб, пухта режа тузилгандан кейингина уй қуришга киришилган. Бу тузилган режалар ичидан энг мақбули бўлиб майдони кам яъни минимум юза эгаллайдиган режалар танлаб олинган ва шу танланган режа асосида турар – жойлар тикланган. Бу даврда кам юзали майдон эгаллаган турар – жой режалари энг иқтисодий тежамли ва мақсадга мувофиқ деб ҳисобланган ва тан олинган. Бундай режалаштиришнинг қабул қилиниши ва қурилишга қўлланилиши мавзуларнинг режалаштирилишига ҳам ўз таъсирини кўрсатган. Бошқа шаҳарларда масалан: Тошкент, Фарғона ва ҳатто Бухорода ҳам катта мавзеларга эга бўлинган. Бу мавзелар кўчалар, кўп сонли тупик ва ўтиш йўлакларига эга бўлган бўлса, Хоразм ўлкасидаги мавзеларда

аксинча бундай кўча, тупик ва ўтиш йўлаклари мутлақо учрамайди. Бу ҳолат ҳам Хоразмда ҳар бир қарич ер жуда юқори баҳоланганлигидан дарак беради.[2]

Хоразм шаҳарларидаги мавзелар қурилиши шундай ташкил этиладики, уларда турар – жой ҳовлисига фақат кўча томондан кирилади квартал ичида кўчалар, тупиклар жойлаштирилмайди. Шу сабабли кварталлар жуда узун тўғри тўртбурчак шаклида ёки бошқа тўғри чизиқли шаклга эга бўлмаган формада фақат уйлар қурилиши билан ташкил топади. Турар-жойлар ўз майдонининг юзасига қараб кўчага нисбатан бўйлама ёки кўндаланг(торец томони билан) тарзда тикланади. Уйларни бундай жойлаштириш энг асосийси ориенталаш деб ҳисобланган. Шуни таъкидлаш жоизки, ҳеч ерда Хоразмдагидек ориентация қонунларига жудаям пухталик билан риоя қилинмаган. Бундан фақатгина Бухоро ўлкаси мустаснодир. Турар жой участкаларининг (майдонларининг) аксарият қисми тўғри тўртбурчак шаклида бўлган, жуда кам ҳолларда квадрат шаклига яқин бўлган формада қурилган бўлиб, ҳаттоки қишлоқ турар жой қурилишида ҳам асосий ўз йўналиш сифатида жанубий шимолий томон танланилган.

Бу ўқ йўналишига боғлиқ равишда режалаш амалга оширилган. Турар жой участкаси режаси ва композицияси сифатида бир-бирига қарама қарши турувчи икки ён томони девор билан тикланган ёки қўшимча яшаш ва ёрдамчи хўжалик хоналари қурилиши мўлжалланган икки айвонлик тизим (система) қабул қилиниб, шу асосда уйлар қурилган. Шу тариқа турар жойларнинг ички фазовий ҳажми таъминланган.[4] Бу икки айвонлик тизим доимо жанубий шимолий йўналишда ориентацияланганлиги турар жойларга турлича функционал вазифалар берган ва бу вазифалар асносида турар – жойларнинг оригинал ва ноодатий бўлган яхлит формалари шаклланган. Шимол тарафга орентирланган айвон ўнг айвон улу айвон номланган бўлиб, бу айвон бош ёки катта айвон ҳисобланган ва бошқа барча хоналар ҳамда айвонлардан ўз баландлиги билан яққол ажралиб турган. Ўнг айвон ҳеч якка ҳолда қурилмаган унинг орқа томонига доимо катта хона жойлаштирилган. Бу хонанинг бўйи узунлиги ўнг айвон узунлиги билан бир хил бўлиб, эшик ва иккита деразага эга бўлган ва уни сарой деб аташган. Бошқа бир нечта хоналар мавжуд бўлишига қарамай сарой ёзги яшаш хонаси сифатида эътироф этилган.

Ўнг айвон қарама – қарши тарафига терс – айвон қурилган. Бу айвон бошқа яшаш хоналаридан баланд бўлмаган, кўп ҳолларда хўжалик жойи вазифасини ўтаган.

Илмий изланишлар орқали ўрганилган турар – жой типлари асосида шуни айтиш мумкинки, шаҳар уйларининг асосий етакчи ячейкаси тўғри тўртбурчак формаси(шакли)да бўлиб, бу ячейка ортида хоналари жойлаштирилган икки айвон ва улар орасида жойлашган ҳовлидан ташкил топган. Турар – жойларнинг бошқа вариантларида ҳам ики бўйлама тарафли ячейкалар такрорланади. Бундай системанинг таҳлили олтита асосий вариантни берадики, бу вариантлар бир – биридан хоналарнинг камлиги ёки кўплиги билан фарқ қилади.[6]

Биринчи вариант нисбатан оддий ва кенг тарқалган (оммавий) бўлиб, бир қаватдан иборат бўлган, ўнг айвон баландроқ қурилган ва шимол тарафга қаратиб қурилган. Бўйлама томонлари деворлар билан чегараланган. Ўнг ва терс айвонлар орасини ташкил этувчи ҳовли ёпилмаган яъни очиқ қолган. Одатда ҳовлининг айвон томонидан марказига қараб ер сатҳидан пасайиб борувчи тартибда пишган ғиштлар териб чиқилган ва марказига сув оқиб тушиши учун қудуқ қазилган, қудуқ устига ўртасида унча катта бўлмаган тешиги бор тошли ёки мармар плита ўрнатилган.

Иккинчи вариант ҳам худди шундай тизим (система) да бўлиб, фақатгина ўнг айвон томёпмаси саройнинг орқа (фасад) томони девори билан бирикади ва сарой устида

иккинчи қават вужудга келади. Одатда бу қаватнинг олдинги яъни ҳовлига қараган томони очиқ қолдирилади, бу қаватни бола-хона, маҳаллий тилда эса айвонча деб аташган. Бу айвон бир ёки икки устунли бўлиб, ундан асосан хўжалик эҳтиёжларини бажарувчи жой сифатида фойдаланилган. Баъзан бу иккинчи қават девор билан ёпилган ва у омборхона вазифасини бажарган. Бу қаватга чиқиш учун махсус зинапоялар ўрнатилмаган, унга чиқиш учун ёғочдан ишланган нарвон (шоти)дан фойдаланишган.

Учинчи вариантда ўнг айвон томёпмаси терс – айвон томёпмасигача давом этган. Бу томёпма давоми унча катта бўлмаган устунларга ёки каркас типидаги деворларга таянган бўлиб, бу каркас деворлар бир қатор очиқ оралиқлардан иборат бўлган. Демак, бу вариантда ҳовли очиқ ҳолатда бўлмайди, ҳовлини табиий ёруғлик билан таъминлаш мақсадида ўнг – айвон ва терс –айвон орасидаги томёпмаларда туйнуклар қолдирилган. Қуёш нурлари бу туйнуклар орқали ўтиб ҳовлининг ёруғ бўлишини таъминлаган.

4-, 5- ва 6-вариантга таалуқли уй типлари камроқ тарқалган бўлиб, бу вариантлар барчасида уйлар икки қаватдан ташкил топган коробкасимон шаклда бунёд этилган. Ҳовли ичи эса худди учинчи вариантдаги сингари махсус қолдирилган туйнуклар ёрдамида ёки ён томондан табиий ёруғлик билан ёритилган.

Тўртинчи вариантга хос бўлган уйлар қурилишида квадрат формаси қабул қилинган. Бу вариантда уй режаси(плани) шундай тузилганки, бунда ҳовлининг тўртала томонига ҳам хоналар қурилган ва улар фақат бир қаватли бўлган. Бу вариантдаги уй типлари Хозараспда ва бошқа кичик шаҳарларда кенг тарқалган ва оммавий равишда қурилган. Ҳовли ўртасига баланд устун ўрнатилган, унинг баландлиги иккинчи қават баландлигига тенг бўлган ва бу устунга тўрт томондан томёпмалар келиб таянган. Бу типдаги уйларнинг ҳовлилари ён томондан яъни каркас деворларнинг юқори очиқ қолдирилган оралиқлари орқали ёритилган.

Бешинчи вариантга хос бўлган уй типлари горизонтал ва вертикал жиҳатдан бир оз бошқача план (режа)да қурилган. Бу вариантда терс –айвон қурилмайди, лекин хоналар устига айвонча кўринишида иккинчи қават тикланади. Агар ҳовли ҳудуди ён томондан хоналар қуриш имконини берса, у ҳолда биринчи қаватга ёпиқ хоналар қурилган улар устига эса галерея кўринишида иккинчи қават қурилган, иккинчи қаватнинг фақат бурчак қисмларига хоналар қурилган. Шу алфозда бу вариантдаги уйлар биринчи қавати учала томондан хоналар билан, иккинчи қавати эса галереялар билан, тўртинчи томон икки қаватдан ташкил топган ўнг –айвон билан қуршаб олинган, ҳовли эса очиқ ҳолатда яъни худди қудуқни эслатувчи кўринишда бўлади.

Ва ниҳоят 6-вариант худди 5-вариант кабидир, фақат бутун ҳовли ҳудуди иккинчи қават сатҳи бўйлаб ёпилган ва ҳовли ён томондан ёритилган. Кўриб чиқилган олтита вариантлар билан танишиб чиқиб, қуйидагича хулосага келиш мумкин: Хива, Хозарасп ва Хоразмнинг бошқа шаҳарларидаги турар –жойлар асосий ячейкасининг аниқ схемаси мавжудлиги аниқландики, бу схемалар ривожлана бориб режалаштириш ва композициянинг алоҳида схемаларини беради. Бу схемалар ҳар бирининг кенг тарқалганлигини шаҳар қурилишининг барча кўринишларида кузатиш мумкин.

Кўпгина шаҳарлардаги уйларда учрайдиган ўхшаш конструктив услубларга батафсил тўхталмасдан Хоразм ўлкаси уйларига хос хусусиятларни мужассамлаштирган икки айвонли ҳовли тизими билан батафсил танишиш мақсадга мувофиқдир. Жуда тиғиз жойлашган ва тўрт томонлама хоналар, ҳамда деворлар билан қуршаб олинган кичик ўлчамли участкаларга тоза ҳавонинг кириши жуда қийин ҳол бўлган, яна устига –устак усти ёпилган ҳовлининг икки айвон томёпмаси орасидаги энсиз полоса ҳаво кириши ва айланишини қийинлаштиради.

Бундай ҳаво айланмайдиган ёпиқ коробкада, айниқса ёзнинг жазирама иссиқ ойларида яшаш амри маҳол бўлган бир вазиятда қурувчилар олдига бундай қийин масалани ечиб бу вазиятдан чиқиб кетиш чорасини топиш вазифаси юклатилган.[3]

Бундай қийин шароитда ҳовлини тоза ҳаво билан таъминлаш, шамоллатиш ва ҳаво конденсациясини амалга ошириш қийин вазифасини улар аъло даражада бажаришди. Бунга улар вертикал шамоллатиш усули орқали эришдилар. Вертикал шамоллатишга бошқа хоналарга нисбатан икки баравар баланд бўлган олди очиқ айвонни шимол томонга ориентациялаб қуриш орқали муваффақ бўлишди. Бунда шимол томонга доимий эсиб турувчи шамол баланд очиқ айвон орқали тўсилади ва шамол ўз йўналишини ўзгартириб ҳовли ичига ҳаракатланади ва шу тариқа тоза ҳаво билан таъминлаш, шамоллатиш, ҳаво оқимини конденсацияси, циркуляцияси давом этади ва шимолга қаратилган томон доимо соя остида бўлади. Вертикал шамоллатишнинг асосий хусусияти ёзги айвоннинг нисбатан икки баравар баланд қурилганлиги ва шимол томонга қаратилганлигидадир.

Asosiy adabiyotlar.

1. Mankovskaya L. Bulatova V. “Pamyatniki zodchestvo Xorezma”. T. G.Gulyama 1978.
2. Bulatov M.S. Geometricheskaya gormanizatsiya v arxitekture Sredney Azii IX-XV vv. Izd.2-oe isp. i dop. M., «Nauka», 1988.
3. Lovrov V.A. “Gradostroitelnaya kultura Sredniy Azii” . M.1950
4. Tolstov S.P. “Drevniy Xorezm” .M. 1948
5. Axmedov M.Q. O`rta Osiyo me’morchiligi tarixi. Toshkent 1995.
6. Axmedov M.K. Arxitekturnie ansambli i voprosi organizatsii gorodskogo prostranstva v srednevekovom zodchestve Sredney Azii «Gradostroitelstvo i arxitektura». Tashkent 1990.

UDK.616

NORKOLOGIK DISPANSER MARKAZLARNING ARXITEKTURAVIY SHAKLLANISHINI ANIQLOVCHI OMILLAR VA ULARNING LOYIHALASHDA QO‘YILADIGAN ASOSIY TALABLAR

Sabirov Yoqubjon Toxirjon o’g’li., Alliyarova Anisa Dauletyar qizi
Toshkent Arxitektura-Qurilish Universiteti. O’zbekiston.

Izox: *maqolada norkologik dispanser markazlarning arxitekturaviy shakllanishini va loyihalashda e’tiborga olish lozim bo’lgan kamchiliklarini tushintirish. Norkologik dispanser markazlarning bosh rejasini qabul qilishda, qurilish tizimiga va uni rivojlantirishning istiqbolli rejasiga mos holda alohida yer maydonida davolash-profilaktika muassasasining barcha binolarini ratsional joylashtirish ko‘zda tutiladi.*

Kalit so‘zlar: *mikro, funksional, radiatsiya, personal, gorizontal, vertikal, magistral, vodoprovod, kanalizatsiya.*

Аннотация: *в статье объясняется архитектурное формирование наркологических центров и недостатки, которые следует учитывать при проектировании. При принятии генерального плана онкологических диспансеров предусматривается рациональное размещение всех корпусов лечебно-профилактического учреждения на отдельном земельном участке в соответствии с системой застройки и перспективным планом его застройки.*

Ключевые слова: *микро, функциональный, радиационный, персональный, горизонтальный, вертикальный, магистральный, водопровод, канализация.*

Abstract: *in the article to explain the architectural formation of drug dispensary centers and the shortcomings that should be taken into account in the design. When accepting the master plan of oncological dispensary centers, rational placement of all the buildings of the treatment-prophylactic institution on a separate plot of land in accordance with the construction system and the prospective plan of its development is envisaged.*

Key words: *micro, functional, radiation, personal, horizontal, vertical, trunk, water supply, sewage.*

Tibbiyot–bemorlarni davolash, kasalliklarni oldini olish va inson jamiyatida sog‘lom xamda ishlash kobiliyatini saklagan xolda uzok umr kurishga erishadigan amaliy faoliyat va inson salomatligini saqlash, mustaxkamlash buyicha ilmiy bilimlar tizimini tashkil kiladi. Inson jamiyati va u bilan birga texnika tarakkiyotiodamning ozining oziga, salomatligiga, dunyo karashiga katta tasir otkazdi. Bu xammasi kasalliklarning kelib chikishi, ularning davolanishi va oldini olishning tushumchalarini o‘zgartira boshladi.[8] Tibbiyot, keyinchalik sog‘liqni saqlash tashkil topishida nafakat anatomiya, fiziologiya, mikrobiologiya, filosofiya, kimyo, fizika, ekonomika, matematikava boshka fanlar rivojlanishi,va xar-xil mamlakatlar tarixi ozgarib rivojlanishi va ularga karab dunyo dinlari va davlat siyosati rivojlanishi katta rol o‘ynagan.[1]

Bosh rejada qabul qilingan qurilish tizimiga va uni rivojlantirishning istiqbolli rejasiga mos holda alohida yer maydonida davolash-profilaktika muassasasining barcha binolarini ratsional joylashtirish ko‘zda tutiladi.

Bunda bemorlarning kasalxonada bo‘lishlari va ularning davolanishlari uchun qulay sharoitlarni ta’minlovchi barcha maxsus arxitekturaviy-qurilish va sanitariya-gigiena talablari, shuningdek, kasallar, personal, bemorlarni ko‘rgani keluvchilar harakatining, shu bilan birga kasallarga xizmat ko‘rsatish va personal mehnatining kerakli tarzda tashkil etilishini ta’minlaydigan oziq-ovqatlar, o‘rin-to‘shak hamda kiyim-kechaklar va boshqalarni tashishning to‘g‘ri va funksional asoslangan sxemasiga rioya qilinishi zarurdir.[5]

Ham shaharlardagi, ham qishloq joylardagi kasalxonalar bosh rejasini tuzishda ma’lum bir qiyinchiliklar mavjud bo‘lib, bular zamonaviy kasalxona murakkab tuzilmaga, bir-biri bilan funksional ravishda bog‘langan o‘z vazifalari va mazmuniga ega bo‘lgan ko‘p sonli elementlarga ega ekanligi bilan tushuntiriladi.

Kasalxonaning loyihalashtirilishiga, xususan bosh rejaning ishlab chiqilishida, bo‘lajak kasalxonaning tashkil etilishi, tuzilmasi va undan foydalanish, shu bilan birga kasalxonalar qurilishiga taalluqli barcha me’yoriy talablarni chuqur o‘rganish bilan bog‘liq bo‘lgan jarayonlar xos bo‘lishi lozimdir.[4]

Agarda reja topshirig‘ida kasalxonaningg kelgusida kengaytirilishi ko‘zda tutilgan bo‘lsa, u holda bu bosh reja ishlab chiqilishida birinchi navbatda qurilishning ajratib ko‘rsatilishi bilan hisobga olinishi kerak.

Kasalxona qurilishidagi va uning kelgusida ekspluatatsiya qilinishidagi sarf-harajatlarni mumkin bo‘lgan darajada kamaytirilishiga erishishga harakat qilish lozim.

Barcha talablarni hisobga olgan holda to‘g‘ri amalga oshirilgan sanitariya-gigiena tadbirlari kasalxona hududida shunday tashqi muhitni yaratishi kerakki, ular bemorning muvaffaqiyatli davolanishiga va tezda sog‘ayib ketishiga yordam berishi zarur.

Bizni o‘rab turgan atrof-muhit (iqlim, mikroiqlim)ning asosiy omillari bo‘lib temperatura, quyosh radiatsiyasi, namlik, havo harakati, ionizatsiya hisoblanadi. Bu omillarning qulay tarzda uyg‘unlashuvi bemor uchun zarur bo‘lgan qulaylikni yaratadi, uningn umumiy holda o‘zini yaxshi his etishiga va shu bilan birga sog‘ayib ketishiga yordam beradi.[6]

Aholi punktlarida keng miqyosda sog‘lomlashtirish tadbirlarini o‘tkazishning umumiy doirasida alohida jiddiy e’tibor kasalxona hududiga qaratilishi kerak.

Kasalxonaning bosh rejasini ishlab chiqishda arxitektor-loyihachining diqqati shunday arxitektruaviy-kompozitsion yechimga qaratilishi lozimki, bu yuqorida aytib o‘tilgan barcha tadbirlarning amalga oshirilishi uchun optimal sharoitlarni yaratishi kerak.

Kasalxona bosh rejasini ishlab chiqishda quyidagilarning erishilishiga harakat qilish zarurdir

a). Binolarning alohida funksional guruhlarini joylashtirishning aniqligi (hududlashti rish);

b). Hududda kasalxona binolarining me'yorlar bo'yicha belgilangan holda g'arb sharq tomonlariga moslikda inshootlarning yo'naltirilganligi, bino-inshootlarning tabiiy yoritilganligi, binolarning yetarli darajadagi insolyatsiyasi va aeratsiyasi hamda yong'in xavfiszligi me'yorlariga mos holda joylashtirilishi;

v). Kasalxona territoriyasida hududlar va alohida binolar orasida, shuningdek, kirib kelish yo'llari, ko'chalar, magistrallar bilan qulay bog'lanishni tashkil etish;

g). Hududning ko'kalamzorlashtirilishi, alohida hududlar o'rtasida umumiy yashil himoya hududi va o'simliklarni, bemorlar uchun bog'larni , davolash va davolash-fizkultura maydonlarini yaratish;

d). Kasalxona hududining aholi punkti umumiy rejalashtirilishi va arxitekturasi bilan arxitekturaviy-rejalashtirish nuqtai-nazaridan bog'lanishi;

e). Hududni rejalashtirishning texnik jihozlanish (vodoprovod, kanalizatsiya, tozalash inshootlari, suv oqib ketuvchi joylar va shu kabi) bilan bog'lanishi.[3]

Hududlashtirish. Kasalxona bosh rejasini ishlab chiqishda territoriyaning hududlarga ajratiilishiga alohida e'tibor berish kerak bo'ladi: kasalxona hududining turli binolar guruhlari orasida ularning funksional vazifalariga ko'ra taqsimlanishi kasalxona hududida mos holdagi gigienik holatni amalga oshirishning muhim bo'g'ini bo'lib sanaladi.

Kasalxona territoriyasi uchta asosiy hududga ajratiladi:

a). Kasalxona korpuslari hududi;

b). Poliklinika, markaziy qabul bo'limi va ma'muriy korpus hududi;

v). Xo'jalik hududi.

Eng yaxshi xorijiy kasalxonalarda territoriyaning atrofidagi himoya hududiga tushadigan maydon ulushi 10-15 nisbatda bo'ladi.

Kasalxona territoriyasining bog'-o'rmon hududi:

1). Umumiy o'rmon-parkdan;

2). Korpuslar oldidagi bog'-o'rmon maydonchalaridan;

3). Yangi korpuslarni qurish (kasalxonani kengaytirish) uchun zahira maydonchalaridan iborat bo'ladi.[2]

Asosiy adabiyotlar

1. С. Разгонов, Василий Иванович Баженов Масква "Искусство" 1985г
2. Арх. П. А. Александров, Канд. Фарм. Наук Н. М. Громова. "Лечебно-вспомогательные отделения больниц общего типа". Масква 1960 г
3. Р. Аллен, И. фан кароли "Пособие по проектированию больницы" Москва Стройиздат 1978 г
4. Писарской Е. Г. "Санатории-профилактории" Москва стройиздат 1984 г
5. Гайсинский А. Я. Горюшин В. А. Полтавцев А. Н. "Больницы руководство по проектированию и оборудованию" москва 1953
6. Архитектор Зусик А. "Архитектура и строительство Узбекистана" 1984 г
7. Архитектор Юсупова М. "Архитектура и строительство" (Институт искусствонания им. Хамзы) Узбекистана 1989 г
8. Дунаевский А. Ю. "Архитектура лечебнқх зданий" Масква 1940 г

